



ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ

www.soliqvahayot.uz



**“СОЛИҚ ВА ҲАЁТ” ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ-ОММАБОП ЖУРНАЛИ
ТАҲРИРИЯТИ ҲАЙЪАТИ ТАРКИБИ**

Таҳририят кенгаши раиси: и.ф.д. Юсупов Кахрамон Ахмедович

Бош муҳаррир: и.ф.д. проф. Курбанов Зият Ниязович

Таҳририят аъзолари:

и.ф.д. Қудбиев Шерзод Давлатович

и.ф.д. проф. Засько Вадим Николаевич (Россия Федерацияси)

и.ф.д. проф. Роздольская Ирина Владимировна (Россия Федерацияси)

ю. ф. д. проф. Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович

т.ф.д.доц. Акбаралиев Бахтиёр Бакирович

и.ф.ф.д. PhD Вассилис Полименис (Греция)

и.ф.н. доц. Эргашев Зафар Тоштургунович

и.ф.д. проф. Тошматов Шухрат Аманович

и.ф.д. проф. Ҳотамов Комил Раббимович

и.ф.д. проф. Қўзиева Наргиза Рамазановна

и.ф.д. проф. Худойқулов Садриддин Каримович

и.ф.д. проф. Исманов Иброҳим Набиевич

и.ф.д. проф. Ўрманов Жаҳонгир Жалолиддинович

и.ф.д. проф. Уразов Комил Бахрамович

и.ф.д. проф. Исаев Фахриддин Икромович

Маъсул муҳаррир: Назаров Абдукарим Кушарович

Веб администратор: Қуйлиев Улуғбек Рашидович



МУНДАРИЖА

| | | |
|---------------------------------------|--|-----|
| Abrorov S.Z. | <i>Barqaror iqtisodiy rivojlanishda “yashil” sukuklarning ahamiyati</i> | 5 |
| Adilova M.T. | <i>Chakana bank xizmatlari auditini rivojlantirish (“O‘ZSANOATQURULISHBANK”ATBda)</i> | 13 |
| Aripov A.S. | <i>Innovatsion to‘lov tizimlari orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish: karta to‘lovlariga chegirma berish modeli</i> | 26 |
| Erkinov D.Y. | <i>O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda “yashil” shaharlarning tutgan o‘rni</i> | 31 |
| Fazliddinova Z.A. | <i>Xitoy GIS sanoatining rivojlanish strategiyalari: texnologik integratsiya va bozor tahlili</i> | 40 |
| Ismatova S.A | <i>Hududlar iqtisodiy raqobatbardoshligini rivojlantirishda ilg‘or xalqaro tajribasi</i> | 48 |
| Ma‘murov B. X. | <i>Hududiy iqtisodiy tizimlarda barqaror rivojlanishni ta‘minlash: raqamli transformatsiya va institutsional mexanizmlar</i> | 56 |
| Mansurov Z. M. | <i>Smart specialization: Yevropa Ittifoqi modeli tajribasi</i> | 64 |
| Misirov K., Aktamov S.A. | <i>Kichik va o‘rta biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi</i> | 69 |
| Najmiddinov Y.F. | <i>To‘qimachilik sanoati korxonalarida iso 50001 standartini joriy qilish majburiyatining emperik tahlili (“TOSHBULOQ TEKS” MCHJ misolida)</i> | 74 |
| Numanova M.L. | <i>Urbanizatsiya va barqaror iqtisodiy rivojlanish: rivojlangan mamlakatlar tajribasi</i> | 85 |
| Nusratilloeva Sh.O. | <i>Ekologik marketing konsepsiyasi va uning yashil iqtisodiyotdagi o‘rni</i> | 92 |
| Xayitova F.B. | <i>Tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalari va ularning tasnifi</i> | 99 |
| Абдибаева Т., Исламов К.С. | <i>Учет финансовых результатов и классификация доходов предприятий</i> | 106 |
| Алимухамедов Б.Б. | <i>Актуальные вопросы создания рабочих мест и совершенствование их учета</i> | 111 |
| Арипов Ж.А. | <i>Рақамли ҳисобот тизимларининг иқтисодий ҳисобдорлик ва шаффофликни оширишдаги ўрни</i> | 123 |
| Бекмухамедова М.И. | <i>Современное состояние и анализ экономического потенциала АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ»</i> | 129 |
| Давранов О. А. | <i>Минтақавий ривожланишда молиявий воситаларнинг роли</i> | 138 |
| Каримов Б. В. | <i>Инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз воситаларидан фойдаланишнинг назарий асослари</i> | 144 |
| Курбанов З. Н. | <i>Молиявий активларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш</i> | 152 |
| Қодиров А.М. | <i>Минтақаларни барқарор ривожланиши шароитида иқтисодий стратегияни шакллантириш муаммолари</i> | 160 |
| Мавланова У. Б. | <i>Роль человеческого капитала в развитии занятости и предпринимательства в условиях инновационной экономики</i> | 169 |

| | | | | |
|--|--|-----------------------------------|----------------------------------|-----|
| Назарова Р.Р., Бекмухамедова М.И. | <i>Перспективные экономического нефтегазовой промышленности</i> | <i>направления потенциала</i> | <i>повышения предприятий</i> | 176 |
| Назметдинова И.Ш. | <i>Развитие экономических методов территориального управления в условиях децентрализации</i> | | | 184 |
| Олимхонова Д.А. | <i>Худудларни рақобат устунликларидан самарали фойдаланишда кластер механизмларини ахмияти</i> | | | 194 |
| Рузиев Ғ.У. | <i>Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш ва энергия ишлаб чиқаришни солиқлар воситасида рағбатлантириш</i> | | | 201 |
| Усмонов А.А. | <i>Ёшлар ташкилотида бошқарув фаолиятини таъминлашда кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг долзарблиги</i> | | | 210 |



BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIL” SUKUKLARNING AHAMIYATI

DSc, dots. Abrorov S.Z.

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. Maqolada global sukuk bozorida so‘nggi tendensiyalar, xususan yashil va ESG asosidagi sukuklarning rivojlanish omillari tahlil qilinadi. Empirik tadqiqotlar natijalari yashil sukuklarning rentabellik, risklarni diversifikatsiya qilish va investorlarni jalb etishdagi ustunliklarini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston uchun yashil sukuk infratuzilmasini shakllantirish yo‘nalishlari va milliy barqarorlik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil sukuk, ESG, barqaror moliya, islomiy kapital bozori, O‘zbekiston.

Аннотация: В статье рассматриваются последние тенденции мирового рынка сукуков, особенно развитие «зелёных» и связанных с ESG сукуков. Эмпирические исследования показывают их преимущества в доходности, диверсификации рисков и привлечении инвесторов. Также предложены направления формирования инфраструктуры «зелёных» сукуков в Узбекистане и её согласование с национальными целями устойчивого развития.

Ключевые слова: зелёные сукуки, ESG, устойчивая финансы, исламский рынок капитала, Узбекистан

Abstract: This article analyzes the recent trends in the global sukuk market, with a particular focus on the development drivers of green and ESG-linked sukuk. Empirical findings highlight the advantages of green sukuk in terms of profitability, risk diversification, and investor attraction. Furthermore, the paper outlines policy recommendations for establishing a green sukuk infrastructure in Uzbekistan, aligning it with the country’s sustainable development objectives.

Keywords: green sukuk, ESG, sustainable finance, Islamic capital market, Uzbekistan

1. Kirish.

2023-yil yakunida global Sukuk bozori sezilarli o‘shishga erishdi. Qisqa muddatli hamda uzoq muddatli Sukuk emissiyalari hajmining ortishi ushbu bozorning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Yil yakuni bo‘yicha jami o‘shish 16 foizni tashkil etib, bu 212 milliard AQSh dollariga teng bo‘ldi. O‘shishning asosiy sabablari sifatida turli iqtisodiy tarmoqlarda emissiyalarning ko‘payishi, turli yurisdiksiyalarda risklarni kamaytirishga bo‘lgan talabning kuchayishi va bozorlarda yuqori talab kuzatilgani qayd etiladi. Bozor ishtirokchilari tomonidan chiqarilgan ko‘plab sukuklar yuqori talab ostida sotilgan bo‘lib, bu holat ichki va xalqaro bozorlarda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Islom Moliya Xizmatlari Kengashining (IFSB) Stability Report 2023 hisobotiga ko'ra, Islom sanoati umumiy hajmi 2023-yilda 3,38 trillion AQSh dollariga baholangan. Shu jumladan, Islom kapital bozorining asosiy instrumenti sifatida sukukning o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. IIFM Sukuk hisobotida qayd etilishicha, 2023-yilda global muomaladagi sukuk hajmi 842 milliard dollarni tashkil etib, bu sanoatning sof aktivlarining deyarli 25 foiziga tengdir.

Davlat sukuk emissiyalari global bozorning asosiy drayveri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, avval chiqarilgan sukuklarning qayta moliyalashtirilishi va yangi emissiyalarda davlatlarning faol ishtiroki bozor barqarorligini ta'minlamoqda. Bundan tashqari, sukuk bozori yangi emitentlar va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillariga asoslangan emissiyalarning ortishi hisobiga ham kengaymoqda. Afrikaning ayrim mamlakatlaridan amalga oshirilayotgan yangi emissiyalar ham bozor diversifikatsiyasiga xizmat qilmoqda. Investorlar bazasining kengayishi esa barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda sukuk moliya institutlari va korporatsiyalar uchun umumiy maqsadlarga erishish, kapital yetarliligi, loyiha moliyalashtirish, byudjet va fiskal majburiyatlarni bajarish, likvidlikni boshqarish kabi vazifalarda samarali moliyaviy vosita sifatida shakllanmoqda. Turkiya, Indoneziya, Pokiston, Malayziya kabi mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlari qisqa muddatli sukuklardan faol foydalanmoqda.

Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarining qo'shilishi "yashil", "barqaror" va ijtimoiy Sukuklarning rivojlanishiga turtki bermoqda. Korporatsiyalar va kichik biznes subyektlari qishloq xo'jaligi, texnologiya, ishlab chiqarish, energiya, transport infratuzilmasi kabi yo'nalishlarda sukukdan foydalanmoqda. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanib emissiya jarayonini soddalashtirish va ikkilamchi bozorda savdoni rivojlantirish ham ijobiy o'zgarishlardan biridir. 2024-yilda ham bozor ijobiy tendensiyani saqlab qolishi kutilgan edi. Bu borada aniq ma'lumotlarni tegishli hisobot chop etilgandan keyin qiyoslash imkoniyati bo'ladi.

2.Adabiyotlar sharhi.

"Yashil" sukuklar – bu atrof-muhitga foydali loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan, islom moliyasining obligatsiyalarga muqobil vositasi sifatida maydonga kelgan yangi instrumentdir. Felicia H.M. Liu va Karen P.Y. Lai (2021) o'z tadqiqotlarida Malayziyada 2017-yildan buyon joriy etilgan yashil sukuklar rivojini tahlil qilib, bunday moliyaviy vosita "xalqaro yashil obligatsiyalar rejimi" tamoyillaridan va Malayziyaning islomiy moliyadagi tajribasidan foydalanib yo'lga qo'yilganini ko'rsatadilar. Bu yondashuv Malayziyaning global islomiy moliya markazi sifatida raqobatdoshligini oshirishga xizmat qilgani holda, mavjud yashil obligatsiyalar tamoyillariga to'la tayanganlik tufayli "yashil moliya"dagi ayrim ziddiyatlarni ham keltirib chiqargan. Xususan, xalqaro tamoyillarning qabul qilinishi yashil sukuklarning jahon bozorida keng qabul qilinishini osonlashtirgan bo'lsa-da, u ularni "greenwashing" – ya'ni faqat nomigagina yashil bo'lish xatariga ham moyil etadi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, Malayziya misolida yashil sukuklar davlatning innovatsion moliya orqali rivojlanish maqsadlariga erishishiga yordam bergan, biroq iqlim o'zgarishi bilan bog'liq real ta'sirini kuchaytirish uchun ularni amaldagi yashil obligatsiyalar tizimini takomillashtirishga xizmat qildirish zarur.

Yashil sukuklar bozoridagi moliyaviy jarayonlar va ularning an'anaviy moliyaviy instrumentlarga nisbatan o'ziga xosligi bir qator empirik tadqiqotlarda o'rganilgan. Eunkyong Lee va boshqalar (2025) Malayziya bozorida yashil sukuklar va odatiy yashil obligatsiyalarning rentabellik ko'rsatkichlarini solishtirib, ularning bozor samaradorligini qiyosiy tahlil qildilar. Uzoq yillik ma'lumotlar tahlili natijasida, yashil sukuklar bo'yicha o'rtacha daromadlar yashil obligatsiyalarnikidan sezilarli ravishda yuqori ekani aniqlangan. Bu yashil sukuklar investorlarga yuqoriroq daromad taklif etishi va shu tariqa ushbu ikki turdagi "yashil" moliyaviy instrumentlar bozorda alohida segmentlar sifatida harakat qilishini ko'rsatadi. Bunda Granger sababiy bog'liqlik testi ular orasida o'zaro sabab-oqibat aloqasi yo'qligini

tasdiqlab, yashil sukuklar va yashil obligatsiyalar bir-biridan mustaqil instrumentlar ekanligini isbotlagan. Demak, yashil sukuklar bozorida shakllangan risk va daromad profili an'anaviy yashil obligatsiyalar bozorida farq qiladi, bu esa moliyaviy tartibga soluvchilar hamda investorlarga har ikkala bozordagi dinamikani alohida e'tiborda tutish lozimligini anglatadi.

Investorlar nuqtai nazaridan, Tabassum Riaz va boshq. (2024) tadqiqoti yashil sukuklarni chiqarish e'lonlari bozor tomonidan qanday qabul qilinishini o'rgandi. Ular Malayziyada kompaniyalar tomonidan chiqarilgan korporativ yashil sukuklar e'lon qilingan kuni ushbu kompaniyalarning aksiyalari ijobiy ortiqcha daromad (abnormal return) ko'rsatganini aniqlagan. Jarayon tahlili metodidan foydalangan holda, ushbu ijobiy o'zgarish statistik jihatdan ahamiyatli ekani tasdiqlandi, ya'ni investorlar yashil sukuk chiqarilishini kompaniyaning barqaror va ijobiy tashabbusi sifatida baholashadi. Qiziqarlisi shundaki, mualliflar xuddi shunday hodisani korporativ yashil obligatsiyalar chiqarilishi uchun ham kuzatib, solishtirganda yashil sukuk yangiliklariga bozor reaksiyasi biroz kuchliroq bo'lib, yashil sukuklar e'lonlari aksiyadorlarga biroz ko'proq foyda keltirgani ma'lum bo'ldi. Bu natijalar bozor ishtirokchilari uchun shuni anglatadiki, shariat tamoyillariga mos holda chiqariladigan ekologik obligatsiyalar (yashil sukuklar) investorlarda yuqori ishonch uyg'otib, ularni jalb etish borasida hatto odatiy yashil obligatsiyalardan ustunroq samara berishi mumkin.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar ESG mezonlari (Environmental, Social, Governance)ning Islomiy moliya instrumentlariga, xususan sukuklarning rentabelligiga ta'siriga ham e'tibor qaratmoqdalar. Ken Hou Low va boshq. (2025) bir necha davlatlarda (Saudiya Arabistoni, BAA, Turkiya, Malayziya, Indoneziya) olib borgan tadqiqotida, kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlari yuksak bo'lishi sukuklar va odatiy obligatsiyalarning premiya (yeild spread)larini sezilarli ravishda kamaytirishini aniqladi. 2008-2022 yillar davomidagi 744 ta obligatsiya va sukuklar bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, mualliflar barqarorlikning yuqori darajasi moliyalashtirish xarajatlarini pasaytirishini ko'rsatib berdilar. Shuningdek, tadqiqotda investitsiya muddatining uzoq-yoki qisqaligi ESG ta'sirining kuchiga o'zgaruvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, investorlar qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbolda ESG omillariga turlicha munosabatda bo'lishi kuzatildi. Ushbu topilmalar ESG tamoyillari joriy etilishi korporativ qarz instrumentlarining narxlanishiga ijobiy ta'sir qilishi va shu orqali kompaniyalar uchun kapital qiymatini pasaytirishi mumkinligini ilmiy asoslab berdi. Demak, yashil va ijtimoiy mas'uliyatli tashabbuslarni amalga oshiruvchi korxonalar sukuk chiqarish orqali ham o'zlariga qulayroq shartlarda mablag' jalb qilishlari mumkin.


Hozircha Markaziy Osiyo davlatlarida yashil sukuklar amaliyoti keng tarqalmagan bo'lsa-da, mintaqa tadqiqotchilari sukuk bozorining rivojlanish omillarini o'rganishni boshlaganlar. Alam Asadov (2024) o'tkazgan tadqiqot bevosita O'zbekistonda sukuklarga bo'lgan talab va uni shakllantiruvchi omillarni tahlil qiladi. 196 nafar potensial investorlardan olingan so'rov ma'lumotlariga asoslangan ushbu empirik tadqiqot natijasida sukuklar bo'yicha bilim va xabardorlik, ilgari investitsiya qilgan tajriba hamda shariatga muvofiq moliyaviy vositalarga qiziqish kabi omillar O'zbekistonda sukuk sotib olishga bo'lgan intilishni sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Aksincha, Toshkent shahrida yashovchilar boshqa viloyatlardagilarga qaraganda sukukka kamroq qiziqish bildirish tendensiyasiga ega bo'lib, poytaxt aholisi uchun mavjud muqobil investitsiya imkoniyatlari bunday farqqa sabab bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Muallif mamlakatda islomiy kapital bozorini rivojlantirish uchun aholini moliyaviy savodxonligini oshirish, sukuk instrumentlarini tushuntirish va shariatga mos investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha bir qator tavsiyalar beradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan musulmon davlatlarida sukuk chiqarish bo'yicha ichki talabni shakllantirish uchun aholi orasida moliyaviy bilim va diniy e'tiqod omillari muhim rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, kelgusida yashil sukuklarni ham mamlakatda joriy etish hamda ularni muvaffaqiyatli joylashtirish uchun zarur bo'lgan omillar qatoriga kiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ushbu ma'lumotlar islom moliyasi, moliyaviy tendensiyalar, axloqiy moliya, texnologik yutuqlar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga asoslanadi. Statistik tahlil, ilmiy abstraksiyalash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.


4. Tahlil va natijalar.

2023-yilda jahon miqyosda chiqarilgan sukuklar umumiy hajmi 212 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va yillik emissiyaning yuqori darajaga yetkazdi. Bu esa sukuk instrumentiga talab ortib borayotganini aks ettiradi. Quyidagi 1-rasmda keltirilganidek, 2023-yilda global sukuk emissiyasi hajmi 2022-yildagi 182,7 milliard dollardan 212 milliard dollarga yetib, yiliga o'rtacha 16 foizlik o'sishni qayd etdi. Bu o'sish asosan Osiyo, Fors ko'rfazi mamlakatlari (GCC), Afrika va boshqa ayrim hududlardagi suveren sukuk emissiyalari hisobiga ta'minlandi. Xususan, Malayziya umumiy sukuk bozori hajmida yetakchilikni saqlab qoldi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni va Indoneziya tomonidan chiqarilgan sukuklar hajmi ham barqaror o'sish sur'atlarini saqlagan holda sezilarli darajada ko'paydi. Bahrayn, Turkiya, Afrika mintaqasi kabi boshqa davlatlar tomonidan ham sukuk emissiyasi muntazam amalga oshirilmoqda. Bu esa global sukuk bozorining geografik jihatdan tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.



1-rasm. Sukuk emissiyasi hajmi dinamikasi (IIFM, 2024)

“Yashil” sukuklar – bu shariat talablariga mos, ekologik toza loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan innovatsion moliyaviy instrument bo'lib, barqaror va “yashil” kelajak sari muhim qadam hisoblanadi. Dastlabki “yashil” sukuk 2017-yilda Malayziyaning Tadau Energy kompaniyasi tomonidan, so'ng esa 2018-yilda Indoneziya tomonidan suveren ko'lamda chiqarilgan. Shundan so'ng, ushbu instrumentga qiziqish sezilarli darajada ortdi. 2023-yilda umumiy qiymati 13,4 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan barqaror sukuk emissiyasi amalga oshirildi (ICMA, 2024), bu esa 2022-yildagi 9,4 milliard dollar bilan solishtirganda sezilarli o'sishni anglatadi (2-rasm).



2-rasm. Yashi va barqaror sukuk emissiyasi hajmi (mln. AQSh dollari) (IIFM, 2024)

COP28 sammiti arafasida Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tomonidan 3,9 milliard dollarlik mablag' yig'ilishi hamda ushbu mablag'larning barqaror infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgani e'tiborga molikdir (LSEG, 2023). COP27 va COP28 kabi xalqaro yig'ilishlar islomiy moliya sohasiga kuchli turtki berdi va barqaror moliyalashtirish zaruratini yana-da ochib berdi. Ayniqsa COP28dan so'ng yashil sukuk emissiyasida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu tendensiya islomiy moliyaning barqarorlik yo'nalishidagi faolligini ko'rsatadi.


Bugungi kunda Yaqin Sharq, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada sukuk emissiyasi hajmi ortib borayotgani islom moliyasining axloqiy va Shariatga muvofiq moliyaviy vosita sifatida xalqaro miqyosda qabul qilinayotganidan dalolat beradi. Bu holat an'anaviy moliyaviy modellardan muqobil, ijtimoiy ahamiyatga molik instrumentlar sari og'ishayotgan global tendensiyani aks ettiradi.

Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya va Saudiya Arabistoni tomonidan amalga oshirilayotgan milliy tashabbuslar ekologik barqarorlikni moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilishdagi yetakchilikni ko'rsatmoqda. Jumladan, BAAning Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit vazirligi boshchiligida ishlab chiqilgan Barqaror moliya doiraviy hujjati federal va mahalliy strategiyalar orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan (UAE MOCCA, 2021).

2023-yil dekabr oyida BAA Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan "BAAda islomiy moliyaning barqarorlikka qo'shgan hissasi" haqidagi hisobot mamlakatdagi islomiy moliyaviy institutlarning barqaror moliyalashdagi rolini ko'rsatadi (Central bank of UAE, 2023).

2024-yil fevralida Dubay Islomiy Banki tomonidan chiqarilgan 1 milliard dollarlik Barqaror Sukuk mamlakatning "Net Zero" maqsadlariga va Dubay toza energiya strategiyasiga xizmat qiladi (Neesha Salian, 2024). Bu holat islomiy moliya tamoyillari asosida ESG (atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv) mezonlariga mos loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini amalda namoyon etadi.

Yashil sukuklar va loyihalarni moliyalashtirishdan tashqari, BAAda "Ruya" nomi ostida raqamli islomiy bankning litsenziyalanishi ham sohada innovatsion siljish sifatida qaralmoqda (Nair, 2024). Bu yangi bank texnologiyalar va Shariat tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda, aholi va kichik biznes ehtiyojlarini qamrab olishga va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan.



3-rasm. Yashil va barqaror sukuk emissiyasi mamlakatlar kesimida (2017-2023, mln. AQSh dollari) (IIFM, 2024)

Saudiya Arabistonining “Green Initiative” tashabbusi esa Atrof-muhitni muhofaza qilish va “Sirkulyar uglerod iqtisodiyoti” (Circular Carbon Economy) konsepsiyasi doirasida barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi (saudigazette, 2024). Bu tashabbus Saudiya Arabistonining uzoq muddatli ekologik maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lib, iqlim o‘zgarishiga qarshi faol chora-tadbirlar ko‘rishni ta‘minlaydi.

Saudiya elektr energiya kompaniyasi (SEC) tomonidan 5, 10 va 30 yillik sukuklar orqali umumiy 2,2 milliard dollarlik mablag‘ jalb qilindi (Spa.gov.sa, 2023).

Yashil sukuklar emissiyasida yetakchi rol o‘ynayotgan yirik tashkilotlardan biri – Islom Taraqqiyot Banki (IsDB)dir (3-rasm). Bankning strategik moliyaviy tashabbuslari kambag‘allikni kamaytirish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, boshqaruv sifatini oshirish va iqtisodiy taraqqiyot kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. IsDB har bir a‘zo davlatning rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olib, BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDG) muvofiq yondashuvni qo‘llaydi.

2003-yildan beri sukuk bozori ishtirokchisi sifatida IsDB tomonidan 20 milliard dollardan ortiq mablag‘ yig‘ilgan bo‘lib, bu ijtimoiy javobgar investitsiyalarni ilgari surishga xizmat qilgan. COP28 doirasida ICMA (Xalqaro Kapital Bozor Assotsiatsiyasi) va London Fond Birjasi (LSEG) bilan hamkorlikda yashil, ijtimoiy va barqaror sukuklar bo‘yicha yangi yo‘riqnomalar ishlab chiqildi. Ushbu yo‘riqnomalar sukuk emissiyalarini ekologik va ijtimoiy ta‘siri bo‘yicha to‘g‘ri tasniflashni ta‘minlab, ICMA tamoyillariga muvofiqligini kafolatlaydi. Bunday tashabbuslar orqali IsDB barqaror sukuk bozorining rivojiga turtki bo‘lib, islomiy moliyaning global moliyaviy tizimdagi rolini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

COP28’dan so‘ng Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) guruhi tarkibidagi Islomiy Xususiy Sektor Taraqqiyot Korporatsiyasi (ICD) tomonidan 500 million AQSH dollar miqdorida sukuk emissiyasining amalga oshirilgani, a‘zo mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan izchil sa‘y-harakatlarning yaqqol dalilidir. Mazkur yo‘nalishda ICD tomonidan Misr bankiga 30 million dollarlik moliyalashtirish liniyasining taqdim etilishi kichik va o‘rta korxonalarni (SME) qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbusdir (Team, 2024).

IsDB guruhiga qarashli yana bir muhim institut — Investitsiyalar va Eksport Kreditlarini Sug‘urtalash bo‘yicha Islomiy Korporatsiya (ICIEC) faoliyati oddiy sug‘urtadan tashqariga

chiqib, barqaror moliya va iqlim barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarini ham qamrab olmoqda. Masalan, u Abu-Dabi asosidagi Masdar kompaniyasi bilan hamkorlikda a'zo mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlamoqda. Shuningdek, ICIEC "Suveren sukuk sug'urtasi" mahsulotini joriy qilgan bo'lib, a'zo davlatlar tomonidan chiqarilgan sukuklarni xalqaro kapital bozorida moliyalashtirish imkonini beradi. Bu dastur "Standart sukuk sug'urtasi" va "Yashil sukuk sug'urtasi" kabi turli mahsulotlarni qamrab oladi. Ushbu sug'urta vositalari infratuzilma, savdo va barqaror rivojlanish loyihalarini kredit xavflaridan himoya qiladi.

Yakunda aytish mumkinki, yashil sukuk islomiy moliyada transformatsion yangilik bo'lib, u iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim yechimdir. COP28dan keyingi davrda sukuk emissiyasining keskin ortgani islomiy moliyaga global e'tibor va ishonch ortib borayotganidan darak beradi. BAA, Malayziya va Saudiya Arabistonining milliy tashabbuslari ekologik barqarorlikni moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiyalash borasidagi ilg'or yondashuvlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, IsDB va ICIEC kabi institutlar a'zo davlatlarda va keng islomiy moliya bozorida barqaror taraqqiyotning asosiy drayverlariga aylanib bormoqda.

5. Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda global sukuk bozori barqaror o'sishni namoyon etdi. ESG mezonlari esa yangi emissiyalar va investorlar bazasining diversifikatsiyasiga kuchli turtki berdi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun bir nechta amaliy xulosalarni beradi. Birinchidan, huquqiy-institutsional baza mustahkamlanishi zarur: sukuk turlari va SPV mexanizmlarini aniq belgilash, milliy "yashil taksonomiya" hamda IsDB qo'llanmalariga mos me'yoriy yo'riqnomalarni joriy etish, Milliy Shariat kengashi va mustaqil verifikatorlar (SPO) reyestrini shakllantirish lozim. Ikkinchidan, davlat yoki kvazidavlat pilot "yashil" sukuk emissiyasi, ICIEC kafolatlari va kross-listing orqali talab bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq. Uchinchi yo'nalish — "greenwashing" xatarini kamaytirish uchun ta'sir ko'rsatkichlari bo'yicha muntazam va auditdan o'tgan hisobotlar talab etilishi, aholining moliyaviy savodxonligi va investorlar bilan kommunikatsiya kuchaytirilishi zarur.

Mazkur choralar uyg'unligi O'zbekistonda islomiy kapital bozorini chuqurlashtiradi, iqlim va barqarorlik maqsadlariga mos investitsiyalarni safarbar etadi hamda inklyuziv "yashil o'sish" uchun zarur moliyaviy platformani yaratadi.

Adabiyotlar:

Asadov, A. (2024). *Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan*. *Economies*, 12(8), 220. <https://doi.org/10.3390/economies12080220>

Billah, S.M., & Adnan, N. (2024). *Navigating environmental concerns and geopolitical risks: A study on green sukuk and Islamic equities amid climate crisis and the Russia-Ukraine conflict*. *Energy Strategy Reviews*, 53, <https://doi.org/10.1016/j.esr.2024.101372>

Central bank of UAE (2023). UAE ISLAMIC FINANCE REPORT 2023: The Year of Sustainability. www.centralbank.ae/media/52fdsod3/cbuae-uae-islamic-finance-report.pdf

ICMA (2024). *Guidance on Green, Social and Sustainability Sukuk*

IIFM (2024) *Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market*. International Islamic Financial Market, August, 132th edition. p25.

Lee, E., Kim, J.Y., & Lee, Y. (2025). *A comparative analysis of green sukuk and green bonds*. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 17. <https://doi.org/10.1108/IMEFM-12-2024-0609>

Liu, F.H.M., & Lai, K.P.Y. (2021). *Ecologies of green finance: Green sukuk and development of green Islamic finance in Malaysia*. *Environment and Planning A: Economy and Space*, 53(8), 1896–1914. <https://doi.org/10.1177/0308518X211038349>

Low, K.H., Md Noman, A.H., & Wan Ahmad, W.M. (2025). *The Influence of ESG Performance on Yield Spreads: A Comparative Study of Sukuk and Conventional Bonds in Emerging Dual Financial Systems*. *Sustainability*, 17(8), 3547. <https://doi.org/10.3390/su17083547>

LSEG Data & Analytics, UKIFC, & GEFI. (2023). *Green and Sustainability Sukuk Update 2023: Financing a Sustainable Future*.

Nair, M. (2024). *UAE's new Islamic digital bank 'ruya' set for launch, headquarters in Ajman*. [online] Gulf News: Latest UAE news, Dubai news, Business, travel news, Dubai Gold rate, prayer time, cinema. Available at: <https://gulfnews.com/business/banking/uaes-new-islamic-digital-bank-ruya-set-for-launch-headquarters-in-ajman-1.101353542>

Neesha Salian (2024). *DIB raises \$1bn for ESG projects with 3rd sustainable sukuk*. [online] Gulf Business. Available at: <https://gulfbusiness.com/dubai-islamic-dib-issues-3rd-sustainable-sukuk>.

saudigazette (2024). *Saudi Arabia launches green financing framework to advance sustainability goals*. [online] Saudigazette. Available at: <https://saudigazette.com.sa/article/641622>

Spa.gov.sa. (2023). *Saudi Electricity Company Raises \$2.2 Billion from Dual-Tranche Sukuk Offering*. [online] Available at: <https://spa.gov.sa/en/N2043070>

Team, E. (2024). *ICD and Banque Misr Partner for \$30 Million Financing Line to Boost Egyptian SMEs - TechAfrica News*. [online] TechAfrica News. Available at: <https://techafricanews.com/2024/02/21/icd-and-banque-misr-partner-for-30-million-financing-line-to-boost-egyptian-smes>

UAE MOCCA (2021). *UAE Sustainable framework 2021-2031*. (moccae.gov.ae)



CHAKANA BANK XIZMATLARI AUDITINI RIVOJLANTIRISH (“O‘ZSANOATQURULISHBANK” ATBDA)

PhD, dotsent **Adilova M.T.**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Annotatsiya. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlari omonat, kredit, to'lov-hisob operatsiyalari, POS-terminal va mobil hamda internet-bank xizmatlari aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish hamda korxonalar va uy-xo'jalik sub'yektlariga sarmoya va kredit resurslarini yetkazib berishda markaziy o'rin tutadi. Shu bois, ushbu xizmatlarning hisob va auditini standartlashtirish va takomillashtirish banklar operatsion samaradorligi, moliyaviy barqarorligi hamda ishonchliligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim vazifa hisoblanadi. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlari jismoniy va yuridik shaxslarga banklar tomonidan ko'rsatiladigan eng asosiy xizmat turlaridan hisoblanadi, shuning uchun ham ushbu sohaga berilayotgan e'tibor va islohotlar bugungi kunda uning zamon bilan hamnafasligini ta'minlab bermoqda. Dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab banklarda chakana xizmatlari bo'yicha islohotlar olib borish boshlangan.

Kalit so'zlar: chakana bank xizmatlari, to'lov-hisob operatsiyalari, POS-terminal, mobil va internet-bank, raqamli bank, ichki va tashqi audit, ichki nazorat, risklarni boshqarish, kiberxavfsizlik, data analitika.

Аннотация. В условиях современной цифровой экономики розничные банковские услуги вклады, кредитование, расчётно-платёжные операции, обслуживание через POS-терминалы, мобильный и интернет-банк занимают центральное место в удовлетворении финансовых потребностей населения и в обеспечении предприятий и домохозяйств инвестиционными и кредитными ресурсами. Поэтому стандартизация и совершенствование учёта и аудита этих услуг являются ключевой задачей с точки зрения операционной эффективности, финансовой устойчивости и надёжности банков. В коммерческих банках розничные услуги относятся к основным направлениям обслуживания физических и юридических лиц; внимание к данной сфере и проводимые реформы обеспечивают её актуальность и соответствие требованиям времени. Согласно мировой практике, начиная со второй половины XX века, в банках последовательно проводятся реформы именно в области розничного обслуживания.

Ключевые слова: розничные банковские услуги, расчётно-платёжные операции, POS-терминал, мобильный и интернет-банк, цифровой банк, внутренний и внешний аудит, внутренний контроль, управление рисками, кибербезопасность, дата-аналитика.

Abstract. In today's digital economy, retail banking services deposits, lending, payment and settlement operations, POS-terminal acquiring, and mobile and internet banking, play a central role in meeting households' financial needs and in channeling investment and credit resources to firms and households. Accordingly, standardizing and improving the accounting and audit of these services is critical to ensuring banks' operational efficiency, financial stability, and reliability. In commercial banks, retail services constitute core offerings for individuals and corporates; focused


policy attention and ongoing reforms are keeping this domain aligned with the times. International experience shows that since the second half of the twentieth century, reforms in banks have increasingly targeted retail services.

Keywords: retail banking services, payment and settlement operations, POS terminal, mobile and internet banking, digital banking, internal and external audit, internal control, risk management, cybersecurity, data analytics.

1. Kirish.

Dunyo bo'ylab tijorat banklarida chakana hizmatlar tez sur'atlar bilan raqamli platformalarga o'tmoqda. Masalan, 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida naqd puldan foydalanish 30% ga kamaygan, mobil va onlayn to'lovlar esa 70% dan ortiq mijozlar tomonidan afzal ko'rilmoqda. Bu ham o'z navbatida tijorat banklarida chakan to'lov hizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshishiga olib keladi.

Umuman olganda jahon tajribasini o'rgangan holatda hamda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanish uchun mamlakatimizning tijorat banklarida chakana hizmatlar tizimini tubdan isloh qilish ahamiyati banklarda iqtisodiy samaradorlikka erishishda raqamlashtirishning ahamiyati ortib borayotganini hisobga olgan holatda mamlakatimizda ham ushbu sohada bir qator islohotlar olib borilmoqda. So'ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar hamda strategic rejalaraning ustuvor yo'nalishi sifatida tijorat banklarida chakana hizmatlarning salmog'ini oshirish va bu orqali raqobatbardoshlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishinging dolzarbliligini va ahamiyatini so'ngi yillarda qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari bilan ham izohlashimiz mumkin. Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratish borasida bir qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son farmonida "Tijorat banklarida chakana hizmatlar va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim hamda ularning audit tizimini xalqaro standartlarga mos bo'lgan darajaga olib chiqish" masalalari ko'rib chiqilgan.



1-rasm. 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo'nalishlari

2020-2025-yillarga mo'ljallangan ushbu strategiyaning amaldagi ifodasini so'ngi 4-5 yillikda ko'rib kelmoqdamiz. Mamlakatimiz tijorat banklarida jahon standartlariga mos

keluvchi milliy chakana xizmatlarning shakllanganligini va yanda rivojlanishda ekanligini ko'rib turibmiz. Bank tizimini isloh qilish strategiyasi bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan edi va amalda o'zining ijobiy ifodasini topdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvining (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-noyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3337) 2021-yil 18-noyabrdagi "Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi (Basel Committee on Banking Supervision, 2012) 20/3-son qarorida hamda O'zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvining (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3302) 2021-yil 16-apreldagi "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (COSO, 2013) 3/2-son qarorlarida ham ushbu mavzuning dolzarbli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2. Adabiyotlar sharhi.

Chakana bank xizmatlari auditi bo'yicha ilmiy maktab uch asosiy yo'nalishda shakllangan: riskga asoslangan auditning metodologik tamoyillari, bank boshqaruvi va ichki nazoratning institutsional modeli hamda raqamli transformatsiya sharoitida dalillar bazasini kengaytiruvchi ma'lumotlarga tayanuvchi yondashuvlar.

Nazariy-metodologik qatlamda Knechel riskga asoslangan auditda xo'jalik yurituvchi subyekt muhitini chuqur tushunish va biznes modelini risk xaritasi bilan bog'lash audit rejalashtirishning markaziy sharti ekanini ta'kidlaydi.

Eilifsen va Messier (2013) Xalqaro audit standartlari (xususan, XAS 315 va XAS 330) ruhida nazorat dizaynini sinovdan o'tkazish va substantiv testlarni risk profiliga mos modulyatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Power (2007) "audit jamiyati" konsepsiyasida auditning faqat muvofiqlikni emas, balki tavakkalni boshqarish va hisobdorlik me'yorlarini ham shakllantiruvchi ijtimoiy institut ekanini asoslaydi, bu yondashuv chakana segmentda "tezlik - sifat - xavfsizlik" murosasini rejalashtirishga ilmiy asos beradi.

Normativ-hisob siyosati adabiyotida IFRS 9 talablari chakana kreditlar bo'yicha kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL)ni modellar jarayonida audit dalillarining sifatini tubdan oshirishni taqozo etadi.

Porter va Turley (2018) "kutilmalar tafovuti" muammosini bank amaliyotida aynan kredit risk modellariga doir boshqaruv baholari va oshkor etish amaliyotlari bilan bog'laydi. Bu o'z navbatida, auditorning dalillash strategiyasida modellarining sezgirlik (sensitivity) va barqarorlik (stability) testlarini majburiy qo'shishni talab etadi.

Umuman olganda, olimlar fikri va amaliy standartlar uyg'unligi chakana bank auditi uchun quyidagi yo'lni belgilaydi. Riskga asoslangan rejalashtirish (Knechel, Eilifsen, Messier), institutsional mustahkamlik va mustaqil ichki audit (Sawyer, Moeller, IIA, Basel), raqamli dalillar va uzluksiz audit (Vasarhelyi, Alles & Kogan, Van der Aalst), hamda IFRS 9 va mahsulot dizayni - hisob dvigateli mosligini sinovdan o'tkazish (Porter, Turley). O'zsanoatqurulishbank ATB misolida bu yondashuv auditni strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi, kredit sifati, to'lov infratuzilmasi barqarorligi va mijoz tajribasini yaxshilash bilan birga, audit resurslarini risk boshqaruviga mos optimallashtirishni ham ta'minlaydi.

3. Tadqiqot metadologiyasi.

Metodologiya riskga asoslangan ichki audit yondashuvi va jarayon markazli tahlilga tayangan holda ishlab chiqildi. Avvalo chakana mahsulotlar va operatsion oqimlar SIPOC hamda value-stream xaritalash yordamida hujjatlashtirildi, nazorat nuqtalari aniqlanib, COSO komponentlari bo'yicha dizayn mosligi baholandi. Bank darajasidagi risk-reyestr RCSA (risk va nazoratlarni o'z-o'zini baholash) sessiyalari orqali yangilandi; ehtimollik va ta'sir ko'rsatkichlari bo'yicha balli baholashdan so'ng issiqlik xaritasi tuzildi va ustuvor jarayonlar belgilandi.

Dalillarni yig'ish va tekshirishda bir nechta komplementar metodlardan foydalanildi. Muvofiqlik sinovlari uchun atribut namunalash tatbiq etilib, tanlanma hajmi oldindan belgilangan xatolik darajasi va ishonch oralig'iga ko'ra hisoblandi. Pul qiymatiga sezgir og'ishlarni aniqlashda MUS/PPS namunalash qo'llanib, komissiya va foiz daromadlari tan olinishi, rekonsilyatsiya tafovutlari va qayta yozuvlar qamrab olindi. Nazorat dizaynini tekshirishda walkthrough va nazorat punktlarining reperformansi, operatsion samaradorlikni baholashda qayta hisob-kitob, kuzatish va qayta bajarish usullari qo'llandi; intervyu va hujjat ko'rib chiqish triangulyatsiya uchun majburiy bo'g'in sifatida kiritildi.

Ma'lumotlarga asoslangan audit analitikasi alohida blok sifatida ishlatildi. Trend va nisbiy ko'rsatkichlar tahlili, kohort tahlil, dublikatlarni aniqlash, g'ayrioddiy naqshlarni topish, Benford qonuni, "keyingi kun" rekonsilyatsiyasi va SLA og'ishlari monitoringi asosiy vositalar bo'ldi. Kutilmagan anomaliyalar uchun z-ball va percentil filtrlari orqali istisnolar ro'yxati shakllantirildi; chargeback va shikoyatlar oqimida ildiz sababni aniqlash 5-Why va Ishikava usullari bilan bajarildi. IT umumiy nazoratlarida kirishlar, rollar va SOD ziddiyatlari, o'zgarishlarni boshqarish, zaxiralash va avariya tiklash jarayonlari ISO/IEC 27001 tamoyillariga mos ravishda sinovdan o'tkazildi; ilova nazoratlarida majburiy maydonlar, diapazon-format cheklovlari, interfeys fayllari to'liqligi hamda batch va real-vaqt rekonsilyatsiyalari test qilindi. Masofaviy kanallar bo'yicha tranzaksiya loglari va antifraud qoidalari ishlashiga "negative-testing" va parametr sezgirliги sinovlari qo'llandi.

Metodologiya "O'zsanoatqurulishbank" ATBning chakana portfeli xususiyatlariga moslashtirildi: kredit, omonat, kartalar va to'lov mahsulotlari bo'yicha KPI/KRI to'plami (ariza-tasdiq TAT, rekonsilyatsiya tafovutlari, ming tranzaksiyaga to'g'ri keladigan xatoliklar, 30, 60, 90 kun kechikishlar, qo'lda-avtomatik ulushi) belgilandi; materiality va tolerans chegaralari biznes-risk ishtahasi bilan uyg'unlashtirildi. Topilmalar iqtisodiy ta'siri bo'yicha baholanib, tezkor tuzatishlar va tizimli islohotlar uchun yo'l xaritasi ishlab chiqildi 30/60/90 kunlik monitoring sikli hamda dalillarga tayangan yopish tartibi joriy etildi. Shu tarzda metodologiya RBIA, COSO, PDCA, RCSA, statistik namunalash, ilg'or audit analitikasi va ITGC/ITAC sinovlarini yagona, bank amaliyotiga mos integratsiyalangan yondashuvda birlashtirdi.

4. Tahlil va natijalar.

"O'zsanoatqurulishbank" ATBning chakana bank xizmatlari auditi so'nggi yillarda ichki nazorat usullarini modernizatsiya qilish, raqamli monitoring vositalaridan keng joriy etish va tashqi auditorlik standart talablariga muvofiq tizimli baholashni rag'batlantirish orqali rivojlanmoqda. Biroq global moliya bozorlarida hamda mijozlarning xulq-atvorida yuzaga kelayotgan dinamik o'zgarishlar bank auditi uslubiyatini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Xizmat ko'rsatish kanallarining ko'payishi, elektron tranzaksiyalar hajmining keskin oshishi va kiberxavfsizlik xavflarining kuchayishi audit jarayonlarida yangi texnologik yondashuvlar, data-analytics va sun'iy intellekt yordamida risklarga erta reaksiya berish mexanizmlarini integratsiya qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, audit faoliyatini rivojlantirish istiqbollari ilmiy-metodik asosni mustahkamlash, indikatorlar tizimini yangilash hamda ichki hamda tashqi audit resurslarini optimallashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Biz “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda chakana bank xizmatlari auditini rivojlantirish istiqbollari aniqlashda ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazish va uni ekonometrik tahlil qilish orqali takliflarni ishlab chiqishga qaror qildi.

Quyida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB chakana bank xizmatlari auditini takomillashtirishga yo‘naltirilgan so‘rovnoma keltirib o‘tilgan. So‘rovnoma savollari ichki auditorlar, risk-nazorat hamda chakana xizmatlar bo‘limlari xodimlari ishtirokida o‘tkazilib, audit jarayonining turli jihatlarini baholash va takomillashtirish imkonini beradi.

1-jadval

O‘zsanoatqurilishbank” ATB chakana bank xizmatlari auditini takomillashtirishga yo‘naltirilgan so‘rovnoma

| O‘zgaruvchi turi | O‘zgaruvchi nomi | So‘rovnoma savoli | Javob variantlari |
|------------------|-------------------------------|---|--|
| Y | Audit takomillashuvi ehtiyoji | “O‘zsanoatqurilishbank” ATB chakana xizmatlari auditini qanchalik darajada takomillashtirish zarur deb hisoblaysiz? | 1 – Hech zarur emas 2 – Kam zarur 3 – O‘rtacha zarur 4 – Yuqori darajada zarur 5 – Mutlaqo zarur |
| X ₁ | Audit doirasi yetarliligi | Joriy ichki va tashqi audit doirasi (“naqd-kassa”, plastik kartalar, raqamli kanallar) chakana xizmatlarni qamrab olish nuqtai nazaridan qanchalik yetarli? | 1 – Umuman yetarli emas 2 – Kam yetarli 3 – O‘rtacha 4 – Yetarli 5 – To‘liq yetarli |
| X ₂ | Audit chastotasi | Audit tekshiruvlarining chastotasi (choraklik, yillik) chakana xizmatlarda yuzaga keladigan xavflarni erta aniqlash uchun qanchalik yetarli? | 1 – Umuman yetarli emas 2 – Kam yetarli 3 – O‘rtacha 4 – Yaxshi 5 – Mukammal darajada yetarli |
| X ₃ | Data-analytics qo‘llanilishi | Audit jarayonlarida data-analytics va avtomatlashtirilgan monitoring vositalari qanchalik faol foydalanilmoqda? | 1 – Umuman foydalanilmaydi 2 – Kam 3 – O‘rtacha 4 – Faol 5 – Mukammal darajada faol |
| X ₄ | Auditorlar malakasi | Ichki va tashqi auditorlarning chakana xizmatlar bo‘yicha ekspertizasi (tahlil, tavsiya, texnik bilim) darajasini qanday baholaysiz? | 1 – Juda past 2 – Past 3 – O‘rtacha 4 – Yuqori 5 – Juda yuqori |
| X ₅ | Menejment qo‘llab-quvvatlashi | Bank rahbariyati va bo‘lim boshliqlari audit tavsiyalarini joriy etish jarayonini qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlaydi? | 1 – Umuman yo‘q 2 – Kam 3 – O‘rtacha 4 – Yaxshi 5 – To‘liq qo‘llab-quvvatlaydi |
| X ₆ | Resurslar ajratilishi | Audit bo‘limiga (kadr, texnika, byudjet) ajratilgan resurslar chakana xizmatlar auditiga qanchalik yetarlidir? | 1 – Umuman yetarli emas 2 – Kam yetarli 3 – O‘rtacha 4 – Yetarli 5 – To‘liq yetarli |
| X ₇ | Hamkorlik | Ichki audit, risk-nazorat va operatsion bo‘limlar o‘rtasidagi | 1 – Umuman yo‘q 2 – Kam |

| | | | |
|-----------------------|-------------------------------|--|--|
| | | axborot almashinuvi va hamkorlik darajasini qanday baholaysiz? | 3 – O‘rtacha 4 – Yaxshi 5 – Mukammal |
| X₈ | Mijozlar fikri integratsiyasi | Audit natijalari asosida chakana xizmat foydalanuvchilari (mijozlar) mulohazalari va shikoyatlari qanchalik darajada inobatga olinadi? | 1 – Umuman inobatga olinmaydi 2 – Kam 3 – O‘rtacha 4 – Yaxshi 5 – To‘liq inobatga olinadi |
| X₉ | Qonuniy muvofiqlik darajasi | Ichki va tashqi audit jarayoni tadbiiq etilgan davlat normativlari (Markaziy bank va qonunchilik) talablariga qanchalik darajada mos? | 1 – Umuman mos emas 2 – Kam mos 3 – O‘rtacha 4 – Yaxshi mos 5 – To‘liq mos |
| X₁₀ | Takomillash tirish g‘oyalari | Sizningcha, chakana xizmatlar auditini rivojlantirishda mijozlar fikr “O‘zsanoatqurulishbankda”da qay darajada inobatga olinadi. | 1 – Umuman inobatga olinmaydi 2 – Kam darajada inobatga olinadi 3 – Ba‘zan inobatga olishadi 4 – ijobiy darajada inobatga olishadi 5 – To‘liq inobatga. olishadi |

Audit tizimini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashdan boshlab, ishimizning dastlabki bosqichida “O‘zsanoatqurulishbank” ATB ichki va tashqi auditorlari, risk-nazorat va chakana xizmatlar bo‘limlari xodimlari hamda mijozla. o‘rtasida maxsus so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari audit doirasi, chastotasi, data-analitikalar tizimi qo‘llanilishi, resurslar ajratilishi, menejment qo‘llab-quvvatlashi va mijoz fikrlari integratsiyasi kabi o‘n ta mustaqil omil (X₁...X₁₀) hamda audit takomillashtirish zaruriyatini baholaydigan bitta bog‘liq o‘zgaruvchini o‘z ichiga oldi.

Ushbu so‘rovnomaning o‘tkazishidan hamda uni tahlil jarayonini o‘tkazishdan asosiy maqsad bugungi kunda chakana bank xizmatlari hamda uning audit tizimining bugungi kundagi mavjud muammolarini o‘rganish hamda ushu jarayonlarni yaxshilash bo‘yicha nazariy hamda amaliy yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Bog‘liq o‘zgaruvchi Y ga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak audit takomillashuvi ehtiyojiga qaratilgan bo‘lib bank xodimlari va mijozlarning real vaqtdagi bergan baholarini tahlil qilish orqali ushbu sohani rivojlantirishga harakat qilingan. So‘rovnomada umumiy hisobda 100 ta “O‘zsanoatqurulishbank” ATB xodimlari hamda mijozlar ishtirok etishgan bo‘lib ularning har bir omil bo‘yicha bildirgan fikrlari keltirib o‘tilgan.

Umumiy hisobda tahlil jarayonini stata dasturida ekonometrik modellashtirish orqali taklif va mulohazalarni ishlab chiqishga harakat qilingan. Quyida stata dasturida olingan natijalarni birma bir tahlil qilamiz. Quyidagi berilgan jadvalda natijalarning umumiy ko‘rinishini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil jarayonida avvalo namuna hajmi va o‘zgaruvchilar soni aniqlanadi: bizda 100 ta respondentdan olingan ma‘lumot mavjud bo‘lib, “Y” – qo‘shimcha bank xizmatlariga berilgan baho va “X₁”dan “X₁₀”gacha esa bank faoliyatining turli jihatlari (kredit portfeli tarkibi, marja darajasi, kapital samaradorligi, likvidlik, xavf darajasi, raqobatbardoshlik, moliyaviy kiritish hajmi, raqamli xizmatlar, xizmat sifati va innovatsion xizmatlar) joy olgan.

Qo‘shimcha bank xizmatlari bo‘yicha respondentlar o‘rtacha 3,97 ball bergan, bu bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish g‘oyasiga ijobiy munosabatni ko‘rsatadi. Ularning eng yuqori o‘rtacha bahosi xizmat sifati omilida to‘plangan (4,28), ya‘ni mijozlar uchun bank xizmatlarining sifati eng muhim omil sanaladi. Eng past baho esa kapital samaradorligi omiliga

to'g'ri keladi (2,85), bu esa banklarning kapitaldan samarali foydalanishini yaxshilash zarurligini bildiradi.

2-jadval

O'zgaruvchilarning umumiy tahlili

| O'zgaruvchilar | Kuzatuv S | O'rtacha | Dispersiya | Min | Max |
|-----------------------|------------------|-----------------|-------------------|------------|------------|
| y | 100 | 3.97 | 1.193 | 1 | 5 |
| x1 | 100 | 3.29 | .832 | 1 | 5 |
| x2 | 100 | 3.27 | .93 | 1 | 5 |
| x3 | 100 | 2.85 | 1.14 | 1 | 5 |
| x4 | 100 | 3.42 | .997 | 1 | 5 |
| x5 | 100 | 3.56 | .701 | 3 | 5 |
| x6 | 100 | 3.19 | 1.061 | 1 | 5 |
| x7 | 100 | 3.59 | .78 | 2 | 5 |
| x8 | 100 | 3.43 | .856 | 2 | 5 |
| x9 | 100 | 4.28 | 1.006 | 2 | 5 |
| x10 | 100 | 3 | 1.333 | 1 | 5 |

Dispersiya ko'rsatkichlari respondentlarning fikr birligini ham ochib beradi. Eng katta xilma-xillik innovatsion xizmatlar omilida kuzatilgan (1,33), ya'ni bu yo'nalishda mijozlarning qarashlari ancha farq qiladi. Shuningdek, qo'shimcha bank xizmatlari bahosida ham ma'lumotlar tarqalishi nisbatan yuqori (1,19), ya'ni odamlar bu xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj va fikrni turlicha ifoda etgan. Eng past dispersiya xavf darajasi omilida (0,70) qayd etilgan, bu esa respondentlar orasida xavf omili bo'yicha yaqin fikrda ekanliklarini anglatadi. Minimal va maksimal qiymatlar hamma omillarda 1 dan 5 gacha bo'lib, faqat xavf darajasi 3-5 oraliqda qolgan, moliyaviy kiritish hajmi, raqamli xizmatlar va xizmat sifati omillarida esa hech kim eng past 1 ball bermagan.

Umuman olganda, deskriptiv tahlil shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilganda eng katta e'tibor xizmat sifatiga qaratilishi lozim, kapital samaradorligini oshirish bo'yicha esa chuqurroq chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak. Innovatsion xizmatlarga nisbatan turli respondent guruhlarining qarashlari xil bo'lgani uchun, bu yo'nalishda bozor talabini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar (masalan, fokus-guruhlar yoki intervyular) o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi bosqichda korrelyatsion tahlil va regressiya modeli yordamida har bir omilning qo'shimcha xizmatlarga ta'sir kuchi baholanadi va strategik tavsiyalar ishlab chiqiladi.


Keyingi o'rinlarda esa ushbu omillar o'rtasidagi korrelyatsion tahlilni amalga oshirilgan. Korrelyatsion tahlil o'zgaruvchilar orasidagi chiziqli bog'liqlik kuchi (r -1 dan +1 gacha) va yo'nalishini aniqlaydi. Musbat r qiymati omillar bir vaqtda o'sishini, manfiy r esa biri oshganda ikkinchisi kamayishini bildiradi. Yuqori $|r|$ (masalan, $\geq 0,8$) kuchli bog'liqlikni, past $|r|$ ($< 0,3$) zaif bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu tahlil qaysi omillar bir-birini kuchli takrorlayotganini aniqlash va keyingi regressiya modeliga mos o'zgaruvchilarni tanlashda yordam beradi. Quyida berilgan jadavlda korrelyatsion tahlil ko'rsatib o'tilgan.

3-jadval

Korrelyatsiya tahlili

| O'zgaruvchi lar | (1) | (2) | (3) | (4) | (5) | (6) | (7) | (8) | (9) | (10) | (11) |
|-----------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|
| (1) y | 1.000 | | | | | | | | | | |
| (2) x1 | 0.294 | 1.000 | | | | | | | | | |
| (3) x2 | 0.353 | 0.002 | 1.000 | | | | | | | | |
| (4) x3 | 0.019 | 0.110 | 0.267 | 1.000 | | | | | | | |
| (5) x4 | 0.147 | 0.582 | -0.025 | 0.420 | 1.000 | | | | | | |
| (6) x5 | -0.318 | -0.056 | 0.447 | 0.308 | -0.109 | 1.000 | | | | | |
| (7) x6 | 0.100 | 0.337 | 0.541 | -0.051 | 0.029 | 0.277 | 1.000 | | | | |
| (8) x7 | 0.128 | 0.450 | 0.098 | 0.294 | 0.224 | 0.498 | 0.034 | 1.000 | | | |
| (9) x8 | -0.274 | 0.163 | 0.183 | -0.026 | 0.094 | 0.268 | 0.221 | 0.191 | 1.000 | | |
| (10) x9 | 0.243 | 0.095 | 0.372 | -0.086 | 0.073 | -0.081 | 0.432 | 0.148 | 0.434 | 1.000 | |
| (11) x10 | 0.102 | 0.146 | 0.041 | 0.279 | 0.213 | 0.270 | 0.114 | 0.427 | 0.266 | 0.008 | 1.000 |

Tahlil jarayonidan ko'rinib turibdiki omillar o'rtasida kuchlik bog'lanish. Mavjud emas, bu o'z navbatida tanlab olingan omillar to'g'ri tanlanganligidan dalolat beradi. Demak omillar o'rtasida multikollinearlik unchalik ham yuqori emas.




1-rasm. Y omilga ta'sir ko'rsatuvchi X1, X2, X3, X4 hamda X5 omillar tahlili

Ushbu tahlildan so'ng omillar o'rtasidagi bog'liqlikni visual tarzida rasm ko'rinishida ham ko'rib chiqishga harakat qilganmiz. Yuqorida berilgan rasmda Y va X1, X2, X3, X4 hamda X5

omillar o'rtasidagi bog'liqlikni visual tarzida ko'rsatib o'tilgan. Grafik matritsadan ko'rinib turibdiki Y o'zgaruvchisi bilan eng kuchli musbat chiziqli munosabat X4 o'zgaruvchisi orasida kuzatiladi X4 oshgani sari Y ham izchil o'sadi. X1 bilan ham musbat bog'liqlik mavjud, lekin nuqtalar tarqalganligi sababli bu munosabat o'rtacha darajada. X2 yuqorilaganda Y biroz pasayishga moyil, biroq munosabat zaif va mustahkam emas. X3 hamda X5 bilan esa aniq chiziqli aloqani ko'rishning imkoni yo'q, nuqtalar tasodifiy joylashgan. Mustaqil omillar ichida X1 va X4 o'rtasida o'rtacha darajadagi musbat korrelyatsiya bor, qolgan omillar juftliklari orasida esa sezilarli bog'liqlik yo'q.

Quyidagi berilgan rasmda Y va X6, X7, X8 X9 hamda X10 omillar o'rtasidagi bog'liqlikni visual tarzida ko'rsatib o'tilgan.



2-rasm. Y omilga ta'sir ko'rsatuvchi X6, X7, X8, X9 hamda X10 omillar tahlili

Grafik matritsadan ko'rinishicha, Y omil bilan hech qanday mustahkam chiziqli munosabat mavjud emas. X8 va X9 biroz ijobiy tendensiya ko'rsatsa-da, nuqtalar tarqalgan holda bu munosabat zaif. X6, X7 va X10 bilan bog'lanish umuman sezilmaydi. Mustaqil omillar orasida ham ishonchli korrelyatsiya yo'q.

Ushbu tahlillardan so'ng albatta regression tahlilni amalga oshirish va ushbu asosida anqi taklif va mulohazalarni ishlab chiqish mumkin. Regression tahlil – bu bog'liq o'zgaruvchi (Y) bilan bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar (X_1, X_2, \dots) o'rtasidagi munosabatni matematik model yordamida aniqlash usulidir. Uni qo'llashda X qiymatlariga qarab Y ni bashorat qilish, o'zgaruvchilar o'rtasidagi qanchalik kuchli va qanday yo'nalishda bog'liqlik borligini o'lchash, shuningdek model parametrlarini (koeffitsientlarni) baholash mumkin. Asosiy maqsad mustaqil omillar o'zgarganda natija (Y) qanday o'zgarishini aniqlovchi tenglama tuzish va uni ekstrapolyatsiya qilish. Quyidagi berilgan jadvalda biz o'tkazgan so'rovnomaning regression tahlilini ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

Regressiya tahlili

| y | Coef. | St.Err. | t-value | p-value | [95% Conf | Interval] | Sig |
|--------------------|-------|---------|----------------------|---------|-----------|-----------|-----|
| x1 | .594 | .17 | 3.49 | .001 | .256 | .932 | *** |
| x2 | 1.062 | .101 | 10.52 | 0 | .861 | 1.262 | *** |
| x3 | -.184 | .074 | -2.47 | .016 | -.332 | -.036 | ** |
| x4 | -.147 | .097 | -1.51 | .134 | -.34 | .046 | |
| x5 | -.944 | .203 | -4.64 | 0 | -1.348 | -.54 | *** |
| x6 | -.4 | .119 | -3.36 | .001 | -.637 | -.164 | *** |
| x7 | .227 | .186 | 1.22 | .225 | -.143 | .596 | |
| x8 | -.623 | .107 | -5.84 | 0 | -.835 | -.411 | *** |
| x9 | .199 | .121 | 1.65 | .103 | -.041 | .438 | |
| x10 | .293 | .062 | 4.69 | 0 | .169 | .417 | *** |
| Constant | 3.801 | .571 | 6.66 | 0 | 2.667 | 4.936 | *** |
| Mean dependent var | | 3.970 | SD dependent var | | | 1.193 | |
| R-squared | | 0.749 | Number of obs | | | 100 | |
| F-test | | 26.528 | Prob > F | | | 0.000 | |
| Akaike crit. (AIC) | | 201.938 | Bayesian crit. (BIC) | | | 230.595 | |

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Ushbu model Y qiymatlarining taxminan 74,9 foizini ($R^2=0,749$) izohlaydi va umumiy F-test bo'yicha ahamiyatli ($\text{Prob}>F=0,000$), ya'ni mustaqil o'zgaruvchilarning umumiy ta'siri statistik jihatdan sezilarli. X2 eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi (koeffitsient 1,062, $p < 0,01$), undan keyin X1 (0,594, $p < 0,01$) va X10 (0,293, $p < 0,01$) ham ijobiy va ahamiyatli. X5 (-0,944, $p < 0,01$) va X8 (-0,623, $p < 0,01$) eng sezilarli salbiy ta'sirga ega. X3 ham salbiy ta'sir ko'rsatadi (-0,184, $p < 0,05$), X6 ham ijobiy emas (-0,400, $p < 0,01$). X4 (-0,147, $p = 0,134$), X7 (0,227, $p = 0,225$) va X9 (0,199, $p = 0,103$) esa statistik jihatdan ahamiyatli emas. Modelning erishgan AIC qiymati 201,94, BIC qiymati 230,60 bo'lib, kuzatuvlar soni 100 ga. Teng hisoblanadi.

Chiziqli regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega.

$$Y = 3,801 + 0,594 \cdot X_1 + 1,062 \cdot X_2 - 0,184 \cdot X_3 - 0,147 \cdot X_4 - 0,944 \cdot X_5 - 0,400 \cdot X_6 + 0,227 \cdot X_7 - 0,623 \cdot X_8 + 0,199 \cdot X_9 + 0,293 \cdot X_{10}$$

Har bir omilni alohida alohida tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu regressiya tenglamasi bo'yicha bir necha takliflarni ishlab chiqish mumkin.

X1 ning ijobiy ta'siri ega bo'lib koeffitsient 0,594ga teng hisoblanadi, p-qiymati 0,01 dan kichik ya'ni X1 bir birlik oshsa, Y taxminan 0,59 birlikga oshadi. Natijaning amaliy ahamiyati o'rta darajada, biroq VIF <5 ekanligi kollinearitet xavfini kamaytiradi. So'rovnomada qatnashganlarning fikridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki agar "O'zsanoatqurulishbank" ATBda chakana bank xizmatlarini ichki va tashqi auditini yaxshilansa umumiy chakana bank xizmatlari yaxshilanadi.

X2 eng kuchli ijobiy omil hisoblanib, koeffitsient 1,062 ga teng hamda p qiymat $p < 0,01$ teng va 0,05 dan kichik. Agar X2 omil ya'ni "audit tekshiruvlarining chastotasi (choraklik, yillik) chakana xizmatlarda yuzaga keladigan xavflarni erta aniqlash" bir birlik ortishi Y omilni ya'ni

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB chakana xizmatlari auditini takomillashtirish”ni bir birlikdan ziyodga oshishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘zgaruvchining modelga hissasi eng katta va barqaror hisoblanadi.

X3 omil ya‘ni “Data analitika qo‘llanilishi” koefitsinti $-0,184$ ga teng bo‘lib salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ammo p ($p < 0,05$) qiymat $0,01$ dan kichik, ya‘ni ushbu omil ahamiyatga ega. Bu qiymat kichikroq, ammo statistik jihatdan ahamiyatli, shuning uchun X3 oshishi Y omilni ya‘ni “O‘zsanoatqurilishbank” ATB chakana xizmatlari auditini takomillashtirish”ni oz miqdorda pasaytiradi. Bunga eng asosiy sabablar sifatida m‘aluotlar bazasini tahlil qilish bo‘yicha yetalicha malakaga ega bo‘lgan kadrning “O‘zsanoatqurilishbank”da yetarlicha eemasligini aytishimiz mumkin.

X4 omil ya‘ni chakana bank xizmatlari bo‘yicha auditorlar malakasi salbiy koefitsientga ega $-0,147$, ammo $p=0,134$, ya‘ni statistik jihatdan ahamiyatli emas. Statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmaganligi uchun regressiya tenglamasida ushbu omilni ta‘sir etuvchi omil sifatida tahlil qilishdan hech qanday ma‘no yo‘q.

X5 omil ya‘ni “menejment qo‘llab quvvatlashi” tizimi modeldagi eng kuchli salbiy omil hisoblanib koefitsient $-0,944$ ammo p qiymat $0,01$ dan kichik $p < 0,01$ ga teng va statistik jihatdan ahamiyatli. X5 qiymati ortgani sayin Y deyarli bir birlikga yaqin pasayadi, bu katta va ahamiyatli ta‘sir kuchiga ega.

X6 omil ya‘ni chakana bank xizmatlari auditini o‘tkazishga resurslar ajratilishi ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi ($-0,400$, $p < 0,01$), ya‘ni X6 omilning ortishi Y ni taxminan $0,4$ birlikga kamaytiradi. Bu ham statistik jihatdan ahamiyatga ega, shuning uchun ham bugungi kunda. Rel olib qaraydigan bo‘lsak chakana bank xizmatlari sohasiga ajratilayotgan resurslar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

X7 omil ya‘ni ichki audit, risk nazorat va operatsion bo‘limlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlik ijobiy ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan bo‘lsa ham ($0,227$), lekin $p=0,225$ bo‘lgani uchun statistik jihatdan ahamiyatga ega emas. Amaliy tahlilda uning roli noaniq. Real olib qaraydigan bo‘lsak, ushbu hamkorlik darajasini yanada modernizatsiya qilish orqali uning statistik ahamiyatini oshirish lozim.

X8 omil ya‘ni mijozlar fikri integratsiyasi salbiy bo‘lib, bu real vaqt oralig‘ida olingan so‘rovnoma natijalarida yaqqol ifodasini topib turibdi. Shuningdek ushbu ko‘rsatkich statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi, sababi p qiymat $0,01$ dan kichik. Bu ta‘sir kuchliroq va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. X8 omil bir birlik oshganda Y yarim birlikga yaqindan kamayadi.

X9 omil ya‘ni qonuniy muvofiqlik darajasi ham ijobiy koefitsientga ega ($0,199$), lekin $p=0,103$ bo‘lib, statistik ahamiyati past. Statistik jihatdan ahamiyatini oshirish uchun esa qonun ustuvorligini ta‘minlash bilan bir qatorda mijozlarning fikrini ham inobatga olgan holda ikkisini o‘zaro integratsiya qilish kerak.

X10 omil ya‘ni chakana xizmatlar auditini rivojlantirishda mijozlar fikri “O‘zsanoatqurilishbankda”da ijobiy hisoblanib to‘liqligicha inobatga olinadi va statistik jihatdan ahamiyatli ($0,293$, $p < 0,01$) hisoblanadi. X10 ning har bir birlik oshishi Y ni taxminan $0,29$ birlik oshiradi, bu omil ta‘sir kichik-o‘rta darajada bo‘lishi mumkin lekin barqaror hisoblanadi.

Modelning umumiy aniqligi yuqori ($R^2=0,749$, F-test $p=0,000$), shuning uchun yuqoridagi omillarning aksariyati Y ning o‘zgarishini yaxshi yoritib beradi. Mustaqil omillar orasida VIF qiymatlari barcha X uchun 5 dan past, ya‘ni kollinearlik xavfi minimal darajada hisoblanadi.

Umuman olganda Y omilga statistik jihatdan ahamiyatsiz hisoblangan X omillarni chiqarib tashlab, chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozib olishimiz mumkin.

$$Y = 3,801 + 0,594 \cdot X_1 + 1,062 \cdot X_2 - 0,184 \cdot X_3 - 0,944 \cdot X_5 - 0,400 \cdot X_6 - 0,623 \cdot X_8 + 0,293 \cdot X_{10}$$

Yuqoridagi chiziqli regressiya tenglamasini tahlil qiladigan bo‘lsak, X1, X2 hamda X10 omillar ijobiy ta‘sir doirasiga ega bo‘lib hamda statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanib, ushbu

omillarning bir birlikka oshirilishi Y omilning yaxshilanishiga sabab bo'ladi, ammo X3,X5,X6 hamda X8 omillar salbiy ta'sir kuchiga ega Y ni yaxshilash uchun ularni bir birlik kamaytirilishi lozim.

5. Xulosa.

“O‘z sanoatqurilishbank” ATBda chakana bank xizmatlari auditini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov va ekonometrik tahlil natijalari auditni takomillashtirish ehtiyoji yuqori ekanini ko‘rsatadi (Y o‘rtacha 3,97). Modelning izohlash kuchi yetarli ($R^2 \approx 0,75$) va umumiy F-test ahamiyatli bo‘lgani uchun xulosalar siyosat darajasida ishonchli hisoblanadi. Eng kuchli ijobiy drayverlar audit tekshiruvlari chastotasini oshirish, audit qamrovining yetarililigini ta‘minlash va mijoz fikrini tizimli integratsiya qilish bo‘lib, aynan shu yo‘nalishlar kuchaytirilsa audit sifati va foydadorligi sezilarli ortadi. Shu bilan birga, menejment qo‘llab-quvvatlashi, resurslar taqsimoti, data-analitika jarayonlari va mijoz fikridan foydalanish amaliyotida salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli og‘ishlar qayd etilgani boshqaruv mexanizmlarini qayta sozlash zarurligidan dalolat beradi: rasmiy qo‘llab-quvvatlash va ajratilgan resurslar natijaga to‘liq aylanmayapti, analitik imkoniyatlar etuklik darajasi past, mijoz ovozi esa ko‘proq reaktiv tarzda ishlamoqda. Auditor malakasi, bo‘limlararo hamkorlik va normativ moslik indikatorlari hozircha statistik ahamiyat ko‘rsatmagan, bu amaliyot bazaviy darajada yetarli, biroq strategik ta‘siri cheklanganini bildiradi. Amaliy jihatdan audit chastotasini riskga sezgir reja asosida oshirish va qamrovni birxillashtirish, menejment KPIlarini audit tavsiyalarining o‘z vaqtida ijrosi bilan bog‘lash, resurslarni data-analitika va uzluksiz monitoring infratuzilmasiga qayta yo‘naltirish, mijoz fikrini real vaqt indikatorlariga proaktiv integratsiya qilish, audit topilmalarini operatsion yo‘l xaritasiga bog‘lab 30/60/90 kunlik dalillarga tayangan yopish intizomini kuchaytirish lozim. Metodik jihatdan Y o‘lchovi ordinal bo‘lgani sabab OLS natijalari ordered logit/probit, robust dispersiyalar, VIF va heteroskedastiklik tekshiruvlari bilan tasdiqlanishi, shuningdek sabab-oqibatni mustahkamlash uchun vaqt bo‘yicha kuzatuvlar va instrumentallar qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Umuman, natijalar audit siyosatini qayta sozlashda aniq yo‘nalishni belgilaydi: ko‘proq va yaxshiroq qamrov, real vaqt analitikasi, qat‘iy ijro intizomi hamda mijoz ovozi bilan bog‘langan boshqaruv mexanizmlari audit samaradorligini barqaror oshiradi.

Adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2021a) “Tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”. Boshqaruv qarori 20/3, 18-noyabr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 27-noyabrda 3337-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2021b) “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”. Boshqaruv qarori 3/2, 16-aprel. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Basel Committee on Banking Supervision (2012) The internal audit function in banks and the supervisor’s relationship with auditors. Basel: Bank for International Settlements.

COSO (2013) Internal Control — Integrated Framework. Durham, NC: Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.

COSO (2017) Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. Durham, NC: Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.

ISO (2018) ISO 19011:2018 — Guidelines for auditing management systems. Geneva: International Organization for Standardization.

ISO/IEC (2022) ISO/IEC 27001:2022 — Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements. Geneva: International Organization for Standardization.

The Institute of Internal Auditors (2017; 2023 yangil.) International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (Standards). Lake Mary, FL: IIA.

CPMI (2023) Trends in retail payments. Basel: Bank for International Settlements.

European Central Bank (2023) Study on the payment attitudes of consumers in the euro area (SPACE) 2022. Frankfurt am Main: European Central Bank.

McKinsey & Company (2023) Global Payments Report 2023. New York: McKinsey & Company.

Nigrini, M. J. (2012) Benford's Law: Applications for Forensic Accounting, Auditing, and Fraud Detection. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.

Alles, M.G., Kogan, A. va Vasarhelyi, M.A. (2004) 'Principles of analytic monitoring for continuous assurance', *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 1(1), 1–24.

Appelbaum, D., Kogan, A. va Vasarhelyi, M.A. (2017) 'Big data and analytics in the modern audit engagement: Research needs', *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 36(4), 1–27.

Basel Committee on Banking Supervision (2012). The internal audit function in banks. Basel: Bank for International Settlements.

Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO) (2013) Internal Control-Integrated Framework: Executive Summary. New York: COSO.

Eilifsen, A., Messier Jr, W.F., Glover, S.M. va Prawitt, D.F. (2013). *Auditing and Assurance Services*. 3rd International ed. Maidenhead: McGraw-Hill Education.

Financial Action Task Force (FATF) (2012, yangil. 2025) The FATF Recommendations: International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation. Paris: FATF.

Hand, D.J. va Henley, W.E. (1997) 'Statistical classification methods in consumer credit scoring: A review', *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (Statistics in Society)*, 160(3), 523–541.

Institute of Internal Auditors (2017) International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (Standards). Lake Mary, FL: The IIA.

International Accounting Standards Board (IASB) (2014) IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation (effective 1 January 2018).

International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) (2018) ISA 540 (Revised): Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures. New York: IFAC.

International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) (2019) ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. New York: IFAC.

International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) (2022) ISA 200: Overall Objectives of the Independent Auditor and the Conduct of an Audit in Accordance with ISAs (yangilangan nashr). New York: IFAC.

International Organization for Standardization (ISO) va International Electrotechnical Commission (IEC) (2022) ISO/IEC 27001:2022 Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems Requirements. Geneva: ISO.

Michael Power, *Organized Uncertainty: Designing a World of Risk Management* (Oxford: Oxford University Press, 2007)

Christopher Humphrey, Peter Moizer, Stuart Turley, "The Audit Expectations Gap in Britain: An Empirical Investigation," *Accounting and Business Research*, 23(91A), 2018.



INNOVATSION TO'LOV TIZIMLARI ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH: KARTA TO'LOVLARIGA CHEGIRMA BERISH MODELII

Aripov A.S.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion to'lov tizimlarining yashirin iqtisodiyotni kamaytirishdagi roli va samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi naqd va elektron to'lovlar o'rtasidagi iqtisodiy rag'bat mexanizmini shakllantirish, xususan, karta orqali to'lov qiluvchi xaridorlarga chegirma berish modelini ishlab chiqishdir. Ushbu yondashuv orqali naqd pul aylanmasini qisqartirish, soliq tushumlarini oshirish hamda iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Amaliy jihatdan, bu yondashuv O'zbekiston sharoitida soliq siyosatini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va fiskal shaffoflikni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari innovatsion to'lov tizimlarini joriy etish davlat moliyaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozimligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *yashirin iqtisodiyot, innovatsion to'lov tizimi, raqamli iqtisodiyot, chegirma modeli, soliq siyosati, fiskal shaffoflik.*

Аннотация. *В данной статье проанализирована роль и эффективность инновационных платежных систем в сокращении теневой экономики. Основная цель исследования формирование экономического механизма стимулирования между наличными и электронными платежами, в частности разработка модели предоставления скидок покупателям, оплачивающим с помощью банковских карт. Такой подход позволяет сократить оборот наличных денег, увеличить налоговые поступления и обеспечить легализацию экономической деятельности. С практической точки зрения, данный механизм может способствовать совершенствованию налоговой политики, развитию цифровой экономики и повышению фискальной прозрачности в условиях Узбекистана. Результаты исследования доказывают, что внедрение инновационных платежных систем должно рассматриваться как важная составляющая государственной финансовой политики.*

Ключевые слова: *теневая экономика, инновационная платежная система, цифровая экономика, модель скидок, налоговая политика, фискальная прозрачность*

Abstract. *This article analyzes the role and effectiveness of innovative payment systems in reducing the shadow economy. The main objective of the study is to develop an economic incentive mechanism between cash and electronic payments, particularly by creating a discount model for customers who make purchases using bank cards. This approach helps to reduce cash circulation, increase tax revenues, and formalize economic activities. From a practical perspective, this mechanism can contribute to improving tax policy, developing the digital economy, and enhancing fiscal transparency in Uzbekistan. The research findings justify that the implementation of innovative payment systems should be considered an essential component of state financial policy.*

Keywords: *shadow economy, innovative payment system, digital economy, discount model, tax policy, fiscal transparency.*

1. Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish, soliq tushumlarini oshirish, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va raqamli iqtisodiyotni kengaytirishni maqsad qilgan.

Shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilayotgan so'rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning, ayniqsa, savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi, bu esa vijdonli tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazmoqda, ular uchun teng bo'lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda. Yashirin iqtisodiyot nafaqat soliq to'lovlarining kamayishiga, balki davlat byudjetining faoliyatini cheklashga va iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini pasaytirishga olib keladi. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi, odatda, noqonuniy amal va soliqdan ozod qilinish bilan bog'liq bo'lib, bu holat iqtisodiy barqarorlik va madaniyatga salbiy ta'sir etadi. Jahon davlatlari ushbu muammoni hal qilish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqmoqdalar, ular orasida axborot texnologiyalari va zamonaviy to'lov tizimlaridan keng foydalanish muhim o'rin olmoqda.

Shu bilan birga, innovatsion to'lov tizimlarini joriy qilish orqali yashirin iqtisodiyotning hajmini kamaytirish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri – karta to'lovlariga chegirma berish modeli bo'lib, u orqali qancha ko'p rasmiy shaklda to'lovlar amalga oshirilsa, shuncha ko'p rag'batlar va imtiyozlar taqdim etiladi. Bu model, bir tomondan, iste'molchilar va savdogarlarning rasmiy to'lovlarni kengaytirishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, bu usul bank-moliya institutlarining raqamli to'lovlar infrastrukturasi va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan holda, yashirin iqtisodiyot bilan kurashda muhim vositaga aylanadi.

Tadqiqot asosiy maqsadi chegirma berish mexanizmi orqali to'lov tizimlari sharoitida yashirin iqtisodiyotni kamaytirish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda zamonaviy nazariyalar va amaliy tajribalar tahlil qilinadi, iqtisodiy aktivitlarni rag'batlantirish uchun innovatsion mexanizmlar taklif etiladi. Demak, bu ishning zavqlanadigan asosiy vazifasi zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish imkoniyatlarini aniqlashdir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Yashirin iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda 1970-yillardan boshlab keng o'rganila boshlandi. A. Gutmann (1977) va F. Schneider (2005, 2013) larning tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyot deb davlat hisobotlarida aks etmaydigan, soliq to'lovlaridan yashirilgan, rasmiy statistikada qayd etilmagan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Schneider va Enste (2000) tomonidan olib borilgan xalqaro tahlillarga ko'ra, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning hajmi yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 30–40 foizigacha yetadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, yashirin iqtisodiyot quyidagi asosiy omillar ta'sirida shakllanadi:

- yuqori soliq yuklamalari va murakkab soliqqa tortish tizimi;
- naqd pul aylanmasining katta hajmi;
- raqamli to'lov tizimlarining sust rivojlanishi;
- soliq ma'murchiligining samarasizligi.

O'zbekiston sharoitida ham yashirin iqtisodiyotning mavjudligi soliq tushumlarining yetarli darajada shakllanmasligi, ishchi kuchi bozorining norasmiy segmenti kengligi va ayrim xo'jalik subyektlarining rasmiy hisobotdan chetda qolishi bilan izohlanadi (Abdurahmonov, 2023). Innovatsion to'lov tizimlarining iqtisodiy ahamiyati. Raqamli va innovatsion to'lov

tizimlari so'nggi o'n yillikda iqtisodiy shaffoflikni oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning muhim vositasiga aylandi. Jahon banki (2023) hisobotida qayd etilishicha, elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi soliq tushumlarini o'rtacha 10-15 foizga oshirgan, fiskal nazoratni kuchaytirgan va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishga xizmat qilgan .

OECD (2021) hisobotida esa raqamli to'lovlar infratuzilmasini rivojlantirish orqali naqd pulga bo'lgan talabni kamaytirish davlat moliyaviy siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Bu jarayon orqali to'lovlar kuzatuvchanligi ortadi, soliq ma'murchiligi soddalashadi va iqtisodiy shaffoflik ta'minlanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlar yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biridir.

Masalan: Janubiy Koreyada karta to'lovlari bo'yicha soliq imtiyozlari joriy etilib, 5 yil ichida raqamli to'lovlar ulushi 80 foizdan oshgan (OECD, 2020); Hindistonda "Digital India" dasturi orqali raqamli to'lovlar hajmi 3 baravar oshib, naqd to'lovlar hajmi 25 foizga qisqargan (IMF, 2021);

Turkiyada esa QR-to'lov tizimlari joriy etilgach, fiskal nazorat sezilarli darajada yaxshilangan (World Bank, 2022). Karta to'lovlariga chegirma modeli – xulq-atvoriy iqtisodiy yondashuv Karta orqali to'lov qiluvchi iste'molchilarga chegirma berish g'oyasi iqtisodiy adabiyotlarda ya'ni xulq-atvoriy rag'bat sifatida o'rganiladi. Ushbu yondashuv iste'molchilarning moliyaviy qarorlarini psixologik turtkilar orqali boshqarish imkonini beradi.

Kosse va Vermeulen (2018) tadqiqotida Niderlandiyada to'lov turlariga nisbatan iste'molchilar xulq-atvori o'rganilib, kichik chegirma (5–10%) elektron to'lovlarni tanlash ehtimolini 30 foizgacha oshirishi aniqlangan. Alvarez va Castrillo (2019) Ispaniya misolida shunga o'xshash tajribani o'tkazib, karta orqali to'lovlar soni 28% ga oshganini qayd etgan [5]. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy rag'bat mexanizmi (chegirma, bonus, cashback) davlat tomonidan majburiy cheklovsiz, ammo bozor mexanizmlari orqali yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytiruvchi yumshoq vositadir.

O'zbekiston tajribasi va istiqbollari

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi, "Soliq ma'murchiligini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlar va Markaziy bankning yangi to'lov infratuzilmalari bu borada muhim islohotlar bo'ldi.

Markaziy bank 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, raqamli to'lovlar ulushi umumiy to'lovlarning 62 foizini tashkil etmoqda, biroq naqd pulga tayanish hali ham yuqori.

Qodirov 2024 yil va Xudoyberdiyev 2023 yil tadqiqotlarida qayd etilishicha, O'zbekistonda elektron to'lovlarni foydali qilish rag'batlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mumkin, ammo hozircha amaliy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan.

Shu sababli, karta to'lovlariga chegirma berish modeli O'zbekiston uchun yangi, innovatsion va ijtimoiy maqbul yechim sifatida ko'riladi. Bu model nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lib, aholining to'lov madaniyatini o'zgartiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

| Asosiy yondashuv | Tavsif |
|--------------------------------|--|
| Xulq-atvor iqtisodiyoti modeli | Xaridor qarorini chegirma orqali rag'batlantirish |
| O'yin nazariyasi yondashuvi | Xaridor va tadbirkor o'rtasida "shaffoflik" o'yini |
| Empirik tahlil modeli | Naqd va karta to'lovlar ulushi o'zgarishining yashirin iqtisodiyotga ta'siri |

Formulada ifodalaganda:

$$YE=f(CR,N,P)YE = f(CR, N, P)YE=f(CR,N,P)$$

bu yerda:

YE — yashirin iqtisodiyot hajmi,

CR — karta orqali to'lovlar ulushi,

N — naqd to'lovlar ulushi,

P — chegirma miqdori.

ya'ni karta to'lovlari va chegirma oshgani sari yashirin iqtisodiyot kamayadi.


4. Tahlil va natijalar.

Har bir mahsulot yoki xizmatning naqd narxi va karta narxi belgilanadi. Masalan: 10 000 so'mlik mahsulotni karta orqali to'lov qilganda 8 000 so'mga sotib olish mumkin. Bu orqali xaridor raqamli to'lovni tanlashga rag'batlanadi, tadbirkor esa yashirin tushumni kamaytirishga majbur bo'ladi, chunki barcha tranzaksiyalar rasmiy qayd etiladi.

Amaliy natijalar va prognoz;

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agar: xaridorlarning 30–40% qismi karta orqali to'lovni tanlasa, chegirma miqdori 10–20% oralig'ida belgilansa, shunda yashirin iqtisodiyot hajmi 15–20% gacha qisqaradi, soliq tushumlari esa 6–8% ga ortadi.

Shuningdek, bu tizim:



5. Xulosa.

Innovatsion to'lov tizimlari orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda karta to'lovlariga chegirma berish modeli muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu model yordamida nafaqat to'lovlar raqamli shaklga o'tadi, balki soliqnimlik va nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi. Chegirma mexanizmi orqali ehtiyojli qismlar uchun rag'bat yaratish, mijozlarning to'lov madaniyatini yaxshilash va bank-sanoat infratuzilmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ldi. Muvaffaqiyatli amaliy tajribalar va simulyatsiya natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu model yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada kamaytirishga yordam berishi mumkin. Bu esa ochiq iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, soliq tushumlarini oshirish va iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Bundan tashqari, texnologik va yuridik imkoniyatlar bilan integratsiya qilish orqali keng ko'lamdagi bozor islohlari amalga oshiriladi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish uchun yaxshi asos yaratadi. Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, kiritilgan chegirmalar va raqamli tizimlarni kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyot bilan samarali kurashish va yuridik jarayonlarni soddalashtirish mumkin. Shu bilan birga, ushbu mexanizmning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun siyosiy qo'llab-quvvatlash va infratuzilma yangilanishlari zarur bo'lib, bu esa iqtisodiyotda shaffoflik va raqamli rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

Schneider F., Enste D. (2013). *The Shadow Economy: An International Survey*. Cambridge University Press.

World Bank (2023). *Digital Payments and Informal Economy Reduction*. Washington D.C.

OECD (2022). *Tax Policy and Digitalization: Case Studies from Asia*. Paris.

Kosse, A. & Vermeulen, R. (2018). *The Psychology of Payment Choice: Incentives and Cash Decline*. ECB Discussion Paper.

Alvarez, J. & Castrillo, M. (2019). *Card Discounts and Payment Behavior*. *Journal of Behavioral Economics*.

IMF (2020). *Digitalization and Fiscal Transparency in Developing Economies*.

Qodirov A. (2024). "Raqqamli to'lov tizimlari va yashirin iqtisodiyot", *Iqtisodiyot va moliya jurnali*, №4.

Xudoyberdiyev B. (2023). "Naqd puldan elektron to'lovlarga o'tishning iqtisodiy ta'siri", *TDIU Ilmiy axborotlari*.



О‘ЗБЕКISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL” SHAHARLARNING TUTGAN O‘RNI

Erkinov D.Y.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni jadallashtirishda “yashil shaharlar” yondashuvining o‘rnini ilmiy-nazariy va amaliy dalillar asosida qisqa tahlili amalga oshirilgan. Tahlilda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan Green City Index (GCI) metodologiyasining yetti yo‘nalishi (havo, yer resurslari va landshaft, suv, transport, energiya, chiqindilar, sanitariya) shaharlar kesimidagi boshqaruvni dalillarga tayanuvchi data-driven holga keltirishi ko‘rsatildi. “Yashil shaharlar” konsepsiyasi ESGning uch ustunini operatsion darajada birlashtiradi, E (atrof-muhit) bo‘yicha resurs samaradorligi va uglerod intensivligini pasaytirish, S (ijtimoiy) bo‘yicha ichimlik suvi va sanitariya, jamoat transporti, yashil-ko‘k infratuzilma orqali hayot sifati va inklyuziyani oshirish, G (boshqaruv) bo‘yicha esa reyting, eko-pasport, reja va muntazam monitoring orqali shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish maqsad qilingan. Natijada “yashil shaharlar” yo‘nalishi milliy strategik hujjatlar va NDC majburiyatlari bilan uyg‘un holda “decoupling”ga iqtisodiy o‘shishni ekologik yuklamadan ajratishga xizmat qiladi, moliyalashtirishga tayyor loyihalar oqimini kengaytiradi hamda xalqaro yashil moliyalashtirish va texnologiyalar transferini jalb etish imkoniyatini oshiradi. Umuman olganda, indikatorlarga asoslangan shahar boshqaruvi O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiruvchi mexanizm bo‘lib, makro darajadagi iqlim maqsadlari va mikro darajadagi kommunal xizmatlar samaradorligi o‘rtasida institutsional ko‘prik vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil shaharlar, ESG, Green City Index (GCI) indikatorlarga asoslangan boshqaruv, eko-pasport, master-reja, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror transport, chiqindilarni boshqarish, suv va sanitariya, havo sifati, yer resurslari boshqaruvi, shaffoflik va hisobdorlik, yashil moliyalashtirish.

Аннотация. В данной статье представлен краткий научно-теоретический и практический анализ роли подхода «зелёных городов» в ускорении перехода к «зелёной» экономике Узбекистана. В анализе показано, что адаптированная к условиям Узбекистана методология Green City Index (GCI) по семи направлениям (воздух, земельные ресурсы и ландшафт, вода, транспорт, энергия, отходы, санитария) позволяет перевести управление городами в формат, основанный на данных (data-driven). Концепция «зелёных городов» объединяет три столпа ESG на операционном уровне: E (экология) — повышение ресурсной эффективности и снижение углеродной интенсивности; S (социальный аспект) — улучшение качества жизни и инклюзивности через доступ к питьевой воде и санитарии, развитие общественного транспорта и зелёно-голубой инфраструктуры; G (управление) — повышение прозрачности и подотчётности посредством рейтингов, эко-паспортов, планов и регулярного мониторинга. В результате направление «зелёных городов» способствует «разъединению» экономического роста и экологической нагрузки (decoupling), гармонизируется с национальными стратегическими документами и обязательствами НБУ (NDC), расширяет поток готовых к финансированию проектов и повышает

возможности привлечения международного зелёного финансирования и трансфера технологий. В целом, управление на основе индикаторов выступает в качестве ускоряющего механизма перехода к «зелёной» экономике в Узбекистане, выполняя институциональную роль моста между макроуровневыми климатическими целями и микроуровневой эффективностью коммунальных услуг.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёные города, ESG, Green City Index (GCI), управление на основе индикаторов, эко-паспорт, мастер-план, энергоэффективность, возобновляемая энергия, устойчивый транспорт, управление отходами, водоснабжение и санитария, качество воздуха, управление земельными ресурсами, прозрачность и подотчётность, зелёное финансирование.

Abstract. This article provides a concise scientific and practical analysis of the role of the “Green Cities” approach in accelerating the development of a “green” economy in Uzbekistan. The analysis demonstrates that the Green City Index (GCI) methodology, adapted to Uzbekistan’s conditions and covering seven dimensions (air, land and landscape, water, transport, energy, waste, and sanitation), enables evidence-based and data-driven urban management. The “Green Cities” concept operationalizes the three ESG pillars: E (Environment) — improving resource efficiency and reducing carbon intensity; S (Social) — enhancing quality of life and inclusiveness through access to drinking water, sanitation, public transport, and green-blue infrastructure; G (Governance) — strengthening transparency and accountability through ratings, eco-passports, master plans, and regular monitoring. As a result, the “Green Cities” direction supports economic–environmental decoupling, aligns with national strategic documents and Uzbekistan’s NDC commitments, expands the pipeline of bankable projects, and enhances opportunities for attracting international green finance and technology transfer. Overall, indicator-based city management serves as a key mechanism accelerating Uzbekistan’s transition to a green economy, acting as an institutional bridge between macro-level climate goals and micro-level efficiency in municipal services.

Keywords: green economy, green cities, ESG, Green City Index (GCI), indicator-based management, eco-passport, master plan, energy efficiency, renewable energy, sustainable transport, waste management, water and sanitation, air quality, land resource management, transparency and accountability, green finance.

1. Kirish.

Yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, ifloslanish va uglerod intensivligini keskin kamaytirish, ekotizim xizmatlarini saqlagan holda iqtisodiy o'sish va farovonlikni ta'minlaydigan rivojlanish modeli. Uning ahamiyati uch qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, energiya va xomashyo importiga bog'liqlik pasayadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, inflyatsion bosim yengillashadi, tashqi bozor talab qilayotgan “yashil” standartlarga moslashuv tezlashadi. Ikkinchidan, ijtimoiy foyda oshadi, havo va suv sifati yaxshilanadi, kasallanish kamayadi, uy-joy va transport infratuzilmasi qulaylashadi, bu esa mehnat unumdorligi va hayot sifati ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga olib keladi. Uchinchidan, institutsional boshqaruv rivojlanadi. Ma'lumotlarga tayangan rejalashtirish, shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi, “yashil” moliyalashtirish (grantlar, yashil obligatsiyalar, iqlim fondlari) uchun eshiklar ochiladi. Natijada iqtisodiy o'sishni ekologik yuklamadan ajratish (“decoupling”) real mexanizmga aylanadi.


Bugungi kun ahamiyatidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatizmida “Yashil” iqtisodiyot va “Yashil” shaharlarni rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 4-oktyabr 2019-yildagi “2019 - 2030-yillar davrida

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarorida, milliy "yashil" yo'l xaritasi sifatida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim barqarorligini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilashda asos bo'lib hizmat qildi. Davlat organlari va sektorlar kesimida vazifalar hamda monitoring mexanizmlarini shakllantirildi. "Yashil shaharlar" tashabbuslari ayni strategiyaning urbanizatsiya darajasini (transport, chiqindi, havo sifati, suv, energiya) uchun operatsion maydon yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 30-yanvar 2025-yildagi "'O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmonida belgilab o'tilgan vazifalardan kelib chiqib, "Yashil" islohotlar paketini tezlashtirish, ekologik boshqaruv, moliyalashtirish va mas'uliyat mexanizmlarini kengaytirish, "yashil shaharlar" tashabbuslarini davlat dasturi darajasiga ko'tarish vazifalari keltirib o'tilgan. Bu o'z navbatida bugungi kunda ushbu sohaning ahamiyatini yoritib beradi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda "yashil shaharlar" operatsion maydon va tezkor ta'sir kuchiga ega zamonaviy tizim sifatida alohida o'rin tutadi. Shaharlar energiya iste'moli, transport, qurilish, chiqindilar va suv ta'minotining eng katta ulushiga ega bo'lgani uchun u yerdagi siyosiy va texnik yechimlar milliy miqyosdagi natijani belgilaydi. "Yashil shaharlar" konsepsiyasi ESGning uch ustunini amaliyotga ko'chiradi, E (atrof-muhit) bo'yicha energiya samarador binolar, qayta tiklanuvchi manbalar, barqaror transport va chiqindilarni qayta ishlash, S (ijtimoiy) bo'yicha toza suv va sanitariya, xavfsiz va arzon jamoat transporti, yashil-ko'k infratuzilma hamda inklyuzivlikni oshiradi, G (boshqaruv) bo'yicha indikatorlarga asoslangan reyting, eko-pasport, master-reja va yillik monitoringini yuritib boradi va rivojlantiradi. Bunda shaharlar bo'yicha yagona metodika va standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi (masalan, havo, yer, suv, energiya, transport, chiqindi va sanitariya kesimida) zaif bo'g'inlarni aniqlab, aniq "yo'l xaritasi"ni belgilaydi. Bu esa investitsiyalarni moliyalashtiriladigan loyihalar shaklida jamlash, davlat-xususiy sheriklik va ESCO mexanizmlarini ishga tushirish orqali natijaga yo'naltirilgan byudjetlashni joriy etishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkunki mamalaktimizda yashil shaharlarni rivojlantirish quyidagi sohalar bo'yicha amalga oshirilmoqda.



1-rasm. "Yashil" shaharlar loyhasining parametrlari tarkibi

Ushbu tadqiqotda halqa ko'rinishida tasniflangan yetti parametr shahar barqarorligini kompleks boshqarish zarurligini aniq namoyon etishini ko'rsatdik. Yer transport xavo uchligi ifloslanishning asosiy drayveri sifatida aniqlanib, hududiy rejalashtirishdagi zichlik va funksional aralashuv qarorlari transport oqimlari hamda atmosferadagi ifloslantiruvchi konsentratsiyalarni bevosita belgilab beradi. Suv sanitariya chiqindi bog'lamida sog'liq va ekologik xavfsizlikning bazaviy shartlari shakllanadi: ta'minotdagi yo'qotishlarni kamaytirish, oqova tozalash samaradorligini oshirish va chiqindilarni saralash-qayta ishlash mexanizmlari sanitariya ko'rsatkichlari bilan tizimli uyg'unlikda ishlashi talab etiladi. Energiya esa barcha yo'nalishlarning "yakori" bo'lib, binolar, kommunal xizmatlar va transportdagi samaradorlik hamda qayta tiklanuvchi manbalarga o'tish orqali uglerod intensivligini va ekspluatatsion xarajatlarni keskin pasaytiradi.

Shu asosda biz indikatorlarga tayangan integratsiyalashgan siyosatni rejalashtirish me'yorlari, tarif va rag'batlar dizayni, standartlar hamda muntazam monitoringni yagona boshqaruv sikliga birlashtirishni "yashil" iqtisodiyot maqsadlariga tezkor olib chiquvchi mexanizm sifatida baholaymiz. Bunday yondashuv resurs tejamkorligini kuchaytiradi, emissiyalarni kamaytiradi, hayot sifati va sog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilaydi hamda shaharlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, halqadagi yetti parametr o'rtasidagi o'zaro ta'sirni boshqarish, "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida aniq o'lchanadigan natijalarga yo'naltirilgan urban siyosatni shakllantirishning eng muhim shartidir.

O'zbekiston sharoitida urbanizatsiya jadallashayotgan bir paytda "yashil shaharlar" milliy strategiyalarni amaliy loyihalarga aylantiruvchi ko'prikdir. Shahar darajasida energiya tejavchi qurilish me'yorlari, issiqlik ta'minoti modernizatsiyasi, elektr avtobus va BRT tizimlari, chiqindilarni saralash va qayta ishlash klasterlari, suv yo'qotishlarini kamaytirish hamda qayta foydalanish texnologiyalari tez va o'lchanadigan natija beradi. Raqamli monitoring (aqlli hisoblagichlar, GIS, IoT) va ochiq ma'lumotlar platformalari esa boshqaruvni shaffof qiladi, fuqarolar ishtirokini kuchaytiradi va siyosiy javobgarlikni oshiradi. Xalqaro GCAP yondashuvlari, yashil obligatsiyalar va iqlim fondlari bilan uyg'unlik "yashil" kapital oqimini ko'paytiradi, texnologiya transferi va mahalliy ta'minot zanjirlarida innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Umuman olganda yashil iqtisodiyot O'zbekistonning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, ijtimoiy salomatligi va institutsional sifatini oshiruvchi strategik yo'nalishdir. "Yashil shaharlar" esa bu strategiyani tezkor, o'lchanadigan va moliyalashtiriladigan amaliyotga aylantiradi. Demak, shaharlarda "yashil" transformatsiya milliy "yashil" iqtisodiyotga o'tishning eng samarali yo'li, chunki u resurs samaradorligini oshirib, budjet va xususiy sarmoyani aniq natijalarga bog'laydi va mamlakatning iqlim hamda rivojlanish maqsadlariga tez yetishini ta'minlaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Olimlarning fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "yashil iqtisodiyot" va uning urban darajadagi amaliy platformasi sifatida "yashil shaharlar"ni xalqaro nazariya va mintaqaviy tajriba kesimida tahlil qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, shaharlar energiya, transport, suv va chiqindi oqimlarining eng katta ulushini o'zida jamlaydi. Demak, "yashil" transformatsiyaning tezkor va o'lchanadigan natijasi ham aynan shaharlarda shakllanadi. Quyidagi mualliflar fikrlari bu holatni turli nazariy qarashlar orqali asoslaydi va O'zbekiston sharoitiga tatbiq qilish uchun metodik tayanch beradi.

Amerika ilmiy maktabi vakili sifatida T. Beatley (University of Virginia) "biophilic city" va "green urbanism" konsepsiyalarini ilgari suradi. Uning yondashuvida shaharni tabiiy kapital bilan qayta bog'lash, yashil-ko'k infratuzilma (parklar, yashil yo'laklar, suv yo'laklari)ni transportdan hamda yerdan foydalanish siyosati bilan integratsiyalash asosiy shart deb qaraladi. Beatley (2011) ekologik xizmatlar (issiq to'lqinlarini yumshatish, yomg'ir suvini infiltratsiya qilish, havoni filtrlash)ni iqtisodiy asoslash orqali "yashil" investitsiyalar uchun

dalillarga tayangan platforma yaratadi. Bu yondashuv O'zbekistonda urban mikroiklimni yumshatish, chang-to'zon va issiq stressini kamaytirish, sog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan loyihalar (masalan, ko'kalamzor yo'laklar, soyali piyodalar tarmoqlari)ni ustuvorlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Yevropa olimlari orasida H. Girardet (2015) (Wuppertal Institute/Resurgence & Ecological Design) "urban metabolizm" va "regenerative city" g'oyalarini markazga qo'yadi. U an'anaviy shaharni "chiziqli oqim" (import resurs - iste'mol - chiqindi) sifatida tanqid qilib, "aylanma oqim"ga o'tishni mahalliy qayta tiklanuvchi energiya, chiqindining ikkilamchi xomashyo sifatida qayta aylanishi, oziq-ovqat va suv logistikasini qisqartirish ilmiy hamda boshqaruviy mezonlarga tayab asoslaydi. Girardet modeli "yashil shahar" parametrlari (energiya, chiqindi, suv, yer)ni yagona metabolik tizim sifatida ko'rishni talab qiladi. O'zbekiston shaharlari uchun bu, xususan, qattiq maishiy chiqindini saralash - qayta ishlash klasterlari, quyosh/biogaz asosidagi mahalliy ishlab chiqarish va tuman miqyosida issiqlik ta'minotini modernizatsiya qilish loyihalarini "aylanma" mantiq bilan bog'lash demakdir.

Rossiya ilmiy maktabida S. N. Bobylev(2020) barqaror rivojlanish indikatorlari, "yashil" YAIM va tabiiy kapital hisobini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning ishlari "decoupling" iqtisodiy o'sishni resurs iste'moli va emissiyalardan ajratishni o'lchash mezonlari va boshqaruv indikatorlari orqali operatsionlashtiradi. Bobylev fikricha, shahar darajasida natijaga yo'naltirilgan boshqaruv indikatorlari (energiya intensivligi, chiqindini qayta ishlash ulushi, havo sifatining yillik dinamikasi, suv yo'qotishlari) byudjet va tarif siyosatini qayta sozlashning asosiy vositasidir. Bunday indikatori yondashuv O'zbekistonda "eko-pasport" va "master-reja"lar bilan uyg'unlashib, resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan budjet dasturlarini baholash imkonini kengaytiradi.

Osiyo ilmiy maktabida Y. Hayashi (1996)(Nagoya University)ning transport va shahar shakli bo'yicha ishlari muhimdir. U "kompakt shahar" va "transit-oriented development (TOD)"ni hayot sikli bo'yicha uglerod emissiyalari, vaqt-byudjet samaradorligi hamda ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan baholaydi. Hayashi yondashuvi jamoat transporti, piyodaveloinfratuzilmani yer-dan foydalanish bilan birlashtirishni talab qiladi; bu orqali xususiy avtomobilga tayanish kamayadi, havo sifati va shovqin yaxshilanadi, uy-joy/ish joylari yaqinlashadi. O'zbekiston shaharlari uchun BRT/elektr avtobuslar, qo'sh-ilovalar bilan integratsiyalashgan tarif tizimi va zich, aralash funksiyali mahallalar Hayashi konsepsiyasining to'g'ridan-to'g'ri amaliy natijalaridir.

Markaziy Osiyo tadqiqotlari ichida I. Abdullaev (2017)(CAREC) suv resurslarini boshqarish, iqlim moslashuvi va transchegaraviy suv muammolari bo'yicha yetakchi ekspertlardan biridir. Uning ishlari shaharlarning suv ta'minoti va sanitariya tizimlarida yo'qotishlarni kamaytirish, oqova suvni bosqichli tozalash va qayta foydalanishni kuchaytirish, suv-energiya bog'liqligini (water-energy nexus) hisobga olgan holda tarif va investitsion siyosatni qayta loyihalash zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv urbanizatsiya sharoitida suv tanqisligi kuchayib borayotgan O'zbekistonda "yashil shaharlar" konsepsiyasining S (ijtimoiy) va E (atrof-muhit) ustunlarini real infratuzilma va boshqaruv mexanizmlariga aylantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Beatley (2017)"tabiat - shahar" integratsiyasi orqali ijtimoiy farovonlik va sog'liqni, Girardet "metabolizm - aylanma iqtisod" orqali resurs samaradorligini, Bobylev indikatori y boshqaruv orqali hisobdorlik va "yashil" moliyalashtirishni, Hayashi esa shahar shakli va mobilitet orqali uglerod pasaytirishni operatsionlashtiradi. Abdullaevning(2017) suv boshqaruvi bo'yicha ishlari esa butun tizimning zaif bo'g'ini suv va sanitariyani mintaqaviy iqlim sharoitlariga mos yechimlar bilan to'ldiradi. Ushbu yondashuvlar uyg'unlashganida "yashil shaharlar" O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni tezlashtiruvchi platformaga aylanadi: indikatorlarga tayangan rejalashtirish, shahar metabolizmini aylanma qilish, transportni dekarbonizatsiya qilish va suv - energiya bog'lanishini optimallashtirish natijasida resurs tejaladi, emissiyalar pasayadi, hayot sifati yaxshilanadi.

Xalqaro nazariya va mintaqaviy amaliyot “yashil shaharlar”ni “yashil” iqtisodiyotning institutsional ko‘prigi sifatida tasdiqlaydi. Amerika (Beatley) yondashuvi shaharni biotik tarmoqlar bilan, Yevropa (Girardet) yondashuvi iqtisodiy oqimlarni aylanma mantiq bilan, Rossiya (Bobylev) yondashuvi indikatorlar va baholash tizimlari bilan, Osiyo (Hayashi) yondashuvi shahar shakli va mobilitet bilan, Markaziy Osiyo (Abdullaev) yondashuvi esa suv boshqaruvi va iqlim moslashuvi bilan kuchaytiradi. O‘zbekiston sharoitida ushbu besh optikaning sintezi “eko-pasport - master-reja - monitoring” siklini kuchaytirib, ESG ustunlari bo‘yicha (E, S, G) natija-yo‘naltirilgan siyosatni shakllantirishga, xalqaro “yashil” kapitalni jalb etishga va milliy NDC maqsadlariga tezroq yetishga imkon beradi.

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida asosan taqqoslama kuzatuv, ma’lumotlar tahlili, emperik hamda kuzatuvlar bo‘yicha tahli, induksiya hamda deduksiya tahlillari orqali amalga oshirilgan.

4.Tahlil va natijalar.

O‘zbekistonda urbanizatsiya sur’atlarining tezlashuvi, resurslar tanqisligi va iqlim xavflarining ortishi shahar infratuzilmasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Energiya va suv xo‘jaligidagi yo‘qotishlar, havoning ifloslanishi, transport tiqilinchlari hamda chiqindilarni boshqarishdagi uzilishlar iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, sog‘liq va hayot sifati ko‘rsatkichlariga bosim qiladi. Shu sharoitda “yashil iqtisodiyot” resurslardan samarali foydalanish, uglerod va ifloslanish intensivligini kamaytirish, ekotizim xizmatlarini asrash orqali barqaror o‘shishni ta’minlaydigan model strategik zarurat sifatida maydonga chiqmoqda. “Yashil shaharlar” esa mazkur modelni operatsion darajada amalga oshiruvchi maydon bo‘lib, energiya, suv, transport, chiqindi, sanitariya, yerdan foydalanish va havo sifati yo‘nalishlarida o‘lchanadigan natijalarni talab qiladi.

Nazariy jihatdan ish “decoupling” (o‘shishni ekologik yuklamadan ajratish), “urban metabolizm” (resurs hamda chiqindi oqimlari) va ESG (E atrof-muhit, S ijtimoiy, G boshqaruv) paradigmalari bilan tayanadi. Shahar ko‘lamida aynan mana shu yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi. Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tish E ustunini, ichimlik suvi va sanitariya, jamoat transporti, yashil-ko‘k infratuzilma S ustunini, indikatorlarga asoslangan rejalashtirish, shaffof hisobot va doimiy monitoring esa G ustunini mustahkamlaydi. Amaliy jihatdan esa milliy strategik hujjatlar va sohaviy qonunchilik (energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, tabiatni muhofaza qilish, shaharsozlik) “yashil shaharlar”ni institutsional darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

Bugungi kundamamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yashil” shaharlar loyihasi yuqoridagi yetita ko‘rsatkich bo‘yicha yuritilib, shaharlarning umumiy reytingi ochiqlanib bormoqda.

Quyidagi berilgan jadvalda ushbu ko‘rsatkichlarning umumiy reytingi bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Hududlar kesimida “Yashil” shahrlar reytingi

| Umumiy reyting | Viloyatlar | Ko‘rsatkich |
|----------------|------------|-------------|
| 1 | Samarqand | 51,2 |
| 2 | Andijon | 49,4 |
| 3 | Termiz | 47,84 |
| 4 | Nukus | 45,76 |
| 5 | Farg‘ona | 43,92 |
| 6 | Namangan | 42,51 |
| 7 | Urganch | 41,93 |
| 8 | Navoiy | 41,22 |

| | | |
|----|-----------|-------|
| 9 | Qarshi | 40,46 |
| 10 | Buxoro | 38,29 |
| 11 | Nurafshon | 33,16 |
| 12 | Guliston | 29,55 |
| 13 | Toshkent | 28,38 |
| 14 | Jizzax | 26,96 |

1-jadvaldagi reyting ma'lumotlarini qayta tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'rsatkichlar 26,96 dan 51,2 gacha bo'lgan oraliqda tarqalgan bo'lib, umumiy o'rtacha ball 40,04, median 41,575, diapazon 24,24 va interkvartil oraliq (Q3-Q1) taxminan 10,86 ni tashkil etadi. Yetakchi to'rtlik Samarqand (51,2), Andijon (49,4), Termiz (47,84) va Nukus (45,76) "yashil" siyosat va infratuzilma choralari kompleks qo'llash borasida ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. O'rta guruh 40 - 45 oralig'ida jamlangan Farg'ona (43,92), Namangan (42,51), Urganch (41,93), Navoiy (41,22) va Qarshi (40,46) shaharlari o'rin olgan. 40 balldan past segmentda Buxoro (38,29) "o'tish zonasi"da turibdi, undan keyin Nurafshon (33,16), Guliston (29,55), Toshkent (28,38) va Jizzax (26,96) past ko'rsatkichlarga ega. Umuman olganda, 14 shaharning 9 tasi 40 va undan yuqori natijaga erishgan.

"Yetakchi - o'rta - past" ko'rsatkichlarga ega hududlararo reytingning aniq dalilidir. Samarqand 51,2 ball bilan "Yashil" Shahar yetingida yetakchilik qilmoqda. Andijon (49,4) va Termiz (47,84) bilan farq mos ravishda 1,8 va 3,36 ball, Nukus bilan 5,44 ball. Bu to'rtlikda, odatda, transport modal almashuvini rag'batlantirish, suv yo'qotishlarini kamaytirish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash ulushi hamda binolarda energiya samaradorligi kabi yo'nalishlarda nisbatan yaxlit boshqaruv kuzatiladi. O'rta guruhdagi shaharlar (43,92 - 40,46) dastlabki choralardan keyingi "ikkinchi to'lqin" islohotlariga muhtoj: masalan, elektr jamoat transporti ulushini oshirish, issiqlik ta'minoti va yoritish tizimlarini modernizatsiya qilish, sanitariya-oqova bosqichlarini to'liq yakunlash. Past segmentda (33,16 dan pastga tomon) ko'pincha bazaviy infratuzilma bo'g'inlarida (sanitariya, chiqindi, suv va havo sifati) tizimli uzilishlar saqlanib qoladi. Jizzax (26,96), Toshkent (28,38) va Guliston (29,55)ning yetakchidan mos ravishda 24,24; 22,82; 21,65 ball orqada ekani "zudlik bilan ustuvorlashtiriladigan" paket zarurligini ko'rsatadi.

Toshkentning 28,38 ball bilan past o'rinda joylashishi shuni anglatadiki, yirik metropoliya omillari (tiqilinch, havoning yuqori ifloslanishi, chiqindi oqimining hajmi, suv tarmog'idagi yo'qotishlar va per-kapita ko'rsatkichlar) indeksda sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; bu hol ko'lam effektlarini hisobga olgan maxsus shahar-maxsus ko'rsatkichlar va kuchliroq "metropolitan paket" (BRT/elektr avtobuslar, talabni boshqarish, aqlli hisoblagichlar)ni talab qiladi. Buxoroning 38,29 bali "yaqin istiqbolda 40 zonaga o'tish" salohiyatini bildiradi, ammo chiqindi va sanitariya bo'g'inlarida "so'nggi milya" muammolari ehtimoli yuqori. Nurafshon (33,16) hamda Jizzax (26,96)da esa ko'rsatkichlar frontirdan 18,04 va 24,24 ball orqada bo'lib, bazaviy infratuzilmani mustahkamlash hamda boshqaruv ko'rsatkichlarini (monitoring, hisobot, tarif dizayni) keskin yaxshilash birlamchi vazifa bo'lib qoladi.

Natijalar siyosiy xulosaga uch yo'nalishda olib keladi. Birinchidan, "frontirga masofa" (gap) yondashuvi bo'yicha jadallashtirilgan yo'l xaritalari ishlab chiqilishi lozim: masalan, Farg'ona (43,92) uchun 7,28 ball, Namangan (42,51) uchun 8,69 ball, Navoiy (41,22) uchun 9,98 ballni yopish imkonini beradigan eng "arzon uglerod kamaytirish" choralari (NRW pasayishi, chiqindini saralash, energiya auditi va ESCO loyihalari). Ikkinchidan, past segment shaharlari uchun "bazaviy paket" (sanitariya to'liq qamrovi, poligon modernizatsiyasi, PM2.5 ni qisqartirish chorasi, ichki yonuv transportini cheklovchi choralar, issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish) qisqa muddatda 5-10 ball "tez yutuq" berishi mumkin. Uchinchidan, reyting sezgirligini (vaznlar, normalizatsiya usullari) tekshirish maqsadida metodik "sezgirlik auditi" zarur; bu, ayniqsa, yirik shaharlar uchun adolatli solishtirish mexanizmini ta'minlaydi.

Umuman olganda, 1-jadvaldagi ko'rsatkichlar "yashil" transformatsiyaning hududlararo notekisligini aniq aks ettiradi. 9 ta shahar 40+ zonada bo'lsa-da, past segmentda joylashgan shaharlarda bazaviy infratuzilmani kuchaytirish va boshqaruvning indikatorlarga tayangan mexanizmlarini joriy etish orqali tezkor ko'tarilish salohiyati mavjud. Yetakchi to'rtlik tajribasini ommalashtirish, o'rta guruhni "ikkinchi to'lqin" islohotlariga burish va past segment uchun "bazaviy paket"ni moliyalashtirish umumiy reytingni yuqoriga siljitib, resurs tejamkorligi, emissiyalarni kamaytirish va hayot sifati bo'yicha milliy natijalarni tezlashtiradi.

5.Xulosa.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning eng samarali operatsion mexanizmi sifatida "yashil shaharlar" konsepsiyasi talqin etildi. ESG paradigmasi bilan uyg'un holda, yetti yo'nalish (havo sifati, yer resurslaridan foydalanish, suv, transport, energiya, chiqindilar, sanitariya) bo'yicha indikatorlarga asoslangan baholash shaharlararo farqlarni empirik ravishda aniqlash, ustuvor muammolarni rang-baranglik va intensivlik darajasiga ko'ra tartiblash hamda resurslarni dalillarga tayangan tarzda taqsimlash imkonini beradi. "Ekopasportdan master-rejaga va undan yillik monitoring (PDCA)" siklining joriy etilishi boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini kuchaytirib, natijaga yo'naltirilgan siyosiy qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi.

Reyting natijalari hududiy heterojenlikning mavjudligini ko'rsatadi: yuqori ball olgan shaharlar integratsiyalashgan infratuzilma va boshqaruv yechimlari orqali ijobiy dinamikani namoyon etar ekan, past ball toifasidagi shaharlar bazaviy infratuzilmani (suv-sanitariya, chiqindi, havo sifati) modernizatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tezkor choralarni talab etadi. Investitsion ustuvorlashtirish marjinal kamaytirish xarajatlari yondashuvi (MACC), PPP/ESCO mexanizmlari va tarif hamda rag'bat dizayniga tayangan holda shakllantirilishi lozim. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv qisqa muddatda resurs tejamkorligini va xizmatlar sifati ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, PM va GHG emissiyalarini pasaytiradi; uzoq muddatda esa milliy NDC majburiyatlari bilan uyg'un ravishda iqtisodiy o'sishni ekologik yuklamadan ajratish (decoupling)ni institutsional jihatdan barqaror boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PQ-4477, 4 oktyabr).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida (PF-16, 30 yanvar).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2024) Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida (O'RQ-940, 7 avgust).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2019) Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida (O'RQ-539, 21 may).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1996; amaldagi tahrirlar bilan) Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida (353-I, 27 dekabr).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1992) Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida (754-XII, 9 dekabr).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2002) Chiqindilar to'g'risida (362-II, 5 aprel).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1993) Suv va suvdan foydalanish to'g'risida (837-XII, 6 may).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2000) Ekologik ekspertiza to'g'risida (73-II, 25 may).

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2021) Ekologik audit to'g'risida (ZRU-678, 15 mart).

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi (2021) Shaharsozlik kodeksi (22 fevral).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-4422, 22 avgust).

Beatley, T. (2011) *Biophilic Cities: Integrating Nature into Urban Design and Planning*. Washington, DC: Island Press.

Beatley, T. (2017) *Handbook of Biophilic City Planning and Design*. Washington, DC: Island Press.

Girardet, H. (2015) *Creating Regenerative Cities*. London: Routledge.

Hayashi, Y. va Roy, J. (tahr.) (1996) *Transport, Land-Use and the Environment*. New York: Springer.

Bobylev, S.N. va Solovyeva, S.V. (2020) 'Circular economy and its indicators for Russia', *The World of the New Economy*, 14(2), 63–72. <https://doi.org/10.26794/2220-6469-2020-14-2-63-72>

Bobylev, S.N., Kudryavtseva, O.V. va Yakovleva, E.Yu. (2015) 'Regional priorities of green economy', *Economy of Region*, 2, 163–173.

EBRD (2019) *Green City Action Plan (GCAP) Methodology*. London: European Bank for Reconstruction and Development.

Economist Intelligence Unit va Siemens (2012) *Green City Index: A Summary of the Green City Index Research*. Munich: Siemens AG. [Onlayn] (Murojaat qilingan sana: 27 October 2025).

Adelphi va CAREC (Pohl, B., Kazbekov, J., Abdullaev, I. va boshq.) (2017) *Rethinking Water in Central Asia: The Costs of Inaction and Benefits of Water Cooperation*. Berlin/Almaty: adelphi & CAREC.

Green Cities Uzbekistan (2024) O'zbekiston shaharlari ekologik barqarorligi reytingi: Metodologiya hujjati.



XITOIY GIS SANOATINING RIVOJLANISH STRATEGIYALARI: TEXNOLOGIK INTEGRATSIYA VA BOZOR TAHLILI

Fazliddinova Z.A.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi"

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy GIS (Geografik Axborot Tizimlari) sanoatining hozirgi holati, rivojlanish bosqichlari va strategik imkoniyatlari yoritilgan. GIS texnologiyalarining Xitoyda davlat siyosati, shaharsozlik, ekologiya, xavfsizlik va iqtisodiy sohalarda keng qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada sanoat zanjiri, kompaniyalar tuzilmasi, texnologik integratsiya hamda raqobat strategiyalari asosida tahliliy qarashlar ilgari surilgan. Shuningdek, GISning data science va mashinali o'qitish kabi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi bozor talablarini qondirishdagi roliga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: GIS sanoati, Xitoy, fazoviy tahlil, mashinali o'qitish, raqobat strategiyasi, sanoat zanjiri.

Аннотация. В данной статье рассматривается текущее состояние, этапы развития и стратегические возможности индустрии географических информационных систем (ГИС) в Китае. Анализируется широкое применение ГИС в государственной политике, градостроительстве, экологии, безопасности и экономике. Представлены аналитические выводы о цепочке стоимости отрасли, структуре компаний, технологической интеграции и стратегиях конкуренции. Особое внимание уделяется интеграции ГИС с современными технологиями, такими как анализ данных и машинное обучение.

Ключевые слова: ГИС-индустрия, Китай, пространственный анализ, машинное обучение, конкурентная стратегия, цепочка отрасли.

Annotation. This article explores the current state, development stages, and strategic opportunities of China's Geographic Information Systems (GIS) industry. It analyzes the wide application of GIS technologies in national policy, urban planning, environmental monitoring, security, and economic sectors. The article presents analytical insights on the industry's value chain, company structures, technological integration, and competition strategies. Additionally, it emphasizes the role of GIS integration with modern technologies such as data science and machine learning in addressing market demands.

Key words: GIS industry, China, spatial analysis, machine learning, competitive strategy, industrial chain.

1. Kirish.

Geografik axborot tizimi (GIS) - bu kompyuter fanlari, geografiya, yer o'lchash va xaritalash, kartografiya kabi fanlararo yo'nalishdir. So'nggi bir necha o'n yillikda GIS texnologiyasining rivojlanishi va qo'llanilishi eng e'tiborga molik texnologiyalardan biri bo'ldi.

GIS Xitoyga taxminan 30 yil avval kirib kelganidan beri bu texnologiya yuqori darajaga yetdi va xitoycha uslubga ega GIS sanoat klasterlari shakllandi. Mamlakatning O'n Birinchi Besh Yillik Rejasida GIS texnologiyasi Yer kuzatuv va navigatsiyasi yo'nalishidagi masofadan zondlash, navigatsiya va fazoviy tadqiqot texnologiyalari bilan bir qatorda to'rtta muhim yo'nalishdan biri sifatida e'tirof etilgan.

Hukumatning kuchli qo'llab-quvvatlashi ostida Xitoyda GIS sanoati sanoat hajmi, texnologik daraja va inson resurslari boyligi jihatdan tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Biroq ayrim rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda, Xitoyning GIS sanoatining sog'lom o'sishini cheklayotgan ayrim omillar ham mavjud. Ushbu maqola Xitoy GIS sanoatining hozirgi holati va xususiyatlariga asoslangan holda, Strategik boshqaruv va sanoat iqtisodiyoti nazariyalari hamda modellaridan foydalanib, Xitoy GIS sanoatining sog'lom va tezkor rivojlanishi uchun ba'zi takliflarni ilgari suradi.

2. Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda Xitoyda GIS texnologiyalarining rivojlanishi bir nechta strategik sohalarni qamrab oldi. Quyidagi tadqiqotlar bu sohalarda GIS qanday rol o'ynayotganini aniq yoritib beradi.

GIS texnologiyasi Xitoyda aqlli shaharlar qurilishida markaziy rol o'ynaydi. GIS orqali real vaqqli ma'lumotlar, 3D vizualizatsiya, favqulodda holatlar boshqaruvi va shahar rejalashtirish birlashtirilmoqda. Bunda resurslarni integratsiyalash va tahlil qilishning ilg'or usullari qo'llaniladi ([Liu et al., 2023](#)).

"Police GIS" (PGIS) tizimlari jinoyatlarning fazoviy tahlili va bashorati uchun joriy etilgan. Ushbu tizimlar jinoyat xaritalarini yaratish, xavfli hududlarni aniqlash va jinoyatchilikni oldindan ko'rish imkonini beradi. Soha hali ham muammolarga ega bo'lsa-da, GIS asosidagi jinoyat tahlili istiqbolli yo'nalish hisoblanadi ([He et al., 2022](#)).

GIS texnologiyasi orqali Xitoyda GI (Geographical Indication) mahsulotlari sifat nazorati ostida ishlab chiqarilib, xalqaro bozorlarga chiqarilmoqda. Bu yondashuv brendingni mustahkamlash, sifatli mahsulotlarning oldini olish va eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda ([Qian & Dong, 2023](#)), ([Mao & Görg, 2024](#)).

GIS texnologiyasi yordamida Xitoy va Yevropa Ittifoqi o'rtasida geografik ko'rsatkichlar o'zaro tan olindi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda sifat va brendni kafolatlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda ([Qian et al., 2024](#)).

Mahalliy sanoat uyushmalari GIS asosidagi mahsulotlar – masalan, Xinhui apelsin qobig'i – ni ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. GIS texnologiyasi orqali ishlab chiqarish, qayta ishlash, marketing va eksport bo'yicha kuchli zanjir yaratilmoqda ([Li et al., 2023](#)).

Guangxi viloyatidagi tadqiqotda GIS va RS (Remote Sensing) texnologiyalari asosida turizm sanoatining ekologik ta'siri baholandi. GIS Entropiya indeksi ekologik barqarorlikni aniqlashda innovatsion ko'rsatkich sifatida qo'llanildi.

GIS va data science texnologiyalarining integratsiyasi orqali katta fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash va prognoz qilish imkoniyati oshmoqda. Mashinali o'qitish algoritmlari shahar kengayishi, tabiiy ofatlar va landshaft o'zgarishlarini aniqlashda keng qo'llanilmoqda ([Yu et al., 2021](#)).

Xitoyda GIS texnologiyasi yashil investitsiyalar samaradorligini baholashda ham qo'llanilmoqda. Xususan, "Belt and Road" mamlakatlaridagi ekologik investitsiyalarni tahlil qilishda GIS vositalari muhim rol o'ynagan ([Fan et al., 2022](#)).

Xitoyda GIS texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat texnik yutuq, balki siyosiy va iqtisodiy strategiyalarning ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Shaharsozlikdan tortib ekologiyaga, xavfsizlikdan tortib qishloq xo'jaligiga qadar ko'plab sohalarda GIS texnologiyasi real vaqqli qarorlar, bashorat modellari va tahlil vositasi sifatida mustahkam o'rin egallamoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda Xitoy GIS sanoati bo'yicha ilmiy maqolalar, hukumat hujjatlari va soha statistikasi asosida adabiyotlar tahlili olib borildi. Sanoatning asosiy tarkibiy qismlari va ularning funksional roli tizimli tarzda o'rganildi. Porterning raqobat strategiyalari modeli asosida GIS kompaniyalarining strategik yondashuvlari tahlil qilindi. GIS sanoat zanjiri bosqichlari – mahsulot ishlab chiqishdan to iste'molchigacha – bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Xitoy GIS bozori boshqa davlatlar GIS sanoati bilan solishtirilib, raqobatbardoshlik va texnologik farqlar baholandi.

4. Tahlil va natijalar.

GIS sanoatining tarkibiy qismlari. Xalqaro nufuzli axborot baholash tashkilotining tasnifiga ko'ra, GIS sanoatining tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

apparat vositalari (hardware),

dasturiy ta'minot (software),

ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash (data collecting and transformation),

elektron ma'lumotlar (electronic data),


masofadan zondlash axborotlarini olish va qayta ishlash (remote sensing information acquisition and processing),

tizimlarni ishlab chiqish va integratsiyalash (system developing and integration),

konsalting va texnologik xizmatlar (consulting and technology service). (1-rasmga qarang.)

Hududlarni tahlil qilish va prognozlashtirishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topadi. Ularga, birinchidan, apparat vositalari (hardware) va dasturiy ta'minot (software) kiradi, ular tizimning ishlashi uchun texnik va funksional asosni ta'minlaydi. Ikkinchidan, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash (data collecting and transformation) hamda elektron ma'lumotlar (electronic data) jarayoni amalga oshiriladi, bu esa turli manbalardan kelayotgan axborot oqimini yagona formatga keltirish imkonini beradi. Uchinchidan, masofadan zondlash axborotlarini olish va qayta ishlash (remote sensing information acquisition and processing) orqali hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va iqtisodiy holati bo'yicha real vaqt ma'lumotlari olinadi. Shuningdek, tizimlarning samarali ishlashini ta'minlash uchun tizimlarni ishlab chiqish va integratsiyalash (system developing and integration), ya'ni turli komponentlarning bir butun kompleksga birlashtirilishi amalga oshiriladi.

Nihoyat, konsalting va texnologik xizmatlar (consulting and technology service) axborot tizimlaridan foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



1-rasm. GIS sanoati obyektlarini tuzilishi

Hozirgi kunda Xitoyning GIS sanoatida asosan ma'lumotlarni ishlab chiqarish va ta'minlash, GIS dasturiy mahsulotlari va texnologiyalari, GIS ilovalari va xizmatlari hamda GIS sanoatining yakuniy bozori va yakuniy foydalanuvchilari ustuvor ahamiyatga ega.

Xitoy GIS sanoat zanjiri. Hozirgi kunda GIS sanoat zanjiri asosan 4 ta bo'g'indan iborat: yuqori qismda ma'lumot kompaniyalari (ma'lumotlarni ishlab chiqarish va ta'minlovchilar) hamda GIS dasturiy ta'minot provayderlari, o'rta qismda GIS ilovalar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar, pastki qismda esa mijozlar joylashgan. Kelajakda konsultatsiya va texnologik xizmatlarga bo'lgan talabni hisobga olsak, Xitoyning GIS sanoat zanjirining tuzilmasi quyidagi 2-rasmda ko'rsatilgan.

GIS kompaniyalarining tez o'sishi. 1990-yillarda Xitoyda eng ko'pi bilan 20 ta GIS kompaniyasi (qo'shma korxonalar ham hisobga olinsa) mavjud bo'lgan, ularning barchasi kichik hajmda bo'lib, aksariyati hukumatning qo'llab-quvvatlashi bilan faoliyat yuritgan. Bugungi kunda esa 400 dan ortiq ixtisoslashgan GIS kompaniyalari mavjud. Garchi kichik va o'rta kompaniyalar asosiy o'rinni egallasa-da, kompaniyalarning 80%i ro'yxatdan o'tgan kapitali 500 mingdan 2 million RMB yuanga qadar, qolgan 20%i esa taxminan 10 million RMB yuan atrofida. Eng yirik GIS kompaniyada taxminan 200 nafar xodim ishlaydi, 25% kompaniyalarda esa xodimlar soni 100 dan 200 gacha. So'nggi tadqiqotga ko'ra, Pekin, Shanxay va Guangdong Xitoydagi uchta GIS fazoviy markazga aylangan.

GIS ilovalar sohasining kengayishi bilan, ba'zi an'anaviy IT kompaniyalari GIS sanoatiga kirib kelmoqda, masalan: Nuesoft, POTEVIO, Digital China, ZTE, Datang Telecom va boshqalar. Aniqki, an'anaviy IT kompaniyalarining qo'shilishi GIS va an'anaviy IT texnologiyalarining integratsiyasini tezlashtiradi hamda sanoatdagi GIS kompaniyalarining optimallashtirilishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda global GIS mahsulotlari bozori hajmi 1 milliard AQSh dollariga teng bo'lib, GIS bilan bog'liq dasturiy ta'minot, apparat vositalari va xizmatlarning yillik daromadi deyarli 10 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Xitoyning GIS bozori tez sur'atlarda o'smoqda va bozor imkoniyati katta. Xitoy dasturiy ta'minot sanoatining ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda GIS

dasturiy ta'minoti savdosi va texnologik xizmatlar hajmi 1,5 milliard RMB yuanni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yil oxirida bu ko'rsatkich 3 milliard RMB yuandan oshgan, bu o'n yil avvalga nisbatan 50 barobar ko'pdir.

Xitoy GIS sanoatining asosiy ob'ektlari ma'lumotlar, dasturiy ta'minot va ilovalarni integratsiyalashdan iborat, chunki texnik konsultatsiya xizmatlari hali rivojlanmagan va ular rivojlangan sanoat zanjiriga tayangan. GIS ilova tizimlarining foydalanuvchilari asosan hukumat idoralari, korxonalar va jamoat xizmatlaridan iborat. Ulardan hukumat GISning eng muhim mijozidir, ammo so'nggi paytlarda an'anaviy bo'lmagan GIS ilova sohalari va korxonalar ham katta talabni yuzaga keltirmoqda, va bu korxonalar GISning muhim mijozlariga aylanishmoqda. Jamoat xizmatlari bo'yicha biznes modeli hali aniq emas va bozor hali boshlang'ich bosqichda, ammo uning ulkan bozor istiqbollarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Xitoy GIS sanoatining xususiyatlari. Xitoy GIS sanoati tez rivojlanishi bilan birga, GIS texnologiyasi tobora ko'proq sohalarda qo'llanilmoqda. Xitoy GIS sanoatining hozirgi holati va rivojlanishini tahlil qilib, quyidagilarni aytish mumkin:

Ijobiy makroiqtisodiy muhit GIS sanoatining tez o'sishini qo'llab-quvvatlaydi. Markaziy hukumat va mahalliy hukumatlar GIS sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. To'qqizinchi besh yillik rejasidan boshlab, Fan va texnologiyalar vazirligi GIS dasturiy ta'minotini maxsus fondlar bilan moliyalashtirib, yuqori texnologiyalar sohasida GIS sanoatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat bergan. Siyosatdan tortib, tadqiqot va texnologiyaga qadar hukumat qo'llab-quvvatlashi GIS sanoatining tez o'sishida muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy GIS dasturiy ta'minoti bozorda asosiy kuchga aylanmoqda. Davlat siyosatining yo'riqnomasi ostida mahalliy GIS dasturiy ta'minot texnologiyasi yetuklashib, raqobatbardor bo'lib bormoqda. Mahalliy GIS dasturiy ta'minotining bozor ulushi 30% dan ortib ketgan, shuning uchun mahalliy dasturiy ta'minot xorijiy mahsulotlar bilan faol raqobatlashishga texnologik salohiyatga ega. Siyosat, narx va xizmat sohasidagi afzalliklar bilan birgalikda, mahalliy GIS dasturiy ta'minoti asta-sekin bozorda asosiy yo'nalishga aylanmoqda.

Geografik fazoviy ma'lumotlardan foydalanish siyosati Xitoy GIS sanoatining rivojlanishini cheklaydi. Rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda, geografik fazoviy ma'lumotlardan foydalanishga qo'yilgan siyosiy cheklovlar va fazoviy ma'lumotlarni olishdagi to'siqlar GIS sanoatining rivojlanishini cheklamoqda. Hozirda hukumat ushbu muammoni milliy geografik fazoviy infratuzilmasini yaratish orqali hal qilmoqda (Kong Yunfeng statistikasi).

Sanoatda ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan ko'p davlat korxonalar mavjud, katta xususiy korxonalar esa kam. Shuningdek, sanoatda korxonalar boshqaruvi va marketing bo'yicha keng qamrovli mutaxassislar yetishmaydi. Xitoydagi yirik GIS kompaniyalar tomonidan o'tkazilgan so'rov natijasiga ko'ra, yillik aylanmasi 50 million RMB yuandan ortiq GIS kompaniyalari soni juda kam. 2005 yilda faqat ikki GIS dasturiy ta'minot kompaniyasi — Supermap va Zhongdy bu ko'rsatkichga erishgan. GIS texnologiyasi Xitoyga asosan tadqiqot institutlari tomonidan olib kelinganligi sababli, ko'pgina GIS kompaniyalari ilmiy-tadqiqot yo'nalishiga ega: kompaniyalar hajmi kichik, katta xususiy GIS kompaniyalari esa kam. Ko'pgina GIS kompaniyalari GIS olimlari yoki mutaxassislari tomonidan boshqarilgani uchun, tez rivojlanayotgan GIS sanoatida korxonalar boshqaruvi va marketing bo'yicha keng qamrovli kadrlar yetishmaydi.

Sanoat bo'linishi aniq emas va sanoat zanjiri hali yetuk emas. Xitoy GIS sanoatiga oid keng qamrovli so'rov natijasida, yirik kuchli GIS kompaniyalari ma'lumotlar, dasturiy ta'minot, GIS ilovalar va xizmatlarni taqdim eta oladi, ya'ni deyarli butun sanoat zanjirini qamrab oladi, kichik kompaniyalar esa faqat GIS ilovalar integratsiyasi xizmatlarini taklif qilishi mumkin. Ushbu sanoat modeli GIS sanoatining bo'linishi aniq emasligini va sanoat zanjirining hali yetuk emasligini ko'rsatadi.

Xitoy GIS sanoatining muhiti

a) Diskret (ajratilgan) sanoat muhiti. Xitoy GIS sanoatida o'rta va kichik kompaniyalar soni ko'p bo'lsa-da, hozircha sanoatni boshqaruvchi yirik ustun kompaniya mavjud emas. Xitoy ichki GIS dasturiy ta'minot kompaniyalari katta yutuqlarga erishgan, ba'zilari asosiy kompaniyalarga aylangan, lekin hech biri sanoat ustunligi uchun kurashmaydi: ko'plab GIS kompaniyalari turli asosiy GIS dasturiy platformalariga tayangan holda raqobat olib bormoqda. Shunday qilib, Xitoy GIS sanoatidagi tipik diskret sanoat muhiti sharoitida, imkon qadar tez paydo bo'ladigan kompaniya kelajakda Xitoy GIS sanoatining yetakchisiga aylanishi kerak.

b) Tez o'sayotgan sanoat muhiti. Zamonaviy axborot texnologiyalari, an'anaviy geografiya, o'lchov ishlari va kartografiya kross-fanlararo texnologiya va fan: GISni hosil qildi. GIS texnologiyasi GIS sanoatining tez rivojlanishini rag'batlantiradi, asosiy mahsulotlari GIS texnologiyasi va xizmatlariga qaratilgan. Sanoat hayoti sikli nazariyasiga ko'ra, sanoat quyidagi bosqichlardan o'tadi: tanishtirish, o'sish, yetuklik va pasayish. Xitoy GIS sanoati birinchi bosqichni o'tdi va hozir ikkinchi bosqichga kiryapti. Shu bilan birga, sanoat zanjiri asta-sekin yetuklashmoqda.

GIS sanoatining genetik (asosiy) strategiyalari Maykl Porterga ko'ra, kompaniyalar muvaffaqiyatga erishishlari uchun uch turdagi asosiy (genetik) strategiya mavjud:

- umumiy xarajatlarda yetakchilik strategiyasi,
- farqlash (differensiyatsiya) strategiyasi,
- va fokus (yo'naltirilgan) strategiyasi.

Xitoy GIS sanoatiga yuqoridagi tahlil asosida qaraganda, ma'lum bo'ladiki:

- ma'lumot yetkazib beruvchi kompaniyalar mehnat talab qiluvchi (labor-intensive),
- dasturiy ta'minot kompaniyalari esa texnologiyaga talab katta (technology-intensive),
- va ilova hamda xizmat ko'rsatish kompaniyalari esa o'z maqsadli mijozlariga qarab mehnat va texnologiya talablarini muvozanatlashishi kerak.

Ma'lumot kompaniyalari va dasturiy ta'minot kompaniyalarining mahsulotlari umumiy bozor uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin, ilova va xizmat kompaniyalari esa maxsus segmentli bozor mijozlariga xizmat qiladi.

Garchi GIS kompaniyalarning yo'nalishi sanoat zanjirida ko'rsatilgandek bir xil bo'lmasa va ularning maqsadlari yagona bo'lmasa ham, shuningdek ular qabul qilgan strategiyalar ham turlicha bo'lsada, ideal sharoitlarda:

- umumiy xarajatlarda yetakchilik strategiyasi ma'lumot kompaniyalari uchun mos,
- farqlash strategiyasi dasturiy ta'minot kompaniyalari uchun qulay,
- fokus strategiyasi esa ilova va xizmat ko'rsatish kompaniyalari uchun yanada mos hisoblanadi, chunki ma'lumot kompaniyalari mehnat talab qiluvchi, dasturiy ta'minot kompaniyalari texnologiyaga talab katta va ilova hamda xizmat kompaniyalari esa bilimga talab katta.

Rivojlanayotgan sanoat muhiti ostidagi raqobat strategiyalari

Xitoy GIS ilovalari klasteri tez o'sishda davom etmoqda va yangi GIS kompaniyalari tezda paydo bo'lmoqda. Yuqoridagi hodisalar Xitoy GIS sanoati hali yangi rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, texnologik noaniqlik, strategik noaniqlik va davlat moliyaviy yordamiga muhtojlik kabi omillar ham mavjud.

Yangi sanoatning eng asosiy xususiyati - o'yinning aniq qoidalarining yo'qligidir. Xitoy GIS sanoatida bu quyidagicha:

- mahsulot va texnologiya standartlari bir xil emas,
- ilg'or va eskirgan texnologiyalar bir vaqtda mavjud,
- mijozlar uchun mos yechim tanlash qiyin,
- loyiha sifatida beqaror,
- kompaniyalar hajmi kichik, moliyalashtirish qobiliyati zaif,
- kompaniyalar o'rtasida hamkorlik qiyin.

Bu omillar sanoat rivojlanishini cheklaydi, ammo bir vaqtda bu katta imkoniyat va chaqiriq hamdir. Agar GIS kompaniyalari ushbu muammolarni hal qila olsalar, yuqori

texnologik to'siqlar, ko'chirish qiyin bo'lgan tajribalar va muhim o'rganish egri chizig'i sababli, sanoatga erta kirgan kompaniyalar uchun yaxshi firma imidjini yaratish, texnologiyalarni to'plash va mijozlarning sadoqatini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

5. Xulosa.

Bozor talabi va hukumat qo'llab-quvvatlovi tufayli, Xitoy GIS sanoati katta yutuqlarga erishdi:

nafaqat xorijiy dasturiy ta'minot bilan solishtirganda texnologiya darajasida,

balki bozor ulushida ham: Xitoy ichki GIS dasturiy ta'minoti bozorining 35% ulushini egallab, barqaror o'sishni namoyish etmoqda.

Xitoy GIS sanoat zanjirining pishishini tezlashtirish va xalqaro raqobatbardosh kuchli GIS sanoatini barpo etish keyingi bosqichda barcha ishtirokchilar uchun muhim vazifalar hisoblanadi.

Xitoy GIS sanoatining tez va sog'lom o'sishini rag'batlantirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

Oldingi bosqichdagi siyosat yo'nalishlari, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ko'rsatmalar asosida hukumat ma'lumotlar mualliflik huquqi, ma'lumotlardan foydalanish, ortiqcha investitsiya va qurilish kabi muammolarni milliy fazoviy infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali imkon qadar tez hal qilishi lozim. Shuningdek, hukumat bozorni doimiy tartibga solishi va GIS standartlarini iloji boricha tez birlashtirishi zarur.

Birinchi, kompaniyalar o'zlarining raqobatbardosh imkoniyatlarini kuchaytirib, xalqaro bozor raqobatida faol qatnashishi kerak. Yetakchi kompaniyalar sanoat zanjirida o'zlarining to'g'ri va ustun pozitsiyasini erta egallash muhimligini anglab, keskin raqobat o'rniga ittifoqlar tuzishni ma'qul bilishmoqda. Ikkinchi, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish va malakali menejerlarni jalb qilishni tezlashtirish zarur. Uchinchi, hukumat ehtiyojlarini qondirgandan so'ng, kompaniyalar jamiyatdan yangi talablar va mijozlarni izlab topishlari, doimiy innovatsiyalarni amalga oshirishlari, hamda yo'nalishni hukumat xaridlaridan ijtimoiy iste'molga o'zgartirishlari kerak. Oxirida esa, kompaniyalar sog'lom raqobat muhitini yaratish uchun kuchli sa'y-harakatlar qilishi, o'z-o'zini tartibga solish tizimini asta-sekin barpo etishi va hozirgi tartibsiz, zararli raqobat muhitini yaxshilashi lozim. Xitoyga xos faol va boy sanoat klasterlari yetakchi GIS kompaniyalar harakati bilan shakllanishi kerak.

GIS sanoatining birinchi rivojlanish davri iliqlashib borayotgan bir paytda, investorlar uchun sanoatga kirish uchun qulay fursat paydo bo'ldi. Bir nechta yetakchi GIS kompaniyalar xalqaro mashhur venchur kapital kompaniyalari e'tiborini tortmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yangi asrda Xitoy GIS sanoatining rivojlanish bosqichida ko'plab imkoniyatlar mavjudligiga ishonish mumkin.

Adabiyotlar:

Liu, Y., Wu, Y., Cao, H., Wang, Z., Wang, Z., Cui, Y., & Li, G. (2023). The Application of GIS Technology in the Construction of Smart City. *Academic Journal of Science and Technology*. <https://doi.org/10.54097/ajst.v5i2.6861>.

He, R., Xu, Y., & Jiang, S. (2022). Applications of GIS in Public Security Agencies in China. *Asian Journal of Criminology*, 17, 213 - 235. <https://doi.org/10.1007/s11417-021-09360-5>.

Qian, W., & Dong, Y. (2023). Comparative study on the geographical indication protection between China and the European Union - From the perspective of the China-EU Geographical Indications Agreement. *Agricultural Economics (Zemědělská ekonomika)*. <https://doi.org/10.17221/98/2023-agricecon>.

Mao, H., & Görg, H. (2024). Don't take me for a free-ride: Chinese Agricultural Geographical Indications and firms' export quality. *Agricultural Economics*. <https://doi.org/10.1111/agec.12871>.

Qian, W., Dong, Y., & Liu, Y. (2024). Mutual recognition of geographical indications and China's agricultural exports—On the use of domestic and international markets. *Agribusiness*. <https://doi.org/10.1002/agr.21902>.

Jing, L., Liu, Y., & Chen, Z. (2023). Role of Industry Associations in the GI Value Chain: The Case of Xinhui Orange Peel. .

Lv, X., & Chen, L. (2025). Evaluation of Ecological Environment Quality of Tourism Industry in Guangxi Region Based on RS and GIS. *Int. J. Agric. Environ. Inf. Syst.*, 16, 1-19. <https://doi.org/10.4018/ijaeis.372680>.

Yu, Z., Liang, Z., & Xue, L. (2021). A data-driven global innovation system approach and the rise of China's artificial intelligence industry. *Regional Studies*, 56, 619 - 629. <https://doi.org/10.1080/00343404.2021.1954610>.

Fan, Q., Liu, J., & Liua, T. (2022). Efficiency evaluation of China's green investment in the “Belt and Road” countries. *Structural Change and Economic Dynamics*. <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2022.01.003>.



HUDUDLAR IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XALQARO TAJRIBASI

Ismatova S.A.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston, Xitoy va AQSh misolida hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash mexanizmlari, ularning iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar hamda natijadorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2024–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida uch davlatning hududiy rivojlanish modeli, iqtisodiy o'sish sur'atlari, innovatsion salohiyati va investitsiya siyosati solishtirildi. Natijalar O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarni lokal sharoitga moslashtirishning samarali yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. hududiy raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish siyosati, investitsiya, innovatsiya, AQSh, Xitoy, O'zbekiston.

Аннотация. В статье анализируются механизмы обеспечения региональной конкурентоспособности, приоритетные направления их экономической политики и показатели эффективности на примере Узбекистана, Китая и США. В исследовании сравниваются модели регионального развития, темпы экономического роста, инновационный потенциал и инвестиционная политика трех стран на основе статистических данных за 2024–2025 годы. Результаты исследования позволяют выявить эффективные пути адаптации зарубежного опыта к местным условиям для Узбекистана.

Ключевые слова: региональная конкурентоспособность, экономический рост, политика регионального развития, инвестиции, инновации, США, Китай, Узбекистан

Abstract. The article analyzes the mechanisms for ensuring regional competitiveness, priority areas of their economic policy and indicators of effectiveness in the case of Uzbekistan, China and the United States. The study compares the regional development model, economic growth rates, innovation potential and investment policy of the three countries based on statistical data for 2024–2025. The results serve to identify effective ways for Uzbekistan to adapt foreign experiences to local conditions.

Keywords: regional competitiveness, economic growth, regional development policy, investment, innovation, USA, China, Uzbekistan.

1. Kirish.

Global iqtisodiy integratsiya va texnologik raqobat kuchaygan sharoitda hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash har bir mamlakatning milliy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin egallaydi. Hududiy raqobatbardoshlik deganda mintaqalar o'z resurslarini samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish orqali iqtisodiy

ustunlikni shakllantira olishi tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston, Xitoy va AQSh tajribalarini taqqoslash hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Global iqtisodiyotning zamonaviy bosqichida hududiy raqobatbardoshlik mamlakatning barqaror o'sish va rivojlanish kafolatidir. Hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bu mintaqalarning mavjud resurslar, inson kapitali va infratuzilma imkoniyatlarini samarali safarbar etish darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston mustaqillikdan buyon hududlararo iqtisodiy tafovutni kamaytirish, sanoat klasterlarini rivojlantirish va "Yangi O'zbekiston – 2022–2026" strategiyasi doirasida mintaqalar salohiyatini oshirish siyosatini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, Xitoy va AQSh tajribalari bu borada global miqyosda samarali model sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur maqolada uch davlatning hududiy raqobatbardoshlik siyosati va natijalari ilmiy tahlil qilinadi. Jahon iqtisodiyotida hududiy raqobatbardoshlik masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati ko'p jihatdan uning mintaqalari qay darajada resurslarni samarali boshqara olishiga, investitsiyalarni jalb etish imkoniyatiga va innovatsion faoliyatni rivojlantirish darajasiga bog'liq. Xitoy va AQSh bu borada dunyoning yetakchi tajribasiga ega: Xitoy - ishlab chiqarish klasterlari, eksportga yo'naltirilgan zonalar va infratuzilma integratsiyasi bilan, AQSh - innovatsion markazlar, universitetlar va biznes hamkorligi orqali tajribali hisoblanadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda uch davlat tajribalari solishtirilib, O'zbekiston uchun amaliy xulosalar ishlab chiqiladi. Hududiy raqobatbardoshlik mintaqaning resurslar, infratuzilma, inson kapitali va institutlar uyg'unligi orqali barqaror o'sish va yuqori farovonlik yaratish qobiliyati hisoblanadi. Jahon amaliyotida bu kategoriya ko'proq uch ustun bilan izohlanadi:

- 1) unumdorlik va innovatsiya,
- 2) bozorga kirish va logistika,
- 3) institutlar va inson kapitali.

Porterning "millatlar raqobat ustunligi" paradigmasi bilan uyg'un holda hududiy darajada klasterlar va ixtisoslashuv raqobatni belgilaydi. AQSh esa universitet-sanoat hamkorligi va venchur kapitalga tayansa, Xitoy markazlashgan klaster siyosati, SEZlar va infratuzilmani tez kengaytirish orqali hududlararo tafovutni kamaytiradi. O'zbekistonda 2022–2026 strategiya doirasida hududiy siyosat yangilanib, ixtisoslashuv, erkin zonalar, transport loyihalari va raqamli transformatsiya tezlashmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotda taqqoslama tahlil (comparative analysis), statistik tahlil va SWOT-analiz usullaridan foydalanildi. Ma'lumot manbalari: Jahon banki (*World Development Indicators, 2025*), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, *World Economic Outlook, 2025*), O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (Stat.uz, 2025), AQSh *Economic Development Administration* va Xitoy Milliy statistika byurosi (NBS). Tahlil uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tanlandi:

- Yalpi ichki mahsulot (YAIM);
- Jon boshiga YAIM;
- Real o'sish sur'ati (%);
- Sanoat va xizmatlar sektorining ulushi;
- Innovatsiya va investitsiya faoliyati darajasi.

Olingan ma'lumotlar asosida YAIM hajmi, jon boshiga YAIM, iqtisodiy o'sish sur'ati, tarmoqlar tarkibi, investitsiya va innovatsiya faoliyati hamda infratuzilma ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda ilg'or xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llarini aniqlash metodologik asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil, qiyosiy (komparativ) tahlil,

tizimli yondashuv, statistik tahlil, SWOT tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Olingan ma'lumotlar asosida YAIM hajmi, jon boshiga YAIM, iqtisodiy o'sish sur'ati, tarmoqlar tarkibi, investitsiya va innovatsiya faoliyati hamda infratuzilma ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

1-jadval

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar taqqoslanishi (2024)

| Ko'rsatkich | O'zbekiston | Xitoy | AQSh |
|-----------------------------|-------------|--------|--------|
| YAIM (mlrd AQSh \$) | 115 | 18 740 | 29 185 |
| Aholi (mln kishi) | 37,2 | 1 405 | 334 |
| YAIM aholi jon boshiga (\$) | 3 162 | 13 303 | 85 810 |
| Real o'sish (%) | 6,5 | 5 | 2,8 |
| Sanoat ulushi (%) | 31,6 | 39 | 18,8 |
| Xizmatlar ulushi (%) | 49,2 | 52,3 | 77,6 |

Ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, O'zbekiston umumiy YAIM hajmi jihatidan yirik iqtisodiyotlardan ancha orqada tursa-da, o'sish sur'atlari bo'yicha Xitoy (5 %) va AQSh (2,8 %) bilan solishtirganda yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Bu mamlakatning iqtisodiy modernizatsiya jarayoni tez sur'atlarda kechayotganini anglatadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 115 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, real o'sish 6,5 % darajada qayd etildi (World Bank, 2025). Xitoyda bu ko'rsatkich 18,7 trln AQSh dollari (o'sish 5 %), AQShda esa 29,1 trln AQSh dollari (o'sish 2,8 %) bo'ldi (IMF, 2025).

Jon boshiga YAIM jihatidan farq sezilarli hisoblanadi. O'zbekistonda 3,16 ming \$, Xitoyda 13,3 ming \$, AQShda esa 85,8 ming \$. Shu bilan birga, O'zbekistonning yuqori o'sish sur'atlari uning iqtisodiy rivojlanish bosqichini o'tish davrida tezkor diversifikatsiya amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Xitoyda ishlab chiqarish sanoati YAIMning qariyb 40 %ini tashkil etib, ishlab chiqarish klasterlari (Shenzhen, Chongqing, Shaanxi) asosiy drayverga aylangan (NBS China, 2024). AQShda esa xizmatlar sohasi YAIMning 77 %ini egallaydi - bu yirik texnologik kompaniyalar, moliya sektori va ilmiy-texnik xizmatlarning ustunligi bilan bog'liq (EDA, 2024). O'zbekistonda xizmatlar sektori ulushi 49,2 %ni tashkil etib, bu sohaning o'sish imkoniyatlari yuqoriligini bildiradi.

AQShda ilmiy-tadqiqot xarajatlari YAIMning 3,4 %ini tashkil etadi, Xitoyda bu ko'rsatkich 2,4 %, O'zbekistonda esa 0,3 % (OECD, 2023). Bu farq ilmiy-texnologik salohiyat hududiy raqobatbardoshlikning asosiy omili ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Xitoyda ichki transport-logistika tarmoqlarining zichligi AQShnikidan past bo'lsa-da, "Bir kamar - bir yo'l" tashabbusi tufayli hududiy integratsiya tez sur'atlarda kengaymoqda.

Xitoy tajribasi hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda "erkin iqtisodiy zonalar" (SEZ) va klaster siyosatiga tayanadi. Masalan, Shenzhen, Chongqing, va Shaanxi provinsiyalari alohida imtiyozli investitsiya rejimlari orqali xorijiy kapitalni jalb etib, texnologik ishlab chiqarish markazlariga aylangan. Shu bilan birga, Xitoyning "Bitta kamar, bitta yo'l" tashabbusi transport-logistika infratuzilmasini hududlararo integratsiyaga bog'lab, ichki va tashqi bozorlarni birlashtiradi.

AQSh tajribasi esa innovatsion ekotizim, erkin bozor muhitini qo'llab-quvvatlash va hududiy muvozanatni ilmiy-texnik salohiyat orqali ta'minlash bilan farqlanadi. Masalan,

Kaliforniya shtatidagi “Silicon Valley”, Texas va Illinoys shtatlaridagi sanoat klasterlari hududlarning mustaqil raqobatbardoshligini oshirib, milliy iqtisodiyotning texnologik yetakchiligini ta’minlab kelmoqda. Federal darajadagi “Economic Development Administration (EDA)” dasturlari orqali hududiy tadbirkorlik, innovatsiya va startap ekotizimlari moliyaviy qo’llab-quvvatlanadi.

2-jadval

O‘zbekiston, Xitoy va AQSh hududiy raqobatbardoshlik modellarining taqqoslama tahlili

| Ko‘rsatkichlar | Xitoy modeli | AQSh modeli | O‘zbekiston uchun o‘rganiladigan saboqlar |
|-----------------------------------|--|--|---|
| Hududiy siyosat turi | Markazlashgan, davlat tomonidan boshqariladigan (top-down) | Desentralizatsiyalashgan, bozor mexanizmlariga tayangan (bottom-up) | Ikkisini uyg‘unlashtiruvchi “gibrid” model – davlat strategik rejalashtiradi, lekin innovatsiya va startaplar bozor asosida rivojlanadi |
| Asosiy drayverlar | Sanoat klasterlari, SEZlar, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish | Innovatsion ekotizim, vechur kapital, ilmiy markazlar, universitet-sanoat hamkorligi | Klaster siyosatini innovatsiya bilan birlashtirish; IT, logistika va farmatsevtika sohalarida klasterlar shakllantirish |
| Boshqaruv yondashuvi | Yuqoridan pastga (hukumat rejalashtiradi, provinsiyalar bajaradi) | Pastdan yuqoriga (shtatlar, universitetlar va bizneslar tashabbuskor) | Hududiy dasturlarda “bottom-up” tashabbusni kengaytirish, lekin davlat koordinatsiyasini saqlash |
| Institutsional muhit | Davlat ishtiroki kuchli, soliq va bojxona imtiyozlari, SEZlar orqali investitsiyalarni jalb etish | Mustaqil ilmiy markazlar, vechur kapital, EDA grantlari, IP himoyasi kuchli | Erkin iqtisodiy zonalarda yagona “bir darcha” tizimini joriy etish; universitetlar uchun ilmiy grantlar mexanizmini kuchaytirish |
| Infratuzilma yondashuvi | “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi orqali transport-logistika integratsiyasi, davlat investitsiyalari | Xususiy sektor yetakchiligida logistika va raqamli infratuzilma, texnoparklar | Transport-logistika tizimini rivojlantirish; CKU temir yo‘l loyihasini yakunlash va ichki tarmoqlarni kengaytirish |
| Innovatsiya siyosati | Texnoparklar, sanoat zonolari, texnologiya transferi davlat qo‘llovida | Universitet-sanoat uchburchagi, startaplar, vechur fondlar, grantlar tizimi | IT Park, texnopark va inkubatorlarni viloyatlar darajasida tashkil etish, ilmiy grant tizimini kengaytirish |
| Inson kapitaliga yondashuv | Texnik ta’lim va kasbiy malaka o‘quv markazlari orqali ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash | Oliy ta’lim, R&D, STEM yo‘nalishlariga sarmoya, fundamental fanlar ustuvor | Raqamli ko‘nikmalarni oshirish, STEM dasturlari, yoshlar uchun innovatsion ta’lim klasterlari |
| Ekologik siyosat | Yashil sanoat va energiya samaradorligi dasturlari 2020-yildan jadal amalga oshirilmoqda | Yashil investitsiyalar va uglerod soliqlari orqali ekologik muvozanatni rag‘batlantirish | “Yashil energetika”ni hududiy siyosatga integratsiyalash; qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish |
| Raqamli transformatsiya | Raqamli infratuzilma rivojlanmoqda, ammo texnologik asosan sanoat tarmoqlarida jamlangan | Raqamli xizmatlar, onlayn iqtisodiyot, e-commerce yetakchilikda | “Raqamli Toshkent viloyati” konsepsiyasi: elektron xizmatlar, data-markazlar, AI va startaplarni qo‘llab-quvvatlash |

Jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinadiki, Xitoy va AQSh hududiy raqobatbardoshlikni shakllantirishda turli institutsional yondashuvlarga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy maqsad hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va milliy

iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish hisoblanadi. O'zbekiston esa bu tajribalardan o'ziga mos modelni shakllantirmoqda.

Xitoy modeli markazlashgan boshqaruv tizimiga tayangan bo'lib, davlat mintaqalar faoliyatini yuqoridan pastga (top-down) tartibda muvofiqlashtiradi. Har bir provinsiya uchun aniq ishlab chiqarish yo'nalishlari, eksport strategiyalari va klaster siyosati hukumat tomonidan belgilab beriladi. Buning natijasida infratuzilma loyihalari tez amalga oshadi, lekin byurokratik yuklama yuqoriroq bo'ladi.

AQSh esa, aksincha, desentralizatsiyalashgan siyosatni qo'llaydi. Har bir shtat o'zining soliq siyosati, innovatsion grant dasturlari va universitet-biznes hamkorlik mexanizmlarini mustaqil ishlab chiqadi. Bu tizim iqtisodiy erkinlikni oshiradi, raqobatni tabiiy shakllantiradi, biroq resurslar notekis taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston uchun ushbu ikki tizimning muvozanatli kombinatsiyasi eng maqbul yondashuv bo'lib, bunda strategik yo'nalishlarni davlat belgilaydi, ammo ularni amalga oshirishda mahalliy tashabbuslar va xususiy sektor faol ishtirok etadi. Bu "gibrid model" O'zbekistonning mavjud boshqaruv tizimiga mos tushadi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Xitoy va AQSh tajribalari o'ziga xos bo'lsa-da, ularning sinergiyasi O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l hisoblanadi:

- Xitoydan klaster siyosati, infratuzilma va SEZ modelini o'rganish;
- AQShdan innovatsion ekotizim, ilm-fan va startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qabul qilish;
- Yevropa tajribasidan "smart specialization" tamoyilini joriy etish.

Natijada O'zbekiston "gibrid raqobat modeli"ni shakllantirishi mumkin. Bu modelda davlat umumiy yo'nalishni belgilaydi, lekin innovatsiyalar, texnologiyalar va inson kapitali rivoji hududiy tashabbuskorlik asosida amalga oshiriladi.

Shunday yondashuv Toshkent viloyatining iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada safarbar etadi, hududiy tengsizlikni kamaytiradi va xalqaro bozorda barqaror raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Xitoy tajribasining markazida sanoat klasterlari va erkin iqtisodiy zonalar (SEZ) turadi. Masalan, Shenzhen va Zhuhai zonalari xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va eksportni ko'paytirishda asosiy tayanch bo'ldi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham dolzarb "Angren", "Jizzax" va "Navoi" erkin zonalarining faoliyatini diversifikatsiyalash orqali mintaqaviy iqtisodiyotga yangi turtki berish mumkin.

AQSh modeli esa innovatsion ekotizimga asoslangan. U yerda hududiy raqobatbardoshlikning asosiy drayverlari universitetlar, venchur kapital va texnologik startaplar hisoblanadi. Kaliforniya, Massachusets, Texas va Illinoys shtatlaridagi ilmiy markazlar (masalan, Stanford, MIT, Texas Tech) biznes bilan integratsiyalashgan. Bu model O'zbekistonda IT Parklar, texnoparklar va universitet inkubatorlari orqali bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Xitoyda innovatsiya asosan davlat qo'lloviga tayangan shaklda rivojlanadi. Hukumat tadqiqot markazlarini moliyalashtiradi, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish korxonalarini uchun soliq imtiyozlari beradi. Bu natijada 2024-yilda Xitoyda ilmiy-tadqiqot sarf-xarajatlari YAIMning 2,4 % ini tashkil etgan (NBS, 2024).

AQShda esa bu ko'rsatkich 3,4 % atrofida (OECD, 2023), lekin bu mablag'larning katta qismi xususiy kompaniyalar, ilmiy markazlar va venchur fondlar tomonidan ta'minlanadi. Innovatsion faoliyatning bozor mexanizmlari ustuvor bo'lib, davlat faqat rag'batlantiruvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ilmiy-tadqiqotga ajratiladigan mablag' YAIMning 0,3 % ni tashkil etadi (Stat.uz, 2025). Shuning uchun, Xitoy modelidagi davlat qo'llovini va AQShdagi xususiy sektor faolligini birlashtirish O'zbekiston uchun muhim strategiya hisoblanadi.

AQSh raqobatbardoshligining asosiy omili inson kapitaliga katta sarmoya kiritilishi. Oliy ta'lim, ilmiy grantlar, tadqiqot infratuzilmasi va iqtidorli kadrlarni rag'batlantirish

mexanizmlari iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini belgilaydi. Xitoy esa texnik va kasbiy ta’lim tizimini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirgan. Provinsiyalarda amaliy fanlar va texnik muhandislikka ixtisoslashgan kollejlarda o’quv dasturlari sanoat ehtiyojlari bilan integratsiyalashgan.

O’zbekiston uchun bu tajribalarning uyg’unlashgan modeli zarur: universitetlarda ilmiy faoliyatni rag’batlantirish (AQSh tajribasi) va texnik kollejlarda tarmog’ini ishlab chiqarish bilan bog’lash (Xitoy tajribasi). Toshkent viloyatida bu jarayonni IT sohasidagi o’quv markazlari, “Yoshlar innovatsiya markazi” va texnoparklar bilan birlashtirish mumkin.

Xitoy hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashda transport-logistika tizimini markaziy o’ringa qo’ygan. “Bir kamar - bir yo’l” tashabbusi ichki va tashqi savdo oqimlarini tezlashtirib, provinsiyalar o’rtasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan. AQShda esa logistika tizimi asosan xususiy sektor tomonidan boshqariladi. Sanoat hududlari va portlar raqamli logistika platformalari bilan integratsiyalangan.

O’zbekiston uchun bu yo’nalishda eng muhim ustuvorlik Toshkent viloyatini mintaqaviy transport markaziga aylantirishdir. Xitoy-Qirg’iziston-O’zbekiston temir yo’li, “Angren-Pop” avtomagistrali va yangi logistika markazlari mamlakatning tashqi savdo raqobatbardoshligini sezilarli oshiradi.

Yashil iqtisodiyot har ikki davlatda raqobatbardoshlikning yangi manbai sifatida shakllanmoqda. Xitoyda qayta tiklanuvchi energiya ulushi 31 % ni tashkil etgan, AQShda esa “Green Deal” siyosati asosida uglerod emissiyasi kamaytirilmoqda (OECD, 2023). O’zbekiston ham 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25 % ga yetkazish maqsadini qo’ygan. Bu jarayon hududiy darajada “Yashil energetika zonlari” tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

“Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)” doirasida hududlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan asosiy yo’nalishlar:

- hududiy infratuzilma va transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish;
- raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish;
- hududiy investitsiya zonlari va klaster siyosatini kuchaytirish;
- inson kapitaliga sarmoya kiritish, xususan, yoshlar bandligi va kasbiy ta’lim tizimini kuchaytirish.

Bu yo’nalishlar Xitoyning investitsion mexanizmlarini, AQShning innovatsion modelini va Yevropa Ittifoqining “smart specialization” yondashuvini uyg’unlashtirgan mahalliy strategiya shaklida ko’rilmogda.

3-jadval

SWOT tahlil (O’zbekiston - Xitoy - AQSh misolida)

| Ichki omillar | Tashqi omillar |
|---|---|
| <p>Kuchli jihatlar: O’zbekistonning resurs bazasi, mehnat bozori, strategik joylashuv; Xitoyning ishlab chiqarish salohiyati; AQShning innovatsion infratuzilmasi.</p> | <p>Imkoniyatlar: Global logistika tarmoqlari, texnologik transfer, xalqaro sarmoya oqimlari.</p> |
| <p>Zaif jihatlar: Infratuzilma farqlari, moliyaviy bozorlarning cheklanganligi, ilmiy-texnik bazaning sustligi.</p> | <p>Tahdidlar: Global beqarorlik, tarif siyosati, iqlim o’zgarishi va geosiyosiy keskinlik.</p> |

Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston uchun kuchli tomonlar tabiiy resurslar, geografik joylashuv, yosh va mehnatga layoqatli aholi; zaif tomonlar esa innovatsion infratuzilma, raqamli iqtisodiyotning sust rivojlanishi va moliya bozori cheklovlaridir. Xitoy va AQSh tajribalari esa raqobatbardoshlikni ta’minlashda ilm-fan, texnologiya, transport-logistika va investitsion islohotlarning markaziy o’rin tutishini ko’rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xitoy va AQSh hududiy siyosatida institutsional barqarorlik, innovatsion ekotizimlar va texnologik sarmoyalar asosiy drayver sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun esa bu tajribalardan quyidagi xulosalar muhim:

1. Xitoy modeli - erkin iqtisodiy zonalar va klaster tizimi orqali raqobatbardosh hududlarni shakllantirish;
2. AQSh modeli - universitetlar, ilmiy markazlar va biznes sektor o'rtasidagi innovatsion aloqalarni kuchaytirish;
3. Milliy strategiya - "Yangi O'zbekiston 2022–2026" dasturi asosida har bir viloyatning o'ziga xos ixtisoslashuv yo'nalishlarini aniqlash (masalan, Toshkent viloyati - IT va logistika, Farg'ona - to'qimachilik, Buxoro - turizm va xizmatlar).

Xitoy modeli mintaqaviy siyosatning markazlashgan, yuqoridan pastga yo'naltirilgan (top-down) shaklini aks ettiradi. Bu modelda hukumat ishlab chiqarish va eksport markazlarini belgilab, soliq imtiyozlari hamda maxsus iqtisodiy zonalar orqali hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi. Bu yondashuv Xitoyning ichki bozorini tez kengaytirib, viloyatlar o'rtasida ishlab chiqarish zanjiri shakllanishiga sabab bo'lgan.

AQSh esa hududiy raqobatbardoshlikni bozor mexanizmlariga tayanib, erkin innovatsiya muhitini yaratish orqali ta'minlaydi. Federal dasturlar (masalan, *Economic Development Administration Grant Programs*) hududiy startaplar va ilmiy markazlarni qo'llab-quvvatlaydi. Universitetlar, texnoparklar va biznes markazlari o'rtasidagi hamkorlik AQSh iqtisodiyotining texnologik ustunligini belgilaydi.

O'zbekiston uchun bu ikki modelning kombinatsiyasi mos: Xitoynikidek davlat ko'magidagi klaster siyosati va AQShnikidek innovatsion ekotizim birgalikda qo'llansa, hududiy raqobatbardoshlikning yangi bosqichiga chiqish mumkin. Shu bois 2025-yildan boshlab mamlakatda "Hududiy investitsiya platformalari", "Texnoparklar tarmog'i" va "Raqamli iqtisodiyot markazlari"ni kengaytirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Tahlillarga ko'ra, har uch mamlakatda hududiy raqobatbardoshlikning shakllanish mexanizmlari tubdan farq qiladi, ammo ularni birlashtiruvchi umumiy omillar mavjud.

Xitoy tajribasi markazlashgan yondashuvga asoslangan bo'lib, bu tizimda davlat hududiy iqtisodiy o'sishni boshqaradi. Xitoyda 1980-yillardan buyon joriy etilgan erkin iqtisodiy zonalar mamlakatning G'arbiy va Sharqiy viloyatlari o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirishga xizmat qilgan. "Shenzhen effekti" deb nom olgan tajriba nafaqat ishlab chiqarishni, balki logistika, texnologiya va eksport xizmatlarini ham tez rivojlantirdi. Hududiy raqobatbardoshlik Xitoyda asosan ishlab chiqarish, texnologik modernizatsiya va infratuzilma orqali ta'minlanadi.

AQSh tajribasi esa desentralizatsiya tamoyiliga asoslanadi. Federal hukumati umumiy makro siyosatni belgilaydi, lekin hududlar (shtatlar) o'z iqtisodiy siyosatini mustaqil yuritadi. Masalan, Kaliforniya IT sanoati va startaplar uchun soliq imtiyozlari orqali innovatsion muhitni yaratgan, Texas esa sanoat va energetika klasterlari uchun soddalashtirilgan tartiblarni joriy qilgan. Bu tizimda davlat emas, balki ilmiy markazlar, universitetlar va biznes hamjamiyati o'zaro hamkorlik orqali raqobat ustunligini shakllantiradi.

O'zbekiston modeli esa bu ikki yondashuv orasida o'rta holatda joylashgan. Mamlakat so'nggi yillarda davlat rahbariyati tashabbusi bilan "pastdan-yuqoriga" (bottom-up) rejalashtirish tamoyiliga o'tmoqda. Har bir viloyat uchun ixtisoslashuv yo'nalishlari aniqlanmoqda: Toshkent viloyati - raqamli texnologiyalar va logistika, Farg'ona - to'qimachilik, Buxoro - turizm, Navoiy - energetika, Qashqadaryo - qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish. Bu yondashuv Xitoy modelidagi klaster integratsiyasi va AQSh modelidagi innovatsion erkinlikni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Biroq muhim jihat shundaki, O'zbekistonda raqobatbardoshlikni oshirishda inson kapitaliga sarmoya yetarli darajada emas. AQShda ilmiy-tadqiqotga ajratiladigan mablag' YAIMning 3,4 %ini tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 0,3 %. Shu bois ta'lim tizimini

modernizatsiya qilish, ilmiy grantlar sonini ko'paytirish va universitetlarni tadqiqot markazlariga aylantirish zarur.

Shuningdek, yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya sohalari raqobat ustunligini belgilovchi yangi yo'nalishlarga aylanmoqda. Xitoyda 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya ulushi 31 %ni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 10 % atrofida (OECD, 2023). Bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va "yashil" investitsiyalarni jalb etish O'zbekiston uchun dolzarb masaladir.

Umuman olganda, O'zbekiston Xitoyning davlat tomonidan boshqariladigan klaster modelini, AQShning innovatsion ekotizim tajribasini va Yevropa Ittifoqining "smart specialization" konsepsiyasini birlashtirgan "gibrid" modelni shakllantirishi mumkin.

O'zbekistonning yosh demografiyasi, yangi korxonalar uchun qulay soliq tizimi va mintaqaviy infratuzilma loyihalari (masalan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li) uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlay oladi. Biroq bu imkoniyatlar faqat innovatsion va ilmiy yondashuv kuchaygan taqdirda to'liq ro'yobga chiqadi.

5. Xulosa.

O'zbekistonning hududiy raqobatbardoshligini oshirishda Xitoy va AQSh tajribasi universal xulosalarni beradi:

- Raqobatbardosh hudud - bu investitsiya uchun qulay, innovatsiyaga ochiq va ilm-fanga tayangan hudud;
- Hududiy siyosat - markaziy emas, balki "pastdan-yuqoriga" (bottom-up) yondashuv asosida qurilishi zarur;
- Texnologik modernizatsiya va inson kapitaliga sarmoya - uzoq muddatli barqarorlik garovidir.

Demak, O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l - Xitoyning hududiy ishlab chiqarish va AQShning innovatsion rivojlanish modelini uyg'unlashtirish orqali hududiy iqtisodiyotlarni global zanjirga integratsiyalashdir.

Adabiyotlar:

International Monetary Fund. (2025). *World Economic Outlook: Resilience and Risks*. Washington, D.C.

National Bureau of Statistics of China. (2024). *China Statistical Yearbook 2024*. Beijing: NBS.

OECD. (2023). *Regional Outlook 2023: Competitive Regions for All*. Paris: OECD Publishing.

Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

Republic of Uzbekistan Statistics Agency. (2025). *Gross Regional Product Indicators 2024 Annual Report*. Tashkent: Stat.uz.

U.S. Economic Development Administration. (2024). *Regional Competitiveness and Innovation Report*. Washington, D.C.

World Bank. (2025). *World Development Indicators 2025*. Washington, D.C.: World Bank Group.

The Government of Uzbekistan. (2022). *Development Strategy of New Uzbekistan 2022–2026* (Presidential Decree No. PQ-60). Retrieved from <https://lex.uz>



HUDUDIIY IQTISODIY TIZIMLARDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR

PhD, dotsent **Ma'murov B. X.**

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududiy iqtisodiy tizimlarida barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishning nazariy va metodologik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda barqaror rivojlanishning kuchli, zaif va muvozanatli modellari o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning milliy iqtisodiy siyosatdagi aks etishi baholangan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model hududiy iqtisodiy tizimlarda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, maqolada "Raqamli O'zbekiston - 2030", "Yashil iqtisodiyot strategiyasi" va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Natijalar hududiy barqarorlikka erishishda raqamli transformatsiya, moliyaviy mustaqillik va institutsional hamkorlikning muhimligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, hududiy iqtisodiy tizim, iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy adolat, institutsional mexanizm, raqamli transformatsiya, BRM, "Yashil iqtisodiyot", mintaqaviy siyosat.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методологические аспекты формирования механизма устойчивого развития в региональных экономических системах Узбекистана. В исследовании выявлены различия между сильной, слабой и сбалансированной моделями устойчивого развития и оценено их отражение в национальной экономической политике. Разработанная автором концептуальная модель направлена на обеспечение взаимосвязи между экономическими, социальными и экологическими факторами в региональных экономических системах. Кроме того, в статье обозначены направления совершенствования механизмов устойчивого развития в рамках стратегий «Цифровой Узбекистан - 2030», «Зелёная экономика» и Целей устойчивого развития. Полученные результаты обосновывают значимость цифровой трансформации, финансовой независимости и институционального сотрудничества в достижении региональной устойчивости.

Ключевые слова: устойчивое развитие, региональная экономическая система, экономическая устойчивость, экологическая безопасность, социальная справедливость, институциональный механизм, цифровая трансформация, ЦУР, «зелёная экономика», региональная политика.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological aspects of forming a sustainable development mechanism within the regional economic systems of Uzbekistan. The study identifies the differences between strong, weak, and balanced models of sustainable development and evaluates their reflection in national economic policy. The conceptual model developed by the author aims to ensure interconnection among economic, social, and

environmental factors within regional economic systems. Furthermore, the article outlines directions for improving sustainable development mechanisms within the frameworks of “Digital Uzbekistan - 2030,” the “Green Economy Strategy,” and the Sustainable Development Goals. The results substantiate the importance of digital transformation, financial independence, and institutional cooperation in achieving regional sustainability.

Keywords: *sustainable development, regional economic system, economic stability, environmental security, social justice, institutional mechanism, digital transformation, SDGs, “green economy,” regional policy.*

1. Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari milliy strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy siyosatning markazida turib, iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi. 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘shish bilan birga ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Ammo mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanishning nazariy asoslari yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, hududiy iqtisodiy tizim darajasida ularning amaliy mexanizmlari to‘liq shakllanmagan. Shu boisdan, ushbu tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston mintaqalarida barqaror rivojlanishning kompleks modelini ishlab chiqish, uni baholash indikatorlari va institutsional mexanizmlari orqali takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Barqaror rivojlanish nazariyasi XX asr oxiridan boshlab iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy fanlarda keng tadqiq etila boshladi. Ushbu yondashuv jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyot yo‘lini belgilovchi konsepsiya sifatida ko‘riladi. Tadqiqotchilar bu nazariyani inson, iqtisodiyot va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatga asoslangan yangi model sifatida talqin qiladilar (Melnik, Xens, 2007).

Bobylev (2004) iqtisodiyot va ekologiyani uyg‘unlashtirish zarurligini ta‘kidlab, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini ishlab chiqadi. Uning fikricha, iqtisodiy o‘shish faqat ekologik muvozanat bilan uyg‘un holda bo‘lgandagina haqiqiy ijtimoiy farovonlikni ta‘minlay oladi.

Shuningdek, Kozlovskaya (2002) ekologik muammolarga ega mintaqalarda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishning amaliy jihatlarini tahlil qilgan. U iqtisodiy siyosatni hududlarning ekologik imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yevropa va BMT ekspertlari (Обзор экономического положения Европы, 2003) ham o‘z tahlillarida iqtisodiy o‘shish va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikka e‘tibor qaratib, “yashil iqtisodiyot” g‘oyalarini ilgari suradilar. Shu yo‘nalishda Slezin (2001) barqaror rivojlanishni noosfera sivilizatsiyasi bosqichi sifatida ko‘rib, uni insoniyat tafakkurining yangi darajasi deb baholaydi.

Pchelintsev (2004) esa hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondashib, barqaror rivojlanishning mintaqaviy tizimdagi o‘rnini ochib beradi. U mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda resurslardan samarali foydalanishni asosiy mezonlar sifatida ko‘rsatadi.

Xalqaro miqyosda esa BMTning 1992-yildan boshlab ilgari surgan “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi global siyosat darajasida e‘tirof etildi. Keyinchalik bu yo‘nalish Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa Ittifoqining Integratsion siyosati hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM, 2015) bilan mustahkamlandi.

2018-yildan boshlab “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi global siyosat va iqtisodiy strategiyalarda yanada chuqurroq o‘rganila boshladi. Mensah (2019) o‘z tadqiqotida ushbu tushunchaning tarixiy shakllanishi, asosiy tamoyillari va ularning inson faoliyatiga ta‘sirini tahlil qilib, barqaror rivojlanish inson farovonligi, iqtisodiy samaradorlik va ekologik muvozanat o‘rtasidagi uyg‘unlik sifatida qaralishi lozimligini ta‘kidlaydi.

2020-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan e‘lon qilingan “European Green Deal” strategiyasi barqaror rivojlanishni ta‘minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu hujjatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari, uglerod neytralligi, energiya samaradorligi va hududiy tenglikni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan siyosiy yo‘nalishlar yoritilgan. Strategiyada iqtisodiy o‘shish bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi (European Commission, 2020).

Sachs boshchiligida nashr etilgan “Sustainable Development Report 2022” hisobotida (Cambridge University Press, 2022) dunyo mamlakatlarining BRM bo‘yicha yutuqlari va muammolari solishtirilgan. Hisobotda O‘zbekiston ham BRM indikatorlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlarini saqlab qolayotgan mamlakatlar qatorida tilga olinadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish nazariyasi antropotsentrik yondashuvdan ekologik uyg‘unlik va insonparvar qadriyatlar asosidagi modelga o‘tish jarayonini ifodalaydi. Bu g‘oya nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv asosida hududiy iqtisodiy tizimlarda barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganildi. Ishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun tizimli tahlil, mavjud yondashuvlarni solishtirish uchun taqqoslama tahlil, shuningdek, mintaqaviy rivojlanish indikatorlarini baholash uchun statistik va modellashtirish usullari qo‘llanildi. Ushbu metodologik yondashuv O‘zbekiston hududlari misolida barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliy mexanizmga aylantirish, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga imkon beradi.

4. Tahlil va natijalar.

Hozirgi bosqichda barqaror rivojlanish konsepsiyasi juda keng qamrovli bo‘lib, ba‘zan o‘zaro zid qarashlarni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, xorijiy tadqiqotlarda turli xil kapital turlarining o‘zaro almashinuv darajasi va inson ehtiyojlarini cheklash imkoniyatiga qarab, barqarorlik uchta asosiy turga bo‘linadi: kuchli, zaif va muvozanatli (kompromissli) barqarorlik. Bu yondashuv, ayniqsa, London maktabi konsepsiyasida ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi jadvalda muallif tomonidan xorijiy manbalar asosida ishlab chiqilgan tahliliy model keltiriladi.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tasnifdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, mamlakatda “kuchli barqarorlik” yondashuvi tabiiy resurslardan foydalanishni qat‘iy cheklash va ekologik barqarorlikni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilashga asoslanadi (masalan, suv resurslarini tejash, yashil energetikaga o‘tish). “Zaif barqarorlik” esa iqtisodiy o‘shish va modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirish uchun ekologik omillarni ikkinchi darajaga qo‘yishni anglatadi. “Muvozanatli barqarorlik” esa hozirgi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida kuzatilayotgan integratsion yondashuv bo‘lib, unda iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlash maqsad qilingan (1-jadval).

Zamonaviy sharoitda O‘zbekiston hududlarida iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki hududiy tizimlarning ichki barqarorlik salohiyatini mustahkamlashni ham talab etadi. Hududiy iqtisodiy tizimning samarali ishlashi iqtisodiyot, tabiat va aholi o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan qayta ishlab chiqarish aloqalarini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshadi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy rivojlanish mexanizmini

shakllantirishda barqarorlikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik indikatorlari bilan birgalikda baholash lozim.

Hududiy iqtisodiy tizimning asosiy obyekti - bu qayta ishlab chiqarish jarayonlari, resurs aylanishi va ichki iqtisodiy aloqalar tizimidir. Subyektlari esa aholi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat boshqaruv organlari bo'lib, ular birgalikda iqtisodiy barqarorlikning faol ishtirokchilari hisoblanadi. Shu bois, hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik tamoyillari markaziy o'rinni egallaydi. Bu uch sektor o'rtasidagi uyg'unlik uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni kafolatlaydi.

1-jadval

Barqaror rivojlanish turlarining konseptual farqlari va ularning nazariy xususiyatlari

| Barqarorlik turi | Nazariy mazmuni va metodologik talqin | Kapital o'rnini bosish imkoniyati | Atrof-muhit sifati va ekologik siyosat yondashuvi | Iqtisodiy o'sish sur'ati |
|--------------------------------|--|--|---|--|
| Kuchli barqarorlik | Barqarorlikning ekologik yo'nalishiga asoslangan; inson faoliyati tabiat chegaralaridan chiqmasligi lozim. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining nazariy asosi hisoblanadi | Tabiiy kapitalning o'rnini hech narsa bosa olmaydi, u kamaymasligi kerak | Ekotizim holatini doimiy saqlash, antropogen ta'sirni minimallashtirish asosiy tamoyil | Texnik taraqqiyot sekin, lekin ekologik barqaror |
| Zaif barqarorlik | Neoklassik iqtisodiy modelga yaqin: o'sish orqali ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, ekologiyani texnologik yechimlar bilan muvozanatlash | Tabiiy, inson va ishlab chiqarish kapitali o'zaro almashishi mumkin, umumiy kapital hajmi kamaymasligi lozim | Atrof-muhit sifati yomonlashmasligi lozim, biroq iqtisodiy o'sish ustuvor | Uzluksiz, uzoq muddatli ijobiy o'sish |
| Muvozanatli barqarorlik | "Iqtisodiy o'sish - ijtimoiy adolat - ekologik xavfsizlik" uchligi asosida muvozanatli rivojlanish modelini ifodalaydi. Integratsion yondashuvlar (masalan, BRM tizimi) uchun asos bo'ladi | Minimal tabiiy kapital zaxirasi saqlanishi shart, resurslardan oqilona foydalanish mumkin | Ekotizimning minimal sifatini ta'minlash, zarur himoya choralari va ekologik investitsiyalarni qo'llash | Barqaror, ammo sekin o'sish |

Barqaror rivojlanish mexanizmi iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy himoya va ekologik xavfsizlik mezonlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tamoyillar "javobgarlik", "resurslardan oqilona foydalanish" va "kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish" g'oyalari bilan uyg'unlashadi. O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, 2030-yilgacha mo'ljallangan BRM dasturi hamda "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi" da aynan shu uchlikning uyg'unlashuvi markaziy o'rinda turadi.

Hududiy iqtisodiy tizimlarda barqaror rivojlanishni boshqarish texnologiyasi ko'p komponentli yondashuvni talab qiladi. Birinchi bosqichda hududdagi qayta ishlab chiqarish aloqalari va ularning disbalanslari aniqlanadi. Keyingi bosqichda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar asosida kompleks baholash tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim natijalariga tayangan holda qaror qabul qilish algoritmlari hamda moliyaviy barqarorlik mexanizmlari

shakllantiriladi. O'zbekistonning ayrim viloyatlarida (masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi) bu yondashuvni joriy etish tajribalari mavjud bo'lib, ular ko'rsatkichlar tizimini mahalliy xususiyatlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hududiy iqtisodiy tizimlarni barqaror rivojlantirish mexanizmini shakllantirishda maqsad, tamoyil, texnologiya va vositalarning o'zaro bog'liqligi alohida ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmning muvaffaqiyati faqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga emas, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat va boshqaruv tizimining moslashuvchanligiga ham bog'liq. Shu bois, barqaror rivojlanishning konseptual modeli kompleks yondashuvni talab qiladi ya'ni, mintaqaning tabiiy resurslari, aholining farovonligi va iqtisodiy faoliyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat asosida boshqaruv mexanizmini yaratish. Quyidagi jadvalda hududiy iqtisodiy tizimda barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishning konseptual modeli bosqichma-bosqich ko'rinishda ifodalangan (2-jadval).

2-jadval

Hududiy iqtisodiy tizimda barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishning konseptual modeli

| Bosqich | Maqsad | Asosiy yo'nalishlar | Tamoyillar | Metod va vositalar | Kutilayotgan natijalar |
|---------------------------|---|--|---|---|---|
| Strategik | Hududiy iqtisodiy tizimning samarali ishlashini ta'minlash, iqtisodiyot, aholi va tabiat o'rtasidagi muvozanatga erishish | Iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy himoya | Barqarorlik, mas'uliyat, avlodlararo adolat | Strategik rejalashtirish, indikatorlar tizimi, maqsadli dasturlar | Hududlarda yashash sifatining yaxshilanishi, iqtisodiy barqarorlik |
| Insti-tutsional-tashkiliy | Obyekt - mintaqaviy iqtisodiy tizim; Subyekt - aholi, xo'jalik yurituvchi subyektlar, mahalliy hokimiyat | O'zaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar tizimi | Integratsiya, manfaatlar uyg'unligi | Muvofiqlashtirish kengashlari, institutsional mexanizmlar | Tizim ichida manfaatlar muvozanati va boshqaruv samaradorligi |
| Tahliliy | Mintaqaning qayta ishlab chiqarish aloqalaridagi nomutanosibliklarni aniqlash | Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlar-ni baholash | Ochiqlik, ishonchlilik | Kompleks baholash usullari, ko'rsatkichlar monitoringi | Nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun ilmiy asosli qarorlar |
| Texnologik | Barqaror rivojlanish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish | Qaror qabul qilish algoritmlari, moliyaviy manbalarni baholash | Samaradorlik va javobgarlik | Qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, moliyaviy rejalashtirish | Moliyaviy barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish. |
| Moliyaviy mexanizm | Mintaqaviy budjet asosida iqtisodiy mustaqillikni oshirish | Budjet daromadlari va investitsion xarajatlar balansini ta'minlash | Shaffoflik, iqtisodiy mustaqillik | Rivojlanish fondlari, mahalliy soliq mexanizmlari | Barqaror moliyalashtirish, investitsion faollikning ortishi |
| Amaliy | Barcha ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish | Davlat, biznes va fuqarolik jamiyati hamkorligi | Ijtimoiy sheriklik, inklyuziya | Konsultativ kengashlar, jamoaviy monitoring, axborot tizimlari | Uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeli, raqamli boshqaruvga o'tish |

Barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirish modeli o'z mohiyatiga ko'ra tizimli yondashuvni talab qiladi. Jadvalda ko'rsatilganidek, har bir bosqich o'zaro mantiqan bog'langan bo'lib, strategik rejalashtirishdan tortib, institutsional va moliyaviy mexanizmlargacha izchil tizimni tashkil etadi. Ushbu modelda asosiy e'tibor iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik

o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Aynan shu uch yo'nalishning uyg'unlashuvi hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, konseptual modelda iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlar va hududiy indikatorlar monitoringi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv milliy strategik hujjatlar jumladan, "Raqamli O'zbekiston - 2030", "Yashil iqtisodiyot strategiyasi" va Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bevosita uyg'unlikda shakllanadi. Natijada, barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy inklyuziya, ekologik mas'uliyat va mintaqaviy boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Hududiy barqaror rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismi bu moliyaviy barqarorlikdir. Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilganidek, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mintaqaviy budjet asosiy regulyator sifatida ishlaydi. Budjet siyosatida daromadlar bazasini kengaytirish, investitsion loyihalarga yo'naltirilgan xarajatlarni oshirish va ekologik komponentni moliyalashtirish ustuvor yo'nalishlar bo'lishi lozim. Bu yondashuv PQ-62 (2024) va PQ-358 (2025) qarorlarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda "hududiy byudjetlar iqtisodiy mustaqilligi" tamoyili ilgari surilgan.

Barqaror rivojlanish mexanizmi faqat iqtisodiy choralar bilan chegaralanmaydi; u boshqaruvning ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, institutsional va axborot-kommunikatsion vositalarini o'z ichiga olgan ko'p qatlamli tizimdir. Ushbu mexanizmga davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur hamkorlik, bir tomondan, hududiy siyosatni muvofiqlashtirish va resurslarni adolatli taqsimlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan, aholining iqtisodiy faolligini oshiruvchi inklyuziv muhitni shakllantiradi. Barqaror rivojlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ijtimoiy kapitalni mustahkamlash, innovatsion g'oyalarni targ'ib etish hamda ekologik mas'uliyatni jamiyat ongida chuqur singdirish zarur.

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish mexanizmining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar alohida o'rin tutadi. Hududlarda joriy etilayotgan "raqamli iqtisodiyot", "sun'iy intellekt texnologiyalari", "aqlli boshqaruv tizimlari", "hududiy investitsiya xaritalari" va "Big Data" asosida monitoring tizimlari boshqaruv jarayonining ochiqligini ta'minlab, real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shu yo'l bilan hududiy boshqaruv tizimi ilgari markazlashgan, reaktiv xarakterdagi modeldan proaktiv, ma'lumotga asoslangan modelga o'tmoqda. Raqamli infratuzilma, ma'lumotlar integratsiyasi va sun'iy intellekt vositalari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvozanatni aniqlashni yengillashtirib, barqaror rivojlanish siyosatini yanada ilmiy asosda olib borishga sharoit yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududiy barqaror rivojlanish mexanizmini samarali shakllantirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasida doimiy muvozanat zarur. Bu esa boshqaruvning integratsion modeli "iqtisodiy o'sish - ijtimoiy adolat - ekologik xavfsizlik" uchligiga asoslanadi. Ushbu mexanizmning muvaffaqiyati qaror qabul qilishda ilmiy asoslangan indikatorlardan foydalanish, mintaqaviy resurslarning raqamli monitoringi va davlat boshqaruvi tizimining moslashuvchanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, barqaror rivojlanish strategiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik mas'uliyatni ham o'z ichiga oluvchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida shakllanmoqda.

5. Xulosa.

O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichida barqaror rivojlanish konsepsiyasi milliy strategik siyosatning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Tadqiqot

natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, ularning muvozanatini saqlash barqaror o'sishning eng muhim shartidir. Ayniqsa, mintaqaviy darajada ishlab chiqilayotgan iqtisodiy strategiyalar, investitsion dasturlar va infratuzilma loyihalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy inklyuziyani chuqurlashtirish zarur.

Barqaror rivojlanish mexanizmini samarali amalga oshirish uchun quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, hududiy boshqaruv tizimlarida strategik rejalashtirishning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasini kuchaytirish lozim. Bu qaror qabul qilish jarayonini tezkor, ochiq va ma'lumotga asoslangan qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mintaqaviy byudjetlarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, daromadlar manbalarini diversifikatsiya qilish va ekologik investitsiyalarni rag'batlantirish zarur. Bu, o'z navbatida, hududlarning o'z resurslariga tayanib, uzoq muddatli barqarorlikka erishishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, barqaror rivojlanish indikatorlari va monitoring tizimlarini mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Har bir viloyat yoki iqtisodiy mintaqa uchun iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik bo'yicha alohida mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

To'rtinchidan, "raqamli iqtisodiyot", "sun'iy intellekt texnologiyalari" va "hududiy investitsiya xaritalari" asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi orqali resurs taqsimotini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv hududlararo tafovutlarni kamaytiradi va iqtisodiy siyosatning manzilliligi va natijadorligini oshiradi.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor va davlat boshqaruvi o'rtasidagi hamkorlikni institutsional asosda mustahkamlash lozim. Inklyuziv boshqaruv tizimi barqaror rivojlanishning ijtimoiy poydevorini mustahkamlaydi, aholining tashabbuskorligini oshiradi va mahalliy darajada ekologik mas'uliyatni kuchaytiradi. Nihoyat, ilmiy asoslangan yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida milliy barqaror rivojlanish siyosatini doimiy ravishda takomillashtirish zarur. Bunda BRM indikatorlari, OECD va Yevropa Ittifoqi tajribalari, shuningdek, milliy rivojlanish strategiyalari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston uchun barqaror rivojlanish bu nafaqat iqtisodiy o'sish modelining yangi bosqichi, balki jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydigan, inson kapitalini rivojlantirishga, innovatsiyalarni joriy etishga va ekologik xavfsizlikni kafolatlashga asoslangan strategik yo'nalishdir. Shu bois, barqaror rivojlanish mexanizmlarini ilmiy asosda shakllantirish mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi ustuvor omil bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

Bobylev, S. N. (2004). Ustoychivo razvitie: Paradigma dlya budushchego [Barqaror rivojlanish: Kelajak paradigmasi]. Moscow: Ekonomika.

European Commission. (2020). The European Green Deal. Brussels: European Commission. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52019DC0640>

Kadyrov, A., Akhmedieva, A., & Bazarov, F. (2021). Formation of information society and its influence on competitiveness of national economies in the context of world economy globalization. In: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 672–684).

Kozlovskaya, L. V. (2002). Ekonomicheskie osnovy ustoychivogo razvitiya regionov Rossii [Rossiya mintaqalarining barqaror rivojlanishining iqtisodiy asoslari]. St. Petersburg: SPbUEF.

Ma'murov, B. (2024). Hududlar iqtisodiyoti va jamiyatning raqamli rivojlanishini integral baholash uslubiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss1-pp57-66>

Malyshev, A. A., Miroshnikov, A. V., & Makarova, E. V. (2022). Russia's sustainable development policy in combating climate warming. *Economies*, 10(3), 60. <https://doi.org/10.3390/economies10030060>

Mensah, J. (2019). Sustainable development: Meaning, history, principles, pillars, and implications for human action. *Cogent Social Sciences*, 5(1), 1653531. <https://doi.org/10.1080/23311886.2019.1653531>

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2021). A territorial approach to the sustainable development goals in Moscow, Russian Federation. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/6ab6a23c-en>

Pchelintsev, O. S. (2004). Regionalnaya ekonomika i ustoychivoe razvitie [Hududiy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish]. Ekaterinburg: Ural University Press.

Rosenberg, G. S., Chernikova, S. A., Krasnoshchekov, G. P., Krylov, Y. M., & Gelashvili, D. B. (2000). Ustoychivoe razvitie: ekologicheskie, sotsialnye i ekonomicheskie aspekty [Barqaror rivojlanish: ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar]. Nizhny Novgorod: Volga-Vyatka Publishing.

Sachs, J. D., Kroll, C., Lafortune, G., Fuller, G., & Woelm, F. (2022). Sustainable Development Report 2022. Cambridge: Cambridge University Press. <https://dashboards.sdindex.org>

Slezin, Y. S. (2001). Noosfernaya tsivilizatsiya i ustoychivoe razvitie [Noosfera sivilizatsiyasi va barqaror rivojlanish]. Moscow: Nauka.

United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations. <https://sdgs.un.org/2030agenda>

Маъмуров Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активностисистемы предпринимательства //Технологии информационного общества. –С. 318-319.



“SMART SPECIALIZATION: YEVROPA ITTIFOQI MODELI TAJRIBASI”

Mansurov Z. M.

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining Smart Specialisation (aqli ixtisoslashuv) modeli va uning amaliy ifodasi bo‘lgan RIS3 (Research and Innovation Strategies for Smart Specialisation) strategiyasi chuqur tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv mintaqaviy innovatsion salohiyatni aniqlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishga qaratilgan kompleks siyosiy va ilmiy asosga ega. RIS3 strategiyasi Yevropa Ittifoqi mintaqalarida innovatsiya va tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va ularga mos ravishda siyosiy choralarni ishlab chiqish jarayonida markaziy o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *Aqli ixtisoslashuv (Smart specialization), hududiy iqtisodiy rivojlanish, hududiy raqobatbardoshlik, RIS3 strategiyasi, innovatsion siyosat, iqtisodiy diversifikatsiya, innovatsion infratuzilma, barqaror rivojlanish strategiyasi.*

Аннотация. *В данной статье проводится углублённый анализ модели Smart Specialisation (умная специализация) Европейского Союза и её практического выражения – стратегии RIS3 (Стратегии в области исследований и инноваций для умной специализации). Данный подход представляет собой комплексную политико-научную основу, направленную на выявление регионального инновационного потенциала, эффективное использование местных ресурсов и стимулирование экономического роста. Стратегия RIS3 занимает центральное место в процессе координации исследовательской и инновационной деятельности в регионах ЕС, определения приоритетных направлений и разработки соответствующих политических мер.*

Ключевые слова: *Умная специализация (Smart Specialisation), региональное экономическое развитие, региональная конкурентоспособность, стратегия RIS3, инновационная политика, экономическая диверсификация, инновационная инфраструктура, стратегия устойчивого развития.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the European Union’s Smart Specialisation model and its practical implementation through the RIS3 (Research and Innovation Strategies for Smart Specialisation) framework. This approach constitutes a comprehensive political and scientific foundation aimed at identifying regional innovation potential, utilizing local resources efficiently, and fostering economic growth. The RIS3 strategy plays a central role in coordinating research and innovation activities across EU regions, defining priority areas, and formulating appropriate policy measures.*

Keywords: *Smart Specialisation, regional economic development, regional competitiveness, RIS3 strategy, innovation policy, economic diversification, innovation infrastructure, sustainable development strategy.*

1. Kirish

Soʻnggi yillarda innovatsion siyosat va hududiy iqtisodiy rivojlanish sohasida Smart Specialisation (aqli ixtisoslashuv) konsepsiyasi global miqyosda dolzarb strategik yondashuv sifatida eʼtirof etilmoqda. Bu yondashuv har bir mintaqaning oʻziga xos raqobat ustunliklarini aniqlash, ularga asoslangan innovatsion yoʻnalishlarni belgilash va resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Smart Specialisation dastlab Yevropa Ittifoqi Komissiyasining ekspertlar guruhi tomonidan 2007-yilda ilgari surilgan boʻlib, 2010-yillarda RIS3 (Research and Innovation Strategies for Smart Specialisation) metodologiyasi orqali amaliy shaklga keltirildi.

Aqli ixtisoslashuv (Smart Specialisation) – bu har bir mintaqaning oʻziga xos raqobat ustunliklariga asoslanib, innovatsion rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlash va shu sohalarga resurslarni yoʻnaltirishga qaratilgan strategik yondashuvdir (European commission, 2023). Bir guruh akademik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuv juda tez orada, ayniqsa Yevropada, siyosatchilar orasida sezilarli taʼsirga ega boʻldi. Uning asosiy maqsadi mintaqalar va davlatlarni oʻzining raqobatbardosh ustunliklariga asoslangan holda innovatsiyaga tayangan iqtisodiy oʻsish yoʻliga yoʻnaltirishdir. Baʼzi manbaalarda aqli ixtisoslashuv “Smart Specialisation Strategy” yaʼni uchta “S” boʻlganligi sababli “S3” shakli bilan ham ifodalanadi. Bu atama Yevropa Komissiyasi tomonidan 2010-yillarda RIS3 metodologiyasi bilan birga joriy etilgan va akademik hamda siyosiy adabiyotda keng qoʻllaniladi (European commission, 2010).



1-rasm. Aqilliy ixtisoslashuvning asosiy maqsadlari (D.Foray, 2015)

Aqli ixtisoslashuv tushunchasi ilk bor 2007-yilda Yevropa Ittifoqi Komissiyasining Tadqiqot va Innovatsiyalar boʻyicha komissariga maslahat beruvchi ustaqil ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan “Knowledge for Growth” siyosiy maʼlumotnomasida ilgari surilgan. Keyinchalik bu konsepsiya sektoral yondashuvdan hududga asoslangan yondashuvga

aylantirildi hamda 2014-2020 yillarga mo'ljallangan Yevropa Ittifoqining yangilangan mintaqaviy uyg'unlik siyosatiga integratsiya qilindi. Ushbu g'oya atigi o'n yildan sal ko'proq tarixga ega bo'lishiga qaramay, Yevropada mintaqaviy innovatsiya siyosatining asosiy tayanchiga aylangan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Smart Specialisation (RIS3) konsepsiyasi Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 2014-2020-yilgi moliyaviy davrda mintaqaviy rivojlanish fondlaridan foydalanish uchun ex ante conditionality sifatida belgilangan. Ya'ni, har bir mintaqaga S3 tamoyillariga asoslangan RIS3 strategiyasini ishlab chiqmasdan turib, Yevropa Ittifoqi mablag'laridan foydalana olmaydi.

RIS3 strategiyasi Yevropa Komissiyasi, milliy hukumatlar va hududiy hokimiyatlarning uch darajali hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Yevropa Komissiyasi umumiy yo'nalishlar va metodologiyani belgilaydi, S3 Platform orqali texnik yordam ko'rsatadi va peer review mexanizmlarini tashkil etadi. Milliy hukumatlar RIS3 strategiyalarini milliy innovatsion siyosatlar bilan integratsiyalaydi va moliyaviy resurslar ajratadi. Hududiy hokimiyatlar esa o'z RIS3 strategiyalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Kevin Morgan aqlli ixtisoslashuv kontsepsiyasini tanqid qilib, uning ba'zan haddan tashqari soddalashtirilganligini hamda path dependency muammosini yetarlicha hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Pierre-Alexandre Balland va hamkasblari esa "entrepreneurial discovery" jarayonining amaliyotda murakkabligini va ba'zan elita tomonidan egallab olish xavfi mavjudligini ko'rsatadilar. Roberta Capello va Henning Kroll RIS3 strategiyasining kam rivojlangan hududlarda qo'llanishidagi qiyinchiliklarga e'tibor qaratadilar (R.Capello, H.Kroll 2018).

Shu bilan birga, ko'plab empirik tadqiqotlar RIS3 strategiyasining samaradorligini tasdiqlaydi. Claudio Gianelle va Birgit Kleibrink Yevropadagi 13 ta hudud tajribasini tahlil qilib, RIS3 strategiyalari amalga oshirilgan hududlarda innovatsion faoliyat 15–30 foizga oshganligini aniqlaganlar. Michaela Trippel va hamkasblari esa RIS3 mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaganligini ko'rsatganlar (Trippel, M., Zukauskaitė 2020).

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Yevropa Ittifoqining Smart Specialisation modeli va RIS3 strategiyasi ko'p darajali metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Avvalo, nazariy asos sifatida D.Foray, K.Morgan, R.Capello kabi yetakchi olimlarning ishlanmalari hamda Yevropa Komissiyasining rasmiy hujjatlari o'rganildi, bu esa konseptual tushunchalarning aniqligini ta'minladi. Keyinchalik, adabiyotlar sharhi orqali RIS3 strategiyasining siyosiy va amaliy kontekstdagi o'rni, shuningdek, tanqidiy nuqtai nazarlar (path dependency, inklyuzivlik, institutsional salohiyat) tahlil qilindi. Empirik bosqichda Yevropadagi 13 ta mintaqaning RIS3 tajribasi asosida innovatsion faollik va mintaqalararo hamkorlikka ta'siri statistik ko'rsatkichlar bilan asoslab berildi. Nihoyat, RIS3ning besh bosqichli modeli (analitik tahlil, EDP, strategik hujjat, Triple Helix, monitoring) asosida hududiy siyosatni shakllantirish mexanizmlari izchil bayon qilindi.

4. Tahlil va natijalar.

2014–2020 yillar oralig'ida 120 dan ortiq mintaqalar tadqiqot va innovatsiyaga investitsiya yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan aqlli ixtisoslashuv strategiyalarini ishlab chiqqan bo'lib, bu jarayon uchun ajratilgan byudjet 80 milliard yevrodan oshgan. Shu sababli, aqlli ixtisoslashuv dunyodagi "eng yirik innovatsion siyosat tajribasi" sifatida e'tirof etildi (S.Radosevic, K.Stancova, 2018). 2024-yil holatiga ko'ra, global iqtisodiy raqobat sharoitida hududiy innovatsion salohiyatni aniqlash va rivojlantirish strategiyasi 210 dan ortiq Yevropa hududida RIS3 strategiyalari amalga oshirilmogda (R.Capello, H.Kroll 2018). Bundan

tashqari, RIS3 yondashuvi Yevropa chegaralaridan tashqariga – Avstraliya, Kanada, Janubiy Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlariga tarqalmoqda. 2-rasmda biz RIS3ning tadbiq etilish jarayonining ketma-ketligini ko'rsak bo'ladi.

Hududiy innovatsion siyosatni shakllantirish va Smart Specialisation tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish uchun RIS3 strategiyasi quyidagi besh asosiy bosqichdan iborat (P.Marques, K.Morgan 2018) .



2-rasm. Hududiy rivojlanish rejalashtiruvi bo'yicha 5 bosqichli yondashuv

1. Hududiy salohiyatni aniqlash (Analitik bosqich)

Dastlabki bosqichda mintaqaning ilmiy, texnologik, iqtisodiy va insoniy resurslari chuqur tahlil qilinadi. SWOT tahlil (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar) orqali hududning ichki va tashqi salohiyati baholanadi. Shuningdek, mavjud raqamli manbalar va statistik ko'rsatkichlar asosida hududiy imkoniyatlar aniqlanadi.

2. Tadbirkorlikka asoslangan kashfiyot jarayoni (Entrepreneurial Discovery Process – EDP)

Bu bosqichda mahalliy tadbirkorlar, olimlar, universitetlar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati vakillari jalb etiladi. Ularning ishtirokida hududiy ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi. Raqamli platformalar orqali ochiq muhokamalar tashkil etilib, innovatsion yo'nalishlar bo'yicha konsensusga erishiladi.

3. Strategik jihatlarni ishlab chiqish (RIS3 strategiyasi)

Aniqlangan ustuvor yo'nalishlar asosida mahalliy darajadagi Smart Specialisation strategiyasi ishlab chiqiladi. Strategiyada aniq maqsadli indikatorlar tizimi belgilanadi va davlat hamda xususiy sektor investitsiyalari ushbu yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Bu bosqich strategik rejalashtirishning markaziy qismidir.

4. Triple Helix modelini joriy etish

RIS3 strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hududiy innovatsion tizim yaratiladi. Bu tizim uch tomonlama hamkorlikka asoslanadi: davlat organlari, universitetlar va biznes vakillari o'zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi. Raqamli platformalar orqali hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion loyihalarni muvofiqlashtirish ta'minlanadi.

5. Monitoring va baholash tizimini yaratish

Strategiyaning natijadorligini baholash uchun indikatorlar asosida har chorakda monitoring amalga oshiriladi. Raqamli platformalar yordamida monitoring tizimi avtomatlashtiriladi va ochiq ma'lumotlar asosida strategiya doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Bu bosqich RIS3 strategiyasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Smart Specialisation (RIS3)ning vatani Yevropa Ittifoqi ekanligini hamda Janubiy Koreya esa texnologik transformatsiya va raqamli infratuzilma orqali RIS3 tamoyillarini o'ziga xos tarzda amalga oshirganligini hisobga olib, rivojlangan davlatlar modellari asosida muqobil model yaratish mantiqiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi. (R.Capello, H.Kroll. 2018)

5. Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Smart Specialisation va RIS3 strategiyasi zamonaviy hududiy innovatsion siyosatni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv mintaqalarning ichki salohiyatini aniqlash, tadbirkorlikka asoslangan kashfiyot jarayonini yo'lga qo'yish, strategik ustuvorliklarni belgilash, uch tomonlama hamkorlikni tashkil etish hamda monitoring va baholash mexanizmlari orqali doimiy takomillashtirishni nazarda tutadi. Empirik dalillar ushbu strategiyaning innovatsion faollikni oshirish, mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Biroq, RIS3 modelining inklyuzivlik, institutsional salohiyat va resurslar taqsimoti bilan bog'liq muammolari ham mavjud bo'lib, bu holat strategiyaning har bir hududga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Umuman olganda, RIS3 yondashuvi hududiy siyosatni innovatsiyaga asoslangan, ishtirokchilarga ochiq va natijaga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa mintaqaviy rivojlanishning barqaror va raqobatbardosh asosda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

S.Radosevic, K.Stancova - "Internationalising Smart Specialisation: Assessment and Issues in the Case of EU New Member States", Journal of the Knowledge Economy, 2018, Vol. 9, Issue 1, pp. 263-293.

D.Foray - Smart Specialisation: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy, Routledge, 2015, 122.

R.Capello, H.Kroll - Regional Innovation Strategies 3 (RIS3), Routledge, 2018.

European Commission, 2024

P.Marques, K.Morgan - The Heroic Assumptions of Smart Specialisation: A Sympathetic Critique of Regional Innovation Policy, 2018.

Trippel, M., Zukauskaitė, E., & Healy, A. (2020). RIS3 and inter-regional cooperation: A missing link? Regional Studies.

https://joint-research-centre.ec.europa.eu/projects-and-activities/innovation-territories_en

https://ec.europa.eu/regional_policy/policy/communities-and-networks/s3-community-of-practice/about_en



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI

*iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Misirov K.**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Aktamov S.A.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotsatsiya: Ushbu maqolada, kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Ular yangi ish o'rinlari yaratishda, aholining daromadlarini oshirishda hamda raqobat muhitini rivojlantirishda beqiyos o'rin tutadi. Bunday sharoitda kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda buxgalteriya hisobining o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligigga doir ilmiy, taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: biznes, kichik va o'rta biznes, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.

Аннотация: В статье рассматривается важная роль малого и среднего бизнеса в экономике нашей страны. Он играет неоценимую роль в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения и развитии конкурентной среды. В этих условиях формулируются научные предложения и рекомендации о значении бухгалтерского учета в эффективной организации деятельности субъектов малого и среднего бизнеса и обеспечении их финансовой устойчивости.

Ключевые слова: бизнес, малый и средний бизнес, бухгалтерский учет, финансовая отчетность.

Abstract: This article discusses the important role of small and medium-sized businesses in the economy of our country. They play an invaluable role in creating new jobs, increasing the income of the population, and developing a competitive environment. In such conditions, scientific proposals and recommendations are formulated on the importance of accounting in effectively organizing the activities of small and medium-sized businesses and ensuring their financial stability.

Keywords: business, small and medium-sized businesses, accounting, financial reporting.

1. Kirish.

Bugungi glaballashuv jarayonida kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi vositalardan biri sifatida e'tirof e'tilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy barqarorlik va aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda kichik biznesning roli katta hisoblanadi. Shuni aytib o'tish lozimki, yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda ish o'rinlari ko'paymoqda, ya'ni ishsizlik yo'qolib bandlik oshib bormoqda. Aholing yashash tarzi, turmush darajasi yuqorilab borqmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham davlat tomonidan tadbirkorlikni

qo'llab-quvvatlash, soliq imtoyozlari, kreditlar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali kichik va o'rta biznes faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida "Kichik va o'rta biznes subyektlariga konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatadi va ular uchun muhandis, texnolog, dizayner, buxgalter, marketologlarni hamda boshqa malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qiladi, o'zlari birlashtirilgan tumanlarda 10 tadan drayver loyihalarni ishga tushirish, 5 tadan milliy brend mahsulotlarini yaratish, kichik va o'rta biznesning ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarini 1,5 barobar oshirishga mas'ul bo'lishligi" (PF-50son) ta'kidlangan.

Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida kichik va o'rta biznes subyektlarining ahamiyati va ularning rivojlantirish haqida zarur chora-tadbirlar to'g'risida so'z boradi. Albatta tadbirkorlarga berilayotgan erkinliklarning natijasi sifatida tadbirkorlikning iqtisodiyotimizdagi o'rni kundan kunga kengaymoqda.

Kichik va o'rta biznes subyektlarning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ularning moliyaviy resurslarini to'g'ri boshqarish, iqtisodiy jarayonlarni aniq hisobga olish va tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan buxgalteriya hisobi kichik va o'rta biznes sub'yektlar uchun nafaqat qonunchilik talablarini bajarish vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot manbai sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Bu subyektlar o'zining ichki hisobotlari orqali qonunchilikda belgilab o'tilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga erishishadi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes vakillari uchun buxgalteriya hisobi jarayonlarida duch kelinayotgan muammolar – malakali kadrlar yetishmasligi, texnologik infratuzilma kamchiliklari va axborot tizimlaridan samarali foydalanish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston olimlari tomonidan kichik va o'rta biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobi masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan.

Tojiyev Javlonbek Rustamovich tomonidan chop etilgan "Yangi o'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar" nomli maqolasida kichik va o'rta biznesda moliyaviy menejmentning asosiy muammolari, jumladan, moliyaviy rejalashtirishda yuzaga keladigan kamchiliklar, kredit olishning cheklanganligi va daromadlarning beqarorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada moliyaviy hisob va nazoratni tashkil etishda tadbirkorlar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar, shuningdek, iqtisodiy omillarning kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi (Tojiyev, 2025).

Ikromiddin Sirojiddinov, Akbarjon Isomuxamedov tomonidan yozilgan "Kichik biznes sub'yektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi" nomli darsligida kichik biznesda buxgalteriya hisobining iqtisodiy mohiyati, konseptual asoslari, hisob yuritishda qo'llanadigan asosiy qoidalar, xarajatlar va zahiralar hisobi, asosiy vositalar hisobi, moliyaviy natijalarni aniqlash va moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish, kapital tarkibining hisobi va uning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari xo'jalik amaliyoti bilan bog'langan holda yoritilgan (Ikromov, 2022).

Ergashev Olloyor tomonidan chop etilgan "Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolari" nomli maqolasida O'zbekiston hududida kichik biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobi standartlashtirishni soddalashtirish masalalari atroflicha ko'rib chiqilmoqda. Muallifning fikriga ko'ra, O'zbekistondagi bu ijobiy o'zgarishlar kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, ularning yuridik va buxgalteriya masalalarida yanada samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratmoqda. Hozirda, kichik biznes sub'yektlari uchun soddalashtirilgan tizimlar nafaqat soliqlarni to'lashda, balki umumiy ish yuritishda ham ko'plab qulayliklar yaratmoqda (Ergashev, 2025).

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi bo'lib, kichik va biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish bilan bo'g'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni hisobga olishdab iborat. kichik va biznes subyektlarida buxgalteriya hisobi, undagi iqtisodiy jarayonlarni qayd qilish va hisobot tuzishga doir masalalar umumlashtiriladi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar hamda amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

4.Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIMning) 50% dan ortiqroq qismini tashkil etayotganligini rasmiy statistik ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi PF-50-sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2025-yil quyidagi maqsadlarni belgilab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin:

1.Kichik va o'rta biznesni yalpi ichki mahsulotdagi (YaIMdagi) hajmini 55% ga ,sanoatdagi ulushini- 34% ga, eksportda - 34%va aholini ish bilan ta'minlashda 75% ga yetkazishni ta'minlash;

2. Kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish va bu orqali ularni "champion" tadbirkorlarga aylantirish;

3.Ichimlik va oqova suv, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish va hk.


Ushbu farmonda to'liq qismida kichik va o'rta biznes korxonalariga berilayotgan imkoniyatlar, ularda yaratilayotgan shart-sharoitlar, kichik va o'rta biznes uchun infratuzilmani yaxshilash chora-tadbirlari haqida batafsil so'z borgan. Bu qarorda belgilab o'tilgan chora-tadbirlar orqali yurtimizda biznes subyektlari yanada rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (foizda)

| Klassifikator | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|-------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| O'zbekiston Respublikasi | 78.2 | 78 | 76.3 | 76.2 | 74.5 | 74.5 | 73.9 | 74 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 75.1 | 75.1 | 75.6 | 74.9 | 74.2 | 74.2 | 74.1 | 74.5 |
| Andijon viloyati | 84.4 | 84.2 | 81.7 | 82.1 | 80.8 | 80.7 | 80.2 | 80.7 |
| Buxoro viloyati | 78.5 | 78.5 | 76.5 | 76.1 | 74.9 | 74.2 | 74.3 | 74.5 |
| Jizzax viloyati | 81.8 | 80.9 | 79 | 79.7 | 78.4 | 78.8 | 77.3 | 77.1 |
| Qashqadaryo viloyati | 79.9 | 80 | 79 | 78.5 | 78.1 | 78.5 | 78.2 | 78.1 |
| Navoiy viloyati | 60.3 | 59.3 | 56.2 | 55 | 51.9 | 52.3 | 51.1 | 52.1 |
| Namangan viloyati | 83.3 | 83.5 | 83 | 82.8 | 81.6 | 82.2 | 81 | 80.9 |
| Samarqand viloyati | 84.5 | 84.5 | 83.1 | 82.8 | 81.7 | 81.5 | 80.9 | 81.1 |
| Surxondaryo viloyati | 80.9 | 80.9 | 79.4 | 79.6 | 78.2 | 78.4 | 76.9 | 76.8 |
| Sirdaryo viloyati | 79.4 | 78.8 | 77.4 | 76.4 | 74.5 | 74.4 | 72.9 | 71.9 |
| Toshkent viloyati | 76.9 | 75.1 | 73.2 | 72.8 | 70.8 | 69.8 | 70 | 70.6 |
| Farg'ona viloyati | 80.5 | 80.6 | 78.9 | 79.4 | 78.4 | 78.5 | 78.7 | 79.1 |
| Xorazm viloyati | 82.8 | 82.2 | 80.6 | 80.4 | 79.3 | 79.1 | 78.1 | 78.5 |
| Toshkent shahri | 56.6 | 56.7 | 53.1 | 53.7 | 49.7 | 50.2 | 50 | 49.4 |

Davlat Statistika agentligining rasmiy saytiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2023-yilda- 74% ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa 2016-yilda esa bu korsatkich 78,2 foizni tashkil etgan va bu 2023-yilga nisbatan 4,2%ga ko'pdir. Buning sabablaridan biri sifatida boshqa iqtisodiy subyektlarning roli oshib borayotganligini ko'rsatishimiz mumkin.



1-rasm. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining 2021-2025-yillarda soni.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. 2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari soni 411,2 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 462,8 mingga yetgan. Ya'ni bir yil ichida qariyb 12,5 foizlik o'sish qayd etilgan.(1-rasm)

2023-yilda esa eng yuqori natija kuzatilgan bo'lib, kichik tadbirkorlik subyektlari soni 523,5 mingga yetgan. Bu davrda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, imtiyozlar va kreditlarning kengaytirilgani hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga oid islohotlar o'zining ijobiy samaralarini berganini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, 2024-yildan boshlab keskin kamayish kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda faol kichik tadbirkorlik subyektlari soni 417 080 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 358 116 tagacha pasaygan. Ushbu holat bir qator omillar bilan izohlanadi: iqtisodiy sikllarning ta'siri, ayrim kichik korxonalarining faoliyatini to'xtatishi yoki yirik korxonalariga aylanishi, shuningdek, raqobatning kuchayishi va tashqi iqtisodiy omillarning ta'siriva boshqalar bilan. Eng asosiy sabablardan biri sifatida ularning moliyaviy nazorati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir. Kirim va chiqim hisoblarning noto'g'ri qo'llanishi, narx belgilashda mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblamaslik.zamonaviy buxgakteriya tizimidan foydalanmaslik kabi sabablarni keltirishimiz mumkin.

5. Xulosa.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes subyektlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish bozor ishtirokchilarining shaffofligini ta'minlash va davlat bilan o'zaro munosabatlarini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi soliq tartibotlari kichik biznes uchun ma'lum qulayliklarni yaratgan bo'lsa-da, ayrim hollarda hisobot topshirishdagi murakkabliklar, elektron tizimlardan foydalanishdagi texnik muammolar hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kichik korxonalarining aksariyatida malakali buxgalter mutaxassislar yetishmasligi ularning hisob-kitob jarayonida xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelmoqda. Bu esa nafaqat soliq

intizomiga, balki korxonaning kredit reytingiga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu bois buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy dasturlarni keng tatbiq etish, mutaxassislarni doimiy ravishda o'qitish va qayta tayyorlash zarurdir.

1. Buxgalteriya dasturlarini soddalashtirish va arzonlashtirish – kichik korxonalarga mo'ljallangan qulay onlayn hisob-kitob tizimlari yaratilsa, bu ularga vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

2. Malaka oshirish dasturlarini kengaytirish – Oliy ta'lim muassasalari hamda professional tashkilotlar hamkorligida amaliy treninglar tashkil etilishi lozim.

3. Elektron hujjat aylanishini kengaytirish – hisobotlarni topshirishda inson omilini kamaytirish orqali xatoliklar soni qisqaradi.

4. Imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish – ayrim soliq va imtiyozlarning aniq mezonlari belgilansa, kichik va o'rta biznes yanada faol rivojlanadi.

Umuman olganda, kichik va o'rta biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish nafaqat davlat byudjeti tushumlarini oshiradi, balki tadbirkorlarning ishonchini kuchaytirib, mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025-y., 06/25/50/0272-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>

Isroilov B.I, Xajimuradov N.Sh, Ibragimov B. Blar tomonidan yozilgan "Biznesda Buxgalteriya hisobi", 2023-yil. Darslik. 169-175-betlar

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni.

Matmurodov, Toshpo'lat. "Kichik va o'rta biznesda moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish" – Iqtisodiyot va ta'lim, Toshkent, 2021.

Isomuxamedov A.B. "Kichik biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobida xarajatlarning moliyaviy talqini" nomli maqolas" Multidisciplinary Scientific Journal. https://t.me/Erus_uz. 2023-yil Oktabr oyidagi soni. 374-379-betlar.

Ikromiddin Sirojiddinov, Akbarjon Isomuxamedov. "Kichik biznes sub'yektlarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi"/Darslik/Namangan: "Usmon Nosir media", 2022. – 116 b

Tojiyev Javlonbek Rustamovich. "Yangi o'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar". Innovations in Science and Technologies, 4-son, 2025-yil. 348-bet. <https://zenodo.org/records/15350063>.

Ergashev Olloyor, "Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolari". "Лучшие инновационные исследования". Часть-37_Том-4_Январь-2025. 62-65-betlar.

Axmedova D., Xasanov B. Kichik va o'rta biznes sub'yektlarida buxgalteriya hisobini yuritish muammolari va ularni hal qilish yo'llari. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2021, №4, 55–60-betlar.

Normatov Sh. Kichik biznesni kreditlashda buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanish. // Bank ishi va moliya, 2023, №5, 73–79-betlar.

Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti: www.stat.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2025-y., 06/25/50/0272-son; 12.05.2025-y., 06/25/84/0432-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>



ТО‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISO 50001 STANDARTINI JORIY QILISH MAJBURIYATINING EMPIRIK TAHLILI (“TOSHBULOQ TEKS” MCHJ MISOLIDA)

Najmiddinov Y.F.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot to‘qimachilik sanoati korxonalarida ISO 50001 energiya menejmenti standartini majburiy joriy etishning amaliy samalarini, “Toshbuloq teks” MCHJ misolida, empirik tahlil qiladi. Ishning maqsadi standartning korxonada daromadligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sirini, shuningdek energiya iste’moli va ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligiga qo’shgan hissasini aniqlashdir. Natijalar ISO 50001 talablariga muvofiq boshqaruv sikli, energiya auditori va jarayonlarni optimallashtirish choralarini bosqichma-bosqich joriy etish korxonada energiya sarfi boshqaruvini yaxshilaganini, ishlab chiqarishning uzluksizligi va sifat ko‘rsatkichlari barqarorlashganini, energiya bilan bog‘liq operatsion xavflar esa kamayganini ko‘rsatadi. Xulosaga ko‘ra, standartning majburiy tatbiqi texnik modernizatsiya va hisob-kitob tizimlari bilan qo‘llab-quvvatlanganda korxonada samaradorligini oshiradi va tarmoqqa ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan amaliy mexanizmlarni yaratadi.

Kalit so‘zlar: ISO 50001, energiya menejmenti, to‘qimachilik sanoati, majburiy joriy etish, empirik tahlil, regressiya tahlili, energiya auditori, jarayon optimallashtirish, PDCA sikli, energiya samaradorligi, energiya tejamkorligi, operatsion xarajatlar, ishlab chiqarish barqarorligi, korxonada samaradorligi, siyosiy rag‘batlar va MRV.

Аннотация. В исследовании проведён эмпирический анализ практических результатов обязательного внедрения стандарта энергоменеджмента ISO 50001 на предприятиях текстильной промышленности на примере МЧЖ «Toshbuloq Teks». Цель работы определить прямое воздействие стандарта на рентабельность и конкурентоспособность предприятия, а также его вклад в снижение энергопотребления и повышение устойчивости производственных процессов. Результаты показывают, что поэтапное внедрение управленческого цикла, соответствующего требованиям ISO 50001, проведение энергетического аудита и меры по оптимизации процессов улучшили управление расходом энергии, стабилизировали непрерывность производства и показатели качества, а также снизили связанные с энергией операционные риски. Сделан вывод, что при поддержке технической модернизации и надёжных систем измерения и учёта обязательная имплементация стандарта повышает эффективность предприятия и формирует практические механизмы, масштабируемые на уровень отрасли.

Ключевые слова: ISO 50001, энергоменеджмент, текстильная промышленность, обязательное внедрение, эмпирический анализ, регрессионный анализ, энергетический аудит, оптимизация процессов, цикл PDCA, энергоэффективность, энергосбережение, операционные затраты, устойчивость производства, эффективность предприятия, политические стимулы, MRV (измерение, отчётность и верификация).

Abstract. This study provides an empirical assessment of the practical outcomes of mandating the ISO 50001 energy management standard in textile enterprises, using Toshbuloq

Teks LLC as a case. The objective is to identify the standard's direct impact on firm profitability and competitiveness, as well as its contribution to reducing energy consumption and stabilizing production processes. The findings show that stepwise adoption of the ISO 50001 compliant management cycle, energy auditing, and process-optimization measures improved energy-use control, stabilized production continuity and quality indicators, and reduced energy-related operational risks. The study concludes that when supported by technical modernization and robust measurement and accounting systems, mandatory implementation raises enterprise efficiency and generates practical mechanisms that can be transferred across the industry.

Keywords: ISO 50001, energy management, textile industry, mandatory implementation, empirical analysis, regression analysis, energy audit, process optimization, PDCA cycle, energy efficiency, energy saving, operating costs, production stability, firm performance, policy incentives, and MRV (measurement, reporting and verification).

1. Kirish.

Biz to'qimachilik sanoati korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari tahlili hamda energiyaning turli ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirishdan maqsad miqdoriy ko'rsatkichlarning ekonometrik tahlilini hamda ISO 50001 standartini tashkil etish borasida o'tkazilgan sifat ko'rsatkichlari tahlili amalga oshirishdan iborat.

Shuningdek miqdoriy ko'rsatkichlarga qo'shimcha ravishda sifat ko'rsatkichlarini ham tahlil qilishga harakat qilingan. Sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilishda "Toshbuloq teks" hamda "Osborn tekstil" MCHJ to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya samaradorligiga ISO 50001 standartini ta'sirini so'rovnoma o'tkazish orqali tahlil qilingan. Tahlil jarayonida Y va X omillarni tanlab olishda to'qimachilik firmalarining muttaxasislari hamda ISO 50001 standarti doirasida tanlab olingan. Qo'yilgan asosiy muammoni yechish bo'yicha jami 10 ta savoldan iborat bo'lgan omillar o'rganib chiqildi, va natijaviy omil sifatida ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siri sifatida tanlab olingan. Ta'sir etuvchi omillar sifatida esa x1- moliyalashtirish holati ta'siri, x2- kadrlar malakasining ta'siri, x3- texnologik innovatsiyalar ta'siri, x4- energiya samaradorligi bilan bog'liq risklarni boshqarish xolatining ta'siri, x5- tashqi muhit omillarining ta'siri, x6- infratuzilma imkoniyatlari ta'sir, x7- ishchi kuchi va mehnat unimdorligining ta'siri, x8- ichki nazorat va hisobot tizimining ta'siri, x9- ijtimoiy va ekologik omillar ta'siri hamda x10- xorijiy va mahalliy investitsiyalar ta'siri hisoblanadi.

Ushbu o'zgaruvchilar ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan va mazkur omillarni aniqlashda sanoat korxonalaridan o'tkaziladigan so'rovnoma tuzilishi keltirib o'tilgan.

1 - jadval

To'qimachilik sanoati korxonalarida ISO 50001 standartini joriy etilishi bo'yicha bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar jadvali

| Omillar | Belgilanishi |
|---|--------------|
| ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siri | Y |
| Moliyalashtirish holati ta'siri | X1 |
| Kadrlar malakasining ta'siri | X2 |
| Texnologik onnovatsiyalar ta'siri | X3 |
| Energiya samaradorligi bilan bog'liq risklarni boshqarish ta'siri | X4 |
| tashqi muhit omillarining ta'siri | X5 |
| infratuzilma imkoniyatlari ta'sir | X6 |
| ishchi kuchi va mehnat unimdorligining ta'siri | X7 |
| ichki nazorat va hisobot tizimining ta'siri, | X8 |
| ijtimoiy va ekologik omillar ta'siri | X9 |
| xorijiy va mahalliy investitsiyalar ta'sir | X10 |

To'qimachilik sanoati korxonalari hodimlarining ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'sirini baholashda ta'sir etuvchi omillarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash hamda statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini empirik tahlil qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqotga jalb qilingan barcha o'zgaruvchilar va elementlar to'qimachilik sanoati korxonalari muttaxislarining tavsiyasi asosida tadqiqot yo'nalishlarini aniqlab olish uchun ishlab chiqilgan. Mazkur so'rovnomaga uchun tanlangan savollar sanoat korxonalari menejerlari va ishchi hodimlari fikrini o'rganishning 5 ballik Likert shkalasi asosida javob formatida belgilandi, bunda 1 "Juda past" va 5 "Juda yuqori"ni bildiradi.

Google Forms orqali o'tkazilgan onlayn anteka so'rovi yordamidan ma'lumotlarni to'plash uchun tasodifiy tanlab olish usuli yordamida miqdoriy tadqiqot dizayni ishlatilgan. Ushbu tadqiqot Namangan viloyati, Namangan tumani "Toshbuloq teks" MCHJ hamda Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi "Osborn tekstil" MCHJ to'qimachilik sanoati korxonalari hamkorligida o'tkazilgan. Ma'lumotlarni yig'ish ushbu sanot korxonalarida faoliyat olib boradigan hodimlarning elektron pochta orqali hamda telegram messengeriga jo'natish orqali olingan.

2. Adabiyotlar sharhi.

ISO 50001 energiya menejmenti tizimi (EMT) sanoat korxonalarida energiya iste'molini tizimli boshqarish, jarayonlarni uzluksiz yaxshilash va energiya samaradorligini hujjatlashtirilgan tarzda oshirishni ko'zda tutadi. To'qimachilik tarmog'i kontekstida mazkur standartning dolzarbligi yuqori: bo'yash-apretlashda bug' va issiqlik, yigirish-to'qishda elektr energiyasi, siqilgan havo va nasos-ventilyatsiya sikllari katta ulushni egallaydi; mahsulot tannarxidagi energiya xarajatlari, ayniqsa, issiqlik-elektr ulushi, ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish hajmi va texnologik rejimga qarab sezilarli tebranishga ega. Xalqaro tajribada ISO 50001 joriy etilishi odatda uch yo'nalishdagi natijalar bilan o'lchanadi: energiya intensivligi va energiya xarajatlari ulushining pasayishi, jarayonlar barqarorligi va sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, hamda ekologik izning (chiqindi issiqlik va CO₂ chiqindilari) qisqarishi; dastlabki tsiklning o'zidayoq arzon va "bepul" choralar hisobiga ikki xonali foizlarda tejalishlar qayd etilishi ko'p uchraydi.

O'zbekistonda adabiyotlar va amaliy hisobotlar energiya samaradorligi islohotlarini normativ-huquqiy asoslar bilan bog'laydi: energetika samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalarni rag'batlantirishga doir qonunlar, energetik auditni bosqichma-bosqich joriy etish, metrologik o'lchov tizimlarini modernizatsiya qilish va korxonalarda energiya menejeri institutini kuchaytirish shu jumladandir. Ilmiy ishlar va amaliy dastur hisobotlarida to'qimachilik sub-tarmoqlari bo'yicha energiya intensivligi ko'rsatkichlarini normallashtirish, kg ip-gazlama uchun kVt-soat yoki kg bug' sarfi mezonlari, kondensatni qaytarish, issiqlik almashinuvchilarda chiqindi issiqlikni qo'lga kiritish, siqilgan havo sizib chiqishlarini kamaytirish, o'zgaruvchan chastotali privodlar va yoritishda LED yechimlari kabi choralar tizimli EMT doirasida "birinchi to'lqin" sifatida qayd etiladi. O'zbekiston to'qimachilik klasterlari, eksportga yo'naltirilgan fabrikalarda ISO 9001 va ISO 14001 tizimlari mavjud bo'lgan hollarda ISO 50001 bilan integratsiya qilishning transaksion xarajatlari pastroq ekani, jarayon xaritalash va PDCA sikliga mos ichki audit madaniyati mavjudligi sababli joriy etish sur'ati yuqoriroq bo'lishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, adabiyotlarda uchta muhim to'siq muntazam tilga olinadi: bo'limlararo energetik hisobning bo'linmaganligi (sub-metering yetishmasligi), ma'lumot sifati va real-vaqt monitoring infratuzilmasining zaifligi, hamda investitsion choralar uchun moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi. Empirik kuzatuvlarda energiya tariflari va eksport bozorlaridagi barqarorlik talablari (mijozlar kodekslari, barqarorlik auditori) korxonalarda ISO 50001 ni qabul qilish ehtimolini kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida ko'rsatiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi ISO 50001 energiya menejmenti standartini joriy etish to'qimachilik korxonalarini natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini empirik tekshirishga qaratiladi. Avvalo, "joriy etishdan oldin" va "joriy etilgandan keyin" davrlar kesimida korxonalar ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganiladi, so'ng o'lchami va mahsulot profili o'xshash, ammo ISO 50001siz ishlayotgan nazorat korxonalarini bilan solishtirish orqali ta'sir ajratib olinadi. Maqsad energiya sarfi nisbati kamayishi, energiya xarajatlarining ulushi qisqarishi hamda ishlab chiqarish hajmi va uzluksizligining barqarorlashishi kabi natijalarni ishonchli baholashdir.

Ma'lumotlar bazasiga oy yoki chorak kesimidagi ishlab chiqarish hajmi, energiya iste'moli va energiya xarajatlari haqidagi ichki hisobotlar kiritiladi; tashqi omillar sifatida energiya narxlari, inflyatsiya va zarurat bo'lsa ob-havo ko'rsatkichlari qo'shiladi. Asosiy natija o'lchovlari sifatida mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi, energiya xarajatlarining tannarx yoki tushumdagi ulushi va ishlab chiqarish hajmining oylik o'zgaruvchanligi olinadi. Baholashda firma va vaqt doimiy ta'sirlari bilan regressiya qo'llanib, ISO 50001 tatbiqidan keyingi farq nazorat guruhiga nisbatan identifikatsiya qilinadi; agar ma'lumot cheklangan bo'lsa, uzilgan qatorlar tahlili yoki sintetik nazorat yondashuvi ishlatiladi.

Natijalarni ishonchligini tekshirish uchun joriy etishdan oldingi trendlar parallelligi sinovi, tatbiq sanasi atrofida hodisa-o'rganish grafigi, soxta sana (placebo) tajribalari va muqobil o'lchovlardan foydalaniladi. xatoliklar robust usulda baholanadi. Ma'lumot sifati hisoblagichlar kalibrovkasi va hujjatlashtirish orqali ta'minlanadi, yo'q qiymatlar bo'yicha aniq qoidalar qo'llanadi. Ehtimoliy cheklovlar yagona davolash obyektidan kelib chiqadigan umumlashtirish muammosi va mahsulot miksi o'zgarishining natijalarga ta'siri alohida nazoratlar orqali yumshatiladi. Tadqiqot davomida tijorat siri himoya qilinadi, ma'lumotlar anonimlashtiriladi va hisobotlarda oshkorlik tamoyillari saqlanadi.

4. Tahlil va natijalar.

Ushbu tadqiqot uchun tanlangan yashirin omillar 10 ta o'zgaruvchidan kelib chiqib, eng kamida 300 dan ortiq hodimlarni ushbu so'rovnomada ishtirok etishga jalb qilish ko'zda tutilgan. Ekonometrik tahlil jarayonini boshlashda birinchi navbatda Stata 18 dasturida omillarning "Descriptive Statistics" tasviriy statistika, bu kuzatuv natijalarini bir butun holda ko'rsatib berish, ular orasidagi o'rtacha qiymatlar, tarqalish darajalari va taqsimot shaklini ochib beruvchi metodologik yondashuvdan boshlangan. Bunda alohida birliklarni emas, balki butun omillarni yoki tanlama ma'lumotlarning umumiy tasviri shakllantiriladi. Ushbu statistik ma'lumotni quyidagi berilgan 2 jadvalda ko'rish mumkin.

2 - jadval

O'zgaruvchilarning tasviriy statistika jadvali

| O'zgaruvchilar | O'rtcha qiymat | Standart og'ish | Minimum | Maksimum |
|----------------|----------------|-----------------|---------|----------|
| y | 4,124 | 0,706 | 3 | 5 |
| x1 | 3,91 | 0,662 | 3 | 5 |
| x2 | 3,609 | 0,693 | 3 | 5 |
| x3 | 3,672 | 0,737 | 3 | 5 |
| x4 | 3,669 | 0,681 | 3 | 5 |
| x5 | 3,555 | 0,67 | 2 | 5 |
| x6 | 3,615 | 0,702 | 2 | 5 |
| x7 | 3,659 | 0,693 | 3 | 5 |
| x8 | 3,602 | 0,68 | 3 | 5 |
| x9 | 3,609 | 0,726 | 2 | 5 |
| x10 | 3,716 | 0,757 | 3 | 5 |

2-jadval natijalari to'qimachilik sanoati korxonalarida ISO 50001 standarti joriy etilishiga ta'sir etuvchi omillarning bahosini yoritadi. 299 ta kuzatuv asosida shakllangan tasviriy statistika ko'rsatkichlari respondentlarning baholari o'rtacha 3,5-4,1 oralig'ida bo'lib, bu jarayonga umumiy munosabatning ijobiy ekanini anglatadi. Bog'liq o'zgaruvchi (y)ning yuqori o'rtacha qiymati (4,124) energiya boshqaruvi jarayonining ahamiyatini tasdiqlaydi. Mustaqil omillar ichida moliyalashtirish (x1-3,91) va investitsiyalar (x10-3,716) eng muhim ijobiy omillar sifatida ajralib turibdi. Texnologik innovatsiyalar (x3-3,672) va risklarni boshqarish (x4 -3,669) ham muhim omillar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Biroq tashqi muhit (x5-3,555) va infratuzilma (x6-3,615) pastroq baholangan bo'lib, ular ISO 50001 samarali joriy etilishiga cheklovchi omillar sifatida ko'rilmogda. Kadrlar malakasi, mehnat unumdorligi, ichki nazorat va ijtimoiy-ekologik omillar o'rtacha darajada baholangan. Umuman olganda, tasviriy statistika natijalari ISO 50001 standarti bo'yicha ijobiy salohiyat mavjudligini ko'rsatadi, biroq tashqi omillarni yumshatish va infratuzilmani rivojlantirishni talab etiladi.

Mantiqan jihatdan olib qaraganda tasviriy statistikadan so'ng korrelyatsion tahlilni amalga oshirishga harakat qilganmiz. Korrelyatsion tahlil turlaridan "Pairwise correlation" turini tanlab olganmiz. Pairwise correlation bu juft korrelyatsiya bo'lib, har bir o'zgaruvchi boshqa barcha o'zgaruvchilar bilan alohida juft qilib solishtiriladi va ular o'rtasidagi bog'liqlik darajasi hisoblanadi. Natijada korrelyatsiya matritsasi hosil bo'ladi.

Pearson korrelyatsiyasini hisoblash formulasi.

$$r_{xy} = \frac{\sum(x_i - \bar{x}) * (y_i - \bar{y})}{\sqrt{(x_i - \bar{x})^2} * \sqrt{(y_i - \bar{y})^2}}$$

Bu yerda:

x_i, y_i - kuzatilatotgan qiymatlar;

\bar{x}, \bar{y} -o'rtacha qiymatlar;

r_{xy} -x va y o'rtasidagi pairwise korrelyatsiya qiymati.

Juft korrelyatsiya qiymatini quydagi berilgan jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

3 - jadval

Juft korrelyatsiya matritsasi

| O'zg | y | x1 | x2 | x3 | x4 | x5 | x6 | x7 | x8 | x9 | 10 |
|------|-------------------|------------------|-------------------|-------------------|------------------|------------------|------------------|----------|----------|----|----|
| y | 1.000 | | | | | | | | | | |
| x1 | 0.390 (0.000) | 1.000 | | | | | | | | | |
| x2 | 0.120 (0.038) | 0.106 (0.068) | 1.000 | | | | | | | | |
| x3 | 0.298 (0.000) | 0.214 (0.000) | -0.160 (0.006) | 1.000 | | | | | | | |
| 4 | 0.204 (0.000) | 0.254 (0.000) | 0.244 (0.000) | 0.077 (0.183) | 1.000 | | | | | | |
| 5 | -0.075 (0.197) | 0.023 (0.697) | 0.079 (0.172) | -0.133 (0.021) | 0.228 (0.000) | 1.000 | | | | | |
| 6 | 0.212 (0.000) | 0.004 (0.939) | -0.138 (0.017) | 0.184 (0.001) | 0.049 (0.402) | 0.142 (0.014) | 1.000 | | | | |
| x7 | 0.155 (0.007) | 0.342 (0.000) | -0.013 (0.818) | 0.280 (0.000) | 0.314 (0.000) | 0.091 (0.115) | 0.019 (0.742) | .00 0 | | | |
| x8 | 0.180 | 0.121 | 0.160 | 0.181 | 0.026 | -0.073 | -0.005 | .05 3 | .00 0 | | |

| | | | | | | | | | | | |
|-----|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|-------|-------|-------|------|
| | (0.002) | (0.036) | (0.006) | (0.002) | (0.653) | (0.207) | (0.926) | 0.363 | | | |
| x9 | 0.258 | 0.101 | -0.125 | 0.324 | 0.137 | 0.062 | 0.118 | .147 | .275 | .000 | |
| | (0.000) | (0.082) | (0.030) | (0.000) | (0.017) | (0.287) | (0.041) | 0.011 | 0.000 | | |
| x10 | 0.311 | 0.196 | 0.216 | 0.037 | 0.240 | -0.005 | -0.074 | .147 | 0.005 | .120 | .000 |
| | (0.000) | (0.001) | (0.000) | (0.525) | (0.000) | (0.927) | (0.203) | 0.011 | 0.926 | 0.037 | |

Juft korrelyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, bog'liq o'zgaruvchi (y) bilan moliyalashtirish (x1), texnologik innovatsiyalar (x3), investitsiyalar (x10) va ijtimoiy-ekologik omillar (x9) o'rtasida o'rtacha darajadagi ijobiy va statistik jihatdan yuqori ahamiyatli bog'liqlik mavjud. Bu esa energiya boshqaruvi samaradorligi moliyaviy resurslar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsion qo'llab-quvvatlash bilan bevosita mustahkamlanishini tasdiqlaydi. Shuningdek, risklarni boshqarish (x4), infratuzilma imkoniyatlari (x6) hamda ichki nazorat tizimi (x8) bilan ijobiy, ammo nisbatan kuchsiz bog'liqlik aniqlangan bo'lib, ular qo'shimcha shart-sharoit sifatida namoyon bo'ladi. Kadrlar malakasi (x2) va ishchi kuchi (x7) ham past darajada bo'lsa-da, ahamiyatli bog'liqlik ko'rsatmoqda, bu ularning ikkilamchi omil sifatida ta'sirini bildiradi. Tashqi muhit omillari (x5) esa salbiy va statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib, modelda izohlaydigan kuchga ega emas. Demak, ISO 50001 samarali joriy etilishi birinchi navbatda moliyaviy, texnologik va investitsion determinantlar bilan belgilanadi, tashqi omillar esa cheklovchi vazifa bajaradi.

Yuqoridagi korrelyatsion tahlildan so'ng regressiya tahlilini amalga oshirilgan. Regressiya tahlilida aynan yuqorida aytib o'tilgan omillarning ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siriga ijobiy va salbiy ta'sir doirasi ko'rsatib o'tilgan.

4 - jadval

Regressiya ko'rsatkichlari jadvali

| y | Coef. | St.Err. | t-value | p-value | [95% Conf | Interval] | Sig |
|--------------------------------|--------|---------|---------|----------------------|-----------|-----------|-----|
| x1 | 0,309 | 0,056 | 5,47 | 0 | 0,198 | 0,42 | *** |
| x2 | 0,097 | 0,055 | 1,77 | 0,077 | -0,011 | 0,204 | |
| x3 | 0,139 | 0,053 | 2,61 | 0,009 | 0,034 | 0,243 | *** |
| x4 | 0,056 | 0,057 | 0,97 | 0,331 | -0,057 | 0,168 | |
| x5 | -0,116 | 0,054 | -2,14 | 0,033 | -0,222 | -0,009 | * |
| x6 | 0,213 | 0,05 | 4,23 | 0 | 0,114 | 0,312 | *** |
| x7 | -0,05 | 0,056 | -0,91 | 0,366 | -0,16 | 0,059 | |
| x8 | 0,065 | 0,054 | 1,20 | 0,229 | -0,041 | 0,172 | |
| x9 | 0,128 | 0,053 | 2,44 | 0,015 | 0,025 | 0,232 | ** |
| x10 | 0,207 | 0,048 | 4,32 | 0 | 0,113 | 0,301 | *** |
| Constant | 0,212 | 0,426 | 0,50 | 0,619 | -0,626 | 1,05 | |
| Mean dependent var | | 4,124 | | SD dependent var | | 0,706 | |
| R-squared | | 0,837 | | Number of obs | | 299 | |
| F-test | | 14,725 | | Prob > F | | 0,000 | |
| Akaike crit. (AIC) | | 537,633 | | Bayesian crit. (BIC) | | 578,338 | |
| *** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1 | | | | | | | |

Yuqoridagi regressiya tenglamasidan kelib chiqqan holatda aytish mumkinki, $R^2 = 0,837$ model izohlay oladigan dispersiya ulushi 83,7 %. Bu ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar uchun yetarlicha yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. F-test = 14,725, hamda Prob > F = 0,000 teng bo'lib umuman olganda ushbu model statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. AIC va BIC qiymatlari nisbatan past bo'lgani modelning yaxshi mosligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib Y natijaviy omilga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar sifatida x1- moliyalashtirish holati ta'siri, x3- texnologik innovatsiyalar ta'siri, x5- tashqi muhit omillarining ta'siri, x6-infratuzilma imkoniyatlari ta'sir, x9- ijtimoiy va ekologik omillar ta'siri hamda x10-xorijiy va mahalliy investitsiyalar ta'siri tanlab olishimiz mumkin. Ushbu omillarda p qiymat 0,05 dan kichik va regressiyada statistik jihatdan ahamiyatlik hisoblanadi, qolgan omillar esa statistik jihatdan ahamiyatsizdir. Statistik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan omillar oqrali chiziqli regressiya tenglamasini quyidagi ko'rinishida shakllantirilgan.

$$Y = 0,212 + 0,309x1 + 0,139x3 + 0,213x6 + 0,207x10 + 0,207x9 - 0,116x5$$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar moliyalashtirish ko'rsatkichi 1 birlikka oshsa, ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siri (y) o'rtacha 0,309 birlikka ortadi. Bu juda sezilarli ijobiy ta'sir hisoblanadi. Texnologik innovatsiyalar darajasi 1 birlikka oshsa, ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siri 0,139 birlikka ortadi. Ta'sir miqdori kichikroq bo'lsada, baribir muhim va statistik ahamiyatli. Infratuzilma imkoniyatlari 1 birlikka oshsa, energiya samaradorligi 0,213 birlikka oshadi. Bu shuni anglatadiki, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'sirida muhim omildir. Mahalliy va xorijiy investitsiyalar hajmi 1 birlikka oshsa, samaradorlik 0,207 birlikka ortadi. Bu kapital qo'yilmalari ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'sirini sezilarli darajada rag'batlantirayotganini ko'rsatadi. Ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olish darajasi 1 birlikka oshsa, samaradorlik 0,128 birlikka oshadi. Bu barqaror rivojlanish omillarining bevosita ijobiy ta'sirini bildiradi. Yuqoridagilarga nisbatan olganda teskari ta'sir etayotgan, tashqi muhitdagi cheklovchi omillar 1 birlikka oshsa, ISO 50001 standartini energiya samaradorligiga ta'siri 0,116 birlikka kamayadi. Bu tashqi beqarorlik (masalan, energiya narxlar, siyosiy-iqtisodiy risklar) korxonalarining energiya samaradorligiga salbiy ta'sir qilayotganini anglatadi. Umuman olganda ISO 50001 standarti samarali joriy etilishida moliyaviy ta'minot, texnologik innovatsiyalar, infratuzilma imkoniyatlari, investitsiyalar hamda ijtimoiy-ekologik omillar hal qiluvchi ta'sir kuchiga ega omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Tashqi muhit esa aksincha, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kadrlar malakasi va ichki nazorat tizimi ijobiy yo'nalishda ta'sir qilsada, ularning statistik ahamiyati past. Demak, korxonalar uchun asosiy strategik yo'nalishlar moliyaviy resurslarni kengaytirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va investitsion oqimlarni jalb etishdan iborat bo'lishi zarur. Bundan ko'rinib turganidek ISO 50001 standartini biz tanlab olgan to'qimachilik sanoati korxonalarida joriy etilishi natijasida energiya samaradorligini 15-20%ga oshirish mumkin.

ISO 50001 standartini joriy etishning samaradorligi bo'yicha xalqaro amaliyot va empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda energiya samaradorligini o'rtacha 10-20 % gacha oshirish mumkin. Bu ko'rsatkich ayrim rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Germaniya, Yaponiya, AQSh) 20-25 % gacha yetgan, chunki u yerda moliyalashtirish, texnologik innovatsiyalar va infratuzilma sharoitlari yuqori darajada rivojlangan.

To'qimachilik sanoati korxonalari sharoitida, ayniqsa O'zbekiston misolida, ISO 50001 joriy etilishi, 1-yilda 5-10 % energiya tejash imkonini beradi (tezkor "tezkor yutuqlar" orqali, nazorat, monitoring, oddiy texnik choralar). 3-5 yil ichida 12-18 % energiya samaradorligi oshishi mumkin (investitsiya va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali). Uzoq muddatda 5-10 yil oralig'ida esa samaradorlikning oshishi 20 % va undan yuqori bo'lishi ehtimoldan xoli emas, agar investitsiyalar, infratuzilma modernizatsiyasi va ijtimoiy-ekologik talablar kompleks ravishda amalga oshirilsa.

Regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, ISO 50001 samaradorligini belgilovchi eng kuchli ta'sir etuvchi omillar moliyalashtirish, texnologik innovatsiyalar, infratuzilma va

investitsiyalardir. Agar ushbu omillarni kompleks ravishda kuchaytirish choralari ko'rilsa, "Toshbuloq teks" hamda "Osborn tekstil" MCH to'qimachilik sanoati korxonalarida ISO 50001 standartini joriy etish orqali energiya samaradorligini kamida 15-20 % gacha oshirish imkoniyati mavjud.

Endi ushbu regressiya tenglamasi ahamiyatlik ekanligini bir nechta testlar bo'yicha tahlil qilamiz.

Birinchi navbatda regressiya tenglamasini eng keng tarqalgan test usullaridan biri bu VIF testi hisoblanadi. Variance Inflation Factor bu regressiya tahlilida multikollinearlik darajasini o'lchaydigan ko'rsatkich. U har bir mustaqil o'zgaruvchi boshqa mustaqil o'zgaruvchilar bilan qanchalik bog'langanini ko'rsatadi. Multikollinearlik yuqori bo'lsa, regressiya natijalari noaniq bo'ladi, standart xatolar kattalashadi va tahlil noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

$$VIF_i = \frac{1}{1 - R_i^2}$$

R_i^2 - "i"chi mustaqil omilning qolgan barcha omillarga regressiya qilinganda hosil bo'ladigan determinatsiya koeffitsienti. VIF qancha katta bo'lsa, omil shunchalik ko'p boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi va multikollinearlik xavfi kuchayadi. VIF qiymati 1 ga yaqin bo'lsa multikollinearlik yo'q, VIF 5 dan oshsa sezilarli multikollinearlik mavjud, VIF 10 dan katta bo'lsa juda kuchli multikollinearlik bor va model ishonchsiz. Ushbu regressiya tenglamasining VIF ko'rsatkichi quyidagi jadvalda berilgan.

5 - jadval

Regressiya tenglamasining VIF ko'rsatkichi

| Ko'rsatkichlar | VIF | 1/VIF |
|---|-------|-------|
| Texnologik innovatsiyalar ta'siri | 1,333 | 0,75 |
| Energiya samaradorligi bilan bog'liq risklarni boshqarish ta'siri | 1,316 | 0,76 |
| Ishchi kuchi va mehnat unimdorligining ta'siri | 1,296 | 0,772 |
| Ijtimoiy va ekologik omillar ta'siri | 1,274 | 0,785 |
| Kadrlar malakasining ta'siri | 1,253 | 0,798 |
| Moliyalashtirish holati ta'siri | 1,222 | 0,818 |
| Ichki nazorat va hisobot tizimining ta'siri | 1,181 | 0,847 |
| Xorijiy va mahalliy investitsiyalar ta'siri | 1,153 | 0,867 |
| Tashqi muhit omillarining ta'siri | 1,139 | 0,878 |
| Infratuzilma imkoniyatlari ta'sir | 1,094 | 0,914 |
| O'rtacha VIF | 1,226 | 0,0 |

Keltirilgan VIF natijalari regressiya modelida mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida jiddiy multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatadi. Barcha ko'rsatkichlar 1,094 dan 1,333 gacha oraliqda bo'lib, bu amaliy ekonometrik mezonlarga ko'ra juda past darajadagi qiymatlar hisoblanadi. O'rtacha VIF 1,226 ni tashkil etishi, o'zgaruvchilar bir-birini takrorlamasdan, modelga mustaqil ravishda izoh beruvchi kuch qo'shayotganini bildiradi. Shuningdek, 1/VIF ko'rsatkichlarining 0,75-0,91 diapazonida bo'lishi multikollinearlik darajasi past va modelning to'liq ochib berilganligini tasdiqlaydi. Shu bois, regressiya natijalari statistik jihatdan ishonchli bo'lib, ularning iqtisodiy talqini va siyosiy tavsiyalarga asos bo'lish imkoniyati yuqori darajada ta'minlangan. Bundan ko'rinib turibdiki ISO 50001 standartini joriy qilish bo'yicha taklif empirik jihatdan ham asoslanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yana bir test **Breusch-Pagan/Cook-Weisberg** testi bo'lib, u regressiya modelida heteroskedastiklik mavjud yoki yo'qligini tekshiradi.


```
Breusch-Pagan/Cook-Weisberg test for heteroskedasticity
Assumption: Normal error terms
Variable: Fitted values of y

H0: Constant variance

      chi2(1) =    0.16
Prob > chi2 = 0.6866
```


Ushbu testda nol gipoteza homoskedastiklik, ya'ni xatoliklarning dispersiyasi doimiyliги faraz qilinadi. Olingan natijalarga ko'ra, hisoblangan statistik qiymat $\chi^2(1) = 0,16$ bo'lib, unga mos p-qiymat 0,6866 ni tashkil etadi. P-qiymatning 0,05 dan yuqori bo'lishi nol gipotezaning rad etilmasligini anglatadi. Demak, modelda heteroskedastiklik muammosi mavjud emas va xatoliklarning tarqalishi doimiydir. Bu esa regressiyaning baholash natijalari ishonchli, samarali va iqtisodiy talqin uchun maqbul ekanini tasdiqlaydi.

Quyidagi berilgan 2.3.1-rasmda Qoldiqlarning normal taqsimotga mosligini tekshiruvchi miqdoriy va ehtimollik grafigi keltirib o'tilgan.



1-rasm. Qoldiqlarning normal taqsimotga mosligini tekshiruvchi miqdoriy va ehtimollik grafigi

1-rasmda keltirilgan qoldiqlarning normal taqsimotga mosligini tekshiruvchi Q-Q va P-P grafiglari regressiya modelida xatoliklarning normal taqsimlanish farazini baholash imkonini beradi. Q-Q grafigida kuzatilgan nuqtalarning asosiy qismi nazariy normal taqsimot chizig'i bo'ylab joylashgan bo'lib, bu qoldiqlarning markaziy qismi normal taqsimotga yaqin ekanini ko'rsatadi. Chekka qiymatlarda biroz og'ishlar mavjud bo'lsa-da, ular modelning umumiy ishonchliligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. P-P grafigida esa nuqtalar to'g'ri chiziq bo'ylab deyarli bir tekis taqsimlangan bo'lib, empirik ehtimollar nazariy normal taqsimot ehtimollariga mos kelishini tasdiqlaydi. Umuman olganda, mazkur natijalar regressiya modelida qoldiqlarning normal taqsimlanganligi farazi asosan bajarilganini va regressiya baholash natijalari statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek har bir musqatil o'zgaruvchining alohida regressiya modeliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ham ijobiy natijalarni ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Har bir mustaqil o'zgaruvchining regressiya natijalariga oid infografika

Keltirilgan har bir mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchi bilan aloqasini boshqa omillar ta'siridan tozalangan holda ko'rsatadi. Ushbu usul yordamida o'zgaruvchilarning regressiya modeliga qo'shgan sof izohlaydigan kuchi hamda ular bilan qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik vizual ravishda baholash imkonini beradi. Grafiklarda x1, x3, x6, x9 va x10 o'zgaruvchilari sezilarli ijobiy ta'sirga ega bo'lib, bu ularning energiya samaradorligi natijasiga ta'siri barqaror va statistik jihatdan muhim ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, moliyalashtirish (x1), infratuzilma imkoniyatlari (x6) hamda investitsiyalar (x10) bo'yicha kuzatilgan chiziqli bog'lanishlar ushbu omillar regressiya modelining asosiy aniqlashtiruvchisi ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy va ekologik omillar (x9) ham qoldiqlarda sezilarli iz qoldirayotganini ko'rish mumkin, bu esa ularning ahamiyatini isbotlaydi. Aksincha, tashqi muhit omillari (x5) salbiy ta'sir namoyon etmoqda va bu natija korxonalar faoliyatida tashqi omillar energiya samaradorligini pasaytiruvchi cheklovchi faktor sifatida ta'sir qilayotganini anglatadi. Kadrlar malakasi (x2), risklarni boshqarish (x4), ishchi kuchi unumdorligi (x7) va ichki nazorat tizimi (x8) esa deyarli gorizontaal yoki juda zaif chiziqlar bilan ifodalanib, ularning ta'siri statistik jihatdan kuchsiz va regressiyada asosiy aniqlovchi emasligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, grafik natijalar regressiya jadvalida aniqlangan statistik xulosalarni vizual ravishda tasdiqlaydi. Energiya samaradorligini oshirishda moliyaviy ta'minot, texnologik innovatsiyalar, infratuzilma imkoniyatlari, investitsiyalar va ijtimoiy-ekologik omillar muhim ijobiy rol o'ynaydi, tashqi muhit esa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolgan omillar esa qo'shimcha yordamchi faktorlar bo'lib, modelning izohlaydigan kuchiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois, modelning iqtisodiy va statistik talqini ijobiy baholanadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, regressiya tenglmasi statistik jihatdan ahamiyatlik hamda ISO 50001 standartini to'qimachilik sanoati korxonalarida joriy qilish orqali 15-20%ga energiya samaradorligini oshirish imkoniyati mavjudligini emperik jihatdan ham izohlaydi.

5. Xulosa.

Empirik tahlil natijalari ISO 50001 standarti to'qimachilik korxonalarida energiya boshqaruvini tizimlashtirib, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini kamaytirishi, energiya bilan bog'liq operatsion xavflarni pasaytirishi va ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini kuchaytirishini ko'rsatadi. Ta'sirning kuchi, avvalo, moliyalashtirishning yetarliligi, texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasining holati va investitsion qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq. Kadrlar malakasi, ichki nazorat va hisobot tizimlari ham ijobiy rol o'ynaydi, biroq ularning samarasi resurslar va texnologiyalar bilan uyg'unlashgandagina to'liq namoyon bo'ladi. Tashqi muhitdagi noaniqliklar (energiyaning bozor narxлари, ta'minot zanjiri xatarlari) esa natijalarga salbiy bosim ko'rsatishi mumkin.

ISO 50001 ni bosqichma-bosqich yo'l xaritasi bilan joriy etish, majburiy boshlang'ich energiya bazasi (EnB) va EnPIlarni aniqlash, sex/uchastka darajasida sub-metering va MRV (o'lchash-hisobot-verifikatsiya) tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Energiya auditi xulosalariga tayanib, yuqori qaytimli choralarni (kompessorlar, bug' tizimlari, dvigatellarga chastota o'zgartirgichlari, yoritish) ustuvorlashtirish, o'rta muddatda texnologik modernizatsiyani (issiqlik rekuperatsiyasi, jarayon optimallashtirish) bosqichma-bosqich moliyalashtirish zarur. Kadrlar uchun doimiy trening va motivatsion mexanizmlar (energiya tejamkorlikka bog'langan KPI) joriy etilsin. Tashqi xatarlarni yumshatish uchun energiya xarajatlari bo'yicha byudjetlashtirish intizomi va uzoq muddatli ta'minot shartnomalari qo'llansin. Korporativ darajada ESG hisobotini yo'lga qo'yish va "yashil" kredit/obligatsiyalar orqali investitsiya manbalarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) "2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", PQ-4477-son, 4-oktabr. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", PF-60-son, 28-yanvar. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", PF-158-son, 11-sentyabr. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023) "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", PF-169-son, 12-oktabr. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2023) "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-83-son, 1-mart. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022) "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", PQ-436-son, 2-dekabr. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2023) "'Yashil energiya' sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-156-son, 12-may. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023) "Milliy 'yashil' iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida", 561-son qaror, 25-oktabr. Toshkent.

International Organization for Standardization (2018) ISO 50001:2018 Energy management systems Requirements with guidance for use. Geneva: ISO.

International Organization for Standardization (2014) ISO 50004:2014 Energy management systems Guidance for the implementation, maintenance and improvement of an energy management system. Geneva: ISO.

International Organization for Standardization (2014) ISO 50006:2014 Energy management systems Measuring energy performance using energy baselines (EnB) and energy performance indicators (EnPI) General principles and guidance. Geneva: ISO.

International Organization for Standardization (2014) ISO 50002:2014 Energy audits Requirements with guidance for use. Geneva: ISO.

International Organization for Standardization (2018) ISO 19011:2018 Guidelines for auditing management systems. Geneva: ISO.

International Energy Agency (2020) Energy Efficiency 2020. Paris: IEA.

International Energy Agency (2021) Energy Efficiency Indicators: Fundamentals on Statistics. Paris: IEA.

United Nations Industrial Development Organization (2015) Practical Guide to Industrial Energy Efficiency. Vienna: UNIDO.



URBANIZATSIYA VA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Numanova M.L.

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonlarining rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya misolida urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va ekologik barqarorlik bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, iqtisodiy transformatsiya, innovatsion shahar, ekologik muvozanat, raqamli infratuzilma, xalqaro tajriba.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние процессов урбанизации на устойчивое развитие экономики развитых стран. На примере США, Германии, Японии и Южной Кореи показана взаимосвязь процессов урбанизации с экономическим ростом, инновациями и экологической устойчивостью.*

Ключевые слова: *урбанизация, устойчивое развитие, экономическая трансформация, инновационный город, экологическое равновесие, цифровая инфраструктура, международный опыт.*

Abstract. *This article analyzes the impact of urbanization on the sustainable development of developed economies. Using the examples of the United States, Germany, Japan, and South Korea, it demonstrates the relationship between urbanization and economic growth, innovation, and environmental sustainability.*

Keywords: *urbanization, sustainable development, economic transformation, innovative city, ecological balance, digital infrastructure, international experience.*

1. Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiyotning asosiy rivojlanish tendensiyalaridan biri urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvidir. XXI asrda urbanizatsiya nafaqat aholi sonining shahar hududlarida to'planishi jarayoni, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik tizimlarning chuqur transformatsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholining qariyb 57 foizi shaharlarda istiqomat qiladi, 2050-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizga yetishi kutilmoqda. Bu esa urbanizatsiyani global iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylantirmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya to'g'ri boshqarilganda u iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar, mehnat unumdorligi va ijtimoiy farovonlikning kuchli omiliga aylanadi. Aksincha, urban jarayonlarning tartibsiz rivojlanishi ekologik muammolar, transport inqirozi, ijtimoiy tengsizlik va resurslarning nomutanosib taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli urbanizatsiyani barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) dasturida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish va "barqaror shaharlar va jamoalar" (11-maqсад)ni rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya va Niderlandiya kabi mamlakatlar urbanizatsiyani iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirishda muvofiqlashtirilgan siyosiy, institutsional va texnologik yondashuvlardan foydalanib, "aqli shaharlar", "yashil infratuzilma", "kam uglerodli iqtisodiyot" kabi ilg'or modellarni amaliyotga joriy etgan.

Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiyani barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish:

- iqtisodiy faoliyatning hududiy samaradorligini oshiradi;
- ekologik yuklamani kamaytiradi;
- ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi;
- aholi turmush sifatini yaxshilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, urbanizatsiya va barqaror iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, O'zbekistonning hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Ilk nazariy yondashuvlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, industrializatsiya jarayonlari kuchaygan davrda shakllandi. W. Thompson (1965) urbanizatsiyani iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish kuchlarining hududiy konsentratsiyasi natijasi sifatida talqin qilgan. L.Wirth (1938) esa shahar hayotini sotsial tizim sifatida o'rganib, urbanizatsiyani jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini o'zgartiruvchi omil deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida urbanizatsiyaning zamonaviy modellari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tahlil qilina boshlandi. Jane Jacobs (1970) o'zining "The Economy of Cities" asarida shaharlarni innovatsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiyaning manbai sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, urbanizatsiya — bu iqtisodiy faollik, mehnat unumdorligi va texnologik yangiliklarning asosiy drayveri.

Paul Krugman (1991) tomonidan ishlab chiqilgan "Yangi iqtisodiy geografiya" nazariyasida urbanizatsiya iqtisodiy makonning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. U shaharlarning o'sishini ishlab chiqarishning miqyos iqtisodiyoti, transport xarajatlari va hududiy afzalliklar orqali izohlaydi. Fujita, Venables va Henderson (2001) ishlarida esa urban markazlar atrofida iqtisodiy faollikning to'planishi "aglomeratsiya effekti" orqali tushuntirilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi urbanizatsiya jarayonlarining barqaror rivojlanish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. OECD (2016) hisobotiga ko'ra, shaharlar rivojlangan mamlakatlar YAIMining 80–85 foizini yaratadi, bu esa urban hududlarning iqtisodiy samaradorlikdagi o'rni nihoyatda yuqori ekanini bildiradi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarining noto'g'ri boshqarilishi ekologik yuklama, energiya iste'moli va ijtimoiy tengsizlik muammolarini kuchaytiradi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1987-yilda BMT Brundtland komissiyasi tomonidan ilgari surilgan bo'lib, urbanizatsiyani iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatda rivojlantirish

zarurligini asoslab bergan. Keyinchalik bu g'oya 1992-yilgi Rio-de-Janeyro Sammiti, 2015-yilgi Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) dasturida yanada kengaytirildi. Bunda "Barqaror shaharlar va jamoalar" alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida "barqaror urban rivojlanish" modeli shakllandi. Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur shahar boshqaruvida "aqli texnologiyalar" (smart technologies) asosida energiya tejash, chiqindilarni qayta ishlash, transport samaradorligini oshirishga e'tibor qaratgan. Shvetsiya va Daniya kabi Yevropa mamlakatlari esa "yashil infratuzilma" konsepsiyasini tatbiq etib, uglerod neytral shaharlar barpo etish siyosatini yuritmoqda.

E. Barbier (1989) va H. Daly (1996) asarlarida barqaror iqtisodiy rivojlanish modeli resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishning ekologik samaradorligini oshirish bilan bog'lanadi. Bu yondashuv hozirda Yevropa Ittifoqi davlatlarining "Green Economy" strategiyalarida markaziy o'rinni egallaydi.

Jahon banki (2020) ma'lumotlariga ko'ra, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda mehnat unumdorligi 2 barobar yuqori, yalpi ichki mahsulotning 70–80 foizi shahar iqtisodiyotiga to'g'ri keladi. Shu bois urbanizatsiya iqtisodiy o'sishning barqarorligi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, UN-Habitat (2022) hisobotida qayd etilishicha, barqaror urban boshqaruv tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda energetika, transport va ekologiya sohalarida integratsiyalashgan siyosat ijobiy natijalar bergan. Masalan, Germaniyada "Energiewende" dasturi, Yaponiyada "Smart City Initiative", AQShda "Sustainable Communities Strategy" barqaror urban rivojlanishning amaliy mexanizmlari sifatida e'tirof etilgan.

Mahalliy olimlar ham ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, A.G'ulomov (2021), B.Ahmedov (2020) va Z.Fayziyeva (2022) ishlarida urbanizatsiya jarayonlarining O'zbekiston hududlaridagi iqtisodiy dinamikaga ta'siri, shuningdek, shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishning barqaror rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Ularning fikricha, urbanizatsiyani kompleks boshqarish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi bandligini kengaytirish va ekologik muvozanatni saqlash mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda kompleks tizimli tahlil va qiyosiy (komparativ) metod asosiy ilmiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasi sifatida BMT ma'lumotlari, OECD hisobotlari, Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi kabi milliy va xalqaro manbalardan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Urbanizatsiya va barqaror rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari, innovatsion salohiyat va ijtimoiy farovonlikning o'sish dinamikasi nisbatan yuqoridir. Jahon bankining 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyo yalpi ichki mahsulotining 80 foizdan ortig'i aynan shahar hududlarida yaratiladi.

So'nggi o'n yilliklarda urbanizatsiya jarayonlari jahon iqtisodiyotining asosiy tendensiyalaridan biriga aylandi. Shahar aholisi sonining tez o'sishi, infratuzilma rivojlanishi va ishlab chiqarishning markazlashuvi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya nafaqat ijtimoiy hayot darajasini oshiradi, balki iqtisodiyotning innovatsion va texnologik asoslarini mustahkamlaydi.

Urbanizatsiya darajasi bu mamlakat aholisi orasida shahar joylarda yashovchi aholining ulushi bilan o'lchanadigan ko'rsatkichdir. Bugungi kunda AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya darajasi 75–85 foiz oralig'ida bo'lib, bu ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Jahon banki va BMT ma'lumotlariga ko'ra, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda YaIM jon boshiga 35–50 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Masalan, AQShda urbanizatsiya darajasi 82,3%, Yaponiya 91,4%, Germaniya 78,4% bo'lib, ularning iqtisodiy o'sish sur'atlari 2–3% atrofida barqaror darajada saqlanib kelmoqda.

Shaharlarning rivojlanishi infratuzilma, transport tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarining kengayishi bilan birga kechadi. Bu esa innovatsion faoliyatni jadallashtiradi va iqtisodiyotda yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, yuqori urbanizatsiya darajasi bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, ekologik muvozanatning buzilishi, aholining ortiqcha zichligi, uy-joy narxlarining oshishi va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi urbanizatsiya jarayonining salbiy oqibatlaridir. Rivojlangan mamlakatlar bu muammolarni barqaror shahar rivojlanishi konsepsiyasi orqali hal etishga harakat qilmoqda.

Urbanizatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni baholash maqsadida OECD va Jahon bankining 2023-yil ma'lumotlari asosida bir qator rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari (2023-yil holatiga ko'ra) (World Bank, 2023)

| Mamlakat | Urbanizatsiya darajasi (%) | YaIM o'sish sur'ati (%) | Aholi jon boshiga YaIM (ming AQSh doll.) | Innovatsion indeks (0–100) |
|----------------|----------------------------|-------------------------|--|----------------------------|
| AQSH | 82,3 | 2,1 | 74,4 | 92,1 |
| Germaniya | 78,4 | 1,8 | 63,5 | 89,3 |
| Yaponiya | 91,4 | 1,4 | 55,7 | 87,9 |
| Shvetsiya | 88,2 | 2,3 | 67,1 | 93,8 |
| Niderlandiya | 92,0 | 2,0 | 66,9 | 90,5 |
| Janubiy Koreya | 81,7 | 2,5 | 56,8 | 91,2 |

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya darajasi 80–90 foiz atrofida bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish nisbatan barqaror, innovatsion faollik esa yuqori darajada. Bu esa urbanizatsiya va iqtisodiy modernizatsiya o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Urbanizatsiyani barqaror rivojlanish bilan uyg'unlashtirishda rivojlangan mamlakatlar ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy o'lchovlarda muvozanatga erishish siyosatini amalga oshirmoqda. 2-jadvalda ayrim mamlakatlarning "yashil iqtisodiyot" ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori urbanizatsiya darajasiga ega davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlashda "yashil energetika", "aqli transport" va "past uglerodli iqtisodiyot" konsepsiyalariga tayanmoqda. Shvetsiya misolida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 70 foizdan ortib, CO₂ chiqindilari 20 yil ichida 40 foizga kamaygan.

Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar sektorini rivojlantiradi, balki ilmiy-tadqiqot, raqamli texnologiyalar va "aqli shaharlar" tizimini shakllantiradi.

Janubiy Koreyaning "Seoul Smart City Platform" modeli orqali transport tizimining raqamlashtirilishi tirbandliklarni 15 foizga kamaytirgan, energiya iste'moli esa 10 foizga qisqargan.

Yaponiyada esa “Society 5.0” konsepsiyasi asosida urbanizatsiya raqamli iqtisodiyot bilan uyg’unlashtirilgan bo‘lib, AI, IoT va Big Data texnologiyalari orqali shahar boshqaruvining barcha bosqichlari optimallashtirilgan

2-jadval

Urbanizatsiya jarayonida ekologik va iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari (2023-yil holatiga ko‘ra) (OECD Green Growth Indicators, 2023)

| Mamlakat | Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) | CO ₂ chiqindilari (tonna/aholi) | Yashil infratuzilma investitsiyalari (mlrd \$) | Energiya samaradorligi indeksi |
|----------------|---------------------------------------|--|--|--------------------------------|
| Shvetsiya | 72 | 3,6 | 18,4 | 0,85 |
| Germaniya | 55 | 7,1 | 24,7 | 0,82 |
| Niderlandiya | 48 | 8,2 | 15,9 | 0,81 |
| Yaponiya | 32 | 9,3 | 22,5 | 0,79 |
| Janubiy Koreya | 29 | 11,5 | 20,1 | 0,77 |

OECD (2022) ma’lumotlariga tayangan regressiya tahlili quyidagi natijani berdi:

$$Y=0.42U+0.31I+0.27E+\varepsilon$$

Bu yerda:

Y — barqaror rivojlanish indeksi,

U — urbanizatsiya darajasi,

I — innovatsion investitsiyalar,

E — ekologik barqarorlik ko‘rsatkichi.

Natijalarga ko‘ra, urbanizatsiya darajasining o‘shishi barqaror rivojlanish indeksiga 0,42 birlik ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, ya’ni urbanizatsiya barqaror iqtisodiy o‘shishning eng muhim determinantlaridan biridir. Urbanizatsiya darajasi 80 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish barqaror, ijtimoiy farovonlik yuqori.

“Yashil iqtisodiyot” va “aqli shaharlar” siyosati urbanizatsiyaning salbiy ekologik ta’sirlarini kamaytiradi va resurs samaradorligini oshiradi. Innovatsion infratuzilma va inson kapitalining konsentratsiyasi urbanizatsiyaning iqtisodiy samaradorligini kuchaytiradi.

Urbanizatsiya jarayonlari iqtisodiy o‘shishni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. OECD (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, urban aholi ulushi 10 foizga oshganda, xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘rtacha 6–8 foizga ortadi. Bu esa urban infratuzilma, transport va raqamli iqtisodiyotning o‘shishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Rivojlangan davlatlarda urbanizatsiya siyosati barqarorlik tamoyillari bilan uyg’unlashtirilgan. Xususan, Shvetsiya, Germaniya va Niderlandiyada “yashil iqtisodiyot” modeli joriy etilib, CO₂ chiqindilari hajmi 2000–2023 yillarda 30–45 foizga qisqargan. Shvetsiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 72 foizga yetgan (OECD Green Growth Indicators, 2023).

Urbanizatsiya innovatsion klasterlar va “aqli shaharlar”ni shakllantirish orqali raqamli iqtisodiyotga turtki beradi. Janubiy Koreyaning Seul shahri yoki Yaponiyaning Tokio metropoliteni misolida urban innovatsion infratuzilmaning barqaror rivojlanishga ijobiy ta’siri aniq ko‘rinadi.

Urbanizatsiya siyosati ijtimoiy tenglik, bandlik va sifatli yashash muhitini yaratish bilan chambarchas bog‘liq. Jahon banki (2023) hisobotida qayd etilishicha, “urban iqtisodiyotning muvaffaqiyati inson kapitalining rivoji va ijtimoiy inklyuzivlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.”

Urbanizatsiya jarayonlarida ekologik cheklovlar muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar “past uglerodli iqtisodiyot” konsepsiyasi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini energiya samaradorlik tamoyillari asosida boshqarib, ekologik yukni

kamaytirishga erishgan. Masalan, Yaponiyada “Society 5.0” konsepsiyasi doirasida ekologik samaradorlik indeksi 0,79 ga teng bo‘lib, bu raqam 2010-yildagiga nisbatan 20 foizga yaxshilangan.

5. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari nafaqat demografik o‘shish yoki infratuzilma kengayishi bilan cheklanmay, balki iqtisodiy tizimlarning modernizatsiyasi, innovatsion infratuzilmaning shakllanishi va ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi urbanizatsiya va barqaror rivojlanish o‘rtasida o‘zaro kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlari iqtisodiy o‘shishning barqaror manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy markaz sifatida rivojlanishi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishini jadallashtiradi. Shu sababli, urbanizatsiya jarayonlarini rejalashtirish, infratuzilma tizimlarini modernizatsiya qilish va ekologik muvozanatni saqlash — zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida O‘zbekiston shaharlarida “aqlli shaharlar” konsepsiyasini joriy etish barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun zaruriy omil bo‘ladi.

Yashil energetika va ekologik standartlarni kengaytirish orqali urban infratuzilma loyihalarida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, ekologik sertifikatlashtirish tizimini kuchaytirish zarur.

Urban iqtisodiy klasterlarni shakllantirish orqali innovatsion startaplar, texnoparklar va ilmiy markazlarni shahar iqtisodiy tizimiga integratsiya qilish kerak.

GIS, Big Data va AI texnologiyalaridan foydalangan holda shaharlarni boshqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Urbanizatsiyaning ijobiy samarasini oshirish uchun ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini modernizatsiya qilish zarur.

Urbanizatsiya jarayonlari iqtisodiy modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirgan holda milliy iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasini ta‘minlaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, urban siyosatni kompleks yondashuv asosida amalga oshirish iqtisodiy o‘shish bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlikni ham kafolatlaydi. Shu bois, O‘zbekiston uchun urbanizatsiyani barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziy yo‘nalishi sifatida belgilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Adabiyotlar:

Thompson, W. (1965). *A Pre-industrial Urbanization Process: The Evolution of Cities in the World Economy*. New York: Oxford University Press.

Wirth, L. (1938). *Urbanism as a Way of Life*. *American Journal of Sociology*, 44(1), 1–24.

Jacobs, J. (1969). *The Economy of Cities*. New York: Vintage Books.

Krugman, P. (1991). *Increasing Returns and Economic Geography*. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.

Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (2001). *The Spatial Economy: Cities, Regions, and International Trade*. Cambridge, MA: MIT Press.

OECD. (2016). *The Metropolitan Century: Understanding Urbanisation and Its Consequences*. OECD Publishing, Paris.

Barbier, E. B. (1989). *Sustainable Economic Development*. *Environmental Conservation*, 16(2), 101–110.

Daly, H. E. (1996). *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*. Boston: Beacon Press.

United Nations. (1987). *Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development (Brundtland Report)*. Oxford University Press.

United Nations. (1992). *Agenda 21: Programme of Action for Sustainable Development*. Rio de Janeiro: UNCED.

United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN.

World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. Washington, D.C.: World Bank.

UN-Habitat. (2022). *World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities*. Nairobi: UN-Habitat.

Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK). (2021). *Energiewende: Germany's Energy Transition*. Berlin.

Ministry of Land, Infrastructure, Transport and Tourism (MLIT). (2020). *Smart City Initiative in Japan*. Tokyo.

U.S. Department of Housing and Urban Development (HUD). (2018). *Sustainable Communities Regional Planning Grant Program*. Washington, D.C.

G'ulomov, A. (2021). *Urbanizatsiya jarayonlari va O'zbekiston hududlarida iqtisodiy o'sish tendensiyalari*. Tashkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali, №4, 45–56.

Ahmedov, B. (2020). *Shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishning barqaror rivojlanishdagi o'rni*. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiy axborot markazi nashriyoti.

Fayziyeva, Z. (2022). *O'zbekiston shaharlarida urbanizatsiya va barqaror iqtisodiy rivojlanish o'zaro bog'liqligi*. Tashkent: Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, №3, 67–79.

World Bank. (2023). *World Development Indicators 2023*. Washington, D.C.: The World Bank Group.

OECD (2023) Green Growth Indicators.

OECD(2022) – *Regions and Cities at a Glance 2022*. Paris: OECD Publishing. Eurostat Environmental Database (2022).



EKOLOGIK MARKETING KONSEPSIYASI VA UNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Nusratilloeva Sh.O.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida marketingning ekologik yo'nalishi, uning konsepsiyasi va uning iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Xorij tajribalari, ularning strategiyalari va O'zbekistonda ekologik marketing va yashil iqtisodiyotga qaratilayotgan e'tibor va qonunchilik asoslari o'rganilgan. O'rganilgan tadqiqotlar natijasida ularni nafaqat iqtisodiyotga balki, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun ahamiyati, vazifasi hamda afzalliklari keltirib berilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, yashil iqtisodiyot, yashil marketing, iste'mol ongi, iqtisodiy barqarorlik, sirkular iqtisodiyot, ekologik raqobat.

Аннотация. В данной статье анализируется экологическая направленность маркетинга в условиях «зелёной экономики», его концепция и роль в экономике. Изучен зарубежный опыт, стратегии и внимание, уделяемое в Узбекистане экологическому маркетингу и «зелёной» экономике, а также их законодательная база. В результате проведённых исследований выявлены значение, задачи и преимущества экологического маркетинга не только для экономики, но и для производителей и потребителей.

Ключевые слова: окружающая среда, зелёная экономика, зелёный маркетинг, потребительское сознание, экономическая устойчивость, циркулярная экономика, экологическая конкуренция.

Abstract. This article analyzes the ecological orientation of marketing within the framework of the green economy, its concept, and its role in the economic system. The paper examines foreign experiences, strategic approaches, and the attention given to ecological marketing and the green economy in Uzbekistan, including their legislative foundations. The study identifies the significance, functions, and advantages of ecological marketing not only for the economy but also for producers and consumers.

Keywords: environment, green economy, green marketing, consumer awareness, economic sustainability, circular economy, ecological competition.

1. Kirish.

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning cheksiz emasligi haqidagi tushunchalar xalqaro miqyosda siyosat iqtisodiy strategiyalar va iste'molchilarning xulq-atvorida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Global miqyosda iqtisodiy rivojlanish va o'sish - hozirgi kunda faqatgina ishlab chiqarishlar sonini ko'paytirib talabni va iste'mol hajmini oshirish emas, balki cheklangan resurslardan oqilona foylangan holda yuqori samaradorlikka erishish, chiqindilar sarfini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali erishilishi kerak bo'lgan maqsadga va vazifaga aylanib bormoqda.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyot konsepsiyasi davlat siyosati darajasida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida" — 2019-yil 20-dekabr qabul qilingan qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan — "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi konsepsiyasi ekologik masalalarni iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi. Shu sababli ham, yaqin yillarda yashil iqtisodiyot iborasi keng qo'llanila boshlandi. Yashil(Green) iqtisodiyot yuqorida aytib o'tilgandek tabiiy resurslardan tejab foydalangan holda, ularni keyingi avlodlar uchun saqlash, shu bilan birga aholi iste'mol talabini qondirish kabi tamoyilni o'z ichiga olgan iqtisodiy model sifatida qaraladi. Bu jarayonda ekologik (yashil) marketing va reklama strategiyalari kompaniyalar va bozorlarga ekologik xulq atvor tamoyillarini integratsiyalash orqali barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy va muhim vositasiga aylanmoqda. Chunki aynan samarali marketing strategiyalari va yondashuvlari nafaqat iste'molchilarning iste'mol qarorlariga ta'sir ko'rsata olishi, ularda madaniy xarid ongini shakllantirishga balki, ishlab chiqaruvchilarning ham mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishida faqatgina foyda olish olish emas balkim, atrof muhit uchun javobgarlik hissini singdirishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi resurslari cheklangan bozor sharoitida yashil iqtisodiyot atamasi asosida yashil marketing tushunchasi paydo bo'ldi va uning bosh sababi ham foyda olishga yo'naltirilganlik emas balki bu mahsulot, xizmat, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlarida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni tadbiiq etishdir. Shu nuqtai nazardan uni iqtisodiyot bilan bog'laydigan bo'lsak, barqaror iqtisodiyotda yashil marketingni o'rni va ahamiyati juda kattadir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot ishida yirik jahon marketolog iqtisodchi olimlar Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, Christian Sarkar, Nancy Lee (2010) tadqiqotlari tahlil qilingan. Ularning asarlari ilmiy ishlari tadqiq qilingan, ularning nazariyalari va fikrlari atroflicha o'rganilgan. Shu jumladan, xorij davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar, xalqaro brend tajribalari, ularning natijalari o'rganilgan va ular bo'yicha xulosalar ham tahlil va natija qismida keltirib o'tilgan .

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot uslubi sifatida Filip Kotlarning kontseptual-nazariy yondashuviga tayandik. Bu yondashuv nazariy modellashtirish, sifat tahlili va taqqoslama tahlil metodlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda olimlarning 'sustainable marketing' modeli asosida yashil marketing strategiyalarining barqaror iqtisodiyotdagi roli tahlil qilindi, real korporativ amaliyotlar key-study shaklida o'rganildi hamda ilgari surilgan g'oyalar ilmiy adabiyotlar sintezi orqali asoslab berildi."

4. Tahlil va natijalar.

Biz tadqiqot natijasida yashil marketing tushunchasi, uning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi, olimlarning unga bergan ta'riflari, uning barqaror iqtisodiyotdagi, iste'molchilar hamda ishlab chiqaruvchilarning faoliyatidagi muhim roli va ahamiyati mavjudligini ayta olishimiz mumkin.

Yashil marketing tushunchasi. Yashil marketing- bu mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, targ'ib qilish hamda iste'mol qilish jarayonida ekologik qadriyatlarga amal qiladigan marketing yondashuvlaridir. Uning asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Eko-yorliqlash va sertifikatlash – mahsulotning ekologik standartlarga mosligini ko'rsatadigan belgilar va hujjatlar.

Yashil branding – kompaniya imidjini ekologik qadriyatlarga asoslash.

Green advertising – reklama vositalari orqali ekologik xabarlarini yetkazish. Masalan, mahsulotni qayta ishlash mumkinligi, energiya tejoychiligi yoki karbon izi kamaytirilgani haqida ma'lumot berish.

Ijtimoiy mas'uliyatli marketing – biznesning barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasini ochiq targ'ib etish.

Ekologik marketing maqsadi – ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarida tabiatga zarar bermaslik, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni rag'batlantirish va iste'molchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdan iborat. Yashil marketing (yoki barqaror marketing) — bu mahsulot, xizmat, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlarida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga urg'u beradigan marketing amaliyotlaridir. Barqaror iqtisodiyot — bu hozirgi ehtiyojlarni qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun resurs imkoniyatlarini saqlab qolishini ta'minlaydigan tizimdir. Shu ma'noda, yashil marketing strategiyalari biznes faoliyatini ekologik va ijtimoiy ustuvorliklar bilan uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy marketing nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan Filip Kotler marketing konsepsiyasini iqtisodiy manfaatlar doirasidan chiqarib, uni ijtimoiy va ekologik mas'uliyat bilan uyg'unlashtirdi. U yashil (ekologik) marketingni shunday izohlaydi: "Marketing kompaniya foydasini, iste'molchi ehtiyojlarini va jamiyatning uzoq muddatli manfaatlarini muvozanatlashtirishi kerak."

Uning ana'naviy marketingdan farqi shundaki yashil marketing faqatgina ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning sotuv hajmini oshirish, ularni to'g'ri segmentga yo'naltirish va shu bo'yicha reklama va marketing kampaniyalarini o'tkazish emas balki korxonalariga mahsulot ishlab chiqarayotganda va uni mijozlarga taqdim qilayotganda ekologik toza, zararsiz holda chiqarish, resurslar hajmini hisoblash, ularning isrof bo'lish, chiqindi holatiga aylanishi va natijada atrof-muhitga zararli oqibatlarini hisobga olishi va uning mas'uliyatini ham o'z zimmlariga olish kerakligini shu jumladan, iste'molchilarda xarid va iste'mol ongini, madaniyatini shakllantirishdan, to'g'ri xarid qarorini qabul qilishdagi muhim omillarni yetkazishdan iborat.

Kotlarning (2015) fikricha, an'anaviy marketingning asosiy maqsadi — foydani maksimal darajada oshirish va iste'molni rag'batlantirish, bu esa ko'pincha resurslar tanqisligi va ekologik muammolarga olib keladi. Unga ko'ra, yashil marketing esa — foydani emas, qiymatni yaratishga qaratilgan tizimdir: "Yashil marketing iqtisodiyotda foyda emas, balki barqarorlikni ustuvor qiladi. U ishlab chiqarish, iste'mol va xizmat ko'rsatish zanjirini ekologik tamoyillar asosida qayta shakllantiradi." Kotlarning nazariyasida yashil marketing - bu barqaror iqtisodiyotning yangicha marketing yondashuvi, u kompaniyalarni aylanma iqtisodiyotga o'tishga undaydi.

Shuningdek, Christian Sarkar (2022) yashil marketingni "Common Good Marketing" konsepsiyasi orqali tushuntiradi. Unga ko'ra, an'anaviy marketing jamiyat va tabiatga nisbatan neytral yoki zararli bo'lishi mumkin, chunki u faqat bozordagi talabni qondirishga qaratilgan. "Yashil marketing - bu iqtisodiy faoliyatni hayotni tiklovchi tizimga aylantirishdir."

Sarkar fikricha, yashil marketing resurs aylanishi, energiya tejamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat orqali iqtisodiyotda regenerativ o'sishni (ya'ni o'zini tiklaydigan rivojlanishni) yaratadi. Bunda, masalan O'zbekitoni misolida oladigan bo'lsak, UzAuto Motors elektr avtomobillar ishlab chiqarish loyihasini yo'lga qo'yayotgan bo'lib, bu transportdagi CO₂ chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, "Artel" kompaniyasi energiya tejamkor maishiy texnika ishlab chiqarishni kengaytirgan. Bu — yashil marketingning iqtisodiyotdagi roli, ya'ni ekologik innovatsiyalar orqali barqaror o'sishga misoldir. Bu kabi marketing yondashuvlari nafaqat brendlarga iste'molchilar orasida o'zlarining nufuzini oshirishga balki iste'molchilarga va iqtisodiyotga ham qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

Ekologik marketingning barqaror iqtisodiyotdagi va korxonalar uchun ta'siri va o'rni.

Birinchidan, bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida yashil marketing kampaniyalarini korxonalarda joriy etish va ularni amalga oshirish korxonaga bir qancha afzalliklar beradi. Ulardan biri, ekologik jihatdan e'tibor beruvchi brendlar va ishlab chiqaruvchilar xaridorlar orasida yuqori ishonch va sodiqlikka ega bo'lishadi.

F.Kotler (2017) ta'kidlab o'tganidek, "Iste'molchilar ongida yashil qadriyatlar tobora kuchaymoqda va ular tabiatni asrovchi brendlarga ustunlik beradi." Chunki bugungi kunda aholining xarid qobiliyati va xabardardorligi oshib borayotgani sababli ular ko'proq ekologik toza qadoqlarda, organik mahsulotlar xarid qilishni istashadi. Ekologik toza setifikat va litsenziyalariga ega bo'lgan mahsulotlarni xarid qilish iste'molchilarga tabiatga va o'zlariga zarar yetkazmaslik hissini beradi va bu ularni shu brend mahsulotlaridan ko'proq sotib olishga undaydi, natijada brend va ishlab chiqaruvchilar orasida to'g'ri raqobat vujudga keladi. Barqarorlikka yo'naltirilgan marketing kompaniya obro'sini oshiradi, mijoz sodiqligini kuchaytiradi va uzoq muddatli aksiyadorlik qiymatini yaratadi.

Kotler, Kartajaya va Setiawan (2021) ta'kidlashicha, ekologik va ijtimoiy qadriyatlarni marketing strategiyasiga singdirgan korxonalar raqobat ustunligiga ega bo'lib, shu bilan birga barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.

Melina Burkert va hamkasblari "The Influence of Green Consumption Values on How Consumers Form Overall Sustainability Perceptions of Food Products and Brands" nomli tadqiqotida aniqlashicha, yashil iste'mol qadriyatlariga ega bo'lgan iste'molchilar mahsulotni tanlashda ekologik va ijtimoiy jihatlarni ko'proq inobatga oladilar va shu orqali brend barqarorligi haqidagi idrokni oshiradilar. Bundan kelib chiqib, yashil marketing brend egalari va ishlab chiqaruvchilarga ekologik yondashuvlar orqali o'z mijozlarining mahsulotlariga va brendga bo'lgan ishonchni shakllantirishlari va raqobatchilari orasida ustunlikka erishishlarini ta'minlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, yashil marketing an'anaviy marketingdan farqli ravishda resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalangan holda qayta ishlash g'oyasini ilgari suradi.

Kotler(2015) ning g'oyasiga ko'ra - kompaniyalar chiziqli "ol-ishlat-tashla" modelidan voz kechib, aylanma(sirkular) iqtisodiyot tizimiga o'tishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu tizimda materiallar va mahsulotlar qayta ishlanadi, foydalaniladi yoki yangilanadi. Past ekologik ta'sirga ega mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish — masalan, xom ashyodan kamroq foydalanish, energiya tejamkorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish, mahsulot umrini uzaytirish va qayta ishlash imkoniyatini yaxshilash orqali — yashil marketing tabiiy tizimlarga yukni kamaytiradi va chiqindilarni qisqartiradi. Kotler (2010) ta'kidlaganidek, an'anaviy marketing aralashmasi ("4P": mahsulot, narx, joy, targ'ibot) har bir bosqichda ekologik hayot tsikli yondashuvini o'z ichiga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi zarur. Bu yondashuv resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va ekologik xarajatlarni ishlab chiqarish hamda taqsimot tizimlariga kiritadi. Uning fikricha, kompaniyalar o'z faoliyatini aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslashlari lozim, bu esa:

- ishlab chiqarishdagi chiqindilarni resurs sifatida qayta aylantirishni;
- qayta foydalanish, ta'mirlash, qayta ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishni;
- marketingda esa barqarorlik qadriyatlarini targ'ib qilishni talab qiladi.

Yashil marketing ushbu o'zgarishni brend kommunikatsiyasi, mahsulot innovatsiyasi va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik orqali amalga oshirishga yordam beradi. Misol uchun, IKEA – mahsulotlarini qayta yig'ish va qayta ishlatish dasturlarini yo'lga qo'ygan. 2030-yilgacha barcha mahsulotlarini 100% qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlashni maqsad qilgan.

Shuningdek, marketolog olim Nancy Lee (2011, 2020) - yashil marketingni "ijtimoiy foydali iqtisodiy mexanizm" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, aylanma iqtisodiyotga o'tish faqat korxonalar uchun emas, iste'molchilar uchun ham madaniy o'zgarish bo'lishi kerak. "Iste'molchilar faqat mahsulot emas, uning hayotiylik davrini ham o'ylashni o'rganishlari kerak." Amaliy misol: The Body Shop "Return, Refill, Repeat" kampaniyasini joriy etgan — mijozlar

bo'sh idishlarni qaytarishadi, ular esa tozalanib, qayta to'ldiriladi. Bu jarayon chiqindilarni kamaytiradi va iste'molchida ekologik ong va munosabatni shakllantiradi.

Hermawan Kartajaya & Setiawan (2017) — "Marketing 4.0" nazariyasida yashil marketingni "inson markazidagi iqtisodiyot" bilan bog'lashadi. Unga ko'ra, aylanma iqtisodiyot va yashil marketing o'zaro bog'liq, chunki:

aylanma iqtisodiyot resurs aylanishini ta'minlasa,

yashil marketing bu jarayonni iste'molchilar ongida va bozor strategiyasida aks ettiradi.

"Barqaror iqtisodiyot texnologik yangilanish emas, balki qadriyatlar transformatsiyasidir."

Amaliy misol: Tesla kompaniyasi faqat elektr transport vositalarini ishlab chiqarmaydi, balki butun "energiya ekotizimi"ni yaratmoqda: quyosh panellari, batareyalar va qayta energiya tizimlarini yagona doirada taklif etadi.

Yashil marketing an'anaviy marketingdan farqli ravishda ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda iste'molchilarga ham mahsulotning butun hayot davri uchun mas'ul ekanliklarini uqtiradi. Bu yondashuvda mahsulotning iste'moldan keyingi davri ham iqtisodiy va ekologik qiymatga ega bo'lib, qayta ishlash, yangilash yoki qayta foydalanish imkoniyati orqali resurslar tejab qolinadi va yaratiladi.

F. Kotler ta'kidlaganidek, yashil marketing sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini targ'ib qilib, yangi resurslarni cheklangan holda ishlatish, ishlatilgan materiallarni qayta aylantirish va shu orqali ekologik xavfsiz iqtisodiy tizim yaratishni maqsad qiladi. Boshqa olimlar – Sarkar, Lee, Peattie va Ottman – bu yondashuvni inson ongini, iste'mol madaniyatini va korporativ mas'uliyatni uyg'unlashtiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida talqin qiladilar.

Uchinchidan, yashil marketing iste'molchilar va mijozlar orasida xarid madaniyati va ongini shakllantirishdagi eng muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda mahsulotlarning tarkibi, qadog'i ularning nafaqat sog'lig'imizga balki, tabiatga, atrofga ham ta'sirini hisobga olgan holda xarid qilish juda muhimdir. Yashil marketing iste'molchilarni mas'uliyatli xarid qilish qarorlarini qabul qilishga va barqaror iste'mol odatlarini shakllantirishga undaydi. U marketingning diqqat markazini ommaviy iste'moldan qadriyatlarga asoslangan iste'molga o'tkazadi, ya'ni xarid qilishda axloqiy, ekologik va ijtimoiy mezonlarga e'tibor qaratiladi. Kotler va Sarkar (2022) fikricha, barqaror marketing "kamroq, lekin mas'uliyatli iste'mol" (de-consumption) tushunchasini ilgari surishi lozim, chunki cheklangan resurslar sharoitida bu zaruratga aylanadi. Misol keltiradigan bo'lsak, Skandinaviya mamlakatlarida ishlab chiqilgan "Buy less, choose well" marketing kampaniyalari iste'molchilarni ortiqcha xariddan tiyilib, sifatli, uzoq xizmat qiladigan mahsulot tanlashga undaydi. Shuningdek, ongli iste'molni yaratish g'oyasi ham ilgari suriladi.

Yatin Bokil va D.K. Sinha "Green Marketing and Mindful Consumption for Sustainable Development" maqolasida istiqbolli iste'mol modeliga e'tibor qaratadilar: "ongli iste'mol" (mindful consumption) kontseptsiyasi — iste'molni faqat ko'paytirish emas, balki qaysi miqdorda, qaysi turda va qanday tarzda iste'mol qilish kerakligini ham o'ylashni o'z ichiga oladi.

Setiawan (2019) yashil marketingni "yashil iste'molchi xulq-atvori" nazariyasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, har bir iste'molchi o'zining xarid qarorida ekologik qiymatni ham hisobga olishi kerak, chunki bu tanlov makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. "Barqaror iqtisodiyot – barqaror iste'molchilar tanlovi natijasidir" (Setiawan, 2019). Misol uchun, Indoneziyada "Green Consumer Movement" dasturi orqali aholining 60% dan ortig'i qayta ishlangan mahsulotlarni tanlashni boshlagan — bu ekologik madaniyat shakllanayotganini ko'rsatadi.

Yashil marketing iste'molchilarni va mijozlarni mas'uliyatli xarid qarorlarini qabul qilishga, barqaror iste'mol odatlarini shakllantirishga undovchi marketing konsepsiyasidir. U marketingning diqqat markazini ommaviy iste'moldan qadriyatlarga asoslangan iste'molga o'tkazadi. F. Kotler va C. Sarkar (2022) ta'kidlaganidek, yashil marketingning markazida "kamroq, lekin mas'uliyatli iste'mol" tamoyili turadi, chunki cheklangan resurslar sharoitida bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zarurat hamdir. Nancy Lee yashil marketingni ijtimoiy

marketing bilan bog'lab, uni inson xulqini mas'uliyat tomon yo'naltiruvchi vosita sifatida talqin etadi, Setiawan esa uni yashil iste'molchi xulq-atvori va barqaror iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ko'radi. Ottman fikricha, yashil marketing foyda va ekologiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Shunday qilib, yashil marketing an'anaviy marketingdan farqli o'laroq, nafaqat sotuvni oshirish, balki ekologik ong, mas'uliyatli iste'mol va barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Xulosa.

Olib borilgan izlanish va tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar qilindi.

Yashil marketing tushunchasiga ta'rif berilib - bu mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, targ'ib qilish hamda iste'mol qilish jarayonida ekologik qadriyatlarga amal qiladigan marketingning yangi yo'nalishi, uning an'anaviy marketingdan farqi keltirib o'tildi. Unga ko'ra ularning asosiy farqi - yashil marketing korxonalariga va iste'molchilarda to'g'ri qaror qabul qila olish, qarorlarning atrof-muhitga qanday oqibatlarini borligini hisobga olish va uning ma'suliyatini ham o'z zimmlariga olish kerakligini targ'ib qilishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot natijasida olimlarning yashil marketingning iqtisodiyotdagi ahamiyati ham ta'kidlab o'tilgan. Ulardan biri - bu ishlab chiqaruvchilar va brendlarning ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishi, sifat va qadoq sifatini kuchaytirish va nazoratlardan o'tgan holda litsenziya va sertifikat olish uchun kurashiga sabab bo'ldi, bunga sabab aholining xarid ongining o'sib borayotgani bo'ldi. Buning natijasida ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida to'g'ri raqobat shakllantirildi, iste'molchilar uchun ekologik sifatni yaxshilash uchun harakat boshlandi, aholining sog'lom turmush tarzini yaxshilashga turtki bo'ldi.

Keyingisi, resurslardan to'g'ri foydalanish, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga mahsulotning butun foydalanish davri uchun ma'sul ekanliklarini uqtirish orqali, "sirkulyar iqtisodiyot tamoyili" asosida yangi mahsulotlar chiqarish va uning natijasida resurslarni tejash va ularni yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, yashil marketing iste'molchilar va xaridorlarda to'g'ri xarid qarorlarini qabul qilish, bu jarayonda ularning o'zlariga, atrofga, tabiatga ta'sirini ham hisobga olishlari, kamroq lekin ma'suliyatli xaridlar g'oyasini uqtirishda ham asosiy rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotlar ekologik marketingning faqat mahsulot va xizmatni taklif qilish bilan cheklanmasligini, balki iste'mol modeli va iste'molchilarning xatti-harakatini o'zgartirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Iste'molchilarning "yashil iste'mol qadriyatlari"ga ega bo'lishi, ongli iste'mol qilishga tayyorligi, brendni tanlashda ekologik va ijtimoiy jihatlarni hisobga olishi kabi omillar muhimligini ilgari suradi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida" — 2019-yil 20-dekabr, O'RQ-588-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PQ-4477-son, 2019-yil 4-oktabr — "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida".

Hermawan Kartajaya & Setiawan (2017) — "Marketing 4.0" nazariyasi.

Setiawan va Kartajaya Marketing 3.0 va Marketing 5.0.

Kotler, P., & Sarkar, C. (2022). Does Marketing Need Curtailment for the Sake of Sustainability?.

Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2010). Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit.

John Wiley & Sons, Kotler, P., & Lee, N. (2008). Social Marketing: Influencing Behaviors for Good. Sage.

Kotler, P. (2015). Confronting Capitalism: Real Solutions for a Troubled Economic System.

Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2021). Marketing 5.0: Technology for Humanity. Wiley.

Sarkar va Kotler (2025) "The Future of Marketing is the Quest for Good".



TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA VOSITACHILIK OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFI

Xayitova F.B.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalarining nazariy asoslari, ularning iqtisodiy mohiyati hamda turli shakllari tahlil qilinadi. Xalqaro savdoda vositachilarning roli, ularning iqtisodiyot samaradorligiga ta'siri, shuningdek, vositachilik operatsiyalarining zamonaviy turlari – brokerlik, dilerlik, komission va konsignatsion bitimlar misolida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston tashqi savdosida vositachilik amaliyotining rivojlanish istiqbollari va raqamli iqtisodiyot sharoitida vositachilik tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, vositachilik, brokerlik, dilerlik, komission savdo, konsignatsiya, eksport-import operatsiyalari, xalqaro savdo tizimi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы посреднических операций во внешнеэкономической деятельности, их экономическая сущность и различные формы. Анализируется роль посредников в международной торговле, их влияние на эффективность экономики, а также современные виды посреднических операций – брокерские, дилерские, коммиссионные и консигнационные сделки. Кроме того, рассматриваются перспективы развития посреднической практики во внешней торговле Узбекистана и предлагаются рекомендации по совершенствованию системы посредничества в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, посредничество, брокерская деятельность, дилерская деятельность, коммиссионная торговля, консигнация, экспортно-импортные операции, международная торговая система.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of intermediary operations in foreign economic activity, their economic nature, and various forms. The role of intermediaries in international trade and their impact on economic efficiency are analyzed, along with modern types of intermediary operations such as brokerage, dealership, commission, and consignment agreements. In addition, the paper explores the prospects for developing intermediary practices in Uzbekistan's foreign trade and proposes recommendations for improving the mediation system in the context of the digital economy.

Keywords: foreign economic activity, intermediation, brokerage, dealership, commission trade, consignment, export-import operations, international trade system.

1. Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotining globallashuvi, raqamli texnologiyalar va logistika tizimlarining rivojlanishi tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalarining ahamiyatini

yanada oshirmoqda. Vositachilar ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni uyg'unlashtiruvchi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim bo'g'in sifatida qaraladi. Tashqi savdoda vositachilik operatsiyalari tovarlar, xizmatlar va intellektual mahsulotlarning harakatini tezlashtiradi, transaksion xarajatlarni kamaytiradi, yangi bozor segmentlariga kirish imkonini beradi. Shu bois, vositachilik faoliyatining tahlili nafaqat tashqi savdo siyosati, balki milliy iqtisodiy strategiya nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'kidlab o'tilganidek, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish ustuvor yo'nalishlari ham belgilab berilgan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Jahon iqtisodiyoti va mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish mavzusida yozilgan adabiyotlar keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiyot, savdo, investitsiyalar, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish kabi turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Amerikalik iqtisodchi Joseph Stiglitz (2002) tomonidan "Globalization and Its Discontents" tomonidan yozilgan kitob globalizatsiya jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Stiglitz globalizatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning oqibatlari haqida chuqur tahlil qilgan. M. Porterning "Конкуренция" nomli asarida globalizatsiya muhim iqtisodiy jarayon sifatida talqin etiladi. Porter globalizatsiyani nafaqat jahon bozorlarining ochiqligi, balki kompaniyalarning strategik raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rsatgan. Balkind V.S., Gromov I.V., "Конкурентоспособность региона в условиях глобализации" maqolasida globalizatsiya sharoitida hududlarning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb strategik vazifa sifatida ko'riladi. Mualliflar ta'kidlashicha, globallashuv iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda: xalqaro bozorlar ochilmoqda, raqobat kuchaymoqda va innovatsiyalar jadal sur'atda rivojlanmoqda. Bunday sharoitda har bir hudud o'zining iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholash, ustunliklarini aniqlash va raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqishi lozimligi ta'kidlab o'tishgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimi Mirsaidovning (2006) "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" o'quv qo'llanmasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi zamondagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullari, xalqaro savdo, xalqaro hududiy-iqtisodiy integratsiya va boshqa iqtisodiy masalalar keng yoritilgan. S. Xolbo'tayev – "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" darsligida global iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslarini, jahon bozorlarining shakllanish mexanizmlarini va globallashuv sharoitida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini atroflicha tahlil qilgan. Olimlardan Nazarova, Iminov, Xalilov, Hamidovlarning (2011) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" o'quv darsliklarida, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning umumiy rivojlanish xususiyati o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib borishi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorliklar rivojlantirishi, xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganishi, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq – kamchiliklari, rivojlanish muammolarini hal etishdagi to'g'ri yondashuvlar haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv asosida hududiy iqtisodiy tizimlarda barqaror rivojlanish mexanizmini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Ishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun tizimli tahlil, mavjud yondashuvlarni solishtirish uchun taqqoslama tahlil, shuningdek, mintaqaviy rivojlanish indikatorlarini baholash uchun statistik va modellashtirish usullari qo'llanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Iqtisodiy ma'nodagi savdo vositachiligi – ancha keng tushuncha bo'lib, asosan chet el kontragentini izlash, bitimlarni tayyorlash va bajarish, tomonlarni kreditlash va xaridorga tovarga to'lash uchun kafolat berish, tansport va operatsiyalarni amalga oshirish va tovarlarni tashishda tovarlarni sug'urta qilish, bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish, tovarlarni chet el bozorlariga yuritish uchun reklama va boshqa tadbirlar o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqa operatsiyalarni o'tkazishlarni o'z ichiga oladi. Vositachini jalb etishga quyidagilar kiradi:

- tovar sotish tezligini oshirish va kapital aylanishini tezlashtirish hisobiga foydani ko'paytirish;
- bevosita kon'yunkturani yaxshilash davrida xorij bozorida tovarni sotish hisobiga foydani oshirish, chunki vositachilar oxirgi iste'molchilar bilan birga talabning har qanday o'zgarishiga sezgirlik bilan javob beradi;
- mahsulot birligiga qaratilgan chiqimlarni kamaytirish hisobiga foydani ko'paytirishni o'z ichiga oladi.

Vositachilik operatsiyalari savdo munosabatlari hamda fuqarolik huquqi me'yorlari asosida tartibga solinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"da vakillik institutining ikki turi nazarda tutilgan bo'lib, bu bir shaxsning boshqa shaxs nomidan ma'lum yuridik harakatlarni amalga oshirish vakolatini anglatadi. O'zbekiston korxonlari xorijiy vositachilar bilan hamkorlik qilayotganda, tuzilayotgan shartnomalarda milliy xususiy huquq yoki xalqaro xususiy huquq me'yorlari o'zlarining eksport-import operatsiyalariga qanchalik mos kelishini inobatga oladi. Shuning uchun vositachilarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- uchinchi shaxslar bilan bitim tuzish huquqiga ega bo'lmagan vositachilar (agent vakil, broker, dallollar);
- o'z nomidan, lekin vakil qilingan shaxs hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (komissionerlar, konsignatorlar);
- vakil qilingan shaxs nomidan va hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (vakil agentlar, savdo agentlari);
- o'z nomi va o'z hisobidan uchinchi shaxs bilan bitim imzolaydigan vositachilar (savdogarlar, distribyutorlar, dilerlar). Agent, vakil faqat ma'lum bozorda tovarlarni kelishilgan baho bo'yicha printsiptial (vakil qilingan shaxsni) ning manfaatini himoya qiladi. U na o'zi va na printsiptial nomidan agent tovar uchun shartnoma imzolash huquqini olmaydi.

Agent-vakillik faoliyatiga, odatda, yirik kompaniyalar yoki biznes doiralari muayyan obro' va tajribaga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jalb etiladi. Agar mazkur agent vositachiligida shartnoma tuzilsa, unga bitim summasining odatda 2–5 foizi miqdorida mukofot to'lanadi. Bitim hajmi katta bo'lgan hollarda esa ushbu mukofot miqdori agentning qilgan xarajatlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, prinsipal tomon kelajakda xuddi shu xarid bo'yicha agent-vakil ishtirokisiz bitim tuzish maqsadida bunday kelishuvni imzolashga rozilik bildiradi.

Brokerlik operatsiyalari – aniq belgilangan tovar yoki operatsiyalar bo'yicha ishlaydigan mutaxassis vositachi-brokerlar tomonidan amalga oshiriladi. Brokerlar – tovarlarni sotish va sotib olish bo'yicha harakat hiluvchi shaxslar bo'lib, o'zlari shartnoma tomonida ham sotuvchi ham xaridor bo'lib ishtirok etmaydi. Ularning vazifasi sotuvchi uchun xaridorni topish va ular orasida shartnoma tuzilishida yordam berishdir. Tovarlar bo'yicha ishlovchi brokerlarga misol – Angliyadagi yog'och mahsulotlari bo'yicha brokerlardir. Angliyadagi yog'och mahsulotlari bo'yicha operatsiyalarning deyarli hammasi brokerlar orqali amalga oshiriladi. Operatsiyalar bo'yicha ishlaydigan brokerlar bular birja brokerlaridir. Broker ishini shu tarzda sxematik tarzda tasvirlash mumkin. Komission operatsiyalarida komitent va komissioner kontragentlar bo'ladi. Buning mohiyati shundaki, komitent komissionerga komissioner qoshida, ammo komitent hisobidan uchinchi kontragent bilan oldi-sotdi operatsiyasini amalga oshirishni topshiradi.

Distribyutorlar o'z nomidan va o'z hisobidan tovarlarni sotish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Ular tovarlarning buzilishi, yo'qolishi yoki xaridorlarning to'lovga qobiliyatsizligi kabi holatlar yuzaga kelganda, ushbu tavakkalchiliklarni to'liq o'z zimmasiga oladilar. Distribyutorlik agentlik bitimlari prinsipal uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali yangi bozorlarga kirish imkoniyati yaratiladi, mahsulotning reklama qilinishi va bozorda uzoq muddat davomida mavjud bo'lishi ta'minlanadi. Bunday bitimlar odatda o'z savdo tarmoqlariga ega yoki ularni shakllantirish uchun yetarli moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan firmalar bilan tuziladi. Distribyutorlik shartnomalari tovar yetkazib berish bo'yicha oldi-sotdi bitimlari ko'rinishida tuziladi va konsignatsiya shartnomalaridan farqli ravishda, mahsulot yetkazib berilgandan so'ng qisqa muddatda to'lov amalga oshirilishini kafolatlaydi (agar tovar kredit asosida yetkazib berilmagan bo'lsa). Shu bilan birga, xorijiy davlat hududida tovarning shikastlanishi yoki yo'qolishi bilan bog'liq xarajatlar distribyutor zimmasiga o'tadi, chunki tovar sotib olingan zahoti uning egalik huquqi distribyutorga o'tadi.

Sotishning katta va doimiy hajmlarida agent bosh agent deb ataladi. Bo'lak aholi punktlariga xizmat ko'rsatuvchi dilerlar va ma'lum regionlarda ishlovchi subagentlardan iborat o'z sotish tarmog'ini tashqil etadi. Agentning mukofati tovarni printsipaldan sotib olgandagi baho bilan uni qayta sotishdagi bahosi orasidagi farq bo'ladi. Bozordagi o'rniga ko'ra vositachi-agentlar –birinchi qo'l|| huquqiga ega bo'lgan oddiy agentlarga va monopol yoki eksklyuziv (maxsus) agentlarga bo'linadi. Oddiy agentlik to'g'risidagi bitim vositachiga kelishilgan hududda printsipial tovarlarning ma'lum ro'yxatini sotish va undan foyda olishdir. Bunday bitim mustaqil yoki boshqa agentlar yordamida xuddi shu bozorga oddiy agentga qandaydir mukofot yoki to'lov to'lamay chiqadigan printsipialning huquqlarini cheklamaydi. Agentlik bitimida printsipialning mustaqil yoki boshqa vositachilar orqali shu bozorda manfaatliroq tijorat shartlarida sotmasligi to'g'risidagi majburiyati ham yoziladi. Oddiy agentlik bitimi vositachiga bozordagi barqaror mavqe kafolatini bermaydi, printsipial esa agentning faol ishiga umid qila olmaydi. Shuning uchun ham oddiy agentlik shartnomalari odatda eksportchi yangi bozorga chiqayotganda qisqa muddatga (bir yilgacha), ba'zan esa yaxshiroq sherik tanlab olish va qobiliyatini baholash uchun bir necha agentlar bilan ham tuziladi.

1-jadval

Tashqi iqtisodiy amaliyotda vositachilik operatsiyalari

| № | Vositachilik turi | Asosiy belgisi | Amalga oshirish shakli |
|---|-------------------|---|-------------------------|
| 1 | Brokerlik | Mijoz nomidan, mijoz hisobidan bitim tuzadi | Brokerlik shartnomasi |
| 2 | Dilerlik | O'z nomidan, o'z hisobidan savdo qiladi | Dilerlik bitimi |
| 3 | Komission savdo | Mijoz nomidan emas, lekin uning foydasiga | Komission shartnoma |
| 4 | Konsignatsiya | Tovarlar vaqtincha vositachiga topshiriladi | Konsignatsion shartnoma |
| 5 | Agentlik | Doimiy asosda mijoz manfaatini ifodalaydi | Agentlik shartnomasi |

Bu turlar tashqi savdoda turli iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Masalan, broker vositachilik qilgan holda ikki tomon manfaatini uyg'unlashtiradi, diler esa bozordagi riskni o'z zimmasiga olgan holda foyda olishga harakat qiladi (Qonun. 2021). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va xususiy sektorni rivojlantirish jarayonida vositachilik tizimi shakllandi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida brokerlik, logistika va eksport-import xizmatlari tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi ko'plab brokerlik markazlari, logistika kompaniyalari va onlayn eksport platformalari faoliyat yuritmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari global iqtisodiyotda nafaqat ishlab chiqarish va moliyaviy tizimlarga, balki tashqi savdo va vositachilik munosabatlariga ham tubdan ta'sir ko'rsatmoqda.

Internet texnologiyalari, sun'iy intellekt, "big data" tizimlari hamda blokcheyn asosidagi yechimlar vositachilik faoliyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endilikda vositachilik operatsiyalari nafaqat an'anaviy brokerlar, dilerlar yoki agentlar orqali, balki raqamli platformalar, onlayn birjalar va elektron savdo tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida vositachilik faoliyatining yangi shakllarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Elektron brokerlik — bu onlayn vositachilik faoliyatining asosiy shakli bo'lib, savdo ishtirokchilarini yagona raqamli maydonda birlashtiradi. Masalan, Alibaba, Amazon, eBay, AliExpress kabi xalqaro platformalar turli mamlakatlardagi ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni to'g'ridan-to'g'ri bog'laydi. Ushbu tizimlarda brokerlar axborot tahlili, reyting baholash, to'lov xavfsizligi va yetkazib berish logistikasini nazorat qilish kabi xizmatlarni taqdim etadi. Elektron brokerlik tizimlari vositachilik jarayonlarini avtomatlashtirib, inson omilini kamaytiradi hamda bitim tezligini oshiradi.

Onlayn eksport markazlari. Raqamli vositachilikning yana bir ko'rinishi bu — milliy onlayn eksport platformalari hisoblanadi. Ular eksportyorlarga o'z mahsulotlarini global bozorlarga taklif etish, narx va talab bo'yicha tahlillar olish, shuningdek, xorijiy xaridorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish imkonini beradi. Masalan, TradeUz, Export Portal, Made-in-Uzbekistan kabi platformalar O'zbekiston ishlab chiqaruvchilarini chet el xaridorlariga ulashda muhim vositachi sifatida xizmat qilmoqda. Bu tizimlar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun eksportni yengillashtiruvchi innovatsion mexanizm hisoblanadi.

Raqamli konsignatsiya va blokcheyn asosidagi vositachilik. Konsignatsiya tizimining raqamli talqini — bu logistika, to'lov va hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtiruvchi, xavfsizlikni blokcheyn texnologiyasi orqali ta'minlovchi mexanizmdir. Raqamli konsignatsiya vositachilar va mijozlar o'rtasida shartnoma shartlarini real vaqt rejimida kuzatish, tovar harakatini nazorat qilish va to'lovni kafolatlash imkonini beradi. Bunday tizimlar vositachilikning ishonchligini oshiradi, bitimlarning shaffofligini ta'minlaydi hamda firibgarlik xavfini minimallashtiradi.

Sun'iy intellekt asosidagi vositachilik modellari. So'nggi yillarda vositachilik tizimlarida AI (Artificial Intelligence) texnologiyalarining joriy etilishi ham sezilarli natijalar bermoqda. AI algoritmlari xaridor xatti-harakatini tahlil qilib, optimal narx siyosatini belgilash, bozor talabini prognozlash hamda individual takliflarni shakllantirish orqali vositachilik samaradorligini oshirmoqda. Bu jarayonlar raqamli vositachilarning analitik imkoniyatlarini kengaytiradi va milliy eksport salohiyatining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida vositachilik tizimining takomillashuvi nafaqat savdo jarayonlarini tezlashtiradi, balki iqtisodiy shaffoflikni oshiradi, transaksion xarajatlarni kamaytiradi hamda milliy ishlab chiqaruvchilar uchun global bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bois, O'zbekiston uchun kelgusida vositachilik operatsiyalarini raqamlashtirish, platforma iqtisodiyotini rivojlantirish va elektron savdo infratuzilmasini kengaytirish strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

5. Xulosa.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik operatsiyalari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular tashqi bozorlarda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni samarali tashkil etadi, resurslardan oqilona foydalanish, savdo risklarini kamaytirish hamda xalqaro bitimlarning huquqiy jihatdan himoyalalanishini ta'minlaydi.

Vositachilik faoliyati eksport-import operatsiyalarining barqarorligini kafolatlash bilan bir qatorda, iqtisodiyotning tarmoqlararo integratsiyasini chuqurlashtiradi, ishlab

chiqaruvchilarni yangi bozorlar bilan bog'laydi, shuningdek, kichik biznes subyektlari uchun global savdo tizimiga kirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida vositachilik xizmatlarining transformatsiyasi — elektron platformalar, onlayn birjalar va raqamli konsignatsiya tizimlari orqali — milliy savdo infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston tashqi savdosida vositachilik xizmatlari ulushi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon xalqaro hamkorlik aloqalarining faollashuvi, logistika infratuzilmasining kengayishi va elektron savdo tizimlarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, vositachilik faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini joriy etish, shaffof axborot bazalarini yaratish va malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Vositachilik operatsiyalarini rivojlantirish orqali:

- tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish;
- yangi ish o'rinlari yaratish;
- savdo jarayonlarida byurokratik to'siqlarni kamaytirish;
- transaksion xarajatlarni qisqartirish;
- eksport-import faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Kelgusida O'zbekiston iqtisodiyotida vositachilik institutlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunga zamonaviy vositachilik operatsiyalarini tartibga soluvchi modifikatsiyalar kiritish, raqamli vositachilik faoliyatini alohida yo'nalish sifatida belgilash.

2. Raqamli infratuzilmani kengaytirish. Elektron brokerlik, konsignatsiya va onlayn savdo tizimlarini yagona platforma asosida birlashtirish orqali axborot oqimini tezlashtirish va bitimlarning ishonchligini oshirish.

3. Kichik biznes uchun qo'llab-quvvatlov mexanizmlarini joriy etish. Eksport faoliyati bilan shug'ullanayotgan kichik korxonalariga vositachilik xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish hamda elektron savdo platformalarida imtiyozli ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish.

4. Malakali kadrlar tayyorlash. Xalqaro savdo, vositachilik va logistika sohalarida zamonaviy talablar asosida mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish, ularni amaliy treninglar orqali xalqaro tajribaga moslashtirish.

5. Xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish. O'zbekistonning xalqaro vositachilik tashkilotlari, savdo palatalari va elektron platformalar bilan hamkorligini kengaytirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, vositachilik operatsiyalarining samarali rivojlanishi O'zbekistonning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlab, milliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son

Xolbo'tayev S. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

Nazarova G.G., Iminov Z.M., Xalilov X.X., Hamidov O.B. (2011) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar". Darslik – Toshkent.

Mirsaidov M.S. (2006) "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD MOLIYA".

Joseph E. Stiglitz (2002) "Globalization and Its Discontents".

Balkind V.S., Gromov I.V., Конкуренентоспособность региона в условиях глобализации, 2021

Портер М. Конкуренция. – М.: Вильямс, 2005.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat axborotnoma (2023)
<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>

Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson, 2022.

Kotler P. Marketing Management. – Prentice Hall, 2021.

“Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi, 2021-yil.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ma'lumotlari, 2024-yil.

Rasulov A. Tashqi savdo va vositachilik xizmatlari rivojining iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.



УЧЕТ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ И КЛАССИФИКАЦИЯ ДОХОДОВ ПРЕДПРИЯТИЙ

и.о. профессор Абдибаева Т.

Ташкентский государственный экономический университет

стар.преподаватель Исламов К.С.

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье раскрывается формирование финансового результата предприятий и показателей характеризующейся связанные получения прибыли и доходов и распределения расходов и исчисление уплаты налогов на прибыль в бюджет.

Ключевые слова: финансовый результат, валовый прибыль, прибыль от основной деятельности, прибыль от общехозяйственной деятельности, классификация доходов предприятий, прибыль до уплаты налога и чистая прибыль.

Annotation. The article reveals the formation of the financial results of enterprises and indicators characterizing the related receipt of profits and incomes and the distribution of expenses and the calculation of the payment of taxes on profits to the budget.

Keywords: financial result, gross profit, profit from core activities, profit from general business activities, classification of enterprise income, profit before tax and net profit.

Annotatsiya. Maqolada korxonalarning moliyaviy natijasini shakllantirish, foyda va daromadlarni olish hamda xarajatlarni taqsimlash bilan bog'liq ko'rsatkichlar, shuningdek foyda solig'ini byudjetga hisoblab to'lash jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy natija, yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, korxonalar daromadlarini tasniflash, soliq to'lashdan oldingi foyda va sof foyda.

1. Введение.

Доходами предприятий признается увеличение экономических выгода в результате поступления активов и погашения обязательств, приводящее к увеличению капитала этой предприятий, за исключением вкладов участников собственников имущества.

Понятие «финансовое состояние», характеризующее важные классификационные аспекты хозяйственно-финансовой деятельности хозяйствующего субъекта, является важнейшей категорией, характеризующей привлекательность субъекта в глазах широкого круга заинтересованных лиц.

Порядок формирования и использования финансовых результатов регулируется Положением о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов, Национальными стандартами бухгалтерского учета Республики Узбекистан и Закон Республики Узбекистан о бухгалтерском учете.

2. Литературный обзор.

На основании опубликованной литературы по анализу финансового состояния можно сделать вывод о том, что единая процедура и методический подход к его проведению до сих пор не нашли своего полного решения. (Абдукаримов,2023; Вахрушина,2024) Сложно проследить общее единообразие в составе показателей, изучаемых при анализе финансового состояния, в подходах к их определению, в определении нормативных величин, а также в его форме и методике. (Казакова, 2024; Pardaev,2012) В исследованиях ученых классической школы анализа содержание анализа финансового состояния составляет оценка важных элементов и изменений в финансовом отчете (балансе), который является важной формой финансовой отчетности, их экономического и финансового потенциала, их платежеспособности и ликвидности на основе структуры бизнеса и целей управления, состояния собственных и заемных средств в активах финансирования, экономической уязвимости и их ожиданий, инвестиционной активности, деловой и рыночной активности, а также текущей, оперативной и приоритет отдается конкретным, научным, творческим аспектам работы, которые заключаются в формулировании важных выводов о будущем поведении хозяйствующих субъектов. (Кондраков,2022)

Одной из наиболее актуальных проблем традиционного экономического анализа и анализа финансовой отчетности является отсутствие научных исследований по актуальным вопросам изучения экономической уязвимости, банкротства, неплатежеспособности, привлекательности, устойчивости хозяйствующих субъектов, их поведения на финансовом рынке.

3. Методы исследования.

В исследовании использовались простые традиционные методы анализа финансового состояния хозяйствующих субъектов, экономико-математические методы, а также специальные методы экономического анализа (горизонтальный, вертикальный, коэффициентный, сравнительный, факторный).

4. Анализ и результаты.

Любой организации связана с привлечением необходимых ресурсов, использованием их в производственном процессе, продажей произведенных товаров (работ, услуг) и с получением финансовых результатов. В связи с этим особую значимость приобретает анализ процесса формирования финансовых результатов (Сигидов,2022). В условиях рыночной экономики прибыль – важнейший оценочный показатель деятельности предприятия в сфере предпринимательства и бизнеса. В литературе описаны несколько подходов к определению прибыли.

Объектом налогообложения по налогу на прибыль является прибыль, полученная налогоплательщиком.

- для юридического лица - разница между совокупным доходом и расходами,
- для нерезидента, осуществляющего деятельность через постоянное учреждение, - разница между совокупным доходом, связанным с деятельностью постоянного учреждения (включая доходы, полученные от источников за пределами Республики Узбекистан, связанные с деятельностью такого постоянного учреждения), и расходами, с учетом особенностей;
- для индивидуального предпринимателя - разница между совокупным доходом и расходами, с учетом особенностей;
- Для правильного определения налогооблагаемой базы хозяйствующих субъектов надо заполнить «Отчет о финансовых результатах» форма № 2.
- Финансовые результаты деятельности хозяйствующего субъекта характеризуются следующими показателями прибыли:

➤ валовая прибыль от реализации продукции, которая определяется как разница между чистой выручкой от реализации и производственной себестоимостью реализованной продукции:

$$\text{ПВ} = \text{ЧВР} - \text{СР},$$

где: ПВ - валовая прибыль; ЧВР - чистая выручка от реализации; СР - производственная себестоимость реализованной продукции;

➤ прибыль от основной деятельности, которая определяется как разница между валовой прибылью от реализации продукции и расходами периода, и плюс прочие доходы или минус прочие убытки от основной деятельности:

$$\text{ПОД} = \text{ПВ} - \text{РП} + \text{ПД} - \text{ПУ},$$

где: ПОД - прибыль от основной деятельности; РП - расходы периода; ПД - прочие доходы от основной деятельности; ПУ - прочие убытки от основной деятельности;

➤ прибыль (или убыток) от общехозяйственной деятельности, которая рассчитывается как: сумма прибыли от основной деятельности плюс доходы и минус расходы по финансовой деятельности:

$$\text{ПО} = \text{ПОД} + \text{ДФ} - \text{РФ},$$

где: ПО - прибыль от общехозяйственной деятельности; ДФ - доходы от финансовой деятельности; РФ - расходы по финансовой деятельности;

➤ прибыль до уплаты налога, которая определяется как прибыль от общехозяйственной деятельности плюс чрезвычайная прибыль и минус чрезвычайные убытки:

$$\text{ПДН} = \text{ПО} + \text{ЧП} - \text{ЧУ},$$

где: ПДН - прибыль до уплаты налога; ЧП- чрезвычайная прибыль; ЧУ - чрезвычайные убытки;

➤ чистая прибыль года, которая остается в распоряжении хозяйствующего субъекта после уплаты налога, представляет собой прибыль до уплаты налогов за вычетом налога на прибыль и минус другие налоги и платежи, предусмотренные законодательством:

$$\text{ЧП} = \text{ПДН} - \text{ННД} - \text{ДН},$$

где: ЧП - чистая прибыль; ННД - налог на доход; ДН - другие налоги и платежи.

В конце каждого отчетного периода обороты по дебету и кредиту счета 9910 «Конечный финансовый результат» суммируются и подсчитывается общее сальдо по этому счету, характеризующее конечный финансовый результат отчетного периода.

По окончании отчетного года при составлении годового финансового отчета счет 9910 «Конечный финансовый результат» закрывается в корреспонденции со счетом 8710 «Нераспределенная прибыль (убыток) отчетного года».

Показатели формирования финансовых результатов производственного предприятия «Комбо» за 1V- квартал 2024 года определяются по следующей таблице:

Таблица 1

Показатели формирования финансовых результатов

| Показатели формирования финансовых результатов | Определена сумма финансовых результатов |
|--|--|
| ВП (Валовая прибыль) = ЧВ (чистая выручка) - СП (себестоимость продукции) | 030 строка = 010 строка - 020 строка 44800 - 18700 = 26100 |
| ПОД (Прибыль (убыток) от основной деятельности) =ВП - РП (Расходы периода) + ПД (Прочие доходы) - ПУ (прочие убытки) | 100 строка (строка 030 - 040 + 090) 26100 - 8700 + 8280 = 25680 |

| | |
|--|--|
| ПОХД=ПОД+ ДФДВ (Доходы от финансовой деятельности, всего) - РФД (Расходы по финансовой деятельности) | Строка 220 = (строка 100 + 110 - 170) 25680 + 900 - 220 = 26360 |
| ПДН (Прибыль (убыток) до уплаты налога) = ПОХД + ЧП-ЧУ (Чрезвычайные) прибыли и убытки | Строка 240= (строка 220 +/- 230) 26360 + 0 - 0 = 26360 |
| ЧП Чистая прибыль (убыток)= ПДН - НП (налог на прибыль) - ПН (Прочие налоги и другие обязательные платежи) | Строка 270 = строка 240 - 250 - 260 26360 - 3964 = 22396 |

Показатели формирования финансовых результатов по строке 270 – чистая прибыль производственного предприятия “Комбо” составляет 22396 тысяча сум на эту сумму дебетуем счет-9910 “Конечный финансовый результат”, кредитуем счет- 8710 “Нераспределенная прибыль отчетного года”

При определении налогооблагаемой прибыли из валового дохода вычитаются следующие расходы: материальные расходы, расходы на оплату труда, амортизационные расходы, и прочие. Расходы определяются на основании данных со счетов:

- 9100 – учета себестоимости реализованной продукции (товаров, работ, услуг)
- 9400 – учета расходов периода
- 9410 – расходы по реализации
- 9420 – административные расходы
- 9430 – прочие операционные расходы
- 9600 – учета расходов по финансовой деятельности

Налоговая отчетность представляется в следующие сроки:

- 1) по итогам отчетного периода - не позднее двадцатого числа месяца, следующего за отчетным периодом;
- 2) по итогам налогового периода - не позднее 1 марта года, следующего за истекшим налоговым периодом.

5.Закключение.

По нашему мнению доходы и расходы могут быть представлены в отчете о финансовых результатах путем разграничения видов деятельности с тем, чтобы представить информацию, необходимую для принятия решений. Определения доходов и расходов раскрывают их основные отличительные черты, которые они должны отвечать прежде, чем их признают в отчете о финансовых результатах.

Не признаются доходами предприятий поступления от других юридических и физических лиц.

Литературы:

И. Т. Абдукаримов Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций. Учебное пособие/И.Т.Абдукаримов, М. В. Беспалов. – М.: ИНФРА-М, 2023. – 320 с.

Бухгалтерская (финансовая) отчетность учебник/ Ю.И. Сигидов, Г.Н. Ясменко, Е.А. Оксанич. под ред. проф. Ю.И. Сигидова.-Москва. ИНФРА-М, 2022-340 с.

М.А. Вахрушина. Анализ финансовой отчетности: Учебник-М.: ИНФРА-М, 2024. – 434 с.

Финансовый учет Учебник. - 5-е изд, перераб. и дом.-М Ф59 ИНФА-М, 2016.-784 с.

Н. А. Казакова. Анализ финансовой отчетности.– М.:Юрайт, 2024.–233 с.

Н.П. Кондраков “Бухгалтерский учет” (финансовый и управленческий) учебник. – М.:Инфра-м, 2022.–582 с.

М.Қ. Пардаев ва бoshqalar. Moliyaviy va boshkaruv tahlili, Darslik.T.:Chulpon. 2012,, 490 b.

М.Қ. Пардаев, В.И.Исроилов. Iqtisodiy tahlil T.: Iqtisod va xuquq dunyosi 2011, 452 b.

М.Қ.Пардаев, J.I.Исроилов, В.И. Исроилов Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b.

Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Узбекистан (НСБУ № 21) «План счетов бухгалтерского учета хозяйствующих субъектов» [Зарегистрирован Министерством юстиции Республики Узбекистан от 27 декабр 2024 года. Регистрационный № 3593]

Положение о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов. Утверждено постановлением Кабинета Министров от 5 февраля 1999 года № 54.

Финансово-хозяйственные данные производственного предприятия «Комбо» за IV-квартал 2024 года.



АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ РАБОЧИХ МЕСТ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИХ УЧЕТА

Алимухамедов Б.Б.

*Институт исследований бедности и рынка труда
Министерства занятости и сокращения бедности
Республики Узбекистан*

Аннотация. В статье изложены актуальные вопросы создания рабочих мест, приводятся оценки международных организаций по трансформации рынка труда. Критически рассмотрены основные направления создания рабочих мест в Узбекистане. Предлагаются конкретные меры по совершенствованию учета рабочих мест и разработке программ их создания, которые имеют прикладное значение в принятии управленческих решений по обеспечению занятости и предупреждению безработицы.

Ключевые слова: трансформация рабочих мест, программы создания и учет рабочих мест, занятость, безработица.

Annotatsiya. Maqolada ish o'rinlarini yaratishning dolzarb muammolari yoritilgan, xalqaro tashkilotlar tomonidan mehnat bozoridagii o'zgartirishlarga baholar keltirilgan. O'zbekistonda ish o'rinlari yaratishning asosiy yo'nalishlari tanqidiy ko'rib chiqilgan. Ish o'rinlarini hisobga olishni takomillashtirish va ularni yaratish dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha aniq chora-tadbirlar taklif etiladi, ular bandlikni ta'minlash va ishsizlikni oldini olish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ish o'rinlari, ish o'rinlarini yaratish va hisobga olish dasturlari, bandlik, ishsizlik.

Annotation. The article outlines topical issues of job creation, provides assessments of international organizations on the transformation of the labor market. The main directions of job creation in Uzbekistan are critically considered. Specific measures are proposed to improve the accounting of jobs and the development of programs for their creation, which are of applied importance in making management decisions to ensure employment and prevent unemployment.

Key words: transformation of jobs, programs for creating and accounting for jobs, employment, unemployment.

1. Введение.

Создание, равно как и восстановление, сохранение эффективных рабочих мест, в том числе в Узбекистане, является актуальной глобальной проблемой социально-экономического развития и обеспечения занятости населения, как в настоящее время, так и в перспективе.

В ходе опроса ООН, в котором приняло участие почти 800.000 респондентов из 190 стран «создание рабочих мест называлось в ряду насущных потребностей практически во всех странах». По данным МОТ (Международная Организация Труда) в период до 2030

года в целом по миру, учитывая безработных (200 млн. человек), значительную неформальную занятость (более 2 млрд. человек) и ежегодное пополнение рынка труда на 40 млн. человек, необходимо создание свыше 600 млн. рабочих мест.

Это становится актуальным в условиях, когда углубляется разрыв между созданием рабочих мест и предложением рабочей силы, который, по оценкам МОТ, ежегодно увеличивается на 45 млн. человек.

Следует учитывать дефицит рабочих мест, который в 2024 году составил 402 млн. человек, включая 186 млн. безработных, 137 млн. человек, входящих в рабочую силу, но переставших искать работу, и 79 млн. человек, которые хотели бы работать, но имеют обязательства, мешающие им трудоустроиться.

В Узбекистане, как это рекомендуется в отчете Азиатского Банка Развития (АБР), необходимо создание “хороших” рабочих мест, которые обеспечивают инклюзивный рост, снижение уровня бедности, безработицы, неполной и неформальной занятости путем повышения спроса на рабочую силу и ее качества, проведения активной политики на рынке труда (инвестиции в создание рабочих мест, поддержка и развитие малого бизнеса, расширение возможностей трудоустройства, повышение уровня использования трудовых договоров и т.п.).

Так, в соответствии с целями Стратегии “Узбекистан-2030”, за счет развития “драйверных” отраслей промышленности и полного задействования промышленного потенциала регионов предусмотрено создание 2,5 млн. высокодоходных рабочих мест (цель 48).

Необходимо также учитывать кардинальные перемены в создании рабочих мест вследствие целого ряда различных факторов - от поступательного развития технологий, до демографических изменений, трансформаций в экономике и на рынке труда.

На Всемирном Экономическом Форуме (ВЭФ) в докладе «Будущее рабочих мест – 2025» отмечается, что трансформация рынка труда вызовет создание 170 млн. новых рабочих мест, но одновременно 92 млн. рабочих мест будут упразднены, что приведет к чистому росту занятости на 7% или 78 млн. рабочих мест.

Этому будут способствовать масштабная автоматизация, создание больших баз данных, развитие искусственного интеллекта, внедрение 3D-печати и других технологий.

В результате таких инноваций в 20 экономически развитых странах мира будет сокращено более 7 миллионов рабочих мест, что частично сбалансировается созданием примерно 2 миллионов новых рабочих мест, в основном, в сфере компьютерных технологий, математики, архитектуры и инженерных наук. Новые рабочие места будут появляться также в различных сегментах «экономики ухода» (care economy), в сфере возобновляемых источников энергии, разработки новых продуктов.

Востребованными будут специалисты по анализу данных, специалисты по искусственному интеллекту и машинному обучению, разработчики программного обеспечения и приложений, специалисты по продажам и маркетингу, профессионалы в области цифровой трансформации и IT-сервисов.

Но вместе с тем более 92 млн. рабочих мест станут нерелевантны рынку труда. В десятку основных специальностей, количество людей в которых сократится, войдут клерки, отвечающие за ввод информации, сотрудники бухгалтерий, рабочие сборочных цехов, специалисты клиентского сервиса, административные менеджеры, аудиторы и ряд других. Это не значит, что таких специалистов больше не будет - речь идёт о сокращении их количества. Например, в бухгалтерии вместо десяти человек один главбух с помощью системного программного обеспечения будет отвечать за расчёты всей компании. Вместо колл-центров с десятками и сотнями людей сегодня банки и операторы связи уже используют автоответчик, призванный решать ряд самых частых задач.

Более востребованными на рынке труда, наряду с *hard skills* (жёсткие навыки), становятся *soft skills* (гибкие навыки) и *digital skills* (цифровые навыки) ввиду усложнения характера и содержания работы.

Распространяется краудворкинг – новый вид труда, появившийся благодаря достижениям в области доступа в Интернет и новшествам в сфере информационных технологий.

Предприятия не обязаны нанимать работников, подписывать контракты или соблюдать трудовое законодательство.

Понятие места работы как пространственной зоны, возможно, перестанет существовать, поскольку работать можно будет где угодно, а удаленные рабочие места станут повсеместным явлением.

Возрастет значение виртуальных рабочих мест, кооперативных технологий и коллективного предпринимательства, договоров субподряда и передачи работ на стороннее исполнение. Получат развитие: совместное использование сотрудников; разделение работы; временное управление; эпизодическая, мобильная, портфельная работа.

Таким образом, в создании рабочих мест (а значит и на рынке труда, сфере занятости) произойдут радикальные изменения.

С одной стороны, в промышленности, строительстве, энергетике (в том числе атомной), сельском и водном хозяйстве, транспорте, геологии, здравоохранении, фармацевтике, образовании и других отраслях будет идти создание новых рабочих мест и, соответственно, расти спрос на квалифицированных рабочих и инженеров, специалистов сферы ИТ (программисты, веб-дизайнеры), интернет и киборг-безопасности, риск-менеджеров.

С другой стороны, цифровая экономика, повсеместное внедрение прогрессивных технологий могут привести к сокращению 56% всех рабочих мест, отмиранию ряда профессий, работу которых заменят АСУ и робототехника (бухгалтера, продавцы, курьеры, охранники, архивариус, копирайтер, обслуживающий персонал). Технологический сдвиг только в одной промышленности приведет к сокращению 600 тыс. рабочих мест, но в то же время создаст более 900 тыс. рабочих мест.

2. Обзор литературы.

В последние годы исследования, посвящённые созданию и учёту рабочих мест, приобретают всё большую актуальность в связи с изменениями на глобальном рынке труда, воздействием цифровой экономики и внедрением инновационных технологий.

В отчётах ООН и Международной организации труда (МОТ) отмечается, что к 2030 году в мире потребуется более 600 миллионов новых рабочих мест. Эта тенденция указывает на растущее расхождение между предложением и спросом на рабочую силу (ILO, *World Employment and Social Outlook*, 2025).

Согласно докладу Всемирного экономического форума *The Future of Jobs – 2025*, в результате цифровой трансформации рынка труда будет создано около 170 миллионов новых рабочих мест, однако из-за сокращения 92 миллионов позиций чистый рост составит лишь 7%. Новые рабочие места в основном формируются в сферах информационных технологий, искусственного интеллекта, анализа данных и «зелёной экономики» (WEF, 2025).

По региональному отчёту Азиатского банка развития (АБР), для стран Центральной Азии и Южного Кавказа одной из ключевых задач является создание качественных рабочих мест, обеспечивающих «инклюзивный рост». Для этого необходимо повысить качество труда, а также адаптировать систему образования и подготовки кадров к требованиям рынка (ADB, 2019).

В рамках стратегии «Узбекистан – 2030» основные направления создания рабочих мест включают развитие драйверных отраслей, полное использование промышленного потенциала регионов и поддержку малого бизнеса. Особенно подчёркивается высокий потенциал в сельском хозяйстве, в трудоёмких отраслях — таких как садоводство, животноводство и переработка продукции (World Bank, 2022).

Кроме того, разработанная учёными Высшей школы экономики России модель «Движение рабочих мест» позволяет увязать показатели создания и ликвидации рабочих мест с динамикой рабочей силы. Этот подход служит важной научной основой для оценки сбалансированности рынка труда и разработки эффективной политики в условиях Узбекистана (Гимпельсон и др., 2014).

В заключение следует отметить, что исследования, посвящённые созданию и учёту рабочих мест, имеют важное научное и практическое значение для обеспечения стабильности рынка труда, формирования эффективной политики занятости и адаптации к новым формам занятости в условиях цифровой экономики.

3. Методология исследования.

Новая страница в истории компании была открыта Указом Президента № УП-5646 от 1 февраля 2019 года, а также Постановлениями № ПП-4388 и № ПП-4664, которые заложили основу для глубоких институциональных и управленческих реформ. Начавшийся в 2019 году процесс реструктуризации нефтегазовой отрасли имел целью повышение её финансовой устойчивости, технологической эффективности и открытости к международным инвестициям.

В результате реформ была пересмотрена организационная структура АО «Узбекнефтегаз». Из состава холдинга был выведен АО «Узтрансгаз», который получил статус независимого оператора по закупке, транспортировке и реализации природного газа. Одновременно была образована компания АО «Худудгазтаъминот», ответственная за эксплуатацию газораспределительных сетей и поставки газа конечным потребителям населению и социальным учреждениям (World Energy Transitions Outlook, 2023), (Садигов,2022)

На сегодняшний день АО «Узбекнефтегаз» представляет собой многоуровневую корпоративную структуру, включающую свыше 50 организаций, в том числе 13 совместных предприятий с международным участием и 10 ключевых дочерних компаний, обеспечивающих разведку, разработку (124 месторождения из 185), переработку и сбыт углеводородных ресурсов (World Bank Group, 2021). Масштаб её деятельности охватывает не только промышленное производство и экспорт сырья, но и вклад в развитие национальной экономики, формирование бюджета, занятости и научно-технического прогресса.

2. Литературный обзор.

Методологическую основу исследования составил системный подход, позволивший рассмотреть экономический потенциал нефтегазовых предприятий как целостную, многоуровневую систему, выявить взаимосвязи между её отдельными элементами и определить механизмы их взаимодействия. Для изучения теоретических аспектов проблемы применялись монографический метод и метод теоретического обобщения, которые обеспечили глубокий анализ сущности, структуры и особенностей экономического потенциала нефтегазовых предприятий, а также позволили проанализировать и обобщить международный опыт в этой области.

Анализ текущего состояния, структуры и динамики экономического потенциала АО «Узбекнефтегаз» осуществлялся посредством таких методов, как статистические наблюдения и сравнительный анализ. Это позволило выявить тенденции развития предприятия, определить характер изменений его экономических показателей, а также осуществить сравнительную оценку эффективности использования ресурсов компании за различные периоды. В рамках данного подхода была проведена количественная оценка зависимости показателей эффективности от различных факторов, что позволило определить приоритетные направления совершенствования механизма повышения экономического потенциала.

Для наглядного представления результатов анализа и прогноза применялся графоаналитический метод, обеспечивающий четкую визуализацию полученных выводов, динамики показателей и сценариев развития АО «Узбекнефтегаз».

3.Методология исследования.

Методологическую основу исследования составил системный подход, позволивший рассматривать экономический потенциал нефтегазовых предприятий как целостную, многоуровневую систему, выявлять взаимосвязи между её элементами и определять механизмы их взаимодействия. Для изучения теоретических аспектов применялись монографический метод и метод теоретического обобщения, обеспечившие глубокий анализ сущности, структуры и особенностей формирования экономического потенциала предприятий нефтегазовой отрасли.

В процессе анализа текущего состояния, структуры и динамики экономического потенциала АО «Узбекнефтегаз» использовались методы статистического наблюдения, сравнительного анализа и экономико-математического моделирования. Это позволило выявить тенденции развития, оценить изменения ключевых экономических

показателей и определить эффективность использования ресурсов предприятия за исследуемый период.

Для количественной оценки зависимости показателей эффективности от различных факторов применялись корреляционно-регрессионный анализ и коэффициентный метод, что позволило определить приоритетные направления совершенствования механизма повышения экономического потенциала.

Кроме того, для визуализации результатов исследования и прогнозирования использовался графоаналитический метод, обеспечивающий наглядное представление динамики показателей и сценариев развития АО «Узбекнефтегаз».

4. Анализ и результаты.

Проектная производственная мощность АО «Узбекнефтегаз» по подготовке газа на сегодняшний день составляет 76,5 млрд кубических метров в год, а по переработке нефти 141 тыс. тонн. Кроме того, ежегодные объемы производства сжиженного газа достигают 679,6 тыс. тонн, а технической серы 414,5 тыс. тонн, что подчеркивает важность компании как крупнейшего национального оператора в сфере переработки углеводородов (Юнусов, 2022).

Основной объем добычи углеводородного сырья сосредоточен на 124 месторождениях, находящихся в промышленной разработке. Дополнительно, 61 месторождение находится в законсервированном состоянии, что создаёт потенциальный стратегический резерв для будущей добычи (рис. 1).




Рисунок 1. Структура месторождений АО «Узбекнефтегаз» в 2023 году

В совокупности эксплуатационный фонд скважин компании составляет 2402 единицы, из которых 1276 нефтяные и 1126 газовые. Добыча осуществляется на таких ключевых производственных площадках, как Мубарекское, Шуртанское, Газлийское, Андижанское (Водийское) нефтегазодобывающие управления, а также Устюртское газодобывающее управление, каждое из которых вносит существенный вклад в общий объем добычи и обеспечивает региональную сбалансированность производства (рис. 2).

Добытое углеводородное сырье проходит полный цикл промышленной переработки, в ходе которого производятся стратегически важные виды продукции: сжиженный природный газ (СПГ), полиэтилен, сера, бензин, дизельное топливо, авиакеросин, мазут и кокс (IMF,2021). Эти продукты находят применение как на внутреннем рынке, обеспечивая нужды энергетики, транспорта и промышленности, так и экспортируются за рубеж, укрепляя валютные поступления в экономику страны.




Рисунок 2. Добыча природного газа в разрезе нефтегазодобывающих управлений

Современное развитие АО «Узбекнефтегаз» осуществляется в контексте реализации общенациональных стратегических документов. Одним из ключевых направлений является выполнение Указа Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 гг.». В документе приоритетным направлением обозначена модернизация и техническое перевооружение нефтегазового комплекса, его глубокая структурная перестройка, расширение перерабатывающих мощностей и увеличение экспортного потенциала. Среди крупных проектов отрасли особого внимания заслуживает строительство Шуртанского газохимического комплекса, призванного стать крупнейшим в регионе, а также реализация Устюртского ГХК на базе месторождения Сургиль одного из самых капиталоемких проектов в истории независимого Узбекистана.

Отдельного внимания заслуживает утвержденная в июне 2020 года «Концепция обеспечения Республики Узбекистан нефтегазовой продукцией на 2020–2030 годы». Её основная задача создание устойчивой и эффективно функционирующей системы бесперебойного снабжения как населения, так и промышленного комплекса нефтепродуктами и природным газом. В рамках Концепции предусмотрены меры по увеличению объемов добычи, совершенствованию системы учёта и контроля потребления ресурсов, а также по укреплению энергетической безопасности страны (Ташпулатов,2022).

В современных условиях особое внимание уделяется цифровизации производственных процессов. Ведется разработка «Концепции комплексного и планомерного развития автоматизации и цифровизации топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан», в которой информационно-коммуникационные технологии рассматриваются как основа повышения эффективности, управляемости и

прозрачности отрасли. Целями этой инициативы являются снижение энергоемкости экономики, внедрение передовых технологий переработки, обновление основных фондов, обеспечение технологического суверенитета и преобладание экспорта над импортом продукции ТЭК.

Для достижения поставленных целей предусмотрены масштабные инвестиции в строительство новых объектов и модернизацию существующих производственных мощностей. Речь идет о расширении геологоразведочных работ, введении в эксплуатацию законсервированных и новых месторождений, активном внедрении энергосберегающих технологий, а также наращивании производства высокомаржинальной нефтехимической продукции и альтернативных видов топлива. Таким образом, АО «Узбекнефтегаз» трансформируется в компанию нового поколения гибкую, технологичную и ориентированную на устойчивый рост.

В совокупности вышеописанные меры формируют прочную платформу для дальнейшего укрепления экономического потенциала предприятия, его адаптации к условиям глобального энергетического перехода и интеграции в международные производственные и финансовые цепочки.

Важно отметить, что под экономическими ресурсами в данном контексте понимаются не только капитальные вложения, но и совокупность всех активов предприятия, способных генерировать доход и обеспечивать устойчивое развитие. Это включает как основные производственные фонды, так и текущие активы, а также нематериальные ресурсы, такие как организационно-управленческий потенциал и накопленные компетенции.

Анализ представленных данных позволяет сделать важные выводы о характере использования экономических ресурсов АО «Узбекнефтегаз» в динамике за исследуемый период. Наиболее высокую отдачу, выраженную в уровне рентабельности, демонстрируют заемные и оборотные ресурсы, что обусловлено их высокой подвижностью и оперативным участием в производственно-сбытовых процессах. Именно за счет этих категорий ресурсов предприятие в краткосрочной перспективе формирует наибольшую долю прибыли.

В то же время, по всем основным видам ресурсов наблюдается снижение показателей прибыльности в 2024 году. Эта тенденция может быть связана с общими макроэкономическими условиями, изменением цен на мировых энергетических рынках, а также внутренними факторами ростом себестоимости, снижением производственной загрузки или временными потерями в логистических цепочках (Садиков, 2022)(UN, 2022).

Динамика данных наглядно представлена на рисунках 3 и 4, где отображены изменения рентабельности по различным типам экономических ресурсов. Подобные колебания требуют внимательного анализа и стратегического реагирования со стороны руководства предприятия с целью повышения устойчивости финансового положения и минимизации рисков.




Рисунок 3. Динамика прибыльности (рентабельности) экономических ресурсов в разрезе его видов

Как уже отмечалось, уровень эффективности функционирования любого производственного предприятия напрямую зависит от рациональности использования его экономических ресурсов. В широком смысле под экономическими ресурсами следует понимать совокупность всех видов активов и факторов производства, включая долгосрочные и текущие активы, собственные и заёмные источники средств, материально-техническую базу, производственные фонды, а также трудовые и финансовые ресурсы.



Рисунок 4. Динамика капиталоотдачи, капиталоемкости и капиталовооруженности

В целях комплексной оценки эффективности использования указанных ресурсов необходимо рассматривать направления их вложения и дальнейшего оборота в процессе производственной деятельности. При этом долгосрочные активы преимущественно представлены основными фондами, что предполагает применение

методов анализа фондоотдачи, фондоёмкости и капиталоемкости. Анализ текущих активов, в свою очередь, опирается на показатели эффективности использования оборотных средств, включая ликвидность, оборачиваемость, долю активов низкого качества и т.д. (Ташпулатов, 2022)

Учитывая, что основным направлением деятельности АО «Узбекнефтегаз» остаётся добыча углеводородного сырья, особое внимание уделяется анализу производительности эксплуатационного фонда скважин. Одним из базовых индикаторов здесь служит коэффициент их использования (эксплуатации), который рассчитывается как отношение фактически отработанного фонда скважино-месяцев к календарному фонду за тот же период.

5. Выводы.

Наиболее прибыльным являются заемный и оборотный капитал. При этом, по всем видам капитала отмечается некоторый спад прибыльности в 2024 году. Динамика показателя капиталоемкости характеризуется резким падением в 2022 году выручки от реализации продукции в результате проведения в отрасли организационных реформ и постепенным наращиванием уровня отдачи в последующие годы. Капиталоемкость как обратный показатель капиталоемкости имеет противоположную тенденцию: резкий рост в 2022 году и снижение в 2023 и 2024 годах.

Таким образом, степень эффективности капитала предприятия определяется также направлениями его вложений (в долгосрочные и текущие активы) и их дальнейшего использования. Основной (долгосрочный) капитал в бухгалтерском балансе отражается как долгосрочные активы. Их основу составляют основные фонды. Обобщающими показателями эффективности использования основных фондов является фондоотдача и фондоёмкость. В 2023 году доля производственных основных фондов снизилась за счет строительства социальных объектов. При этом вырос объем реализации продукции, в связи с чем фондоотдача основных фондов выросла. и, несмотря на снижение доли производственных основных фондов их фондоотдача увеличилась. При этом фондоёмкость снизилась и в результате экономия средств составила более 16 млрд сум.

Литературы:

Исмоилов, А. Б. Потенциал цифровых технологий в развитии нефтегазовой отрасли / А. Б. Исмоилов // Технологии и экономика. – 2022. – № 2. – С. 41–46.

ADB. Uzbekistan: Gas Sector Reform Roadmap. – Manila: Asian Development Bank, 2021. – 80 p.

Абдурасулов, Э. Х. Совершенствование оценки и мониторинга экономического потенциала нефтегазовых предприятий / Э. Х. Абдурасулов // Экономика и образование. – 2023. – № 1. – С. 99–105.

Рахмонов, Ш. У. Формирование устойчивого инвестиционного климата в нефтегазовом секторе Узбекистана / Ш. У. Рахмонов // Экономика и инновационные технологии. – 2022. – № 6. – С. 61–67.

IRENA. World Energy Transitions Outlook 2023. – Abu Dhabi: International Renewable Energy Agency, 2023. – 312 p.

Садиков, Ж. Х. Механизмы оценки эффективности инвестиционных проектов в ТЭК / Ж. Х. Садиков. – Ташкент: Университетская книга, 2022. – 146 с.

World Bank. Enhancing Investment Climate in Energy Sector: Uzbekistan Case. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. – 92 p.

Каримова, Г. Т. Проблемы ресурсной эффективности в нефтегазовой промышленности / Г. Т. Каримова // Журнал экономики и управления. – 2021. – № 4. – С. 34–39.

UN. Energy Compacts: Progress and Outcomes. – New York: United Nations, 2022. – 104 р.

Юнусов, А. М. Влияние глобальных энергетических трендов на стратегическое развитие нефтегазовой отрасли / А. М. Юнусов // Экономика и прогнозирование. – 2022. – № 3. – С. 90–97.

IMF. Outlook for Oil Exporters in Central Asia. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – 58 р.

Ташпулатов, С. Э. Анализ ключевых факторов повышения экономического потенциала нефтегазовых предприятий / С. Э. Ташпулатов // Экономика и статистика. – 2022. – № 5. – С. 72–78.



МИНТАҚАВИЙ РИВОЖЛАНИШДА МОЛИЯВИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ РОЛИ

Давранов О. А.

ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Мақолада минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситаларнинг иқтисодий ва институционал аҳамияти таҳлил қилинган. Муаллиф минтақавий иқтисодиётда молиялаштириш механизмларининг ривожланиш тенденцияларини халқаро тажрибалар асосида ўрганиб, уларнинг ҳудудий инновация, тадбиркорлик ва инвестиция салоҳиятига таъсирини назарий жиҳатдан асослаб берган. Мақолада келтирилган хулосалар Ўзбекистоннинг ҳудудий молия сиёсатини такомиллаштиришда илмий-амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: минтақавий ривожланиш, молиявий воситалар, инвестиция сиёсатини молиялаштириш, давлат-хусусий шериклик, институционал мувофиқлик, инновацион иқтисодиёт, ҳудудий иқтисодий моделлар.

Аннотация. В статье анализируется экономическое и институциональное значение финансовых инструментов в моделях регионального развития. Автором изучены тенденции развития механизмов финансирования региональной экономики на основе международного опыта и теоретически обосновано их влияние на региональные инновации, предпринимательство и инвестиционный потенциал. Выводы, представленные в статье, имеют научное и практическое значение для совершенствования региональной финансовой политики Узбекистана.

Ключевые слова: региональное развитие, финансовые инструменты, финансирование инвестиционной политики, государственно-частное партнерство, институциональная согласованность, инновационная экономика, региональные экономические модели.

Abstract. The article analyzes the economic and institutional significance of financial instruments in regional development models. The author studied the development trends of financing mechanisms in the regional economy based on international experience and theoretically substantiated their impact on regional innovation, entrepreneurship and investment potential. The conclusions presented in the article are of scientific and practical importance in improving the regional financial policy of Uzbekistan.

Keywords: regional development, financial instruments, financing of investment policy, public-private partnership, institutional coherence, innovative economy, regional economic models.

1. Кириш.

Замонавий глобал иқтисодий тизим шароитида минтақавий ривожланиш миллий барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва рақобатбардошликнинг асосий омилларидан бири

сифатида намоён бўлмоқда. Худудларнинг иқтисодий фаоллигини ошириш, инвестицион жозибдорлигини кучайтириш ҳамда инновацион салоҳиятини ривожлантириш учун молиявий воситалардан самарали фойдаланиш стратегик аҳамиятга эга.

Молиявий воситалар нафақат ресурслар тақсимотини оптималлаштиришга хизмат қилади, балки худудлар ўртасидаги иқтисодий номутаносибликни қисқартириш, маҳаллий иқтисодиётни диверсификация қилиш ва янги иш ўринларини яратиш орқали ижтимоий барқарорликни таъминлашга ҳам ҳисса қўшади. Шу жиҳатдан, минтақавий ривожланишнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан худудий молия сиёсатининг ташкил этилиши ва молиявий институтлар фаолиятининг самарасига боғлиқдир.

Минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситаларнинг ўрни, аввало, капитални худудий эҳтиёжларга йўналтириш, инвестиция салоҳиятини кенгайтириш ва давлат–хусусий сектор ҳамкорлигини рағбатлантириш орқали намоён бўлади. Замоनावий иқтисодий шароитда бундай ҳамкорлик молиялаштиришнинг инновацион механизмларига суверен ва муниципал облигациялар, венчур капитал, грантлар ҳамда кластер молиялаштириш инструментларига асосланмоқда.

Шу боис, ҳозирги кунда минтақавий молиялаштириш тизимини қайта кўриб чиқиш, уни бозор иқтисодиёти тамойиллари ва инновацион молиявий воситалар билан уйғунлаштириш долзарб вазифа ҳисобланади. Бу жараён нафақат иқтисодий ўсишни рағбатлантиради, балки худудлар даражасидаги молиявий барқарорлик ва самарадорликни таъминлаш учун институционал замин яратади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Сўнгги йилларда минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситалардан фойдаланиш масаласи жаҳон илмий муҳокамаларида тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Замоनावий иқтисодий таҳлилларда ушбу йўналишнинг эътибор марказида молиявий бозор ривожланиш даражаси, давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорлик ҳамда худудий инновация фаолияти самарадорлиги ўртасидаги боғлиқликни очиб бериш масаласи туради.

Tang ва ҳаммуаллифлар (2021) томонидан амалга оширилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, молиявий ривожланиш ва илмий тадқиқот (R&D) фаолияти худудий инновация самарадорлигига бевосита ижобий таъсир кўрсатади. Муаллифлар таъкидлаганидек, молия тизимидаги институционал ривожланиш даражаси инновацион сиёсатнинг самарадорлигини белгилайди ва иқтисодий ўсишни рағбатлантиради (Tang et al., 2021).

Cisilino (2022) Италиянинг Friuli Venezia Giulia худудий фонди мисолида қишлоқ жойларда молиявий воситаларни қўллашнинг институционал мураккаблиги ва имкониятларини таҳлил қилиб, айланувчан жамғармалар (revolving funds) худудий иқтисодиётда узлуксиз инвестиция оқимини таъминловчи самарали восита эканини таъкидлаган. Унинг фикрича, бундай жамғармаларнинг барқарор фаолияти давлат қўллаб-қувватлови ва маҳаллий институтлар ҳамкорлиги билан таъминланиши лозим (Cisilino, 2022).

Sum ва ҳаммуаллифлар (2023) Польшадаги худудий ривожланиш сиёсатида кўпқаватли бошқарув (multilevel governance) моделини тадқиқ этиб, худудий молиявий воситаларни самарали жорий этиш фақат марказий ҳокимият эмас, балки маҳаллий ҳамда Европа Иттифоқи даражасидаги мувофиқлаштирувчи институтлар фаолиятига боғлиқлигини кўрсатган. Бу натижалар минтақавий ривожланишда молиявий воситаларни институционал даражада интеграция қилиш зарурлигини тасдиқлайди (Sum et al., 2023).

OECD (2018) ҳисоботи эса ҳудудий ривожланишни молиялаштиришда давлат бюджетидан ташқари манбаларнинг, хусусан, кредит линиялари, грантлар ва хусусий инвестиция воситаларининг ролини кучайтириш зарурлигини таъкидлайди. Ҳисоботда ҳудудий молия сиёсатини диверсификация қилиш орқали самарадорликни оширишга оид амалий тавсиялар берилган (OECD, 2018).

Léon (2025) ўзининг Ривожланиш молия институтлари (Development Finance Institutions, DFIs) бўйича кенг қамровли адабиётлар шарҳида DFIsнинг инфратузилмавий лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш ва капитални маҳаллий иқтисодийга йўналтириш орқали ҳудудий ривожланишни рағбатлантиришдаги муҳим ролини таъкидлаган (Léon, 2025).

McHugh (2021) эса ривожланиш молияси тизимида хусусий сектор иштирокини оширишга қаратилган назарий моделни илгари сурган. Муаллифнинг фикрича, минтақавий ривожланишда давлат ва хусусий капиталнинг шериклик механизми, яъни Давлат-хусусий шерикчилик (ДХШ) орқали бирлашиши молиявий воситалар самарадорлигини кескин оширади (McHugh, 2021).

Pluskota (2023) Польша мисолида грантлар ва қайтариладиган молиявий воситалар қиёсий таҳлилини амалга ошириб, сўнгги йилларда қайтариладиган воситалар улушининг ортиши давлат маблағларининг айланувчанлиги ва узлуксизлигини таъминлаётганини кўрсатган (Pluskota, 2023).

Le (2023) ривожланаётган мамлакатларда молиявий ривожланиш ва халқаро тадқиқот-тадбиқот тарқатилиши (R&D spillovers) ўртасидаги боғлиқликни эмпирик равишда асослаб, молиявий тизимнинг самарали фаолияти билим ва технологиялар трансферини рағбатлантириши, натижада ҳудудий иқтисодий ўсишга хизмат қилишини таъкидлаган (Le, 2023).

Шундай қилиб, мавжуд илмий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситалар фақат ресурс тақсимотини оптималлаштириш воситаси эмас, балки инновацион муҳитни яратиш, тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва инвестицион салоҳиятни кенгайтиришнинг асосий механизми сифатида намоён бўлади. Шу боис, молия тизими минтақавий сиёсатнинг марказий элементи сифатида қаралиши ва унинг институционал асослари мустаҳкамланиши зарур.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотда тизимли ва қиёсий таҳлил усуллари асосида минтақавий ривожланишда молиявий воситаларнинг иқтисодий ва институционал таъсири ўрганилди. Илмий ишда халқаро тажрибалар ва миллий иқтисодий маълумотлар таҳлил қилинди. Асосий маълумот манбалари сифатида OECD, Cisilino (2022), Tang ва ҳаммуаллифлар (2021) ҳамда Президент қарорлари асос бўлди. Тадқиқот жараёнида моделлаштириш ва индуктив таҳлил усуллари орқали молиявий воситалар самарадорлиги баҳоланди. Давлат ва хусусий сектор шериклигининг ҳудудий иқтисодий ўсишга таъсири эмпирик таҳлил қилинди. Олинган натижалар минтақавий молия сиёсатини такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар ишлаб чиқишга хизмат қилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ҳудудий тараққиётга молиявий воситаларнинг таъсири тизимли, кўп томонлама ва узвий характерга эга. Хусусан, Европа Иттифоқида амалга оширилаётган Коҳезия сиёсати (Cohesion Policy) доирасида молиявий инструментлар, инвестиция фондлари, грантлар, субсидиялар ва кафолат дастурлари орқали ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий ва ижтимоий тенгсизликни камайтиришга эришилган. Бу орқали молия тизими фақат ресурсларни

тақсимловчи эмас, балки ҳудудий сиёсатни амалга оширувчи самарали иқтисодий механизм сифатида намоён бўлади.

Ўзбекистон тажрибасида ҳам минтақавий ривожланишни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида шаклланимда. Президентнинг 2024 йил 15 сентябрдаги ПҚ–282-сон қарорига мувофиқ, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини ошириш ва инвестиция муҳитини яхшилаш мақсадида махсус молиялаштириш механизмлари жорий этилди. Ушбу механизмлар доирасида тижорат банклари, инвестиция жамғармалари ҳамда давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш орқали маҳаллий иқтисодиётни фаоллаштириш назарда тутилган.

Минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситаларнинг ўрнини баҳолашда энг муҳим вазифалардан бири молия тизими ва ҳудудий иқтисодий фаоллик ўртасидаги функционал боғлиқликни аниқлашдир. Халқаро тадқиқотлар натижаларига кўра, ҳудудий иқтисодий ўсишнинг 40–60 фоизи тўғридан-тўғри молиявий воситаларнинг самарадорлигига боғлиқ бўлиб, бу кўрсаткич асосан молия институтларининг тузилиши ва уларнинг институционал муҳити билан белгиланади (Tang et al., 2021; OECD, 2018).

Аввало, молиявий воситалар ҳудудий иқтисодий ривожланишда ресурс тақсимотининг барқарорлигини таъминловчи механизм сифатида намоён бўлади. Cisilino (2022) Италиянинг *Friuli Venezia Giulia* ҳудуди мисолида айланувчан жамғармалардан фойдаланиш натижасида маҳаллий кичик бизнес ва қишлоқ инфратузилмасини молиялаштириш барқарорлашганини таъкидлайди. Бу ҳолатдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, молиявий воситалар фақат сармоя жалб қилиш воситаси эмас, балки ҳудудий иқтисодиётнинг институционал тузилмасини мустаҳкамловчи муҳим элементдир.

Иккинчидан, давлат ва хусусий сектор шериклиги орқали молиявий воситаларнинг таъсир доирасини кенгайтириш тенденцияси кучаймоқда. McNugh (2021) фикрича, ривожланиш молиясини хусусий капитал билан бирлаштириш орқали ҳудудий лойиҳаларда давлат ресурсларидан самарали фойдаланиш мумкин. Бу усул айниқса Ўзбекистон учун долзарб бўлиб, маҳаллий инфратузилма, саноат зоналари ва инновация марказларини молиялаштиришда хусусий сармояларни фаол жалб этишни тақозо этади.

Шу билан бирга, молиявий воситаларнинг ҳудудий ривожланишга таъсири кўп жиҳатдан институционал мувофиқлашув даражасига боғлиқ. Sum ва ҳаммуаллифлар (2023) Польша мисолида кўпқаватли бошқарув (multilevel governance) тизимидаги тажрибани таҳлил қилиб, миллий, вилоят ва маҳаллий институтлар ўртасидаги самарали мувофиқлашувнинг етишмаслиги молиявий воситаларнинг таъсирини пасайтиради, деган хулосага келишган. Ўзбекистон шароитида ҳам ҳудудий инвестиция жамғармалари, иқтисодий агентликлар ва маҳаллий банклар ўртасидаги ахборот алмашинув ва молиявий режалаштиришни интеграциялаш орқали бу муаммоларни бартараф этиш зарур.

Le (2023) ривожланаётган мамлакатлар мисолида молиявий ривожланиш ва халқаро билим трансфери (R&D spillovers) ўртасидаги боғлиқликни ўрганиб, молия тизимини инновация муҳитининг асосий “триггери” сифатида баҳолайди. Шу нуқтаи назардан, ҳудудий ривожланиш моделларида молиявий воситаларни фақат сармоя жалб қилиш объекти сифатида эмас, балки инновация ва технологияларни тарғиб этувчи стратегик восита сифатида ҳам кўриш мақсадга мувофиқ.

Бироқ молиявий воситаларнинг самарадорлиги уларни жорий этишдаги институционал хатарлар ва бошқарув rischi билан ҳам чамбарчас боғлиқ. OECD (2018) ҳисоботида таъкидланишича, кўплаб мамлакатларда ҳудудий ривожланиш фондлари орқали ажратилган маблағлар натижага йўналтирилмагани сабабли уларнинг

иқтисодий таъсири чекланган. Шу сабабдан, молиявий воситалардан фойдаланишда натижага асосланган баҳолаш тизимини жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

Таҳлил натижаларига кўра, ҳудудий ривожланишда молиявий воситаларнинг самарадорлиги қуйидаги тўрт йўналишда намоён бўлади:

1. Инвестиция самарадорлиги, яъни молиявий воситалар орқали сармоя оқимини ҳудудлар кесимида мутаносиб тақсимлаш;
2. Инновацион ривожланиш эса молия тизими орқали стартаплар ва илмий-тадқиқот фаолиятини рағбатлантириш;
3. Институционал барқарорлик давлат, хусусий сектор ва маҳаллий бошқарув органлари ўртасида ишончли ҳамкорлик моделини шакллантириш;
4. Ижтимоий самарадорлик янги иш ўринлари яратиш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли даромадларини ошириш.

Pluskota (2023)нинг қиёсий таҳлиliga кўра, грантлар билан солиштирганда қайтариладиган молиявий инструментлар иқтисодий айланувчанликни таъминлаб, ҳудудий лойиҳаларнинг узоқ муддатли молиялашувини кафолатлайди. Бу ёндашув Ўзбекистондаги “Ҳудудий инвестиция жамғармалари” тизимини такомиллаштириш учун муҳим илмий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ниҳоят, Léon (2025) таъкидлаганидек, ривожланиш молия институтларини самарали бошқариш ҳудудий иқтисодий барқарорликни таъминловчи стратегик восита ҳисобланади. Бу институтлар маҳаллий лойиҳаларни молиялаштириш орқали жойлардаги ишбилармонлик муҳитини кучайтиради ва бу орқали макроиқтисодий барқарорлик ҳамда миллий ўсиш суръатларини мустаҳкамлайди.

Умумий қилиб айтганда, минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситалар, фақат молиявий ресурс эмас, балки иқтисодий инновациялар, ижтимоий барқарорлик ва институционал интеграцияни таъминловчи кўп функцияли механизмдир. Улар ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий дисбалансни камайтириш, ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш ва давлат-хусусий шерикликни кенгайтиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

5. Хулоса.

Минтақавий ривожланиш моделларида молиявий воситалардан фойдаланиш иқтисодий сиёсатнинг стратегик устувор йўналиши сифатида қаралиши зарур. Замонавий таҳлиллар шуни кўрсатадики, ҳудудий иқтисодий ўсишни таъминлашда молиявий воситалар фақат сармоя тақсимоли механизми эмас, балки инновация жараёнларини рағбатлантирувчи, тадбиркорлик муҳитини фаоллаштирувчи ва ижтимоий барқарорликни таъминловчи институционал драйвер вазифасини бажаради.

Молиявий воситаларнинг самарадорлиги, аввало, уларнинг ҳудудий эҳтиёжлар билан уйғунлашганлиги ҳамда давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорлик даражасига боғлиқ. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон шароитида ҳудудий инвестиция жамғармаларини ривожлантириш, инновацияни молиялаштирувчи рақамли платформаларни жорий этиш ва натижага асосланган баҳолаш тизимини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Иқтисодий нуқтаи назардан, молиявий воситалар ҳудудий ривожланишнинг барқарор молиявий инфратузилмасига айлангандагина уларнинг ҳақиқий таъсири намоён бўлади. Шу сабабли, минтақавий ривожланиш сиёсатини молиялаштиришда инновацион ёндашувлар билан институтсионал ислохотларни уйғунлаштириш устувор вазифа сифатида қаралиши лозим.

Адабиётлар:

Cisilino, F. (2022) *Potential and Complexity of Implementing Financial Instruments in the Framework of Rural Development Policies in Italy—The Friuli Venezia Giulia Revolving Fund*. Sustainability, 14(23), 16090. DOI: 10.3390/su142316090.

Le, T. (2023) *Financial Development and International R&D Spillovers: Evidence from Developing Countries*. SAGE Open, 13(1). DOI: 10.1177/21582440231163842.

Léon, F. (2025) *Development Finance Institutions in Developing Countries: A Literature Review*. FERDI Working Paper 3501. Available at: <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/322571/1/192868209X.pdf>.

McHugh, C.A. (2021) *Mobilising Private Funding of Development Finance*. The Journal of Development Studies, 57(6), 932–949. DOI: 10.1080/00220388.2021.1945042.

OECD (2018) *Rethinking Regional Development Policy-making*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/9789264293014-en.

Pluskota, P. (2023) *Comparative Analysis of the Use of Financial Instruments – Regional Perspective*. European Research Studies Journal, XXVI(3), 602–611. Available at: <https://ersj.eu/journal/3235/download>.

Sum, K., Radło, M.-J. & Mackiewicz, M. (2023) *The multilevel governance of financial instruments in regional development policy: the case of Poland*. Central European Management Journal, 31(3), 390–400. DOI: 10.1108/CEMJ-05-2022-0071.

Tang, M., Wang, X., Niu, W., Fu, J. & Zhu, M. (2021) *How financial development scale and R&D influence regional innovation efficiency: empirical evidence from the financial industry*. Environmental Science and Pollution Research, 28(11), 13633–13647. DOI: 10.1007/s11356-021-16862-3.



ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАШҚИ ҚАРЗ ВОСИТАЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Каримов Б.В.

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Мақолада инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағларидан фойдаланишнинг назарий асослари, халқаро тажрибалар ва уларнинг иқтисодий самарадорликка таъсири илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Жанубий Корея, Хитой, Туркия, Малайзия ва Европа Иттифоқи мамлакатларининг инфратузилмавий сиёсат тажрибаси асосида ташқи қарзларни самарали бошқаришнинг институционал ва молиявий механизмлари ёритилган. Муаллиф Ўзбекистон шароитида ташқи қарз маблағларини стратегик инфратузилма лойиҳаларига йўналтириш, давлат-хусусий шериклик моделларини ривожлантириш ва “яшил сукук” воситаларини жорий этиш орқали иқтисодий барқарорликни таъминлаш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиққан.

Калит сўзлар: *инфратузилма, ташқи қарз, иқтисодий ўсиш, молиялаштириш механизми, давлат-хусусий шериклик, қарз барқарорлиги, яшил сукук, институционал ислоҳотлар.*

Аннотация. *В статье исследуются теоретические основы использования внешних заимствований для развития инфраструктуры, а также анализируется международный опыт и его влияние на экономическую эффективность. Рассмотрены институциональные и финансовые механизмы управления внешним долгом в Южной Корее, Китае, Турции, Малайзии и странах Европейского Союза. Автор предлагает рекомендации для Узбекистана по направлению внешних заимствований на стратегические инфраструктурные проекты, развитию моделей государственно-частного партнёрства и внедрению инструментов «зелёных сукуков» для обеспечения устойчивого экономического роста и финансовой стабильности.*

Ключевые слова: *инфраструктура, внешний долг, экономический рост, механизм финансирования, государственно-частное партнёрство, устойчивость долга, зелёные сукуки, институциональные реформы.*

Abstract. *The article explores the theoretical foundations of utilizing external debt for infrastructure development, highlighting international experiences and their economic implications. It analyses the institutional and financial mechanisms of external debt management in South Korea, China, Turkey, Malaysia, and the European Union. Based on these models, the study provides policy recommendations for Uzbekistan on directing external borrowing toward strategic infrastructure projects, expanding public-private partnership (PPP) models, and introducing “green sukuk” instruments to enhance sustainable growth and debt stability.*

Keywords: *infrastructure, external debt, economic growth, financing mechanism, public-private partnership, debt sustainability, green sukuk, institutional reforms.*

1. Кириш.

Замонавий глобал иқтисодий тизимда инфратузилма салоҳияти мамлакатнинг рақобатбардошлиги, инвестициявий жозибадорлиги ва барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини белгилайдиган асосий омиллардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Хусусан, транспорт, энергетика, рақамли коммуникациялар, таълим ва соғлиқни сақлаш каби инфратузилма тармоқлари миллий иқтисодиётнинг таркибий асосини ташкил этади. Шу боис инфратузилмани молиялаштириш механизмларини самарали шакллантириш масаласи деярли барча давлатлар иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Бироқ инфратузилмавий лойиҳаларнинг узоқ муддатли ва юқори капитал талаб этувчи хусусияти, айниқса давлат бюджети маблағларининг чекланганлиги шароитида, молиялаштиришнинг альтернатив манбаларини излашни тақозо этади. Шу нуқтаи назардан ташқи қарз маблағларидан фойдаланиш иқтисодий ривожланишни таъминловчи муҳим институционал восита сифатида шаклланимоқда. Ташқи қарзлар давлатнинг молиявий имкониятларини кенгайтиради, стратегик аҳамиятга эга инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш имконини яратади ҳамда хусусий сектор фаолияти учун қулай иқтисодий муҳит шаклланишига хизмат қилади.

Шу билан бирга, ташқи қарз воситаларидан фойдаланиш икки томонлама табиатга эга жараён ҳисобланади. Бир томондан, у иқтисодий ўсишни рағбатлантирувчи ва инвестиция фаоллигини оширувчи омил бўлиб хизмат қилса, иккинчи томондан, қарз юқининг ортиши давлатнинг молиявий барқарорлиги ва макроиқтисодий мувозанатига хавф туғдириши мумкин. Шу сабабли, ташқи қарз маблағларидан самарали ва мақсадли фойдаланишнинг назарий ҳамда амалий асосларини илмий жиҳатдан асослаш долзарб аҳамият касб этади.

Мавзунинг долзарблиги шундаки, жаҳон амалиётида инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз воситалари орқали молиялаштириш давлатнинг узоқ муддатли инвестиция сиёсати ва иқтисодий стратегиясини белгилайдиган муҳим йўналиш сифатида қаралмоқда. Масалан, Хитой, Ҳиндистон, Туркия ва Жанубий Корея каби мамлакатлар ташқи қарз маблағларини самарали йўналтириш орқали инфратузилмани модернизация қилишга ва иқтисодий ўсиш суръатларини бир неча баробар оширишга эришган.

Ўзбекистон шароитида ҳам ташқи қарз маблағларини инфратузилма лойиҳаларига йўналтириш масаласи миллий иқтисодиётнинг барқарорлиги, ҳудудий ривожланиш ва янги иш ўринлари яратиш салоҳияти билан чамбарчас боғлиқдир. Шу муносабат билан, мазкур тадқиқотда инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарзлардан фойдаланишнинг назарий асослари, иқтисодий механизмлари ва институционал жиҳатлари илмий таҳлил этилади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағларидан фойдаланиш масаласи жаҳон иқтисодий адабиётида кенг ўрганилган бўлиб, турли илмий мактаблар ва олимлар бу жараённи иқтисодий ўсишнинг муҳим драйвери сифатида баҳолайдилар.

Илк назарий асослардан бири сифатида Ж. М. Кейнс (1936) томонидан ишлаб чиқилган “фискал мультипликатор” концепцияси алоҳида аҳамиятга эга. Муаллиф давлат харажатларини, жумладан қарз маблағлари ҳисобидан амалга оширилган сарфларни, иқтисодий фаолликни рағбатлантириш ва рецессияни енгишнинг самарали воситаси сифатида талқин қилади (Keynes, 1936). Кейинчалик ушбу ёндашув асосида инфратузилмага йўналтирилган сармоялар иқтисодий барқарорликни таъминловчи муҳим омил сифатида кўриб чиқилган.

Р. Барро (1990) ўзининг тадқиқотида давлат қарзлари орқали амалга оширилган инфратузилма сармоялари меҳнат унумдорлигини ошириш орқали ялпи ички маҳсулот

ўсишига ижобий таъсир кўрсатишини назарий жиҳатдан асослаб берган (Barro, 1990). Унинг фикрича, ташқи қарз маблағлари бюджет дефицитини қоплаш учун эмас, балки капитални кўпайтириш ва иқтисодий фаолликни рағбатлантиришга йўналтирилгандагина самарали натижа беради.

Т. Танзи ва Ҳ. Зи (2000) давлат молиясида ташқи қарзларнинг ўрнини таҳлил қилиб, инфратузилмага йўналтирилган қарзлар “ўзини қопловчи” хусусиятга эга бўлиши мумкинлигини таъкидлайдилар (Tanzi & Zee, 2000). Яъни тўғри бошқарув ва самарали назорат шароитида қарз маблағлари орқали яратилган инфратузилма кейинчалик иқтисодий фаоллик орқали қарзни қайтариш имкониятини яратади.

Калдерон ва Серра (2004) 100 дан ортиқ мамлакат маълумотлари асосида ўтказган эмпирик таҳлил натижаларига кўра, инфратузилмавий сармояларнинг 1%га ошиши ялпи ички маҳсулот ўсишини ўртача 0,2–0,3%га тезлаштириши мумкин (Calderón & Servén, 2004). Муаллифлар инфратузилмани ташқи молиялаштиришнинг стратегик йўналиши сифатида қараб, унинг иқтисодий ўсишга тўғридан-тўғри таъсирини илмий асослаб берганлар.

Шу билан бирга, Эстерли ва Ребелонинг (1993) тадқиқотларида ташқи қарз орқали молиялаштирилган инфратузилма лойиҳаларининг самарадорлиги асосан институтлар сифатидан, яъни бошқарув ва назорат тизимларининг самарадорлиги билан боғлиқ экани таъкидланган (Easterly & Rebelo, 1993).

К. Рейнхарт ва К. Рогофф (2010) ташқи қарз юкининг иқтисодий ўсишга нисбатан чегаравий таъсирини таҳлил қилиб, давлат қарзининг ЯИМга нисбати 90%дан ошганда иқтисодий ўсиш суръатлари пасайиш тенденцияси кузатилади, деган хулосага келганлар (Reinhart & Rogoff, 2010). Шу боис, инфратузилмани молиялаштиришда ташқи қарзнинг барқарор ҳажмини сақлаш муҳим ҳисобланади.

Жаҳон банки (2019) маълумотларига кўра, ривожланаётган мамлакатларда инфратузилма инвестицияларининг тахминан 35–40%и ташқи қарз маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади. Хисоботда қайд этилишича, ушбу маблағларни самарали бошқариш иқтисодий самарадорлик ва макроиқтисодий барқарорликни таъминловчи асосий омиллардан биридир (World Bank, 2019).

Халқаро валюта жамғармаси (IMF, 2020) эса ташқи қарз воситаларини баҳолашда “Debt Sustainability Framework” (DSF) методологиясидан фойдаланиш зарурлигини таъкидлаб, мамлакатлар инфратузилмани молиялаштиришда узоқ муддатли барқарорликни инobatга олиши кераклигини кўрсатади (IMF, 2020).

А. Гринспеннинг (2002) фикрича, ташқи қарз иқтисодиёт учун “қисқа муддатли қувватлантирувчи”, аммо нотўғри йўналтирилган тақдирда “узоқ муддатли хавф манбаи” бўлиши мумкин. Шу сабабли, у инвестициянинг иқтисодий самараси ва лойиҳа мониторинги тизимини мустаҳкамлаш зарурлигини таъкидлайди (Greenspan, 2002).

Яқин йиллардаги тадқиқотлар (Kharas, 2017; Lee, 2019) ҳам ташқи молиялаштиришнинг самарадорлиги мамлакатнинг институционал муҳити, қарз бошқарув тизими ва давлат-хусусий шериклик механизмлари билан чамбарчас боғлиқ эканини кўрсатади. Ушбу муаллифлар фикрича, инфратузилмага йўналтирилган ташқи қарзлар “ўсишни тезлаштирувчи” омил сифатида намоён бўлиши мумкин, аммо самарасиз бошқарилган тақдирда “қарз хавфини кучайтирувчи” омилга айланади.

Шундай қилиб, мавжуд илмий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағларидан фойдаланиш иқтисодий ўсишга ижобий таъсир кўрсатади. Бироқ бу таъсирнинг даражаси мамлакатнинг институционал сифат даражаси, молиявий масъулият даражаси ва амалга оширилаётган лойиҳаларнинг самарадорлиги билан узвий боғлиқдир.

3.Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотда тизимли ва қиёсий таҳлил усуллари асосида ташқи қарз воситаларининг инфратузилмани ривожлантиришдаги иқтисодий ва институционал таъсири ўрганилди. Илмий ишда халқаро тажриба (Хитой, Туркия, Жанубий Корея, Малайзия ва Европа Иттифоқи мамлакатлари) маълумотлари таҳлил қилинди. Асосий усуллар сифатида статистик таҳлил, қиёсий иқтисодий баҳолаш ва моделлаштириш усулларидан фойдаланилди. Маълумотлар Жаҳон банки, ХВЖ ва OECD ҳисоботлари асосида таҳлил қилинди. Тадқиқотда давлат-хусусий шериклик ва “яшил сукук” воситалари самарадорлиги баҳоланди. Олинган натижалар Ўзбекистон шароитида ташқи қарз сиёсатини такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқишга хизмат қилди.

4.Таҳлил ва натижалар.

Жаҳон амалиёти шуни кўрсатадики, инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағлари кўплаб давлатлар учун иқтисодий ўсишнинг асосий молиявий манбаига айланган. Айниқса, ривожланаётган мамлакатлар учун ташқи қарз орқали молиялаштириш инфратузилмавий лойиҳаларни амалга оширишнинг муҳим воситаси сифатида намоён бўлмоқда. Ривожланган давлатларда эса бундай маблағлар, асосан, стратегик инфратузилмани модернизация қилиш ва рақамли инфратузилмани кенгайтиришга йўналтирилган.

Куйидаги жадвалда турли мамлакат гуруҳларида ташқи қарзнинг умумий инфратузилма сармоясидаги улуши таққослама тарзда келтирилган. Ушбу маълумотлар ташқи молиялаштиришнинг жаҳон иқтисодий тизимида тутган ўрни ва унинг инфратузилмани ривожлантиришдаги аҳамиятини яққол намоён этади.

1-жадвал

Ташқи қарз ҳисобига молиялаштирилган инфратузилма сармояларининг улуши (%)

| Мамлакат | Ташқи қарз ҳисобига молиялаштирилган инфратузилма сармояси, % | Асосий соҳалар | Манба |
|---------------|---|---|-------------------|
| Хитой | 32 | Транспорт, энергетика, шаҳарсозлик | World Bank (2022) |
| Ҳиндистон | 27 | Йўллар, темир йўл, сув таъминоти | IMF (2020) |
| Туркия | 35 | Транспорт, аэропортлар, энергетика | OECD (2021) |
| Жанубий Корея | 18 | Ахборот технологиялари, саноат парклари | ADB (2020) |
| Малайзия | 21 | Энергетика ва “яшил инфратузилма” | UNESCAP (2022) |
| Ўзбекистон | 25 | Транспорт, сув хўжалиги, энергетика | |

Жадвал маълумотларининг таҳлили шуни кўрсатадики, ривожланаётган мамлакатларда инфратузилма сармояларининг ўртача 25–35 фоизи ташқи қарз маблағлари ҳисобига молиялаштирилмоқда. Бу ҳолат давлат бюджетининг чекланган имкониятлари шароитида ташқи молиялаштириш манбалари иқтисодий ўсишни

таъминлашда муҳим роль ўйнаётганини англатади. Хусусан, ташқи қарзлар орқали амалга оширилаётган инфратузилмавий лойиҳалар мамлакатларнинг транспорт, энергетика ва рақамли инфратузилма соҳаларидаги рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон учун илмий тавсия сифатида таъкидлаш мумкинки, инфратузилмани молиялаштиришда Туркия ва Малайзия тажрибасига ўхшаш давлат-хусусий шериклик моделларини кенг жорий этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу ёндашув, бир томондан, давлат қарз юкини камайтирса, иккинчи томондан, лойиҳаларни бозор механизмлари асосида самарали бошқариш имконини яратади. Шу билан бирга, миллий молия институтларининг иштирокини кенгайтириш ва хусусий секторнинг инвестицион фаоллигини рағбатлантириш орқали инфратузилмавий ривожланишнинг барқарорлигини таъминлаш мумкин.

Жанубий Кореяда инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарзлардан фойдаланиш 1960–1980-йилларда мамлакат иқтисодий тараққиётининг асосий драйверларидан бирига айланган. Корея ҳукумати ташқи молиялаштириш манбаларини фақат юқори иқтисодий самараси бўлган лойиҳаларга йўналтирган ҳамда “қарз барқарорлигини баҳолаш тизими”ни жорий этган (Lee, 2019). Ушбу тизим “қарз маблағларининг ҳар бир доллари қанчалик ЯИМ ўсишига ҳисса қўшади” деган мезонга асосланган бўлиб, ташқи молиялаштириш самарадорлигини аниқ баҳолаш имконини берган. Натижада, 1980-йиллар охирига келиб, Жанубий Корея ташқи қарз юкини ЯИМга нисбатан 40 фоиздан 17 фоизгача қисқартиришга муваффақ бўлган.

Ўзбекистон ҳам Жанубий Кореяга ўхшаш Қарз барқарорлигини баҳолаш миллий тизимини шакллантириш мақсадга мувофиқ. Бу тизим ҳар бир лойиҳанинг иқтисодий самараси, инвестиция рентабеллиги ва соҳавий самарадорлигини баҳолаш орқали ортиқча қарзга ботиш хавфини камайтиради ҳамда молиявий барқарорликни таъминлайди.

Хитой Халқ Республикаси ташқи қарз маблағларини фақат стратегик аҳамиятга эга бўлган инфратузилма лойиҳаларига йўналтириш орқали “инфратузилма орқали ўсиш” моделини шакллантирди. Жаҳон банки маълумотларига кўра, 1990–2015 йилларда мамлакат ташқи қарз портфелида инфратузилма лойиҳаларининг улуши 40 фоиздан ортиқни ташкил этган (World Bank, 2022). Бу сиёсат транспорт, энергетика ва коммуникация соҳаларидаги “бўғинлар”ни бартараф этиб, иқтисодий ҳудудлар интеграциясини тезлаштирган ва ички бозорларнинг ўзаро боғлиқлигини кучайтирган.

Ўзбекистон Хитой тажрибасидан келиб чиқиб, ташқи қарз маблағларини регионал инфратузилмавий лойиҳаларга йўналтириш тавсия этилади. Масалан, Тошкент–Самарқанд–Бухоро–Хоразм транспорт коридорлари ёки “яшил энергетика занжири” каби лойиҳалар нафақат иқтисодий ўсишни рағбатлантиради, балки минтақавий интеграцияни ҳам кучайтиради.

Туркияда 2000-йиллардан бошлаб инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишда Public-Private Partnership моделлари кенг жорий этилди. Масалан, Истанбулнинг учинчи аэропорти, Босфор туннели ва йирик автомагистраллар хорижий кредитлар ҳамда хусусий сармоялар ҳисобига қурилган (OECD, 2021). Бу моделнинг афзаллиги шундаки, ташқи қарз юки тўғридан-тўғри давлат балансида эмас, балки лойиҳа операторлари ва шериклик компаниялари ҳисобида акс эттирилади.

Ўзбекистон учун инфратузилмавий лойиҳаларда ташқи молиялаштиришни тўғридан-тўғри давлат эмас, лойиҳа компаниялари орқали жалб этиш тизимини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу молиявий хавфларни тақсимлашга, давлат бюджети барқарорлигини сақлашга ва лойиҳалар самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Малайзия ташқи молиялаштириш тизимида “яшил сукуклар” (Green Sukuk) орқали экологик йўналтирилган инфратузилма лойиҳаларини қўллаб-қувватлашни йўлга қўйган. 2017 йилда мамлакат давлат даражасида биринчи бўлиб “Green Sukuk” чиқарган

ва уни энергия самардорлиги ҳамда қайта тикланувчи манбаларга йўналтирган (ИФМ, 2021). Бу молиялаштириш усули мамлакатга халқаро бозорларда барқарор сармояларни жалб этиш имконини берган ва миллий экологик сиёсатни молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаган.

Ўзбекистонда ташқи қарз асосида яшил инфратузилма лойиҳаларини (масалан, қуёш ва шамол электр станциялари) молиялаштириш учун “яшил евробондлар” ёки “сукук” каби воситаларни жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу нафақат иқтисодий самара, балки экологик барқарорликни ҳам таъминлайди.

Европа Иттифоқи давлатларида ташқи қарз ҳисобига амалга ошириладиган лойиҳалар асосан European Investment Bank (EIB) орқали молиялаштирилади. Бу жараёнда “Project Appraisal Framework” тизими жорий этилган бўлиб, ҳар бир лойиҳа молиявий, ижтимоий ва экологик мезонлар бўйича баҳоланади (European Commission, 2020). Бундай ёндашув ташқи қарз маблағларидан фойдаланишда шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлайди, ҳамда коррупция хавфини сезиларли даражада камайтиради.

Ўзбекистон учун ташқи қарз маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган ҳар бир лойиҳани иқтисодий-ижтимоий таъсир баҳолаш тизими орқали текшириш ва уни институционал даражада расмийлаштириш тавсия этилади. Бу механизм молиялаштириш самардорлигини оширади ҳамда давлат молиявий сиёсатининг шаффофлигини мустаҳкамлайди.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон шароитида халқаро тажриба таҳлили асосида қуйидаги учта устувор йўналишда ҳаракат қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

1. Қарз барқарорлигини баҳолаш миллий механизмининг яратиш. Бу тизим ҳар бир ташқи молиялаштириш лойиҳасининг иқтисодий самардорлиги, инвестиция рентабеллиги ва давлат қарзига таъсирини баҳолаш имконини яратади. Натижада, ортиқча қарзга ботиш хавфи камаяди ва давлат молиявий барқарорлиги таъминланади.

2. Давлат-хусусий шериклик асосида молиялаштиришни кенгайтириш. Ушбу ёндашув давлатнинг қарз юкини камайтиради, инфратузилмавий лойиҳаларни бозор механизмлари орқали самарали амалга оширишга имкон беради ҳамда хусусий сектор фаоллигини рағбатлантиради.

3. “Яшил” ва “инновацион” инфратузилма лойиҳаларини молиялаштириш учун халқаро воситаларни жалб этиш. Жумладан, “яшил сукуклар” ва халқаро облигациялар орқали қайта тикланувчи энергия, экологик инфратузилма ва рақамли технологиялар соҳасидаги лойиҳаларни молиялаштириш мамлакатнинг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлайди.

5. Хулоса.

Инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағларидан фойдаланиш бу нафақат молиявий зарурат, балки иқтисодий ўсишни барқарорлаштириш ва миллий рақобатбардошликни оширишнинг стратегик воситасидир. Назарий жиҳатдан, ташқи қарзлар иқтисодий фаолликни рағбатлантирувчи молиявий мультипликатор эффекти, эндоген ўсиш назарияси ҳамда институционал иқтисодиёт модели билан узвий боғлиқдир.

Ўзбекистон шароитида ташқи қарз маблағларининг катта қисми инфратузилмани модернизация қилишга йўналтирилаётгани ижобий тенденция ҳисобланади. Бу мамлакатнинг иқтисодий салоҳиятини ошириш, янги иш ўринлари яратиш ва ички бозор интеграциясини кучайтиришга хизмат қилмоқда. Бироқ, мазкур жараённи янада самарали ташкил этиш мақсадида қуйидаги устувор йўналишларда ҳаракат қилиш мақсадга мувофиқ:

✚ Қарз барқарорлигини баҳолаш миллий тизимини яратиш. Ҳар бир янги ташқи қарз лойиҳаси иқтисодий, ижтимоий ва экологик самараси нуқтаи назаридан

баҳоланиши зарур. Бу орқали молиявий барқарорлик ва узоқ муддатли қарз сиёсатидаги масъулият таъминланади.

✚ Давлат-хусусий шерикликни кенгайтириш. Туркия моделига ўхшаш равишда йирик инфратузилма лойиҳаларини хусусий шериклар билан ҳамкорликда амалга ошириш давлатнинг молиявий юкини камайтиради ва инвестиция самарадорлигини оширади.

✚ Яшил молия воситаларини жорий этиш. Малайзия тажрибасидаги каби “яшил сукуклар” ва “яшил евробондлар” орқали қайта тикланувчи энергия ҳамда экологик тоза инфратузилма лойиҳаларини молиялаштириш зарур. Бу нафақат иқтисодий, балки экологик барқарорликни ҳам таъминлайди.

✚ Институционал назорат ва баҳолаш тизимини кучайтириш. Европа Иттифоқи тажрибасидаги “Project Impact Assessment” тизими асосида ҳар бир лойиҳанинг ижтимоий-иқтисодий таъсирини баҳолаш орқали шаффофлик ва ҳисобдорлик даражаси оширилади.

✚ Регионал инфратузилмавий занжирларни ривожлантириш. Хитой моделига асосан транспорт ва энергетика тармоқлари орқали ҳудудий интеграцияни чуқурлаштириш иқтисодий фаолликни кенгайтириши мумкин.

Шу тарзда, инфратузилмани ривожлантиришда ташқи қарз маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги фақат молиявий чоралар билан эмас, балки институционал, ташкилий ва стратегик ёндашув орқали таъминланади. Бу жараённинг муваффақияти Ўзбекистоннинг иқтисодий мустақиллиги, барқарор ўсиши ва ташқи молиявий хавфсизлигини кафолатлайди.

Адабиётлар:

ADB (2020). Asian Infrastructure Finance Report. Manila: Asian Development Bank.

Barro, R.J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103–S125.

Calderón, C. & Servén, L. (2004). The Effects of Infrastructure Development on Growth and Income Distribution. Policy Research Working Paper 3400, The World Bank.

Easterly, W. & Rebelo, S. (1993). Fiscal Policy and Economic Growth: An Empirical Investigation. *Journal of Monetary Economics*, 32(3), 417–458.

European Commission (2020). Cohesion Policy and Infrastructure Governance. Brussels: EU Publications.

Greenspan, A. (2002). Economic Volatility. Jackson Hole Symposium, Federal Reserve Bank of Kansas City.

IMF (2020). Debt Sustainability Framework for Low-Income Countries. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

IIFM (2021). Global Sukuk Report. Manama: International Islamic Financial Market.

Kharas, H. (2017). Infrastructure for Sustainable Development. Brookings Institution Report.

Keynes, J.M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.

Lee, K. (2019). Schumpeterian Analysis of Economic Catch-Up: Knowledge, Path-Creation, and the Middle-Income Trap. Cambridge University Press.

Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan (2024). Annual Report on Public Debt Management. Tashkent.

OECD (2021). Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principles for Good Governance. Paris: OECD Publishing.

Reinhart, C.M. & Rogoff, K.S. (2010). Growth in a Time of Debt. *American Economic Review*, 100(2), 573–578.

Tanzi, V. & Zee, H. (2000). Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries. IMF Working Paper No.00/35.

World Bank (2019). Global Economic Prospects: Darkening Skies. Washington, D.C.: World Bank Publications.

World Bank (2022). Infrastructure Financing Trends in Developing Economies. Washington D.C.: World Bank.

UNESCAP (2022). Financing for Sustainable Infrastructure in Asia and the Pacific. Bangkok: United Nations.



МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Иқтисод фанлари доктори, профессор Курбанов З. Н.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

Аннотация. Ушбу мақолада рақамли молиявий активларнинг бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари ёритилган. Хориж тажрибасидан фойдаланилган ҳолда криптовалюта оперецияларини бухгалтерия ҳисобида ҳисобга олиш бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: молиявий актив, рақамли молиявий актив, рақамли валюта, криптавалюта, даромад, бухгалтерия ҳисоби, солиқ, солиққа тортиш.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические вопросы бухгалтерского учета цифровых финансовых активов. Используя зарубежный опыт, вносятся предложения по учету операций с криптовалютой.

Ключевые слова: финансовый актив, цифровой финансовый актив, цифровая валюта, криптовалюты, доход, бухгалтерский учет, налог, налогообложение.

Annotation: This article discusses the theoretical issues of accounting for digital financial assets. Using foreign experience, proposals are made for accounting transactions with cryptocurrency.

Keywords: financial asset, digital financial asset, digital currency, cryptocurrencies, income, accounting, tax, taxation.

1. Кириш. Жаҳон ва мамлакатимиз иқтисодиётини рақамлаштириш жараёни бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари қайта кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқармоқда. Бу шароитда бухгалтерия ҳисобининг мавжуд моделларини, объекти ва методларини иқтисодиётини рақамлаштириш жараёнига мослаштириш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисобот шакллари молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига уйғунлаштириш зарур.

Халқаро амалиётни ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатлар ва иқтисодчи олимлар, амалиётчи бухгалтерлар молиявий активларни бухгалтерия ҳисобининг методологияси борасида ягона фикрга келишгани йўқ. Бу эса рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби методологиясини такомиллаштиришни талаб этади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисоби қандай ташкил этилади ва унинг методологиясида нималар ўзгаради? Рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш амалиёти қандай бўлади. Рақамли молиявий активлар бухгалтерия ҳисоби амалиётини ташкил этишда қайси

МХХСларидан фойдаланиш борасида иқтисодчиларнинг фикрлари турлича.

МХХС кенгаши (FASB) 2019 йилдаги йиғилишида криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби масаласини муҳокама қилиб, унинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисоботда акс эттириш муаммоси бўйича расмий кўрсатмалар берди. Молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг концептуал асослари молиявий ҳисоботларнинг элементларини аниқлаш ва тан олиш билан боғлиқ ҳолда, криптовалюта инвестиция учун сотиб олинган ва фаол бозорга эга бўлган номоддий активлар таърифига жавоб бериши белгиланган. Шунга асосланган ҳолда криптовалютанинг ҳисобини МХХС 38-“Номоддий активлар” стандартга мувофиқ олиб бориш лозим.

И.В.Киселева, Н.В.Кулишларнинг (2022) ёзишича бухгалтерия ҳисобининг янги модели интеграцион-технологик модел деб аташимиз мумкин, унинг моҳияти шундан иборатки, иқтисодий субъект ахборотларини янги информацион технологиялар ёрдамида ягона ахборотлар майдонига йўналтиради.

Л.И.Куликова ва П.З.Мухаметзяновлар (2022) бу борада қуйидаги фикрларни билдиришган:“Янги технологиялар, рақамли сервислар, криптовалюта, рақамли молиявий активларнинг пайдо бўлиши, бухгалтерия ҳисобининг янги объектларини шаклланиши, уларни ҳисобга олиш учун стандартлар ишлаб чиқиш ҳамда молиявий ҳисобот кўрсаткичларини кенгайтиришни зарурият қилиб қўяди”.

Т.М. Одинцовани (2021) фикрича, Худди шу йили Америка дипломли бухгалтерлар институти (US GAAP) бухгалтерлари учун тушунтиришлар беради ҳамда криптовалюта номоддий актив эканлигини аниқлади. Шунга кўра, рақамли иқтисодиётда бухгалтерия ҳисоби ривожланишининг ҳозирги босқичида фан соҳаси ва услубий жиҳатдан кенгайтириш, мантиқий бухгалтерия базаси, тизимнинг мослашувчанлиги ва бошқарувнинг ахборот эҳтиёжларига мослаштирилиши зарур.

О.В.Лосева (2022) ва бошқалар қуйидаги таърифни берган:Рақамли актив деганда биз мулк турини (иқтисодий актив, сотиладиган фуқаролик ҳуқуқлари объекти) тушунамиз, номоддий хусусиятга эга ва рақамли технологиядан фойдаланган ҳолда яратилган рақамли шаклга, ахборот тизимидаги қиймат (нарх) эга ва фуқаролик (мулк) айланмага қодир. Рақамли актив иқтисодий (қиймат), юридик (ҳуқуқий) ва технологик моҳиятини бирлаштиради.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши асосида активларнинг таркибида ўзгаришлар бўлиб, номоддий активларнинг улуши ошиб боради. Бу шароитда хўжалик юритувчи субъектлар операцияларни ягона регистрга ёзади ва сақлайди. Бухгалтерия ҳисоби ахборотлари ягона регистрининг устунлик томони шундаки, бу шароитда ҳисоб ахборотларини бузиб кўрсатиш ёки йўқ қилиб юборишни имкони бўлмайди. Чунки ахборотлар тақсимлаш ва криптография тизимлари билан ҳимояланган бўлади. Баъзи иқтисодчилар бу тизимни “уч ёқлама ёзув” деб аташмоқда. Н.В.Емельяновнинг[2019] фикрича, бу тизим ривожланади ва молиявий ҳамда номолиявий ҳисоботларнинг ишончли базасига айланади.

А.В.Бодяко, С.В.Пономарева, Т.М.Рогуленколар (2021) крипто-активларни захира сифатида ҳисобга олишни таклиф этишган: МХХС (IAS) 2 “Захиралар” одатдаги бизнес жараёнида сотиш учун сақланган крипто активларга нисбатан қўлланилиши мумкин.

А.А.Романов ва П.А.Романовлар (2022) криптовалютани қуйидагича изоҳлайди: Ҳозиргача бу ҳодисанинг аниқ таърифи йўқ, аммо, криптовалюталар молиявий воситаларнинг янги синфи эканлигини тушуниш бор. Рақамли валюта қўйма олтинга, акция ёки облигацияга ўхшамайди, биринчи навбатда, минглаб компьютерлар тармоғида ишлайдиган технология, дастурдир. Биткоин иштирокчиларнинг ишонч муаммосини ҳал қилишга муваффақ бўлган биринчи криптовалютага айланди. Сўнгги йилларда криптовалюталар, хусусан, биткоин“глобал рақамли валюта” сифатида ўз позицияларини сезиларли даражада мустаҳкамлади: глобал криптовалюта бозорининг

капиталлашуви 2021-йилнинг ноябрь ойи уч триллион АҚШ долларидан ошди ва 2021-йилда ушбу бозордаги кунлик савдо айланмаси 300 миллиард долларга етди.

Р.М.Гайбуллаевнинг(2022) фикрича, блокчейн технологиясини бухгалтерия ҳисобида фойдаланиш жуда катта салоҳиятга эга бўлиб, у муайян қоидаларга мувофиқ чизиқли “блоклар” занжири ҳисобланади. Бу марказлаштирилмаган бошқарувда ягона маълумотлар базаси бўлиб, у кўплаб компьютерларга тақсимланади. Блокчейн кўпинча “тарқатилган маълумотлар базаси” деб ҳам номланади.

Н. В. Анохина ва А. И. Шмырева(2018) қайд этишича “криптовалюта - бу молия бозорининг янги воситаси ҳисобланади. ... Бундан ташқари, пулнинг асосий назарияси қийматнинг меҳнат назариясига асосланади (товарлар ва хизматларнинг нархи уларга инвестиция қилинган инсон меҳнатининг миқдорига боғлиқ), криптовалюта - блокчейн асосидаги технология компьютер кучи ва сақланган энергия комбинациясининг нархини белгилайди”. Рақамли молиявий активлар - пул талаблари, қимматли қоғозлар бўйича ҳуқуқларни амалга ошириш қобилияти ва нодавлат АЖ капиталида иштирок этиш ҳуқуқларини ўз ичига олган рақамли ҳуқуқдир.

Рақамли молиявий актив ва рақамли валюта(2022) ўртасидаги асосий фарқ шундаки, рақамли молиявий активларнинг эмитенти, яъни криптовалюта эгаси олдидаги мажбуриятлар учун жавобгар бўлган шахс мавжуд. Рақамли валюта электрон маълумотлар эгаси мажбурий шахсга эга эмас, лекин рақамли валюта банкрот бўлган тақдирда мулк ҳисобланади. Криптовалютани тўлов воситаси сифатида ишлатиш мумкин эмаслиги ҳақиқатда уни пулнинг асосий хусусиятларидан биридан маҳрум қилади, бу ҳам қиймат ўлчови ва жамғариш воситасини ўз ичига олади.

В.Авдеевнинг қарашича (2023), Россия қонунчилигига асосан криптавалюта “рақамли валюта” деб аталади.Рақамли валюта - рубл ёки чет эл валютаси бўлмаган тўлов воситаси сифатида ишлатилиши мумкин бўлган электрон маълумотлар тўплами. Ушбу маълумотлар бўйича сизнинг олдингизда ҳеч ким жавобгар эмас, ушбу ахборот тизимининг қоидаларига мувофиқ чиқишни таъминлайдиган ва киритишни таъминлайдиган тизим операторлари (тугунлари) бундан мустасно.

Юқоридагиларга асосланган ҳолда, бизнинг фикримизча, криптовалюта — махсус кодлар орқали ҳимояланган рақамли молиявий актив бўлиб, жўнатма операцияларида пул ўрнида ишлатилади. Рақамли иқтисодий шаклланиши шароитида криптавалюта операциялари бухгалтерия ҳисоби ва солиққа тортиш объекти бўлиб ҳисобланади.

3.Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотда криптовалютани шаклланиши ва у билан боғлиқ операцияларни бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш ва молиявий ҳисоботларда акс эттириш масалалари иқтисодий адабиётлари ҳамда меъёрий ҳужжатлар асосида таҳлил қилинди. Тадқиқот жараёнида хорижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш, таққослаш, гурўлаштириш усулларидан фойдаланган ҳолда хулосалар қилинди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Жаҳон амалиётида электрон пуллардан ташқари, рақамли валюталарнинг қуйидаги турлари-криптовалюта, стейблкоин ва марказий банкнинг рақамли валютаси амал қилади (1-расм).


Расмдан кўриниб турибдики, рақамли валюта асосан икки гуруҳга бўлинади: виртуал валюталар ва электрон валюталарга. Биз юқорида криптовалютага тўхталиб, унинг иқтисодий моҳиятини очишга ҳаракат қилдик. Виртуал валютанингкейинги шакли бўлган-стейблкоин тушунчасига тўхталиб ўтамиз.

Стейблкоинлар рақамли валюта бўлиб, унинг барқарорлиги бошқа, камроқ ўзгарувчан активнинг қийматида боғланган ҳолда таъминланади. Аслида, улар Бреттон-

Вудс молиявий тизими даврида фиат валюталарининг рақамли форматини ифодалайди.

Фиат валютаси давлатнинг расмий пул бирлиги бўлиб, у ўзининг номинал қийматига эга, масалан, ўзбек сўми, Россия рубли, АҚШ доллари, Хитой юани ва бошқалар.

Иқтисодий адабиётларда (2018) жаҳон валюта тизимининг 4 тури ажратиб кўрсатилади. Хусусан: Париж валюта тизими (1867 й.), Генуя валюта тизими (1922 й.), Бреттон-Вудс валюта тизими (1944 й.) ва Ямайка валюта тизими (1976 й.).



1-расм.Электрон валюталарнинг шакллари.

Бреттон-Вудс жаҳон валюта тизими. Учинчи жаҳон валюта тизими 1944 йилда Бреттон-Вудс (А Ш)да бўлиб ўтган, валюта ва молия масалаларига бағ ишланган анжуманда иштирокчи мамлакатлар келишуви билан расмийлаштирилган. Ушбу анжуманда жаҳоннинг 44 давлатидан 730 та вакил иштирок этган. Айнан мазкур анжуманда Халқаро валюта фонди ва Халқаро тикланиш ва тарақиёт банкига асос солинган.(Жумаев, 2018)

БМТ Бош котибининг биринчи ўринбосари Амина Муҳаммад (2023) “Глобал молия архитектурасига тузатиш киритиш зарур” мавзудаги анжуманда чиқиш қиларкан, жаҳон молиявий архитектураси номукамал эканини қайд этди.

Маълум қилинишича, бугунги кунда ўта қашшоқ аҳолиси нисбатан кўп 53 ривожланаётган мамлакат қарзга ботган. Бу давлатларнинг 25 таси ўз даромадининг 20 ёки янада кўпроқ фоизини фақат ташқи қарзни тўлашга сарфламоқда.

Ушбу муаммолар жаҳон молия архитектураси мукамал эмаслигини кўрсатади. Биз тизимга тузатиш киритишимиз ва янги Бреттон-Вуд тизимини шакллантиришимиз керак.

Бреттон-Вудс тизимига кўра (2023), бир троя унция (31,1 грамм оғирликда) олтиннинг қатъий ва ўзгармас баҳоси 35 АҚШ доллари қилиб белгиланди. Конференция қатнашчилари халқаро тўловларда олтин ўрнига долларда ҳисоб-китоб қилишга келишиб олишди. Бу долларнинг олтинга тенглаштирилиши эди.

Рақамли валюталар тўғрисида умумий маълумотларга эга бўлдик, энди уларни бухгалтерия ҳисобида ва молиявий ҳисоботда қандай акс эттириш масалаларини ёритишга ҳаракат қиламиз.

Халқаро амалиётда молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг концептуал асослари молиявий ҳисоботларнинг элементларини аниқлаш ва тан олиш билан боғлиқ ҳолда, криптовалюта инвестиция учун сотиб олинган ва фаол бозорга эга бўлган номоддий активлар таърифига жавоб бериши белгиланган. Шунга асосланган ҳолда криптовалютанинг ҳисобини МҲҲС 38-“Номоддий активлар” стандартга мувофиқ олиб бориш белгиланган.

Агар криптовалюта сотиш учун мўлжалланган бўлса, у ҳолда МҲҲС (IAS) 2 “Захиралар” стандарти қўлланилади.

Россия Федерацияси Молия вазирлигининг тегишли меъёрий ҳужжатларига асосан[2020] токенларни сотиб олиш ва ҳисобдан чиқаришда қуйидаги бухгалтерия ёзувлари қилиниши белгиланган:

1.Токен қиймати мол етказиб берувчиларга тўланганда:

Дт сёт-60 “Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоб китоблар”

Кт сёт-51 “Ҳисоб китоб сёти”;

Токен қиймат захира сифатида ҳисобга олинганда:

Дт сёт-10 “Материаллар”;

Мол етказиб берувчилардан товар-моддий захираларни харид қилишда ҳисобга олинган ҚҚС суммаси:

Дт сёт-19 “Сотиб олинган қийматликлар бўйича қўшилган қиймат солиғи”

Кт сёт-60 “Мол етказиб берувчилар ва пудратчилар билан ҳисоб китоблар;”

Ҳисобга олинган ҚҚС суммасига:

Дт сёт-68 “Солиқлар ва йиғимлар бўйича ҳисоб китоблар”

Кт сёт-19 “Сотиб олинган қийматликлар бўйича қўшилган қиймат солиғи”;

Ҳисобдан чиқарилган токен қийматини фаолият турлари бўйича харажатларга олиб бориш:

Дт сёт-26 “Умумхўжалик харажатлари”

Кт сёт-10 “Материаллар” (Бодяко,2020)

Украинада (2022) эса криптовалюталарни 15 -“Капитал инвестициялар” счет орқали бухгалтерия ҳисобида акс эттириш таклиф этилган.

Энди мамлакатимиз рақамли молиявий активлар ёки крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисоби қандай ташкил этилганлигини кўриб чиқамиз.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий ва Молия вазирлиги ҳамда Солиқ қумитасининг (14 декабрь 2022 йил № 06/17-01-32/278 14 декабрь 2022 йил № 2022-42) Крипто-активлар операцияларининг бухгалтерия ҳисоби тўғрисида АХБОРОТ ХАБАРИДА[18] бирламчи бухгалтерия ҳужжатларида, агар мажбурий реквизитлар мавжуд бўлса, Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни талабларига мувофиқ қўшимча реквизитлар бўлиши мумкин. Крипто активлари ҳақида маълумот уларни олиш усули ва мақсадига қараб крипто-активлари айланмаси соҳасидаги ташкилотларнинг, шу жумладан, номоддий активларни ёки товар моддий захираларни ҳисобга олиш учун мўлжалланган бухгалтерия ҳисобварақларида майнинг

билан шуғулланадиганларнинг бухгалтерия ҳисобида акс этади. Бунинг учун ҳисобкитобларнинг иш режасида крипто-активларининг қийматини ҳисобга олиш учун тегишли ҳисоб гуруҳларида алоҳида ҳисобларни аниқлаш мақсадга мувофиқ.

Крипто-активлари айланмаси соҳасидаги ташкилотлар фаолиятининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, крипто-активларининг аналитик ҳисоби уларнинг турлари, идентификация хусусиятлари бўйича амалга оширилиши мумкин. Агар крипто-активлари номоддий активларнинг бир қисми сифатида тан олиниши шартларига жавоб берса, унда бундай активларни ҳисобга олиш 7-3 сонли “Номоддий активлар” Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартига (БҲМС) (рўйхат рақами 1485-сон 27.06.2005) мувофиқ белгиланган тартибда амалга оширилади. 7-сонли БҲМС маълумотларига кўра, номоддий активнинг қиймати унинг фойдаланиш муддати давомида амортизация ҳисобига тўланади. Агар номоддий активнинг фойдаланиш муддатини аниқлашнинг иложи бўлмаса, амортизация ставкалари беш йилга белгиланади. Амортизация харажатлари 7-сонли БҲМС томонидан белгиланган усуллар ва тартибда амалга оширилади. Амалдаги амортизация усули ва номоддий активнинг фойдаланиш муддатини қайта кўриб чиқиш корхонанинг ҳисоб сиёсатида акс эттирилиши шарт. Крипто-активларини электрон платформаларда ёки хизмат курсатувчи провайдерларнинг бошқа платформаларида (крипта алмашинуви ёки крипто дўкони) крипто активларини айирбошлаш соҳасида сотиш учун сотиб олинган бўлса, 4-сонли “Товар-моддий захиралари” БҲМСда (рўйхат рақами 3259-сон, 30.06.2020) белгиланган тартибда ушбу активлар товарлар таркибида энг паст иккита қийматдан бири бўйича - ҳақиқий таннархда (сотиб олиш нархида) ёки реализация қилинадиган қийматда акс эттирилади. Майнинг натижасида яратилган ва кейинчалик сотиш учун мўлжалланган крипто-активлари 4-сонли “Товар-моддий захиралари” БҲМСга (рўйхат рақами 3259-сон 30.06.2020) мувофиқ тайёр маҳсулотга киритилади ва бухгалтерия ҳисобида акс эттирилиши белгиланган.

Ушбу ахборот хабарда крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисоби қайси счётада акс эттирилиши келтирилмаган.

Агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисобини 0400-“ Номоддий активларни ҳисобга олувчи счётлар” таркибида криптовалюталарни ҳисобга олувчи 0450 “Криптовалюта” ишчи счётини очишни таклиф қиламиз.

Агар криптовалюта сотиш учун олинган бўлса, уни захира сифатида тан олиш керак ва уни учетини ташкил этиш учун 1210 “Криптовалюта” ишчи счётни очиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Халқаро амалиётда агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисоби МҲХС (IAS) 38 “Номоддий активлар” стандарти билан, агар криптовалюта сотишга мулжалланган бўлса, у ҳолда МҲХС (IAS) 2 “ Захиралар” стандарти билан тартибга солинади.. Шундан келиб чиққан ҳолда криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Крипто-активларнинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадида баъзи мамлакатларда, жумладан Республика Беларусда Молия вазирлиги томонидан қабул қилинган “Рақамли белгилар (токенлар)” номли бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг стандарти қабул қилинган ва амалиёт қўлланилмоқда (Бодяко,2021).

5. Хулоса.

Халқаро амалиётни ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, мамлакатлар ва иқтисодчи олимлар, амалиётчи бухгалтерлар рақамли молиявий активларни бухгалтерия ҳисобининг методологияси борасида ягона фикрга келишгани йўқ. Бу эса рақамли молиявий активлар, шу жумладан криптовалютанинг бухгалтерия ҳисоби методологиясини такомиллаштиришни талаб этади.

Халқаро амалиётда агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисоби МҲХС (IAS) 38 “Номоддий активлар” стандарти билан, агар криптовалюта сотишга мулжалланган бўлса, у ҳолда МҲХС (IAS) 2 “Захиралар” стандарти билан тартибга солинади.. Шундан келиб чиққан ҳолда криптовалютанинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Агар криптовалюта номоддий актив сифатида тан олинса, унинг бухгалтерия ҳисобини 0400-“ Номоддий активларни ҳисобга олувчи счётлар” таркибида криптовалюталарни ҳисобга олувчи 0450 “Криптовалюта” ишчи счётини очишни таклиф қиламиз.

Агар криптовалюта сотиш учун олинган бўлса, уни захира сифатида тан олиш керак ва уни учетини ташкил этиш учун 1210 “Криптовалюта” ишчи счётни очиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

- 1.Официальный сайт IFRS. IAS 38 Intangible Assets. -URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/> (дата обращения: 19.06.2023).
- 2.Киселева И.В.,Кулиш Н.В. Эволюция моделей бухгалтерского учёта. Экономические науки, №58-2, 11.01.2017.
- 3.Куликова Л.И. и др. Развитие финансовой отчетности в условиях цифровизации./ Международный бухгалтерский учет.2022.т.25,вып.2.стр.180-187.
- 4.Одинцова Т.М. Бухгалтерский учет: развитие и трансформация в контексте вызовов современности // Международный бухгалтерский учет. 2021. № 10. С. 1162-1187.
- 5.Лосева О.В., Косорукова И.В., Федотова М.А., Тазихина Т.В., Абдикеев Н.М. Оценка стоимости цифровых интеллектуальных активов: принципы, факторы, подходы и методы. Финансы: теория и практика. 2022;26(4):6-28. DOI: 10.26794/2587-5671-2021-26-4-6-28.
6. Емельянов Н.В. Влияние цифровизации экономики на развитие бухгалтерского учета. Научноисследовательский электронный журнал «Экономические исследования и разработки/Economic development research journal». 2019.№1.
7. Бодяко А. В., Пономарева С. В., Рогуленко Т. М. Идентификация цифровых прав в качестве объекта учета и контроля. Учет.Анализ.Аудит = Accounting.Analysis.Auditing. 2021;8(5):14-27. DOI: 10.26794/2408-93032021-8-5-14-27.
- 8.Романова А.А. Романов П.А. Криптовалюты как элемент инновационной экосистемы Технология блокчейн и криптовалютный рынок: глобальные риски, тенденции и перспективы развития: сб. науч. тр. / отв. ред. В.И. Герасимов. – Москва: ИНИОН РАН, 2022. – 238 с
- 9.Гайбуллаев Р. М., Бобомуродова С. З. Бухгалтерия ҳисобида рақамли ахборот технологияларини қўллаш истиқболлари. JOURNAL OF ECONOMICS, FINANCE AND INNOVATION 2022 ISSN: 2181- 3299 Volume-II Issue 1.
10. Анохин Н.В., Шмырева АИ. Криптовалюта как инструмент финансового рынка // Идеи и идеалы. - 2018. - № 3, т. 2. - С. 39-49. - ёок 10.17212/2075-08622018-3.2-39-49.
- 11.Нестеренко Е. Криптовалюта в России: юридический статус, налоги и бухгалтерский учет.2022/ <https://finacademy.net/materials/article/uchet-kriptovalyuty-gu>.

12. Авдеев В. Криптовалюта, NFT, цифровые активы: учет и налогообложение в РФ. 2023. <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a1032583/1032591.html>.

13. Жумаев Н. Х., Акбаров Х. М. Жаҳон валюта тизимининг ривожланиши босқичлари ва янги инновацион йўналишлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 6, декабрь, 2018 йил.

14. Амина Муҳаммад: «Глобал молия архитектурасига тузатиш киритиш зарур». https://uza.uz/uz/posts/amina-muhammad-global-moliya-arxitekturasiga-tuzatish-kiritish-zarur_473551?q=%2Fposts%2Famina-muhammad-global-moliya-arxitekturasiga-tuzatish-kiritish-zarur_473551.

15. Украинадаги уруш глобал молия тизимидаги «доллар эраси» тугашига олиб келадими? <https://kun.uz/41217236?q=%2F41217236#!> 20.06.2023.

16. Бодяко А. В., Развитие методологии учетно-контрольных процессов в условиях цифровой экономики. Управление. 2020;8(1):47-56.

17. Как вести учет криптовалюты в Украине: юридические нюансы, налоги и примеры проводок. <https://finacademy.net/materials/article/uchet-kriptovalyuty>.

18. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиё ва Молия вазирлиги ҳамда Солиқ қумитасининг (14 декабрь 2022 йил № 06/17-01-32/278 14 декабрь 2022 йил № 2022-42) Крипто-активлар операцияларининг бухгалтерия ҳисоби тўғрисида АХБОРОТ ХАБАРИ.

19. . Бодяко А. В., Пономарева С. В., Рогуленко Т. М. Идентификация цифровых прав в качестве объекта учета и контроля. Учет.Анализ.Аудит = Accounting.Analysis.Auditing. 2021;8(5):14-27. DOI: 10.26794/2408-93032021-8-5-14-27.



МИНТАҚАЛАРНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЙ СТРАТЕГИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

*Иқтисод фанлари доктори, профессор. Қодиров А.М.
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда иқтисодий бошқарувни марказдан ҳудудий ва тармоқлар даражасига босқичма-босқич ўтказиш шароитида ҳудудий сиёсатнинг долзарб масалалари таҳлил қилинади. Муаллиф ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишдаги институтсионал бўшлиқлар, кичик бизнес ва хизматлар соҳасини жадаллаштириш зарурати ҳамда номарказлаштиришнинг ижобий-салбий оқибатларини кўрсатади. Ишда Буюк Британия, Германия, АҚШ, Италия ва Франция тажрибаси билан қиёсий таҳлил келтирилиб, ҳудудларни қўллаб-қувватлаш чораларининг умумий ва миллий хусусиятлари ажратиб берилади. Европа Иттифоқи мамлакатларида регионал сиёсатни мувофиқлаштириш институтлари мисолида бошқарув архитектураси ёритилади. Мақола ПҚ-4702 қарори доирасида ҳудудларни рейтинг баҳолаш, рақамли ахборот-таҳлил тизимини жорий этиш, мониторинг ва прогнозлаш блокларини шакллантириш бўйича амалий таклифлар беради.

Калит сўзлар: ҳудудий сиёсат, номарказлаштириш, минтақавий бошқарув, рейтинг баҳолаш, ахборот-таҳлил тизими, халқаро тажриба, Европа Иттифоқи, кичик бизнес, хизматлар соҳаси, инвестицион рағбатлар.

Аннотация. В статье анализируются проблемы формирования региональной экономической стратегии в условиях поэтапной децентрализации управления в Узбекистане. Показаны институциональные разрывы при разработке и реализации программ на местах, необходимость ускоренного развития малого бизнеса и сферы услуг, а также амбивалентные эффекты децентрализации. Приведён сопоставительный обзор мер поддержки депрессивных территорий в Великобритании, Германии, США, Италии и Франции и описаны механизмы координации региональной политики в странах ЕС. Предложены практические решения по внедрению рейтинговой оценки развития регионов (ПҚ-4702) и созданию цифровой информационно-аналитической системы мониторинга и прогнозирования.

Ключевые слова: региональная политика, децентрализация, управление регионами, рейтинговая оценка, информационно-аналитическая система, международный опыт, ЕС, малый бизнес, сфера услуг, инвестиционные стимулы.

Abstract. The article examines the challenges of designing a regional economic strategy amid gradual decentralization in Uzbekistan. It highlights institutional gaps in program design and implementation at the sub-national level, the need to accelerate SME and service-sector development, and the mixed effects of decentralization. A comparative review of territorial support measures in the UK, Germany, the USA, Italy and France is provided, together with the coordination architecture of regional policy in EU member states. The paper proposes practical

steps for introducing region-level rating assessments (Decree PQ-4702) and for deploying a digital information-analytical system for monitoring and forecasting.

Keywords: *regional policy, decentralization, regional governance, rating assessment, information-analytical system, international experience, European Union, SMEs, service sector, investment incentives.*

1. Кириш.

Мамлакатда амалга ошириладиган туб иқтисодий ислохотлар жараёнида иқтисодиётни марказдан бошқариш даражасидан ҳудудий ва тармоқ даражасида бошқаришга босқичма-босқич ўтказиш, ҳудудларда тегишли дастурларни амалга ошириш, ҳудудий органлар ҳуқуқларини кенгайтириш, уларнинг мақом ва масъулиятини ошириш биринчи навбатдаги вазифалардан ҳисобланади. Тобора чуқурлаштириладиган ислохотлар давомида масалага шу нуқтаи назардан ёндашилиб, ҳудудий кўп укладли иқтисодиётни бошқаришнинг шаклланиши ва ривожланишини баҳолаш шуни кўрсатмоқдаки, маҳаллий даражаларда ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиш босқичида ҳам, уларни амалга оширишда ҳам бир қатор камчиликлар мавжуд. Улар асосан аниқ тадбирларни ишлаб чиқиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг илғор шакллари ва усулларини татбиқ қилишнинг услубий негизини қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда. Шунингдек, ҳудудлар ва ҳудудлар даражасида истиқбол учун ишлаб чиқилган аниқ мақсадли дастурлар, уларни амалга ошириш усуллари ва механизмлари тўла шаклланмаган. Бу, ўз навбатида, ҳудудларда ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг боришига, аҳоли турмуш даражасини оширишга, ишлаб чиқариш ва хусусан хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга салбий таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, жаҳон миқёсида бўладиган ўзгаришлар ҳозирги шароитда ҳудудларда хизмат кўрсатиш ва кичик бизнес соҳасини янада ривожлантириш аҳоли бандлигини таъминлаш ва ҳаёт даражасини оширишнинг энг муҳим омили ҳамда энг устувор вазифа бўлиб қолмоқда.

2. Адабиётлар шарҳи.

Сўнгги пайтларда минтақаларни таҳлил қилишда тизимли ёндашувдан фойдаланиш фаоллашди, бу биринчи навбатда ижтимоий-иқтисодий ва экологик тизимлар сифатида ўрганишда намоён бўлади. Ривожланган мамлакатларнинг минтақавий сиёсати узоқ вақт давомида асосан ишлаб чиқарувчи кучларни тақсимлаш жараёнларига давлат таъсири сиёсати бўлиб келганлиги тасодиф эмас. Vegg I (2018)ни фикрича фаол минтақавий сиёсатни олиб борадиган ушбу давлатлар ривожланмаган ҳудудларни ривожлантириш, депрессия қилинган саноат майдонларини қайта қуриш, агломерацияларни номарказлаштириш ва саноат ишлаб чиқариш концентрацияси устидаги майдонлар, кластерларни шакллантириш ва бошқалар билан ажралиб туради.

Жаҳон амалиётидан ҳудудларни ривожлантиришнинг уч хил эҳтимолий варианты маълум бўлиб, улар шундан иборат: илғор ҳудудларни ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш зарур, қолганлар эса бу ҳудудлар ҳисобига мавжуд бўлиши мумкин (АҚШ); барча ҳудудларда тахминан бир хил турмуш шароитларини қўллаб-қувватлаш, уларда солиққа тортиш, бандлик ва турмуш даражасини тартибга солиш лозим (Германия); энг камбағал ҳудудларни қўллаб-қувватлаш лозим, илғорлар эса мустақил ривожлана олади (Скандинавия мамлакатлари) (Armstrong & Taylor, 1997).

Тўғри танланган стратегия куч ва маблағларни иқтисодий ривожланиш салоҳиятини рўёбга чиқаришга ва шу билан бозор шароитида ҳудудларнинг самарали ривожланишини таъминлашга имкон беради (Chandler, 1962). Емельянов Е.В. (2011), Аксенов П.А (2011) ва Хомерики Н.Б (2011) фикрларига кўра маълум бир минтақа иқтисодиётининг самарали ривожланишини таъминлаш учун нафақат минтақавий

сиёсат билан шуғулланадиган давлат органлари томонидан молиявий қўллаб-қувватлаш, балки бундай ривожланишдан манфаатдор бўлган кенг доирадаги шахслар ва ташкилотлар ёрдами ҳам талаб этилади. Мамлакатнинг давлат тузуми минтақавий сиёсат борасида ваколатларни бошқаларга бериш ёки номарказлаштириш даражасини белгилаб беради.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот қиёсий таҳлил (ЭИ мамлакатлари чораларини миллий ёндашувлар билан солиштириш), институтсионал ва тизимли ёндашув (марказ-худуд ваколатлари, бошқарув механизмлари), норматив-ҳуқуқий контент-таҳлил (ПК-4702 ва тегишли ҳужжатлар), ҳамда амалий дизайн-таклиф (худудлар учун ахборот-таҳлил тизими: аналитик, эмпирик, прогноз ва маъмурий модуллар)га таянади. Назарий асос сифатида Бегг (ЭИ соҳесион полисй), Армстронг & Тайлор (регионал эсономисс), Чандлер (стратегй-струстуре) ишлари қўлланади; маҳаллий контекст Низамов ва республика меъёрий ҳужжатлари билан боғланади.

4. Таҳлил ва натижалар.

Стратегияни ишлаб чиқишда янги иқтисодий шароитларда худудларнинг ўрни, роли ва вазифалари аниқланади, ўзгарувчан иқтисодиёт шароитида минтақани ривожлантиришнинг стратегик устуворликлари белгиланади, стратегияни янги институционал шароитда амалга оширишнинг иқтисодий, молиявий ва ташкилий механизмлари асосланади. Албатта, муайян минтақанинг ривожланиш стратегияси мамлакатнинг ривожланиш стратегиясига мос келиши ва у билан яхлит бўлиши керак.

Маъмурий ислохотлар концепцияси доирасида мамлакатимизда бошқарув тизимини номарказлаштириш сиёсатини амалга ошириш асосида худудлар барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашда маҳаллий давлат бошқаруви органларининг роли ва масъулияти ортиб бормоқда.

Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда қўйидаги муаммолар мавжуд: худудларнинг иқтисодий салоҳиятидан етарли даражада фойдаланилмапти, республика дастурларини ишлаб чиқишда ва амалга оширишда минтақавий ўзига хосли кетарлича ҳисобга олинмапти; минтақавий иқтисодиётида аграр секторнинг улуши сақланиб қолапти; ички ва хорижий инвестицияларни жалб қилишда сезиларли номутаносибликлар мавжуд; маҳаллий бюджетларни шакллантириш учун молиявий базанинг етарли эмаслиги; ресурслар ва улардан самарали фойдаланиш ўртасидаги номутаносибликлар; минтақалараро иқтисодий интеграция яхши ривожланмаганлиги; минтақавий менежментнинг сушт даражаси (иқтисодий қарорларнинг юқори марказлаштирилганлиги), соҳавий ёндашув ва идоравий манфаатларнинг устунлиги.

Шу билан бирга, айрим ижро этувчи ҳокимият органлари ва хўжалик бошқаруви органларининг замонавий талабларга жавоб бермайдиган институционал асослари ва улар фаолиятининг принциплари ўтказилаётган ислохотларни тўлиқ рўёбгачи қаришга ҳамда қўйилган мақсадларга эришишга тўсқинлик қилмоқда (Nizamov, 2021).

Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳани модернизациялаш, худудларни ҳар томонлама ривожлантириш, аҳолининг ҳаёт даражаси ва фаровонлигини юксалтириш бўйича давлат сиёсатини муваффақиятли амалга оширишга тўсқинликқилувчи қатор тизимли муаммо ва камчиликлар сақланиб қолмоқда, хусусан: ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини ташкил этиш асослари худудларни ривожлантириш суръатларини пасайтирувчи, жойларда тўпланиб қолган муаммоларнинг ўз вақтида ҳал этилишини таъминламапти; айрим ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарадорлигини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари етарли эмаслиги, вазифаларнинг такрорланиши ва давлат томонидан ортиқча тартибга солиш ҳолатларининг мавжудлиги амалга оширилаётган ислохотлар самарадорлигига салбий

таъсир кўрсатмоқда; ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилишнинг амалдаги тизими қабул қилинаётган қарорларнинг ижросига тўқинлик қилувчи тизимли муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этишни таъминламаяпти ва бошқалар. Шу боис, ҳудудий ривожланишни тартибга солишнинг самарали механизмларини шакллантириш ва такомиллаштириш ҳамда маҳаллий ҳокимлик органлари фаолияти натижадорлигини ошириш муҳим йўналиш сифатида белгиланган.

Жаҳон тажрибасининг кўрсатишича, давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш дастакларидан бири бу уни номарказлаштириш бўлиб, олдин марказда бўлган функциялар, ваколат ва жавобгарликларни маҳаллий ҳокимият ва ўзини ўзи бошқариш органларига, шунингдек фуқаролик жамиятлари институтларига ўтказиш ҳисобланади. Турли шаклларда (маъмурий, сиёсий, иқтисодий ва фискал) амалга ошириладиган номарказлаштириш давлат ривожланишини аниқловчи кенг кўламли омилларга таъсир этади. Аммо номарказлаштиришни мамлакатнинг ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олмасдан, етарлича даражада ўйланмаган ва шошилиш тарзда амалга ошириш макроиқтисодий вазиятни нобарқарорлаштириш хизматлардан нотенг фойдаланишга ва камбағалликнинг кучайиши каби салбий ҳолатларга сабаб бўлиши мумкин. Бу билан турли давлатлардаги номарказлаштириш даражаси ва дастурларнинг турлитуманлиги, шунингдек маҳаллий ўзини ўзи бошқаришни яратишда ташкилий ва иқтисодий қарорларнинг ўзига хослиги аниқланади. Номарказлаштириш таъсирининг бир хилда эмаслиги келиб чиқиши мумкин бўлган хавф-хатарларни минималлаштиришга йўналтирилган тегишли давлат чора-тадбирларининг зарурлигини келтириб чиқаради. Бу асосан фақат ҳудудларнинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланишидаги фарқларни камайтириш учун муҳим бўлиб, ҳудудий омиллардан ва ҳар бир ҳудуднинг рақобатдаги устунлигидан синчковлик билан ишлаб чиқилган стратегия асосида фойдаланган ҳолда эришиш мумкин.

Бозор иқтисодиёти юқори даражада ривожланган давлатларда корхоналар даражасида ҳам, минтақалар миқёсида ҳам катта тажриба тўпланган. Ўзбекистон Республикасида иқтисодий, ижтимоий ва тарихий шароитлар ривожланиш борасида бошқа мамлакатлардан фарқ қилади. Ўзбекистонда ҳозирги шароитларда Буюк Британия, Германия, Италия ва бошқа мамлакатларнинг минтақавий сиёсат борасидаги тажрибаларини мослаштириш маълум бир даражада фойда келтирган бўларди. Буюк Британияда ижтимоий-иқтисодий кескинлик анъанавий тармоқлар – кўмир қазиб чиқариш, пўлат ишлаб чиқариш ва тўқимачилик марказлашган саноат агломерацияларида энг кучли намоён бўлган. Энг турғунлик (депрессив) ҳолатидаги минтақа Марказий Шотландия бўлган. Германияда кўмир қазиб чиқариш ва металлургияга ихтисослашган Рур энг турғунлик ҳолатидаги минтақа бўлган. АҚШда бундай минтақалар қаторига ишчилик даражаси юқори ва даромад даражаси паст бўлган ҳудудлар киради. Бунга классик мисол – Аппалач минтақаси. Италияда қишлоқ хўжалигига ихтисослашган жанубий минтақалар ажратиб кўрсатилади. Ҳар бир мамлакатда минтақаларни инқирозли ҳолатдан олиб чиқиш бўйича индивидуал ёндашув қўлланади.

Кўйида келтирилган 1-жадвалда минтақалар ҳолатини яхшилаш учун алоҳида олинган мамлакатлар миқёсида амалга ошириладиган асосий чора-тадбирлар келтирилган.

1 жадвал

Хорижий мамлакатларда минтақаларни бошқариш бўйича асосий чора-тадбирлар

| № | Мамлакат | Амалга ошириладиган чора-тадбирлар |
|---|------------------------|---|
| 1 | Буюк Британия | -турғунлик ҳолатидаги минтақаларда ишлаб чиқаришни жойлаштириш ва унинг ўсишини рағбатлантирадиган молиявий чора-тадбирлар (капитал қўйилмаларга кафолатлар, заёмлар, солиқ имтиёзлари, бандлик учун минтақавий мукофотлар ва б.); -давлатнинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани, биринчи навбатда, транспорт ва турар-жойни ривожлантириш бўйича бевосита инвестицион фаолияти; -саноат тадбиркорлигига рухсат беришни кўзда тутадиган саноат қурилиши устидан "негатив назорат" чоралари. |
| 2 | Германия | -солиқ имтиёзлари ва махсус мукофотлар кўринишида минтақа инфратузилмаси ва бандликни ривожлантиришга хизмат қиладиган илғор тармоқларда (электроника, юқори технологияли машинасозлик, ахборот тизимлари, хизматлар соҳаси ва б.) фаолият кўрсатадиган янги фирмаларни қўллаб-қувватлаш; -анъанавий тармоқларга (металлургия мажмуи) ва сарфланадиган давлат инвестициялари ва хусусий инновацион капитал; -вужудга келган муаммоларни ўз кучлари биан ҳал эта олмайдиган минтақаларга қўшимча ёрдам кўрсатилади; -барча ерларни қайта структуралаш ва ривожлантириш учун умумий схема таъминланади; -ерлар ўртасида рақобатни истисно қиладиган ёрдам кўрсатиш тизимлари яратилади. |
| 3 | Америка Қўшма Штатлари | -иқтисодиётда тугалланган ишлаб чиқариш циклларини рағбатлантириш, энг четки ишлаб чиқариш ва ҳиц етказиб қайта ишлашни тайёр маҳсулотнинг максимал даражасига етказиш. Бошқача қилиб айтганда, совет олимлари томонидан ишлаб чиқилган энерго-ишлаб чиқариш цикллари конструкциясидан фойдаланилди; -минтақанинг потенциал бозори ва жойлашувидан келиб чиққан ҳолда фойда олишга қодир бўлган янги тармоқларни минтақага жалб қилиш; -рекреацион ресурсларни ривожлантириш; -қишлоқ хўжалигини, жумладан, шаҳар яқинидаги қишлоқ хўжалигини диверсификация қилиш; -ҳар бир алоҳида олинган минтақада бандлик ва даромадлили даражасини кенгайтириш, унинг саноат салоҳиятидан фойдаланиш. |
| 4 | Италия | -таркибли жиҳатдан заиф минтақаларда негатив омиллар таъсирини минималлаштириш ҳамда уларнинг мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида фаол иштирок этиш имкониятини таъминлаш учун шароитлар яратиш; -қулай «бизнес-муҳит» яратиш ва инфратузилмани ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар мажмуи; -узоқ муддатли ва рақобатбардош иш жойлари яратиш, меҳнат бозорида вазиятни барқарорлаштириш. |
| 5 | Франция | -ҳар бир минтақа учун молиявий ажратмалар зарурий миқдори, таъсирни баҳолаш ва мониторинг амалга ошириш билан боғлиқ чора-тадбирлар; |

| | | |
|--|--|---|
| | | -ходимларни қайта ўқитиш, тадқиқотчилик ишлари ўтказиш, минтақалар фаровонлигини оширишга йўналтирилган ОТМ ва бошқа давлат структураларини молиялаштириш; -грантлар ва маслаҳатлар тақдим этиш йўли билан кичик корхоналар учун бизнес-муҳитни яхшилашга қаратилган иқтисодий ривожланиш ва бандликни ошириш бўйича чора-тадбирлар. |
|--|--|---|

Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган

Умуман олганда, турғунлик ҳолатидаги ҳудудларда ўтказиладиган чора-тадбирлар кўплаб мамлакатларда ўхшашиб кетади. Минтақаларда бандликни ошириш, бизнес ва ишлаб чиқаришни рағбатлантириш асосий аҳамиятга эга. Бироқ айрим мамлакатлар бир вақтнинг ўзида барча минтақаларни соғломлаштириш бўйича комплексли чора-тадбирларни амалга оширади, бошқалар эса мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида фаол иштирок этиш имкониятини таъминлаш учун иқтисодий жиҳатдан қолоқ минтақаларга кўпроқ эътибор қаратади.

Минтақавий сиёсат мувофиқлаштирилган сиёсий ёндашув мавжудлигини назарда тутати. Европа Иттифоқи мамлакатларида бу муаммоларни ҳал қилишда Европа Комиссияси – қисман Минтақавий сиёсат бўйича Директорат фаолияти орқали, шунингдек, Бозор муносабатлари сиёсати бўйича Директоратнинг назорат функциялари орқали фаол иштирок этади (2 жадвал).

2 жадвал

Европа Иттифоқи мамлакатларида минтақавий сиёсат чора-тадбирларини амалга ошириш

| № | Мамлакат | Минтақавий сиёсатни амалга ошириш |
|---|------------|---|
| 1 | Австрия | Барча сиёсий соҳаларда лойиҳаларни мувофиқлаштириш масалалари билан Федерал канцлер Маъмурияти шуғулланади (унинг таркибига минтақавий сиёсат бўйича махсус департамент ҳам киради). |
| 2 | Бельгия | Ёрдам кўрсатиш ҳақида қарорлар йирик давлат-хусусий шерикликлар учун минтақавий маъмурият томонидан қабул қилинади, қолган қарорлар эса Минтақавий Иқтисодиёт вазирлиги томонидан қабул қилинади. |
| 3 | Греция | Минтақавий сиёсат юритиш бўйича барча мажбуриятлар амалда Миллий иқтисодиёт вазирлигига юклатилган. |
| 4 | Ирландия | Давлат идоралар томонидан амалга оширилади (IDA-Ireland ва EnterpriseIreland). |
| 5 | Люксембург | Минтақавий сиёсат бўйича қарорлар Иқтисодиёт вазири ва Молия вазири билан биргаликда қабул қилинади. |
| 6 | Португалия | Минтақавий сиёсат юритиш учун барча жавобгарликлар Минтақавий ривожланиш ва режалаштириш вазирлигининг Минтақавий ривожланиш бўйича Бош директоратига юклатилган. |
| 7 | Финляндия | Ички ишлар вазирлиги минтақавий сиёсатни шакллантириш учун жавоб беради, минтақавий сиёсат юритиш учун жавобгарлик, шунингдек, турли марказий вазирликларга ҳам юклатилган. |
| 8 | Швеция | Саноат, савдо ва ривожланиш Вазирлиги ҳузурида бўлинмалар ташкил этилган бўлиб, уларнинг ваколатлари қаторига суғулланган ҳудудларга нисбатан минтақавий сиёсат ишлаб чиқиш, сиёсат юритилиши ва Европа Комиссияси билан алоқаларни амалга ошириш устидан назорат киради. |

Манба: Илмий адабиётларни умумлаштириш асосида тузилган

Ҳозирги пайтда ЕИга аъзо бўлган мамлакатларнинг кўпчилиги минтақавий сиёсатнинг асосий воситаси сифатида белгиланган инвестициялар суммасига тенг бўлган дотациялар, иш жойлари яратилиши билан боғлиқ субсидиялар, кредитлар ва ҳ.к.ни ўз ичига оладиган молиявий рағбатлантиришдан фойдаланади. Бундай усуллар фирмаларни муаммоли ҳудудларга маблағлар инвестиция қилиш ёки ишлаб чиқаришни жойлаштиришга қизиқтириб қўйиши кўзда тутилган. Ушбу воситалар деярли барча ЕИ мамлакатларида кенг қўлланади.

Ўзбекистонда номарказлаштириш бошланган маъмурий ислохотларнинг йўналишларидан бири сифатида давлат бошқарув органларининг функцияларини қайта кўриб чиқиш ва камайтириш, давлат органлари ва хўжалик бошқарув органлари орасидаги ваколатларни чегаралаш, бошқарув аппарати сонини қисқартириш доирасида амалга оширилмоқда. Шу сабабли давлат бошқарув самарадорлигини ошириш вазифалари давлат функцияларини янада аниқлаштиришни, шунингдек ҳар бир аниқ функция учун аниқ муассаса ёки унинг функционал бўлини масалани ечишга алоҳида давлат хизматчиси жавобгарликни оладиган шундай тизимни яратишни талаб қилади.

Номарказлаштириш кўпроқ маҳаллий ҳамжамиятни жамоат дастурларини шакллантириш ва молиялаштиришда, маъмурий тизимлар самарадорлигини ошириш ва келгуси инсон тараққиётининг натижаси сифатида ва бевосита жалб этувчи дастак сифатида кўриб чиқилмоқда. Ривожланаётган давлат шароитида ва ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида номарказлаштиришнинг жамоат турмуш шароитига таъсири бир хилда эмас. У бутун бир жисмоний, демографик омиллар (ҳудуд майдони, аҳоли сони ва унинг этник таркиби, урбанизация даражаси ва б.) ва институционал асосларнинг мавжудлигига боғлиқ.

Мамлакатнинг муҳим минтақавий нисбатларини аниқлаш, мамлакат ичида маҳсулотлар ва хизматлар билан ўзини ўзи максимал таъминлаш, ишлаб чиқариш кучларини оқилона жойлаштириш, аҳолини жойлаштиришнинг республика миқёсидаги оқилона тизимини шакллантириш, қулай демографик шароит яратиш ва минтақалараро бошқа ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, тармоқлар ихтисослашуви учун юқори малакали мутахассислар тайёрлаш, минтақалараро аҳамиятга эга бўлган табиатдан фойдаланиш муаммоларини ҳал этиш йўли билан уларни мажмуали ва мутаносиб ривожлантириш ва ҳ.к; минтақаларни бошқариш механизмлари ва иқтисодий усулларини ишлаб чиқиш. Ундан кейинги вилоят (Қорақалпоғистон Республикаси) даражасидаги асосий вазифалар жумласига қуйидагиларни киритиш мақсадга мувофиқ:

ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқаришни мутаносиб мажмуали ривожланишини таъминлаш, хўжалик юритишни ҳудудий ташкил этишни такомиллаштириш, ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини шакллантириш, аҳолини истеъмол товарлари билан таъминлаш, мавжуд табиий ва меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишга эришиш, табиатни муҳофаза қилиш тадбирларини амалга ошириш ва туманлараро аҳамиятга эга бўлган бошқа масалаларни ечиш орқали минтақа тараққиётини таъминлаш;

барча ҳудудий тизимларни ривожлантириш учун бир хил қулай иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароит яратилганлиги;

самарали қарорлар қабул қилиш учун сифат жиҳатдан янги ва ишончли минтақавий статистик маълумотлар базаси мавжуд бўлиши лозим.

Минтақавий ва туман даражасидаги ҳокимиятнинг иқтисодий бошқаруви амалиётига ахборот-таҳлил тизимини жорий этиш минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини кузатиш ва прогнозлаш воситаларини ва статистик, социологик ва бошқа (шу жумладан оммавий ахборот воситалари) маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш, тақдим этиш ва тарқатиш технологиясини такомиллаштиришга

ёрдам беради.

Минтақалардаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларни кузатиб бориш ва прогноз қилиш бўйича кенг қамровли ва ягона маълумотлар базасини шакллантириш учун ахборот-таҳлил тизимини лойиҳалаштириш, кейинчалик натижа ва ҳисоботларни республиканинг турли вазирлик ва идоралари кесимида расмийлаштириш (натижаларни жадвалли, матнли, график ва картографик шаклларда тақдим этади).

Ушбу тизим ёрдамида қуйидагиларни амалга ошириш мумкин:

а) таҳлилий қисм: минтақалар, тармоқлар ва ҳқ. шароитида ижтимоий-иқтисодий ва молиявий кўрсаткичлар бўйича таққослама, динамик, таркибий ва бошқа турдаги таҳлилларни ўтказиш; турли маълумотларни (иқлимий-географик шароитлар, демография, экология ва бошқаларни) ўз ичига олган вилоят ва туманларнинг электрон паспортларини шакллантириш; вилоят ва туманларнинг жорий (чорақлик, ярим йиллик ва йиллик) вақт даври учун электрон шаклда ижтимоий-иқтисодий ривожланиши бўйича таҳлилий материалларни шакллантириш; вилоят ва туманларнинг ижтимоий-иқтисодий ва молиявий ҳолати таҳлилинини ўз ичига олган бошқа ҳисобот шакллари шакллантириш.

б) эмпирик қисм: вилоят ва туманлардаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг (турмуш даражаси, инвестицион муҳит, ҳудудий мақсадли дастурлар ва бошқалар) статистик мониторингини амалга ошириш; вилоят ва туманлар иқтисодиётининг рақобатбардошлигини баҳолаш кўрсаткичлари (индекслари) тизимини шакллантириш; вилоят туманлари иқтисодиётининг рақобатбардошлиги, ҳудудий ва маҳаллий ижро ҳокимияти органларида электрон ҳукумат (ягона давлат интерактив хизмати портали) технологияларидан фойдаланиш даражаси рейтингини тайёрлаш; минтақавий статистиканинг халқаро стандартлари билан уйғунлашган туманларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини рейтинг баҳолаш кўрсаткичлари тизимини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш йўналишларини тадқиқ этиш ва бошқалар (уни бирон бир туман мисолида синаб кўриш мумкин) (ПҚ-4702, 2020).

Annotation. The article examines the reforms implemented in Uzbekistan to develop renewable energy, analyzes international experience in tax incentives for green energy, identifies existing methods of financial incentives, and develops proposals and recommendations for tax incentives for this sector in the country.

Keywords: Renewable energy, green energy, financial incentives, tax breaks.

1. Кириш.

Кейинги ўн йилликларда иқлим ўзгариши, сув танқислиги, энергия хавфсизлиги ва барқарор иқтисодий ўсиш масалалари қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришни глобал устуворликка айлантirdи. Қайта тикланадиган энергетиканинг ривожланиши, глобал энергия истеъмолининг сезиларли даражада ўсиши шароитида, Ўзбекистон иқтисодиётига салбий таъсир қилувчи бир қатор глобал инсоний муаммоларни, жумладан қазиб олинадиган ёқилғининг камайиши ва атроф-муҳитнинг ҳалокатли ифлосланиши каби муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради. Шунга кўра, “Ўзбекистон иқтисодиётининг асосий тармоқларини иқлим ўзгаришларига мослаштириш, углерод нейтраллигига эришиш ва “яшил” энергетика улушини кескин ошириш” (Мирзиёев, 2023) мамлакат олдидаги муҳим стратегик вазифа ҳисобланади. Қолаверса, “Ўзбекистон- 2030” стратегиясида “Яшил иқтисодиёт”га ўтиш, унинг асоси бўлган қайта тикланувчи энергиядан фойдаланиш кўрсаткичларини кескин ошириш”

асосий мақсадлардан бири сифатида белгилаб қўйилган. Демак, юқоридагиларга кўра Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш, уларни ишлаб чиқарувчилар ва фойдаланувчиларга кенг имкониятлар яратиш ҳамда давлат томонидан ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш долзарб масала ҳисобланади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Ўзбекистонда, “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегияси” (ПҚ-4477-сонли)мамлакатда энергия самарадорлигини ошириш ва қайта тикланадиган энергия манбаларини ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ушбу ёндашув маҳаллий иқтисодиётнинг экологик ва ижтимоий жиҳатларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Бу борада маҳаллий иқтисодчи олимлардан А.В.Вахобов (2020), Ш.Х.Хажикакиев(2020), Ш.А.Ташматов(2020), М.Т.Бутабоевлар(2020) томонидан “Яшил энергетика” энергия тежамкорлигини ошириш ва барқарор иқтисодий ривожланиш омиллари ўрганилган.

Қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришни иқтисодий рағбатлантириш бўйича халқаро тажриба Л.А.Кормишкина (2018), О. Бучнева (2018), В.Т. Водяников(2014), Т.А.Курбатова(2014), С.В.Ратнер(2013), Е.А. Сушкевич(2013), Н.Н. Яшалова(2013) ва бошқаларнинг ишларида кўриб чиқилган. Бироқ, аксарият тадқиқотлар фискал ва солиқ имтиёзлари механизмларини кўриб чиқмайди ёки фақат қисқача муҳокама қилади. Европа ва Қўшма Штатлардаги муқобил энергия учун жорий солиқ имтиёзларининг энг батафсил кўриб чиқилиши Ратнер ва Д.В.Диранинг (2011) алоҳида ишларида топилган. Шу сабабли, қайта тикланадиган энергияни ривожлантириш борасида қўлланилаётган солиқ имтиёзлари бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаларини ўрганиш Ўзбекистонда яшил энергетикани солиқлар воситасида рағбатлантириш борасидаги ислохотларни янада кучайтириш зарурлигини кўрсатади.

3. Тадқиқот методологияси.


Халқаро энергия агентлиги (IEA) ва Халқаро қайта тикланадиган энергия манбалари агентлиги (IRENA), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги, Солиқ қўмитаси маълумотлари ва ҳисоботлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг, Энергетика вазирлиги ҳамда Солиқ қўмитасининг расмий веб-сайтлари, телеграммдаги расмий каналлари маълумотлари, энергетика ва солиқ қонунчилигига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда умумий илмий тадқиқот усулларида фойдаланилган.

4. Таҳлил ва натижалар.

Атроф-муҳитда табиий ҳолда қайта тикланувчи қуёш, шамол энергияси, ер ҳарорати (геотермал), сув оқимларининг табиий ҳаракати, биомасса энергияси кабилар қайта тикланувчи энергия манбалари сифатида энергияга бўлган эҳтиёжларни қондириш ва иқлим ўзгаришларининг олдини олишда ёрдам берадиган яшил энергиянинг муҳим манбаларидан биридир. Стенфорд университети профессори Марк Жейкобснинг сўзларига кўра, дунёнинг етти мамлакати, жумладан Албания, Бутан, Эфиопия, Конго Демократик Республикаси, Непал, Парагвай ва Исландия давлатлари аллақачон деярли барча электр энергиясини қайта тикланадиган манбалардан ишлаб чиқармоқда. Бу давлатлар гидроэнергетика, геотермал энергия, шунингдек, шамол ва қуёш энергиясидан кенг фойдаланмоқда. Халқаро энергия агентлиги (IEA) ва Халқаро қайта тикланадиган энергия манбалари агентлиги (IRENA) маълумотларига кўра, яна 40 та давлат, жумладан, 11 та Европа давлати барча электр энергиясининг 50% дан ортиғини қайта тикланадиган энергия манбалари орқали ишлаб чиқармоқда. Маълумотларига кўра, 2023 йил ҳолатига Ўзбекистон ишлаб чиқарилган умумий энергиясида қайта тикланадиган энергия манбаларининг улуши 9,25 фоизни ташкил этгани ҳолда дунёдаги 206 та давлатлар қаторида 151-ўринда туради.

Кейинги ўн йилликда Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергия соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар энергия манбаларини диверсификация қилиш, углерод эмиссиясини камайтириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашга қаратилган бўлиб, бу ислохотлар соҳада қонунчиликни янгилаш, рағбатлантириш тизимларини жорий этиш, технологик янгиликларни қўллаб-қувватлаш ва халқаро ҳамкорликни кенгайтиришни ўз ичига олади. Шунга кўра, 2019 йилда мамлакатда “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги қонун (ЎРҚ-539-сонли, 2019) қабул қилинди. Аҳолининг маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқарилган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини харид қилиш харажатларининг бир қисмини давлат томонидан компенсация қилиш ёки бўлиб-бўлиб тўлаган ҳолда сотиб олиш имконияти яратилди (ПФ-220-сонли, 2022). Қайта тикланувчи энергия қурилмаларни сотиб олиш учун “яшил” истеъмол кредитларихамда қайта тикланувчи энергияни ишлаб чиқарувчилар учун эса “яшил энергия” сертификатларини (Вазирлар Маҳкамаси 517-сон қарор, 2023) бериш йўлга қўйилди. 2023 йил 1 апрелдан бошлаб республика ҳудудларида аҳоли хонадонларига кичик қувватли (умумий қуввати 50 кВт гача) қуёш панелларини ўрнатишни рағбатлантириш бўйича “Қуёшли хонадон” дастури доирасида жисмоний шахсларга тегишли объектларда ўрнатилган қуёш панелларида ишлаб чиқарилган ва ўз истеъмолидан орттириб ягона электр энергетика тизимига узатилган электр энергиясининг ҳар бир килловатт-соатига Давлат бюджетидан 1000 сўмдан субсидия ажратиладиган бўлди. Натижада, 2024 йилда 10 826 нафар жисмоний шахс ушбу дастурдан фойдаланиб, электр тармоқларига ўтказилган қуёш энергияси учун 12 млрд 182 млн сўм (12 миллион 182 минг 090 кВт/соат) давлат бюджетидан субсидия олди.

Бугунги кунда мамлакатда умумий қуввати 4 682 мегаватт бўлган 12 та қуёш фотоэлектр станцияси ва 5 та шамол электр станцияси ишлаб турибди. Натижада 2025 йил бошидан 23 сентябрь ҳолатига Ўзбекистонда йил бошидан буён қуёш ва шамол электр станциялари томонидан ишлаб чиқарилган электр энергияси миқдори 8 млрд кВт·соатни ташкил қилади. 1-расм.




1-расм. Ўзбекистон Республикасида қуёш ва шамол электр станцияларида ишлаб чиқарилган электр энергия миқдори, млрд кВт·соат

Бу кўрсаткич бутун 2022 йил давомида 434 млн кВт·соат, 2023 йилда 576,9 млн кВт·соат, 2024 йилда эса 4 млрд 860 млн кВт·соат бўлган. Ўзбекистон 2030 йилга қадар қайта тикланадиган энергия (ҚТЕ) манбалари улушини 25 фоизгача оширишни режалаштирган.

Ўз навбатида, қайта тикланувчи энергия манбаларининг жами истеъмолдаги улуши 2023 йилда 15 фоиз, 2024 йилда 20 фоизни ташкил этган бўлса, 2025 йилда 25 фоизга етиши кутиляпти. 2025 йилнинг ўтган 9 ойи давомида ишлаб чиқарилган ушбу

энергия миқдори мамлакатдаги умумий генерациянинг 22 % идан ортиқроғини ташкил этади. 2-расм.



2-расм. Ўзбекистон Республикасида қайта тикланувчи энергия манбаларининг жами истеъмолдаги улуши, фоиз ҳисобида

Мутахассислар томонидан 2035 йилда электр истеъмоли 121 млрд кВт·соат бўлиши ҳисоб-китоб қилинган. Шу боис, 2030 йилга бориб, жами генерацияда “яшил” энергия улушини 54 фоизга етказиш режалаштирилган. Бунинг натижасида 2025 йилнинг ўтган даври мобайнида “яшил” энергия ҳисобидан республика миқёсида 2 млрд 424 млн куб метр табиий газ тежалишига эришилди ҳамда атмосферага 3 млн 552 минг тонна зарарли моддалар чиқишининг олди олинди.

Дунё амалиётида қайта тикланувчи энергиянинг иқтисодий таъсири бир нечта йўналишда намоён бўлади: энергия импортига қарамликни пасайтириш, маҳаллий иш ўринлари яратиш, саноат модернизацияси ва инвестициялар оқимини диверсификация қилиш. Ижтимоий жиҳатдан узоқ муддатли арзон ва ишончли энергия таъминоти, кам ифлосланиш ва соғлиқни сақлаш харажатларининг камайиши. Экологик жиҳатдан эса углерод чиқиндиларининг камайиши ва биохилма-хилликни сақлаш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун ҳам ҳар бир давлат қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш, уларни ишлаб чиқарувчилар ва фойдаланувчиларига кенг имкониятлар яратиш ҳамда давлат томонидан ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга ҳаракат қилади. Бу борада, давлатларнинг фискал сиёсати муҳим восита бўлиб, солиқлар, субсидиялар, грантлар ва кредитлар орқали энергия секторини рағбатлантиришга хизмат қилади.

Қайта тикланувчи энергия соҳасида фискал рағбатлантириш механизми инвестицияларни кўпайтириш, ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш ва технологик инновацияларни қўллаб-қувватлаш, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг қайта тикланувчи энергия қурилмаларини сотиб олишини рағбатлантириш, “яшил” энергия салмоғи ва уни ишлаб чиқарувчилар даромадларини янада оширишга хизмат қилади. Ўз навбатида асосий фискал воситаларга: фойда, мулк ва ресурс солиқларидан вақтинча озод қилиш; ҚҚС ва божхона божлари бўйича имтиёзлар; субсидиялар ва грантлар киради.

Юқоридагиларга кўра, Ўзбекистонда ҳам аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини энергия ресурслари билан барқарор таъминлаш, қайта тикланувчи энергия манбаларининг ҳамда энергияни тежовчи технологияларнинг жорий этилишини жадаллаштириш бўйича изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга қайта тикланувчи энергия манбаларидан кенг фойдаланишни янада қўллаб-қувватлаш, уларни солиқлар воситасида рағбатлантириш мақсадида мазкур қурилмаларни

ўрнатган ва ундан фойдаланувчи солиқ тўловчиларга мол-мулк ва ер солиғидан қуйидагича имтиёзлар жорий этилган: 1-жадвал.

1-жадвал

Қайта тикланувчи энергия манбалари (ҚТЭМ) қурилмаларини ўрнатиш ва улардан фойдаланишга доир солиқ имтиёзлари

| № | Имтиёз тури | Имтиёз қўлланиладиган | |
|----|--|-----------------------|------------------|
| | | солиқ тури | солиқ тўловчилар |
| 1. | Умумий қуввати қуйидагича бўлган ҚТЭМ қурилмалари солиқ солишдан озод этилади: 100 кВтгача бўлган - ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил муддатга, қуёш панелларининг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга; 100 кВт ва ундан ортиқ бўлган - улар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга; | Мол-мулк солиғи | Юридик шахслар |
| 2. | Уй-жой фондининг кўчмас мулк объектларида умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМдан фойдаланувчи шахслар учун солиқ суммаси ҚТЭМ қурилмалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил давомида, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса мазкур панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил давомида базавий ҳисоблаш миқдорининг икки бараваридан ошмайдиган суммага камайтиради. | Мол-мулк солиғи | Жисмоний шахслар |
| 3. | ҚТЭМнинг умумий қуввати қуйидагича бўлган алоҳида турувчи қурилмалари билан банд бўлган ер участкаларига солиқ солинмайди: 100 кВтгача - ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил муддатга, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга; 100 кВт ва ундан кўпроқ - улар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил муддатга. | Мол-мулк солиғи | Юридик шахслар |
| 4. | Уй-жой фондининг кўчмас мулк объектларида умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМдан фойдаланувчи шахслар учун солиқ суммаси ҚТЭМ қурилмалари ўрнатилган ойдан эътиборан уч йил давомида, қуёш панеллари қувватидан 25 фоиздан кам бўлмаган қувватга эга электр энергиясини тўплаш тизими мавжуд бўлган қуёш панеллари ўрнатилганда эса мазкур панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил давомида БҲМнинг бир бараваридан ошмайдиган суммага камайтиради. | Ер солиғи | Жисмоний шахслар |

Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиб, улардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилган электр энергиясини давлат умумий тармоқларига реализация қиладиган юридик ва жисмоний шахслар учун мазкур даромадлари бўйича қуйидагича имтиёзлар жорий этилган: 2-жадвал.

2-жадвал

Қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмалари орқали ишлаб чиқарилган электр энергиясини реализация қилишдан олинган даромадларга нисбатан солиқ имтиёзлари

| № | Имтиёз тури | Имтиёз қўлланиладиган | |
|----|---|-----------------------|------------------------|
| | | солиқ тури | солиқ тўловчи-лар |
| 1. | “Яшил энергия” сертификатлари савдосидан тушган даромадлар фойда солиғини солишда ҳисобга олинмайдиган даромадлар таркибига киритилган. “Яшил энергия” сертификати- ҚТЭМдан фойдаланган ҳолда электр энергияси ишлаб чиқарилганлигини тасдиқловчи электрон ҳужжат (ЎРҚ-539-сонли, 2019). | Фойда солиғи | Юридик шахслар, ЯТТлар |
| 2. | Умумий қуввати 100 кВтгача бўлган ҚТЭМ қурилмаларидан фойдаланган ҳолда умумий тармоққа электр энергиясини реализация қилишдан олинган фойдага нисбатан фойда солиғи ставкаси “0”. 0 фоиз миқдордаги солиқ ставкаси ҚТЭМ қурилмалари фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан уч йил мобайнида, қуёш панеллари-нинг қувватига нисбатан 25 фоиздан кам бўлмаган қув-ватга эга электр энергиясини тўплаш тизими билан қуёш панеллари ўрнатилганда эса - ушбу панеллар фойдаланишга топширилган ойдан эътиборан ўн йил мобайнида қўлланилади. | Фойда солиғи | Юридик шахслар, ЯТТлар |
| 3. | Жисмоний шахсларга тегишли объектларда ўрнатилган қуёш панелларида ишлаб чиқарилган ва ўз истеъмолидан орттириб ягона электр энергетика тизимига узатилган электр энергияси учун давлат бюджетидан ажратиладиган субсидия тўловлари жисмоний шахсларнинг жами даромадлари таркибига киритилмайди. Субсидия ҳар ой якуни билан жисмоний шахслар томонидан ягона электр энергетика тизимига узатилган энергия ҳажми ва тизимдан истеъмол қилинган электр энергияси ҳажми ўртасидаги ижобий тафовут миқдоридан келиб чиқиб ҳисобланади | Даромад солиғи | Жисмо-ний шахслар |

Юқорида қайд этилган солиқ имтиёзлар таркибида жисмоний шахсларга қуёш панеллари орқали ишлаб чиқарилган электр энергиясини сотишдан олган субсидия тарзидаги даромадларига солиқ солинмаслиги (жами даромадлар таркибига киритилмаслиги)га доир имтиёзлардан фойдаланишнинг амалдаги ҳолатини таҳлил қилинганда, масалан 2025 йилнинг биринчи ярим йиллиги давомида жами 28538 нафар жисмоний шахс қуёш панелларида ишлаб чиқарилган электр энергиясини давлатга сотиш ҳисобига 63 млрд 498 млн сўм миқдорда давлат бюджетидан субсидия тарзидаги солиққа тортилмайдиган даромад олганлигини кузатиш мумкин.

Хорижий тажриба. Қайта тикланувчи энергияни фискал рағбатлантириш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси кўплаб фойдали амалиётларни намоиш этади. Ҳар бир мамлакат ўзининг иқтисодий, иқлимий ва сиёсий шароитларига мос ёндашувни танлаган. Масалан, Германияда “Renewable Energy Sources Act (EEG)” орқали “feed-in tariff” (FIT) тизими жорий этилган бўлиб, бу тизимга кўра, қайта тикланувчи энергия ишлаб чиқарувчиларга давлат томонидан кафолатланган юқори нархда электр энергиясини сотиш имконияти берилади. Ушбу тизим ишлаб чиқарувчиларга нархларнинг аниқлигини таъминлаш ва уларнинг харажатларини қоплашга ёрдам бериш орқали қуёш, шамол ва гидроэнергетика каби қайта тикланадиган манбаларга сармоя киритишни рағбатлантириш учун, одатда, 15–20 йилга мўлжалланган узоқ муддатли шартнома асосида таклиф этилади. Бундан ташқари, Германияда қайта тикланувчи энергия ускуналари учун ҚҚС имтиёзлари, фойда солиғи чегирмалари ва

инвестиция грантлари қўлланилади. Натижада мамлакатда қайта тикланувчи энергия улуши 2023 йилга келиб 50 фоиздан ошди.

Францияда қайта тикланувчи энергия ишлаб чиқарувчилар учун инвестицион субсидиялар ва электр энергиясини кафолатли нархда сотиш механизмлари мавжуд. Япония эса 2011 йилдан бошлаб Германия давлати каби “feed-in tariff” тизимини жорий қилиб, қайта тикланувчи энергия лойиҳаларига солиқ имтиёзлари, паст фоизли кредитлар ва технологик грантлар ажратмоқда.

Америка Қўшма Штатлари (АҚШ)да эса қайта тикланувчи энергияни фискал рағбатлантириш “Investment Tax Credit (ITC)” ва “Production Tax Credit (PTC)” дастурлари орқали амалга оширилади. ITC дастури асосида қуёш ёки шамол электр станциялари қурилишига сарфланган капитал харажатларнинг 30 фоизгача миқдорида солиқ чегирмаси берилади. PTC эса ишлаб чиқарилган ҳар бир киловатт-соат энергия учун белгиланган солиқ имтиёзини тақдим этади. Натижада АҚШда 2010 йилдан 2023 йилгача қуёш энергияси ишлаб чиқариш ҳажми 10 баравар ошди.

Хитой Халқ Республикасида давлат томонидан қайта тикланувчи энергияни ишлаб чиқарувчиларга катта миқдорда субсидиялар, ҚҚСни камайтириш, фойда солиғидан озод этиш каби имтиёзлар берилади. Мазкур давлатда “Green Certificate” тизими жорий этилган бўлиб, у энергия ишлаб чиқарувчиларга углерод чиқиндиларини камайтириш орқали савдо қилиш имконини беради. Натижада, Хитой 2024 йилда дунёдаги энг йирик қуёш энергияси ишлаб чиқарувчи давлатга айланди.

5. Хулоса.

Қайта тикланувчи энергия қурилмаларини ишлаб чиқариш, уларни импорт қилиш, қайта тикланувчи энергия манбаларини ўрнатиш ва улар орқали электр энергиясини ишлаб чиқаришни фискал рағбатлантириш бўйича миллий ва хорижий давлатлар амалиёти ўрганилиб, Ўзбекистон учун хорижий тажрибани қўллаш имкониятлари таҳлил қилинганда бу борада кўпгина жиҳатларда ўхшашликлар мавжудлигини, айрим имтиёзларнинг амалда қўлланилаётганлигини кўриш мумкин бўлади. Шунинг билан биргаликда, хорижий давлатларда фискал рағбатлантиришнинг айрим ўзига хос жиҳатлари, масалан, “feed-in tariff” тизими ишлаб чиқарувчиларга нархларнинг аниқлигини таъминлаш ва уларнинг харажатларини қоплашга ёрдам бериш орқали қуёш, шамол ва гидроэнергетика каби қайта тикланадиган манбаларга сармоя киритишни рағбатлантириш учун, одатда, 15–20 йилга мўлжалланган узоқ муддатли шартнома асосида таклиф этиши, қуёш ёки шамол электр станциялари қурилишига сарфланган капитал харажатларнинг 30 фоизгача миқдорида солиқ чегирмаси берилиши, ҚҚСни камайтириш каби лойиҳага лойиқдир.

Қайта тикланадиган қуёш энергетикаси қурилмалари самарадорлиги асосан энергияни сақлаш (батарея) тизимларига бевосита боғлиқ бўлиб, бу нафақат барқарор энергия таъминотини таъминлаш, балки қуёш қурилмалари самарадорлигини ҳам оширади. Шунга кўра, энергия сақлаш технологияларини қўллаб-қувватлаш, уларни импорт қилиш, ишлаб чиқариш ва харид қилинишини фискал рағбатлантириш Ўзбекистон ҳукумати учун стратегик йўналиш ҳисобланади, чунки бу қайта тикланадиган энергия манбаларини қамраб олиш ва улардан фойдаланишни кенгайтиради.

Хулоса қилиб айтганда, қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш фискал сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланиб, хорижий тажриба шуни кўрсатадики, солиқлар ва молиявий имтиёзлар орқали бу соҳада тезкор ютуқларга эришиш мумкин. Шунга кўра, Ўзбекистонда қайта тикланувчи энергияга доир солиқ имтиёзлари қўламини кенгайтириш ва мавжуд имтиёзлар қўлланилиш механизмларини такомиллаштириш мақсадида қуйидагилар таклиф этилади:

1. Мамлакатда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни адолатли ва тўлақонли рағбатлантириш, асосий мақсад энергия барқарорлигини таъминлаш ва “яшил” энергияни ривожлантириш эканлигидан келиб чиқиб, қайта тикланувчи энергия манбаларини ўрнатишга доир мулк ва ер солиқларидан қўлланилаётган имтиёзларни жисмоний шахсларнинг фақатгина уй-жой фондларига нисбатан эмас, балки нотураар объектларига нисбатан ҳам қўллаш мақсадга мувофиқ.

2. Жисмоний шахсларнинг маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқарилган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини харид қилиш йўналтирилган даромадларини, шунингдек ушбу мақсадда олинган кредитларни ва улар бўйича ҳисобланган фоизларни сўндиришга йўналтирилган даромадларини (энергия қурилмалари нархнинг маълум бир қисми миқдоридан) солиқдан озод қилиш.

3. Қуёш энергиясини сақлаш технологиялари (батареялар)ни қўллаб-қувватлаш, уларни импорт қилиш, ишлаб чиқариш ва харид қилинишини фискал рағбатлантириш мақсадида сарфланган ишлаб чиқариш харажатларининг 30 фоизгача миқдоридан солиқ чегирмаси берилиши, импорт қилишда ҚҚСни камайтириш тарзидаги имтиёзларни қўллаш лозим.

Юқорида санаб ўтилган бу чора-тадбирлар мамлакатда энергия барқарорлигини таъминлаш, “яшил” энергияга ўтиш орқали экологик хавфсизликни мустаҳкамлаш, шунинг билан биргаликда пировардида аҳоли реал даромадларининг ошишига хизмат қилади.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/docs/4674902>. Мурожаат қилинган сана 2025 йил 6 октябрь

Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида. ЎРҚ-539-сонли, 2019 йил 21 май.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисида. ПФ-158-сонли, 2023 йил 11 сентябрь

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Энергия тежовчи технологияларни жорий қилиш ва кичик қувватли қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. ПФ-220-сонли, 2022 йил 9 сентябрь.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 2019 - 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. ПҚ-4477-сонли, 2019 йил 4 октябрь

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Яшил энергия” сертификатлари тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-156-сонли, 2023 йил 12 май

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. <https://gov.uz/uz/news/view/2716> 20 сентябр 2023

Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Ташматов Ш.А., Бутабоев М.Т.. Яшил иқтисодиёт. Дарслик. – Т.: “Университет”, 2020, 296 бет.

Кормишкина Л.А., Королева Л. П. Зарубежный опыт фискального стимулирования развития возобновляемой энергетики // Финансы и кредит. - 2018. - Т. 24, № 8. - С. 1891 - 1905. <https://doi.org/10.24891/fc.24.8.1891>

Бучнев А. Регулирование и стимулирование развития возобновляемых источников энергии // Государственная служба. 2015. № 5. С. 108-111. <http://pa-journal.ranepa.ru/articles/r47/3382>

Водяников В.Т. Финансово-экономический механизм стимулирования развития возобновляемой энергетики за рубежом // Вестник Федерального государственного образовательного учреждения высшего профессионального образования Московский государственный агроинженерный университет им. В.П. Горячкина. 2014. № 3. С. 54-56. http://old.timacad.ru/deyatel/izdat/ vestnik_MGAU/nomera/3-2014.pdf

Курбатова Т.А. Экономические механизмы стимулирования развития возобновляемой энергетики в Европейском союзе // Механізм регулювання економіки. 2014. № 4. С. 139-147. URL: http://mer.fem.sumdu.edu.ua/content/acticles/issue_23/TETIANA_O_KURBA

Ратнер С.В. Финансирование проектов в области альтернативной энергетики и энергоэффективности: международный опыт и российские реалии // Финансы и кредит. 2013. № 24. С. 12-18.13.

Сушкевич Е.А. Модели государственной поддержки и стимулирования развития возобновляемой энергетики: зарубежный опыт // Актуальные вопросы экономических наук. 2013. № 29-1. С. 93-98. URL: <http://booksc.org/ireader/ 50370692>

Яшалова Н.Н. Обзор мировой и отечественной практики по экономическому стимулированию развития возобновляемой энергетики // Ученые записки Череповецкого государственного университета. 2015. № 2. С. 29-34.

Дира Д.В. Налоговое стимулирование развития альтернативной энергетики и энергосберегающих технологий в США // Экономика: теория и практика. 2011. № 3. С. 79-84.

<https://web.stanford.edu/group/efmh/jacobson/WWSBook/Countries100Pct.pdf>



ЁШЛАР ТАШКИЛОТИДА БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАЪМИНЛАШДА КАДРЛАР СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Усмонов А.А.

“International School of Finance Technology and Science” институти

Аннотация. Ушбу мақолада ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини самарали йўлга қўйишда кадрлар сиёсатининг ўрни ва аҳамияти атрофлича таҳлил қилинган. Муаллиф кадрлар сиёсати фақат маъмурий восита эмас, балки инсон капиталини ривожлантиришнинг стратегик омили эканини илмий асосда ёритиб берган. Мақолада ёшлар ташкилотларида кадрлар танлови, малака ошириш тизими, мотивация ва рақамли бошқарув каби йўналишлардаги муаммолар таҳлил қилинган ҳамда уларни бартараф этиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Шунингдек, халқаро тажрибалар билан қиёсий таҳлил асосида миллий моделни такомиллаштириш йўллари кўрсатилган.

Калит сўзлар: кадрлар сиёсати, ёшлар ташкилотлари, бошқарув тизими, мотивация, малака ошириш, инсон капитали, рақамли бошқарув.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль и значение кадровой политики в обеспечении эффективной деятельности молодежных организаций. Автор подчеркивает, что кадровая политика — это не только административный инструмент, но и стратегический фактор развития человеческого капитала. Рассмотрены вопросы отбора и подготовки кадров, мотивации, системы повышения квалификации, а также внедрения цифровых технологий в управление. На основе сравнительного анализа международного опыта предложены пути совершенствования национальной модели кадровой политики в молодежных организациях.

Ключевые слова: кадровая политика, молодежные организации, управление, мотивация, повышение квалификации, человеческий капитал, цифровое управление.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of personnel policy in ensuring effective management within youth organizations. The author argues that personnel policy should be viewed not merely as an administrative mechanism but as a strategic tool for the development of human capital. The paper examines issues related to staff selection, motivation, professional development, and the implementation of digital management systems. Based on a comparative analysis of international experience, recommendations are proposed for improving the national model of personnel policy in youth organizations.

Keywords: personnel policy, youth organizations, management, motivation, professional development, human capital, digital governance.

1. Кириш.

Бугунги глобаллашув ва рақобат кучайиб бораётган даврда ёшлар билан ишлаш, уларни ижтимоий-сиёсий ҳаётга фаол жалб этиш масаласи ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб бормоқда. Чунки ҳар қандай жамиятнинг эртанги истиқболи, иқтисодий қудрати ва маънавий барқарорлиги, аввало, ёш авлоднинг салоҳияти ва фаоллигига боғлиқдир. Шу жиҳатдан олганда, ёшлар ташкилотлари нафақат ёшларни бирлаштирувчи ижтимоий тузилма, балки уларнинг манфаатларини ифода этувчи ва давлат ҳамда жамият ўртасида кўприк вазифасини бажарувчи муҳим институт сифатида майдонга чиқмоқда.

Ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини самарали йўлга қўйиш, энг аввало, пухта ўйланган кадрлар сиёсати билан чамбарчас боғлиқдир. Чунки ҳар қандай стратегик мақсад ёки дастур, уни амалга оширувчи малакали ва фидойи кадрлар бўлмаса, қоғозда қолиб кетади. Шундай экан, ёшлар сиёсатини изчил амалга ошириш, уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва ташкилотлар фаолиятини кучайтириш учун кадрлар сиёсатини шакллантириш долзарб масалага айланган.

Ҳозирги кунда кадрлар танлаш, уларни тайёрлаш, рағбатлантириш ва жой-жойига қўйиш тизимини такомиллаштириш зарурати тобора кучаймоқда. Ёшлар ташкилотларининг бошқарув тизими ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, унда нафақат раҳбарлик қобилияти, балки психологик ёндашув, коммуникатив маҳорат ва ижтимоий фаоллик ҳам муҳим рол ўйнайди. Шунинг учун бу соҳада кадрлар сиёсати фақат бошқарув лавозимларига тайинлаш билан чекланмасдан, балки ёшларни етакчиликка тайёрлаш, уларнинг масъулиятини ошириш, ижтимоий мотивациясини кучайтириш каби комплекс ёндашувни талаб этади.

Мазкур мавзунинг долзарблиги шундан иборатки, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатини шакллантириш жараёни бевосита давлатнинг ёшларга оид сиёсатини амалга ошириш самарадорлигини белгилайди. Агар бу тизим изчил, илмий асосланган ва амалиётга мос равишда йўлга қўйилса, ёшлар фаоллиги ортади, уларнинг ижтимоий ролини мустаҳкамловчи янги механизмлар пайдо бўлади. Шу сабабли, бугунги кунда ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини таъминлашда кадрлар сиёсатини тўғри шакллантириш нафақат ички бошқарувни кучайтириш, балки бутун жамиятнинг ижтимоий ривожланишига ҳам хизмат қилади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини самарали йўлга қўйиш ва бу жараёнда кадрлар сиёсатини шакллантириш масаласи илмий адабиётларда турли йўналишларда тадқиқ этилган. Айниқса, сўнгги йилларда бу мавзу мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшлар сиёсати ислохотлари билан бевосита боғланиб кетмоқда. Илмий манбаларда “кадрлар сиёсати” тушунчаси фақатгина раҳбарларни танлаш ёки тайинлаш тизими эмас, балки кадрларни тайёрлаш, малакасини ошириш, уларнинг ижтимоий фаоллигини рағбатлантиришни ўз ичига оладиган кенг қамровли жараён сифатида таърифланади (Ҳамидов, 2020).

Кадрлар сиёсатининг ёшлар ташкилотлари фаолиятидаги ўрни ва таъсири ҳақида бир қатор тадқиқотларда фикрлар баён этилган. Масалан, А. Раҳимов (2019) ўзининг “Ёшлар сиёсати ва унинг ижтимоий аҳамияти” номли монографиясида кадрлар сиёсати самарадорлиги ёшларнинг шахсий салоҳиятини тўғри баҳолаш ва уларни мансабга тайёрлаш тизимига боғлиқлигини таъкидлайди.

Шу билан бирга, Ж. Муродова (2021) томонидан ёзилган “Замонавий раҳбарлик компетенцияларини шакллантиришда кадрлар сиёсатининг роли” асарида ёш кадрларнинг фаолият самарадорлиги бошқарув психологияси, мотивация ва ташкилот ичидаги коммуникация маданияти билан узвий боғлиқ эканлиги таъкидланади. Муаллифнинг фикрича, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатини тўғри йўлга қўйиш

раҳбарлик салоҳиятини ошириш билан бирга, ижтимоий адолат ва имкониятлар тенглигини таъминлайди.

Бундан ташқари, профессор Б. Бобожонов (2022) томонидан олиб борилган тадқиқотда ёшлар ташкилотларида кадрлар тайёрлашнинг ҳуқуқий ва институционал асослари ёритилган бўлиб, у бу тизимни давлат сиёсатининг узвий қисми сифатида баҳолайди. Шу каби илмий ишлар ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати масаласига назарий ва амалий жиҳатдан ёндашишнинг муҳимлигини кўрсатади.

Сўнгги йилларда хорижий тадқиқотларда ҳам ёшлар ташкилотлари ва кадрлар сиёсати бўйича янги илмий ёндашувлар шаклланди. Масалан, Э. Дэвид (2024) HRM амалиётини ёшлар ташкилотларига татбиқ этиш орқали самарадорликни ошириш усуллари таҳлил қилинган. Муаллиф HR бўлими фаолиятини стратегик бошқарувнинг асосий бўғини сифатида баҳолайди.

Британ олимаси Сюзан Фокс (2017) ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати орқали инсон капитали ривожланишининг ижтимоий таъсирини таҳлил қилган. Унга кўра, ёшлар ташкилотлари инсон ресурсларини бошқаришнинг инновацион лабораторияси сифатида ишлаши керак, чунки ёшлар бу жараёнда нафақат ижрочи, балки ташаббускор субъектлар сифатида ҳам иштирок этадилар.

Ф. Оконго ва бошқалар (2024) тадқиқотида эса ёшлар ташкилотларида инсон ресурслари ривожланиши билан самарадорлик ўртасидаги узвий боғлиқлик таҳлил қилинган. Муаллифлар стратегик режалаштириш ва кадрлар ривожланиши сиёсатини тўғри йўлга қўйиш орқали ташкилот самарадорлигини ошириш мумкинлигини исботлайди.

Шунингдек, И. Салифу (2025) тадқиқотида HRM амалиётини маҳаллий контекстга мослаштириш масаласи ёритилган. Унда HR моделларини маданий ва иқтисодий муҳитга мослаштиришнинг муҳимлиги таъкидланган.

Осиёдаги илмий тадқиқотларда ҳам мазкур мавзулар кенг ёритилмоқда. Масалан, Ф.К. Суданнинг (2023) мақоласида ёшлар бандлигини оширишда кадрлар сиёсати ва касбий таълимнинг ўзаро таъсири таҳлил қилинган бўлса, Б. Теофилович ва М. Старчевичлар (2024) эса ёш раҳбарларнинг инновацион фикрлаш қобилиятини ривожлантиришда кадрлар сиёсати ҳал қилувчи аҳамият касб этиши илмий асосда ёритилган.

Шунингдек, малайзиялик тадқиқотчилар А.А. Мд Рами ва И.А. Исмаилнинг (2024) тадқиқоти ёшлар раҳбарлигининг замонавий атрибутлари — коммуникация, ахлоқий масъулият ва стратегик фикрлаш қобилияти каби хусусиятларнинг ёшлар ташкилотлари фаолиятидаги аҳамиятини очиб беради.

Шундай қилиб, хорижий ва маҳаллий тадқиқотлар таҳлилидан кўриниб турибдики, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатини шакллантириш масаласи нафақат бошқарув самарадорлигига, балки жамиятнинг барқарор ривожланишига ҳам бевосита таъсир кўрсатади. Бу мавзунини янада чуқурроқ ўрганиш ёшлар сиёсати ва бошқарув соҳасидаги илмий ва амалий ишланмаларни бойитади.

3. Тадқиқот методологияси.

Илмий тадқиқотни амалга оширишда синтез, қиёсий таҳлил, SWOT таҳлил каби усуллардан фойдаланилган. Шунингдек, ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини таъминлашда кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг долзарблиги кўрсатиб бериш мақсадида амалдаги қонунчилик ҳужжатлари, хорижий тажриба таҳлил қилинди ва ёшлар ишлари агентлигининг расмий статистик маълумотларидан фойдаланилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Тадқиқот жараёнида ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини самарали таъминлашда кадрлар сиёсатининг тутган ўрни ва унинг таъсир механизми

атрофлича таҳлил қилинди. Ушбу жараёнда назарий манбалар, амалиётдаги тажрибалар ҳамда ёшлар ташкилотларининг ички бошқарув тизимлари ўрганилиб, муаммолар ва имкониятлар тизимли равишда баҳоланди.

Биринчи навбатда, таҳлиллар шундан далолат бердики, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати, аксар ҳолларда, ҳали ҳам анъанавий маъмурий ёндашув асосида амалга оширилади. Яъни кадрлар билан ишлаш тизими кўпинча лавозимга тайинлаш, иш вазифаларини тақсимлаш ва ҳисобот бериш билан чекланиб қолмоқда. Бу ҳолат кадрлар салоҳиятидан самарали фойдаланишга тўсиқ бўлмоқда. Ҳолбуки, замонавий бошқарувда кадрлар сиёсати — инсон капитални ривожлантириш ва ташкилот стратегиясининг асосий қисмини ташкил этадиган комплекс тизим ҳисобланади.

Таҳлил давомида маълум бўлдики, айрим ёшлар ташкилотларида кадрлар танлови шаффофлиги етарли эмас, раҳбар кадрларни танлашда салоҳият ва малакадан кўра шахсий тавсия ёки ташқи омиллар таъсири устун келади. Бу эса ёш кадрлар орасида ишончсизликни кучайтиради ва ташкилотнинг ички муҳитини заифлаштиради.

Шу билан бирга, ёшлар ташкилотларида кадрлар тайёргарлиги ва малака ошириш тизими етарли даражада йўлга қўйилмаган. Аниқланишича, кўплаб ташкилотларда раҳбар ёки масъул ходимлар фаолияти бошлангандан сўнггина тажриба орттириш имкониятига эга бўлади. Бу эса бошқарув самарадорлигини секинлаштиради.

Мотивация масаласи ҳам муҳим таҳлил нуқтаси бўлди. Ёшлар ташкилотларида фаолият юритувчи кадрлар орасида моддий рағбат билан бирга маънавий ва ижтимоий эътироф ҳам катта аҳамиятга эга экани маълум бўлди. Бироқ амалда бу элементлар ҳар доим ҳам бир хил қўлланилмайди. Айниқса, жамоавий фаолиятда мукофотлаш ёки ижтимоий тан олиш тизими йўқлиги баъзан кадрлар ичида рақобат эмас, бепарқликни келтириб чиқаради.

Шунингдек, ташкилот ичидаги бошқарув коммуникацияси кўп ҳолларда бир йўналишли бўлиб, раҳбардан аъзоларга топшириқ бериш шаклида намоён бўлади. Бу эса жамоавий фикрлаш, ташаббусни қўллаб-қувватлаш ва ёшлар ўртасида ижодий муҳитни ривожлантиришга тўсқинлик қилади. Демак, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати фақат ташкилий ёки маъмурий восита эмас, балки ижтимоий психология ва коммуникациянинг ҳам муҳим қисми сифатида кўрилиши лозим.

1-жадвалда ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини таъминлашда кадрлар сиёсатини шакллантириш бўйича SWOT таҳлил амалга оширилди. Таҳлил амалий ва илмий нуқтаи назардан тузилган бўлиб, кучли ва заиф жиҳатлар, имкониятлар ҳамда таҳдидлар тизимли равишда ёритлди.

SWOT таҳлил натижалари шундан далолат берадики, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатини самарали шакллантириш учун асосий вазифа — мавжуд кучли жиҳатлардан фойдаланиб, заиф нуқталарни бартараф этишдир. Имкониятлар (масалан, давлат дастурлари ва халқаро ҳамкорлик)дан самарали фойдаланиш орқали кадрлар сиёсати барқарор тизимга айланиши мумкин. Бироқ таҳдидлар — яъни ишсизлик, малака етишмаслиги ва кадрлар миграцияси каби омиллар эътиборсиз қолдирилса, тизимдаги барқарорлик издан чиқиши эҳтимоли юқори.

Шу сабабли, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатига қуйидаги стратегик ёндашув тавсия этилади:

1. Танлов ва баҳолашда очиқ электрон платформаларни жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу ёш кадрлар учун тенг имкониятлар яратиш, танлов жараёнида шаффофлик ва жамоатчилик назоратини таъминлайди.

2. HR соҳасида рақамли мониторинг тизимини ишлаб чиқиш лозим. Ушбу тизим ёрдамида кадрлар салоҳияти, фаолият натижалари ва хизмат йўналишлари ҳақида реал вақтда маълумот олиш имкони яратилади.

3. Ёш раҳбарлар учун мунтазам малака ва лидерлик курсларини ташкил этиш керак. Бундай курслар ёш кадрларни стратегик фикрлаш, жамоа бошқаруви ва инновацион ечимлар қабул қилиш қобилияти билан таъминлайди.

4. Кадрлар сиёсати самарадорлигини ҳар йили таҳлил қилиш ва очиқ ҳисобот бериш тизимини йўлга қўйиш зарур. Бу ёшлар ташкилотларида фаолият натижаларини баҳолаш, камчиликларни аниқлаш ва келгуси йил учун аниқ стратегик вазифалар белгилаш имконини беради.

Амалиётдаги маълумотлар шуни кўрсатадики, сўнги йилларда давлат сиёсати доирасида ёшлар кадрларини қўллаб-қувватлаш, малака ошириш ва уларни раҳбарлик лавозимларига тайёрлашга қаратилган чора-тадбирлар кучайган. Масалан, “Ёшлар — келажагимиз”, “Ёшлар дафтари”, “Ташаббускор ёшлар” каби дастурлар орқали кўплаб ёшлар раҳбарлик салоҳиятини ривожлантириш имкониятига эга бўлди. Бироқ бу дастурларнинг самарадорлиги, айниқса, узлуксиз кадрлар сиёсати нуқтаи назаридан, ҳали ҳам тўлиқ таъминланмаган.

1-жадвал

Ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати ҳолатининг SWOT таҳлили

| Мезон | Таҳлил |
|----------------------------|--|
| S — Кучли томонлари | <ol style="list-style-type: none"> 1. Ёшлар ташкилотлари тизимида кадрлар сиёсати давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида қўллаб-қувватланмоқда. 2. Ёш кадрлар жамоатчилик ишларига фаол жалб этилиб, лидерлик қобилиятини намоён қилиш имконияти берилмоқда. 3. Кўплаб ташкилотларда ёш мутахассислар учун малака ошириш, семинар ва тренинглар йўлга қўйилган. 4. Ёш кадрлар орасида ижтимоий фаоллик ва ташаббускорлик даражаси юқори. 5. Давлат грантлари ва “Ёшлар — келажагимиз” дастури орқали молиявий қўллаб-қувватлаш тизими шаклланмоқда. |
| W — Заиф томонлари | <ol style="list-style-type: none"> 1. Кадрлар танлови ва ишга жойлаштириш жараёнларида шаффофликнинг етишмаслиги. 2. Мотивация тизимида моддий ва маънавий рағбатлантириш ўртасида мувозанат йўқлиги. 3. Малака ошириш тизими узлуксиз эмас, айрим ташкилотларда формал тусда. 4. Рақамли HR бошқарув тизимлари ҳали тўлиқ жорий этилмаган. 5. Ёш раҳбарларнинг бошқарув психологияси ва коммуникация кўникмалари етарлича ривожланмаган. |
| O — Имкониятлар | <ol style="list-style-type: none"> 1. Ёшлар сиёсати соҳасидаги давлат стратегиялари (масалан, “2030 йилгача ёшлар ривожланиш стратегияси”) кадрлар сиёсати учун янги имкониятлар очмоқда. 2. Халқаро ташкилотлар (UNDP, UNESCO, JICA ва бошқалар) билан ҳамкорликда ёшлар учун малака ва лидерлик дастурлари йўлга қўйилмоқда. 3. HR менежмент соҳасида рақамли технологияларни жорий этиш имкониятлари кенгаймоқда. 4. Илмий-тадқиқот институтлари ва олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик асосида кадрлар тайёрлашни кучайтириш мумкин. 5. Ёшлар фаолиятини баҳолаш ва рейтинг тизимларини жорий этиш орқали самарадорликни ошириш имкони мавжуд. |
| T — Таҳдидлар | <ol style="list-style-type: none"> 1. Ёшлар ўртасида ишсизлик даражасининг ортиши кадрлар захирасини чеклаб қўйиши мумкин. 2. Ташкилотлар ичидаги сиёсий ёки шахсий манфаатлар кадрлар сиёсатида субъектив қарорлар қабул қилинишига олиб келиши эҳтимоли бор. 3. Таълим тизимидаги амалиёт ва бозор талаблари ўртасидаги фарқ кадрлар сифатини пасайтиради. 4. Кадрлар сиёсатига оид норматив-ҳуқуқий базанинг тез ўзгариши амалий тизимни мослашишга мажбур этади. |

Таҳлил натижалари кўра кадрлар сиёсати самарадорлиги кўп жиҳатдан раҳбарнинг шахсий компетенцияларига боғлиқ. Яъни раҳбар ёш кадрларни тинглайдиган, уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлайдиган ва замонавий

бошқарув усулларини қўллайдиган даражада бўлиши керак. Мана шундай ёндошув бор жойда ташкилот фаолиятида ижтимоий фаоллик ва ижодкорлик кянада ривожланади.

Шу билан бирга, таҳлил жараёнида халқаро тажрибалар ҳам ўрганилди. Масалан, Zhao ва бошқалар (2025) платформа асосида HRM усулларини Малайзия ва бошқа давлатларда талқин қилиб, ушбу йўналишда мослашувчан кадрлар танлови, мустақил меҳнат фаолиятини режалаштириш ва ходимларни руҳлантириш орқали ривожлантириш элементлари билан ходимларга рақамли имкониятлар яратилишини кўрсатган. Малайзияда ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати “инсон ресурсларини ривожлантириш стратегияси” билан интеграция қилинган бўлиб, ҳар бир ёш ходим учун шахсий ривожланиш режаси тузилади. Буюк Британияда эса, масалан, Amazonнинг рақамли технологияларини HR жараёнларига жорий этиши HR амалиётларининг рақамли трансформациясини амалий мисол сифатида келтирилади (Journo Portfolio Media, 2024). Британияда ёшлар ташкилотлари HRни рақамли платформа орқали юритади — бу платформалар орқали ходимнинг малакаси, фаолияти ва мотивация даражаси доимий равишда баҳолаб борилади (2-жадвал)

2-жадвал

Ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати бўйича халқаро тажрибанинг қиёсий таҳлили

| Давлат | Кадрлар тайёрлаш тизими | Мотивация модели | Бошқарув усули |
|---------------|---|---------------------------------------|---------------------------------|
| Ўзбекистон | Малака ошириш марказлари мавжуд, аммо узлуксиз эмас | Моддий рағбат ва жамоавий мукофот | Маъмурий-бошқарувчи тизим |
| Малайзия | Шахсий ривожланиш картаси орқали индивидуал ёндашув | Маънавий рағбат ва ижтимоий эътироф | HRM рақамли платформаси асосида |
| Буюк Британия | Тизимли тренинг ва онлайн баҳолаш | Ташаббускорликка асосланган мотивация | Инновацион ва жамоавий бошқарув |

Ўзбекистонда ҳам бундай тизимни жорий этиш имконияти мавжуд. Бунинг учун ёшлар ташкилотлари кадрлар сиёсатида учта йўналишни устувор деб билиш мумкин:

1. Ҳар бир лавозимга танлов шаффоф ва очиқ маълумотлар базаси асосида амалга оширилиши лозим. Бунинг ёрқин мисоли сифатида Давлат фуқаролик хизмати вакант лавозимларининг ягона очиқ портали — <https://vacancy.argos.uz/> фаолиятини келтириш мумкин. Ушбу платформа орқали давлат ташкилотларидаги бўш иш ўринлари ҳақидаги маълумотлар очиқ эълон қилинади, номзодлар онлайн тарзда ҳужжат топшира олади ва танлов жараёнларини шаффоф равишда кузатиш имкониятига эга бўлади. Бу тизим ёшлар учун катта имконият яратиб, кадрлар сиёсатида адолат ва очиқлик принципларини амалга оширишга хизмат қилади.

Шу билан бирга, мазкур портал фаолиятида айрим муаммолар ҳам мавжуд. Хусусан, суҳбат жараёнида иш берувчи комиссия аъзоларининг шахсий иштирок этиши натижасида инсон омили таъсири кучли сақланиб қолмоқда. Амалда бу шундай ҳолатга олиб келадики, айрим ҳолларда иш берувчи субъектив фикр асосида номзодни баҳолаши ёки ҳеч қандай мезонсиз саволлар бериш эҳтимоли юзага келади. Бу эса муносиб номзодлар билан адолатсиз муносабатда бўлиш хавфини оширади ва “шаффоф танлов” тамойилининг амалда тўлиқ таъминланмаганини кўрсатади.

Демак, мамлакатда кадрлар сиёсати соҳасида рақамли ислохотлар амалга оширилаётган бўлса-да, унинг адолатли, стандартлаштирилган ва инсон омили таъсиридан холи бўлган шаклда амалга ошириш учун қўшимча чоралар зарур. Айниқса, ёшлар ташкилотларида кадрлар танлови жараёнини автоматлаштириш ва баҳолаш

мезонларини рақамли платформа орқали белгиллаш тизимнинг ҳақиқий самарадорлигини таъминлайди.

2. Малака ва лидерлик салоҳиятини ошириш учун аниқ механизмлар яратилиши керак. Ёш кадрлар учун мунтазам тренинглари, малака ошириш курслари, хорижий тажриба алмашинуви дастурлари йўлга қўйилиши мақсадга мувофиқ.

3. Мотивация ва ижтимоий эътироф тизимини тўғри йўлга қўйиш лозим. Моддий мукофот билан бирга, маънавий тан олиш тизимини ҳам жорий этиш, яъни фаол ёшларни жамоа олдида эътироф этиш тизимини самарли ташкил этилса, фаолият самарадорлиги ошишига эришилади.

Натижада, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати тўғри шаклланданда, нафақат бошқарув самарадорлиги ошади, балки ёшларнинг ташаббускорлиги, ижтимоий фаоллиги ва жамоавий масъулияти ҳам кучаяди. Бу эса ўз навбатида давлатнинг ёшлар сиёсати самарадорлигига, шу билан бирга жамиятда барқарор фуқаролик маданиятининг ривожланишига хизмат қилади.

5. Хулоса.

Ёшлар ташкилотларида бошқарув фаолиятини таъминлашда кадрлар сиёсатини тўғри шакллантириш ҳолати фақат маъмурий ёки ташкилий вазифа эмас, балки стратегик аҳамиятга эга ижтимоий жараён дир. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, кадрлар сиёсати самарадорлиги ёшлар фаолиятини рағбатлантириш, уларнинг раҳбарлик салоҳиятини ривожлантириш ва жамиятда фаол фуқаролик позициясини шакллантиришда ҳал қилувчи омил бўлиб хизмат қилади.

Замонавий ёшлар ташкилотларида кадрлар билан ишлаш тизими узлуксиз равишда такомиллашиб бормоқда, аммо амалиётда бир қатор муаммолар ҳам сақланиб қолмоқда. Хусусан, кадрлар танлови ва тайёргарлик жараёнларида шаффофликнинг етишмаслиги, мотивация тизимининг сустлиги, малака ошириш дастурларининг узвий эмаслиги каби омиллар ташкилот самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бу ҳолат кадрлар сиёсатига тизимли ва илмий асосланган ёндашув зарурлигини яна бир бор тасдиқлайди.

Таҳлил шуни кўрсатадики, кадрлар сиёсатини замонавий HR бошқарув тамойиллари асосида йўлга қўйиш ёшлар ташкилотларининг ички имкониятларини тўлиқ рўёбга чиқаришга хизмат қилади. Бунинг учун инсон капиталига сармоя киритиш, раҳбар кадрларни тайёрлаш ва мотивация механизмларини янгилаш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, рақамли HR тизимларини жорий этиш ва ҳар бир ёш ходим учун шахсий ривожланиш йўналишини белгилаш ёшлар ташкилотлари фаолиятини янада самарали ва очиқ-ошкора этиш имконини беради.

Ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсати нафақат ташкилот ички бошқарувини, балки жамиятнинг интеллектуал ва маънавий салоҳиятини белгилайди. Шу сабабли, уни шакллантиришда давлат сиёсатининг устувор йўналишлари, халқаро тажрибалар ва миллий қадриятлар ўзаро уйғун ҳолда ҳисобга олиниши лозим. Бу тизимда ҳар бир ёш инсоннинг имкониятини тўлиқ намоён этиш, унинг билим ва маҳоратини жамият фойдасига йўналтириш асосий мақсад бўлиши керак.

Шундай қилиб, ёшлар ташкилотларида кадрлар сиёсатини такомиллаштириш келажакни бошқаришнинг муҳим бўғинидир. Агар кадрлар сиёсати адолат, шаффофлик ва малакага таянилган ҳолда йўлга қўйилса, ёшлар фаоллиги ошади, раҳбарлик тизимида сифат ўзгариши содир бўлади, жамиятда эса ишонч ва барқарорлик муҳити қарор топади. Шу маънода, кадрлар сиёсати ёшлар ташкилотининг юраги, унинг ритми эса мамлакат тараққиётининг умумий суръати билан ҳамоҳанг бўлиши зарур.

Адабиётлар:

Ahmad A. M. R.; Ismail I. A.; Arshad M. M.; Zulkifly N. A. (2024). Expanding Views of Youth Leadership: The Key Attributes Contributing to the Success of Youth Leadership // ResearchGate Indexed Paper. P. 1–12.

David E. (2024). Implementation of Human Resource Management to Improve the Performance of Youth Organizations in Port Moresby // JAMREMS: Journal of Arts, Management, Research and Education Studies. -Vol. 9, No. 2. — P. 15–24.

Fox S. (2017). Youth Leadership and Human Capital Development. - London: Routledge, . - 234 p.

Okongo F. O.; Riungu F.; Nzioki S. (2024). Human Resource Development and Organisational Performance in Government-Sponsored Youth Empowerment Organizations in Kenya // SBSEE Journal (Social, Behavioural and Economic Studies and Education). - Vol. 5, No. 1. — P. 34–42.

Salifou I. (2025). Adaptation of Human Resource Management in the Effectiveness of Youth Organization Performance in Abuja // Journal Dimensie Management and Public Sector. -Vol. 4, No. 1. — P. 67–76.

Sudan F. K. (2023) Leveraging Youth Employment Through Human Resource Practices and Vocational Education in Asia // Global Economics Science. - Vol. 3, No. 2. — P. 55–68.

Teofilovic B.; Starcevic M. (2024). Developing Future Leaders: The Role of Human Resources in Fostering Innovative Leadership // Science International Journal. Vol. 7, No. 1. - P. 89–97.

The Impact of Digital Technology on H.R. Practices at Amazon U.K. — London: Journo Portfolio Media, 2024. — 15 p. — URL: <https://media.journoportfolio.com/users/157367/uploads/3fedebb0-ee09-4b7f-8c5b-3b2c79f59b4c.pdf>

Zhao Y., Li H., Wang S. (2025). Platform-Based Human Resource Management Practices // Sustainability. — Basel: MDPI, Vol. 17, No. 13. — P. 5762–5778. — DOI: 10.3390/su17135762

Бобожонов Б. (2022) Ижтимоий бошқарув тизимида кадрлар сиёсатининг самарадорлиги // Жамият ва бошқарув. -№3.Б. 45–53.

Муродова Ж. (2021). Замонавий раҳбарлик компетенцияларини шакллантиришда кадрлар сиёсатининг роли. -Тошкент : Фан нашриёти, . — 198 б.

Раҳимов А. (2019). Ёшлар сиёсати ва унинг ижтимоий аҳамияти. — Тошкент : Академнашр, - 210 б.

Ҳамидов И. (2020). Давлат бошқарувида кадрлар сиёсати ва унинг ижтимоий функциялари. — Тошкент : Иқтисодий фанлар нашриёти, - 256 б.



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ